


G'. RAHMONBERDIYEV, T. DO'STMURODOV,  
A. SIDIQOV

# FIZIK VA KOLLOID KIMYODAN MASALALAR





327

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI

G'. RAIIMONBERDIYEV, T. DOSTMURODOV,  
A. SIDIQOV

## FIZIK VA KOLLOID KIMYODAN MASALALAR

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi  
tomonidan o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan

Toshkent - 2006



**G. Rahmonberdiyev, T. Do'stmurodov, A.S. Sidiqov.** Fizik va kolloid kimyodan masalalar. T., «Fan va texnologiya», 2006, 192 bet.

Ushbu o'quv qo'llanma namunaviy dastur asosida yozilgan. Unda fizik va kolloid kimyoning asosiy mavzulari yuzasidan misol va masalalar yechishga doir uslubiy ko'rsatmalar hamda mustaqil ishlash uchun misol va masalalar to'plami keltirilgan.

O'quv qo'llanma fizik va kolloid kimyo fanlarini o'rganadigan bakalavriyatning barcha yo'nalishlari talabalariga mo'ljallab yozilgan.

**Taqrizchi:** R.S.Tillayev — O'zbekiston Milliy  
Universitetining «Fizik va kalloid kimyo»  
kafedrasi mudiri, professor

**ISB N 978-9943-10-013-8**

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2006 y.

## SO'Z BOSHI

Misol va masalalar yechish "Fizik va kolloid kimyo" fanini o'rganish jarayonida va talabalarning mustaqil ishlarni tashkil qilishda muhim amaliy mashg'ulot hisoblanadi. Fanning har bir bo'limini o'rgangandan so'ng, shu bo'limga oid misol va masalalar yechilsa, olingan nazariy bilim mustahkamlanadi, talabaning mustaqil mulohaza yuritish va fikr-lash qobiliyatি o'sadi.

Ushbu uslubiy qo'llanma bakalavrlar tayyorlash uchun o'quv reja va dasturlar asosida yozilgan bo'lib, fizik va kolloid kimyo fanini o'rganadigan yo'nalishlar talabalarini bilimlarini oshirishga va mustahkamlashga, iqtidorli talabalar bilan auditoriyadan tashqari mashg'ulot o'tkazish hamda kimyo olimpiadalariga ularni tayyorlashga mo'ljallangan.

Qo'llanmada, namunaviy dasturga muvofiq fizik va kolloid kimyo ning muhim mavzulari yuzasidan misol va masalalar tanlangan hamda tuzilgan. Talabalarning misol va masalalarni qiyinchiliksiz yechishlarini ta'minlash maqsadida, har bir mavzu yuzasidan qisqacha nazariy ma'lumot, masalalar yechish uslublari ko'rsatilgan, misollardan namunalar va mustaqil ishlash uchun misol va masalalar to'plami keltirilgan.

## I bob. ASOSIY GAZ QONUNLARI

Gazning holati uning harorati ( $T$ ), bosimi ( $R$ ) va hajmi ( $V$ ) bilan ifodalanadi. Agar gazning harorati  $273^{\circ}\text{K}$  ga, bosimi esa normal atmosfera ( $101,325 \text{ kPa}$  yoki  $760 \text{ mm. sim. ust.}$ ) bosimiga teng bo'lsa, gazning bunday sharoitiga – normal sharoit deyiladi. Shu sharoitdagi hajm  $V_0$ , bosim  $P_0$  va harorat  $T_0$  bilan belgilanadi.

Haroratning xalqaro o'lchov birligi sifatida SI sistemasida 1 kelvin ( $\text{K}$ ) qabul qilingan. Haroratni amalda o'lchashda Selsiy ( $^{\circ}\text{C}$ ) darajalari dan foydalaniladi:

$$1 \text{ Selsiy daraja} = 1^{\circ} \text{ t.}$$

Kelvin shkalasi bilan Selsiy shkalasi orasida:  $T=273,15+t$  bog'lanish mavjud.

Gazning bosimi SI sistemada Paskal bilan ifodalanadi.

1 paskal ( $\text{Pa}$ )  $1 \text{ m}^2$  sirtga 1 Nyuton ( $1 \text{ H}$ ) kuch ta'sir etganida namoyon bo'ladigan bosimni ko'rsatadi:

$$R = 1 \text{ N} / 1 \text{ m}^2 = \text{N/m}^2 = 1 \text{ Pa}, \quad 1000 \text{ Pa} = 1 \text{ kilopaskal (kPa).}$$

Hajmni o'lchash uchun SI sistemasida  $\text{m}^3$  qabul qilingan. Amalda litr ( $1 \text{ dm}^3$ ), millilitr ( $1 \text{ sm}^3$ ) lardan,  $\text{m}^3$  lardan foydalaniladi:

$$1 \text{ l} = 1 \text{ dm}^3 = 1 \cdot 10^{-3} \text{ m}^3 \text{ dan foydalanish mumkin. } 1 \text{ ml} = 10^{-6} \text{ m}^3 \text{ yoki } 1 \text{ ml} = 1 \text{ sm}^3.$$

Ishlab chiqarish sharoitida va aniq hisoblashlar kerak bo'lmaganda, gazlar bilan olib boriladigan hisoblashlarda ideal gaz qonunlaridan foydalanish mumkin. Ideal gaz deganda, molekulalari bir-biridan birmuncha uzoq masofada bo'lib, molekulalararo tortishish kuchlari juda kichik bo'lgan gaz holatini tushunish kerak. Real gazlar normal sharoitda ideal gaz holatida bo'la olmaydi, faqat yuqori harorat va past bosimda real gazlar ideal gazlar holatiga erishadi. Ishlab chiqarishdagi kimyoviy jarayonlarda gazlar past bosim va yuqori haroratda ishlaganda ideal gaz qonunlaridan foydalaniladi. Boyle-Mariott qonuniga muvofiq, o'zgarmas gaz massasining o'zgarmas haroratdagi hajmi uning bosimiga teskari mutanosib bo'ladi:

$$\text{PV} = \text{const} \text{ yoki } P_1 / P_2 = V_2 / V_1 \\ (\text{V}=\text{const}, \text{ m} = \text{const}) \quad (1.1)$$

O'zgarmas haroratda berilgan gazning zichligi ( $\rho$ ) va konsentratsiyasi (S) bosim (R) ga mutanosib:

$$\rho_1 / \rho_2 = P_1 / P_2 \quad (1.2)$$

$$C_1 / C_2 = P_1 / P_2 \quad (1.3)$$

1. Gey-Lyussak va Sharl qonunlariga muvofiq, gaz massasining o'zgarmas bosimdagi hajmi gazning mutlaq haroratiga to'g'ri mutanosib bo'ladi:

$$V_1 / V_2 = T_1 / T_2 \quad (P = \text{const}, m = \text{const}) \quad (1.4)$$

O'zgarmas bosimda berilgan gaz massasining hajmi mutlaq haroratga to'g'ri mutanosib bo'ladi:

$$V_1 / T_1 = V_2 / T_2 = V_3 / T_3 = \dots = V_k / T_k \quad (1.5)$$

Shuningdek, o'zgarmas hajmda berilgan gaz massasining bosimi mutlaq haroratga to'g'ri proporsional bo'ladi:

$$P_1 / T_1 = P_2 / T_2 = P_3 / T_3 = \dots = R_k / T_k \quad (1.6)$$

O'zgarmas bosimda gazning zichligi va konsentratsiyasi mutlaq haroratga teskari mutanosib bo'ladi:

$$C_1 / C_2 = T_2 / T_1 \quad \text{va} \quad P_1 / P_2 = T_2 / T_1 \quad (1.7)$$

$$C_1 / C_2 = T_2 / T_1 \quad (1.8)$$

2. Shuningdek, Gey-Lyussak qonuniga muvofiq o'zgarmas gaz massasining o'zgarmas hajmdagi bosimi gazning mutlaq haroratiga to'g'ri mutanosib bo'ladi:

$$P_1 / P_2 = T_1 / T_2 \quad (V = \text{const}, m = \text{const}) \quad (1.9)$$

Ideal gaz qonunlaridan foydalaniib: 1) hajm va harorat o'zgarganda bosim; 2) bosim va harorat o'zgarganda hajm; 3) bosim va hajm o'zgarganda zichlik hamda konsentratsiyalarni aniqlash mumkin.

3. Agar o'zgarmas gaz massasining hajmi, bosimi va harorati o'zgarsa, bu uch xossa orasidagi bog'lanish Klapeyron tenglamasi bilan ifodalaniladi:

$$P_1 V_1 / T_1 = P_2 V_2 / T_2 \quad (m = \text{const}) \quad (1.10)$$

bu yerda:  $P_1 V_1 T_1$  — gazning dastlabki bosimi, hajmi va harorati;  $P_2 V_2 T_2$  — gazning boshqa holatdagi bosimi, hajmi va harorati.

Klapcyron tenglamasidan foydalanib, gazning normal sharoitdagi ( $T_0 = 273 \text{ K}$ ,  $P_0 = 101325 \text{ Pa}$ ) hajmini hisoblash mumkin:

$$\frac{P_0 \cdot V_0}{T_0} = \frac{PV}{T} \quad \text{bundan} \quad V_0 = \frac{T_0 \cdot P \cdot V}{P_0 \cdot T} \quad \text{yoki} \quad \frac{P_0 \cdot V_0}{T_0} = R$$

$R$  — universal gaz doimisi.

4. Avogadro qonuniga muvofiq bir xil sharoitda (bir xil harorat va bir xil bosimda) va barobar hajmda olingan turli gazlarning molekulalari soni barobar bo'ladi.

Avogadro qonunidan uchta xulosa kelib chiqadi:

1) oddiy gazlarning (kislород, vodorod, azot, xlor) molekulalari ikki atomdan iborat;

2) normal sharoitda (273K va 101, 325 kPa) 1mol gaz 22,4 l hajjni egallaydi.

3) bir xil sharoitda barobar hajmda olingan ikki gaz massalari orasidagi nisbat shu gazlarning molekular massalari orasidagi nisbatga teng.

Ayrim gaz va gazlar aralashmasiga oid hisoblashlar olib borilganda (10.1) umumlashgan formula va Avogadro qonuni asosida keltirib chiqarilgan Mendeleyev-Klapcyron tenglamasidan foydalaniladi:

$$PV = RT \quad (1.11)$$

bu yerda:  $V$  — 1mol ideal gazning hajmi (litr bilan);  $R$  — gaz tabiatiga bog'liq bo'limgan o'zgarmas son.

(11.1) tenglamani  $n$  mol gaz uchun quyidagicha yozish mumkin:

$$PV = nRT, \quad (1.12)$$

bu yerda:  $V=nV$  bo'lib, berilgan bosim va haroratdagi  $n$  mol gaz hajmi,  $n = \frac{m}{M}$  ga teng;  $m$  — gaz massasi;  $M$  — gazning molar massasi.

(12.1) formuladan normal sharoitdagi 1 kmol ideal gaz uchun  $R$  ning qiymatini hisoblash mumkin:

$$R = \frac{P \cdot V}{T} = \frac{101325 \cdot 22,4}{273} = 8,314 \cdot 10^3 \text{ kJ/ (kmol - K)}$$

yoki  $R=8,314 \text{ J/mol}\cdot\text{K}$  R ning turli o'lchov birliklaridagi qiymati quyidagicha ifodalanadi:

$$R = \frac{1 \text{ atm} \cdot 22,414}{1 \text{ mol} \cdot 273,15 \text{ K}} = 0,08206 \text{ l atm / (mol} \cdot \text{K)}$$

$$R = 1,987 \text{ kal / (mol} \cdot \text{K);}$$

$$R = \frac{22,414 \cdot 760}{273,15 \text{ K}} = 62360 \text{ mm ml / (mol K)} = 8,314 \cdot 10^7 \text{ erg / (mol K)}$$

Gazning hajmi ma'lum bosim va haroratda o'lchangan bo'lsa, uning normal sharoitdag'i (n.sh.) hajmini aniqlash mumkin. Buning uchun Boyl-Mariott, Sharl va Gey-Lyussak qonunlarining umumlashtirilgan (10.1) formulasidan foydalilanildi:

$$\frac{P_0 \cdot V_0}{T_0} = \frac{PV}{T} \quad (1.13)$$

$$\text{bundan } V_0 = \frac{P \cdot V \cdot T_0}{P_0 \cdot T} \text{ bo'ladi.} \quad (1.14)$$

Agar gazning  $P_1$  va  $T_1$  lardagi hajmi  $V_1$  ma'lum bo'lsa, shu gazning bosimi  $P_2$ , harorati  $T_2$  bo'lgandagi hajmi  $V_2$  ni (10.1) formuladan aniqlash mumkin:

$$\frac{P_1 \cdot V_1}{T_1} = \frac{P_2 \cdot V_2}{T_2} \quad . \quad (1.15)$$

$$\text{bundan } V_2 = \frac{P_1 \cdot V_1 \cdot T_2}{P_2 \cdot T_1} \text{ bo'ladi.} \quad (1.16)$$

### MASALALAR YECHIMLARIDAN NAMUNALAR

**1-misol.** 1,5 atm bosim ostida gaz 4,5 l hajmni egallaydi. Agar bosim 1 atom gacha kamaysa, gazning hajmi qancha bo'ladi?

Berilgan:  $P_1 = 1,5 \text{ atm}$ ;  $V_1 = 4,5 \text{ l}$ ;  $P_2 = 1 \text{ atm}$ .

Noma'lum:  $V_2 = ?$

Yechish: Boyl-Mariott qonuniga muvofiq  $V_1/V_2 = P_2/P_1$  bo'ladi.

$$\text{Bundan } V_2 = \frac{P_1 \cdot V_1}{P_2} = \frac{4,5 \cdot 1,5}{1} = 6,75 \text{ l kelib chiqadi.}$$

**2-misol.**  $37^{\circ}\text{C}$  da gazning hajmi  $0,5 \text{ m}^3$  ga teng. Agar bosim o'zgarmasa,  $100^{\circ}\text{C}$  da qanday hajmni egallaydi?

**Berilgan:**  $V_1 = 0,5 \text{ m}^3$ ;  $T_1 = 37 + 273 = 310 \text{ K}$ ;  $T_2 = ?$

**Noma'lum:**  $V_2 = ?$

**Yechish.** Gey-l-yussak qonuniga ko'ra:

$$V_1/T_1 = V_2 / T_2 \text{ bo'ladi, bundan } V_2 = \frac{V_1 \cdot T_2}{T_1}$$

bu yerda:  $T_1$  va  $T_2$  mutlaq harorat, K;

$$T_1 = t_1 + 273 = 37 + 273 = 310 \text{ K}$$

$$T_2 = t_2 + 273 = 100 + 273 = 373 \text{ K.}$$

$$\text{Demak, } V_2 = \frac{V_1 \cdot T_2}{T_1} = \frac{0,5 \cdot 373}{310} = 0,601 \text{ m}^3 \text{ bo'ladi.}$$

**3-misol.**  $20^{\circ}\text{C}$  da, uglerod (IV)-oksidli ballondagi bosim  $1,5 \text{ atm}$ . Harorat  $41^{\circ}\text{C}$  gacha ko'tarilganda bosim qanday o'zgaradi?

**Berilgan:**  $P_1 = 1,5 \text{ atm}$ ;  $T_1 = 20 + 273 = 293 \text{ K}$ ;  $T_2 = 41 + 273 = 314 \text{ K}$ .

**Noma'lum:**  $P_2 = ?$

**Yechish.** Bu yerda. Sharl qonuni qo'llaniladi:  $P_1/P_2 = T_1/T_2$ :

$$T_1 = t_1 + 273 = 20 + 273 = 293 \text{ K;}$$

$$T_2 = t_2 + 273 = 41 + 273 = 314 \text{ K.}$$

$$\text{Bundan } P_2 = \frac{P_1 \cdot T_2}{T_1} = \frac{1,5 \cdot 314}{293} = 1,6 \text{ atm.}$$

**4-misol.**  $2,25 \cdot 10^5 \text{ Pa}$  bosimda azot  $0,125 \text{ m}^3$  hajmni egallaydi. O'zgarmas haroratda shu gaz hajmini  $10 \text{ m}^3$  ga yetkazish uchun bosim qancha bo'lishi kerak?

**Berilgan:**  $P_1 = 2,25 \cdot 10^5 \text{ Pa}$ ;  $V_1 = 0,125 \text{ m}^3$ ;  $V_2 = 10 \text{ m}^3$ .

**Noma'lum:**  $P_2 = ?$

**Yechish.**  $P_2$  (1.1) formuladan hisoblanadi:

$$P_2 = \frac{P_1 \cdot V_1}{V_2} = \frac{2,25 \cdot 10^5 \cdot 0,125}{10} = 2812, \text{ Pa.}$$

**5-misol.** Normal sharoitda  $1 \text{ m}^3$  havoning massasi  $1,293 \text{ kg}$  bo'lsa,  $273 \text{ K}$  Pa  $435 \text{ Pa}$  bosimda shuncha hajm havoning massasi necha kg bo'ladi?

**Berilgan:**  $m_0 = 1,293 \text{ kg}$ ;  $P_1 = 435 \text{ Pa}$ ;  $P_0 = 101325 \text{ Pa}$ .

**Noma'lum:**  $m_1 = ?$

**Yechish.** (2.1) formuladan massa aniqlanadi.

$$P_1 / P_2 = P_1 / P_2, \text{ bunda}$$

$$R = \frac{m}{V} \text{ bo'ladi. Agar } V = \text{const} \text{ bo'lsa, } m_0 / m_1 = \frac{P_0}{P_1}$$

deb olish mumkin.

U vaqtida:

$$m_1 = \frac{m_0 P_1}{P_0} \text{ bo'ladi. } m_1 = \frac{1.293 \cdot 435}{101325} = 5,551 \cdot 10^{-3} \text{ kg.}$$

**6-misol.** 20,5 l hajmli po'lat ballonda 87 atm bosim ostida  $17^{\circ}\text{C}$  haroratga ega bo'lgan kislород bor. Kislорodning massasini aniqlang?

**Berilgan:**

$$R = 87 \text{ atm}; V = 20,5 \text{ l}; M = 32; R = 0,082; T = 17 + 273 = 290 \text{ K.}$$

**Noma'lum:**  $m = ?$

**Yechish.** Bu yerda, Klapeyron tenglamasidan foydalaniлади:

$$PV = \frac{m}{M} RT, \text{ undan}$$

$$m = \frac{P \cdot V \cdot M}{T \cdot R} = \frac{87 \cdot 20,5 \cdot 32}{290 \cdot 0,082} = 2400 \text{ g yoki } 2,4 \text{ kg.}$$

**7-misol** Normal bosimda o'zgarmas haroratda gazning hajmi noma'lum. Bosim  $P_2 = 9,888 \cdot 10^4 \text{ Pa}$  bo'lganida gazning hajmi  $10 \text{ m}^3$  ga teng. Gazning normal bosimdagи hajmini toping?

**Berilgan:**  $P_2 = 9,888 \cdot 10^4 \text{ Pa}$ ;  $V_2 = 10 \text{ m}^3$ ;  $P_1 = 101325 \text{ Pa}$ .

**Noma'lum:**  $V_1 = ?$

**Yechish.** T va m o'zgarmaydi, demak, masalani yechish uchun Boyl-Mariott qonunidan foydalaniлади:

$$P_1 / V_1 = P_2 / V_2 \quad (m = \text{const}, T = \text{const})$$

$$V_1 = \frac{P_2 \cdot V_2}{P_1} = \frac{9,888 \cdot 10^4 \cdot 10}{101325} = 9,76 \text{ m}^3$$

**8-misol.** 2,4 kg kislород  $6,078 \cdot 10^5 \text{ Pa}$  bosimda  $3 \text{ m}^3$  hajmni egallaydi. Konsentratsiyasi  $0,1 \text{ kmol/m}^3$  bo'lgan kislород o'zgarmas haroratda qanday bosimga teng?

**Berilgan:**  $m = 2,4 \text{ kg}$ ;  $P_1 = 6,078 \cdot 10^5 \text{ Pa}$ ;  $V = 3 \text{ m}^3$ ;  $C_2 = 0,1 \text{ kmol/m}^3$

**Noma'lum:**  $C_1 = ?$ ,  $P_2 = ?$

**Yechish.** 1)  $1\text{m}^3$  hajmda kislorodning konsentratsiyasi aniqlanadi. Ungacha kislorodning kmol sonlari topiladi:

$$a) n = \frac{m}{M} = \frac{2,4}{32} = 0,75 \text{ kmol};$$

$$b) S = \frac{n}{V} = \frac{0,075}{3} = 0,025 \text{ kmol/m}^3$$

2) (3.1.) formuladan bosim hisoblanadi:

$$\frac{C_1}{C_2} = \frac{P_1}{P_2} \quad \text{dan} \quad P_2 = \frac{C_2 P_1}{C_1} \quad \text{bo'ladi.}$$

$$P_2 = \frac{0,1 \cdot 6,078 \cdot 10^5}{0,025} = 2,4312 \cdot 10^5 \text{ Pa.}$$

**9-misol.** Biror gaz  $17^\circ\text{C}$  da  $680 \text{ m}^3$  hajjni egallaydi.  $100^\circ\text{C}$  da shu gazning hajmini toping ( $m = \text{const}$ ,  $p = \text{const}$ ).

**Berilgan:**  $V_1 = 680 \text{ m}^3$ ;  $T_2 = 373 \text{ K}$ ;  $T_1 = 290 \text{ K}$

**Noma'lum:**  $V_2 = ?$

**Yechish.** Gey -I.yussak (Sharl) qonuniga muvofiq,  $V_1/T_1 = V_2/T_2$ .

$$T_1 = 17 + 273 = 290 \text{ K}; T_2 = 100 + 273 = 373 \text{ K}.$$

$$V_2 = \frac{V_1 \cdot T_2}{T_1} = \frac{680 \cdot 373}{290} = 874,6 \text{ m}^3$$

**10-misol.**  $-33^\circ\text{C}$  da va  $4,052 \cdot 10^5 \text{ Pa}$  bosimda gazning hajmi  $12 \text{ m}^3$  ga teng bo'lsa, uning n.sh. dagi hajmini toping.

**Berilgan:**  $R = 4,052 \cdot 10^5 \text{ Pa}$ ;  $V = 12 \text{ m}^3$ ;  $T_0 = 273 \text{ K}$ ;  $P_0 = 101325 \text{ Pa}$ ;  $T = 273 - 33 = 240 \text{ K}$ .

**Noma'lum:**  $V_0 = ?$

**Yechish.** Bu masalada  $V_0$  ni topish kerak. Ideal gazning holat tenglamasi (ya'ni Klapeyron tenglamasi) asosida bu masalani yechish mumkin:

$$\frac{P_0 V_0}{273} = \frac{P V}{T} \quad (m = \text{const}),$$

$$V_0 = \frac{P \cdot V \cdot T_0}{P_0 \cdot T} = \frac{4,052 \cdot 10^5 \cdot 12 \cdot 273}{101325 \cdot 240} = 54,58 \text{ m}^3$$

**11-misol.** 290 K da berk idishdagi gazning bosimi 95940 Pa bo'lsa, harorat = 50°C ga paysaytirilganda gaz bosimi qancha pasayadi.

**Berilgan:**  $T_1 = 290 \text{ K}$ ;  $T_2 = 273 + 50 = 323 \text{ K}$ ;  $P_1 = 95940 \text{ Pa}$

**Noma'lum:**  $P_2 = ?$ ;  $\Delta R = ?$

**Yechish.** (6.1.) formuladan  $P_2$  hisoblanadi:

$$1) \quad P_2 = \frac{P_1 \cdot T_2}{T_1} = \frac{95940 \cdot 323}{290} = 73774,6 \text{ Pa}$$

2) bosimning qancha kamayganligi aniqlanadi:

$$\Delta R = P_1 - P_2 = 95940 - 73774,6 = 22165,4 \text{ Pa}$$

**12-misol.** Normal sharoitdagi 0,25 m<sup>3</sup> sulfid angidrid gazining massasi (kg) qancha bo'ladi?

**Berilgan:**  $V = 0,25 \text{ m}^3$ ;  $V_0 = 0,0224 \text{ m}^3$ ;  $M_{\text{SO}_2} = 0,064 \text{ g}$ .

**Noma'lum:**  $m = ?$

$$2) \quad \text{Yechish. } 0,0224:0,064 = 0,25:X \quad x = \frac{0,064 \cdot 0,25}{0,064} = 0,7143 \text{ kg.}$$

**13-misol.** Normal sharoitda 1000 kg HCH gazi qancha hajmni egallaydi?

**Berilgan:**  $m = 1000 \text{ kg}$ ;  $V_0 = 0,0224 \text{ m}^3$ ;  $M_{\text{HCH}} = 0,0365 \text{ kg}$ .

**Noma'lum:**  $V = ?$

**Yechish.** Quyidagi proporsiya asosida hajm hisoblanadi:

$$0,0365:0,0224 = 1000:x \quad x = \frac{0,0224 \cdot 1000}{0,0365} = 613,7 \text{ m}^3$$

**14-misol.** 355 K va 86620 Pa bosimda biror gaz 150 m<sup>3</sup> hajmni egallaydi. Normal sharoitda shu gazning hajmi qancha bo'ladi?

**Berilgan:**  $T = 355 \text{ K}$ ;  $R = 86620 \text{ Pa}$ ;  $V = 150 \text{ m}^3$ .

**Noma'lum:**  $V_0 = ?$

**Yechish.** (14.1) formuladan  $V_0$  aniqlanadi:

$$V_0 = \frac{P \cdot V \cdot T_0}{P_0 \cdot T} = \frac{86620 \cdot 150 \cdot 273}{101325 \cdot 355} = 98,61 \text{ m}^3$$

**15-misol.** Koks gazi 323 K va 120900 Pa bosimda elektr filtrdan qizdirgichga o'tadi, bu yerda gaz 343 K gacha qizdiriladi. Koks gazining

normal sharoitdagi hajmi  $37500 \text{ m}^3$  bo'lsa, shu harorat va bosimda isitgichga kirayotgan va undan chiqayotgan gazning hajmi qanday bo'ladi?

**Berilgan:**  $T_1 = 323 \text{ K}$ ;  $T_2 = 343 \text{ K}$ ;  $R = 120900 \text{ Pa}$ ;  $V_0 = 370500 \text{ m}^3$ .

**Noma'lum:**  $V_1 = ?$ ,  $V_2 = ?$

**Yechish.** 1) (14.1) formuladan isitgichga kiritilgan gazning hajmi hisoblanadi:

$$V_1 = \frac{P_0 \cdot T_1}{P \cdot T_0} = \frac{37500 \cdot 101325 \cdot 323}{120900 \cdot 273} = 37185 \text{ m}^3$$

2) Gazning  $343 \text{ K}$  dagi hajmi hisoblanadi:

$$V_2 = \frac{V_0 \cdot P_0 \cdot T_2}{P_1 \cdot T_0} = \frac{37500 \cdot 101325 \cdot 343}{120900 \cdot 273} = 39487 \text{ m}^3$$

### MUSTAQIL ISHLASHI UCHUN MISOL VA MASALALAR

1. Normal sharoitda  $1,5 \text{ kg}$  havo  $1,1595 \text{ m}^3$  hajmni egallaydi. Shu miqdor havo  $0^\circ\text{C}$  va  $95580 \text{ Pa}$  bosimda qanday hajmga ega bo'ladi?

Javobi:  $1,2292 \text{ m}^3$ .

2.  $1,5 \cdot 10^5 \text{ Pa}$  bosimda biror gaz  $2,6 \text{ m}^3$  hajmga ega bo'lsa, o'zgarmas haroratda uning hajmi  $0,5 \text{ m}^3$  ga keltirilsa, shu gazning bosimi qanday bo'ladi?

Javobi:  $7,8 \cdot 10^5 \text{ Pa}$ .

3. Normal sharoitda  $10 \text{ m}^3$  quruq koks gazining massasi  $4,8 \text{ kg}$  bo'lsa,  $0^\circ\text{C}$  va  $98300 \text{ Pa}$  bosimda shu hajmdagi gazning massasi qancha (kg) bo'ladi?

Javobi:  $4.656 \text{ kg}$ .

4.  $0^\circ\text{C}$  da berk idishda gaz saqlanadi. Shu gazning bosimini 5 marta oshirish uchun uning haroratini necha gradusga ko'tarish kerak?

Javobi:  $1365 \text{ K}$  yoki  $1092^\circ\text{C}$ .

5.  $290 \text{ K}$  va  $1,317 \cdot 10^7 \text{ Pa}$  bosimda po'lat ballon azotga to'ldirilgan bo'lsa, qanday haroratda azotning bosimi  $1,52 \cdot 10^7 \text{ Pa}$  bo'lishi mumkin?

Javobi:  $335,85 \text{ K}$  yoki  $62,85^\circ\text{C}$ .

6. Po'lat ballon  $150 \text{ atm}$  bosim va  $18^\circ\text{C}$  da azot bilan to'ldirilgan. Ballonning bosim chegarasi  $200 \text{ atm}$ . ga teng. Bu bosimga erishish uchun haroratni qanchaga ko'tarish kerak?

7. 12 l hajmli po'lat ballonda 150 atm bosim va  $0^{\circ}\text{C}$  haroratda kislorod mavjud. Normal sharoitda bu kislorod qanday hajmni egallaydi?  
Javobi:  $1800 \text{ l yoki } 1,8 \text{ m}^3$ .
8. 1,5 atm bosim va  $17^{\circ}\text{C}$  haroratga ega bo'lgan 80 g kislorod qanday hajmni egallaydi?  
Javobi:  $39,6 \text{ l}$ .
9. 30 l hajmli ballonda 1 kg  $\text{CO}_2$  gazi joylashtirilgan.  $30^{\circ}\text{C}$  haroratda ballondagi bosimni hisoblang.  
Javobi:  $18,8 \text{ atm}$ .
10. 50 kg temir suv bug'i bilan reaksiyaga kirishganda  $298 \text{ K}$  va  $9,57 \cdot 10^4 \text{ Pa}$  bosimda qancha  $\text{m}^3$  vodorod ajralib chiqadi?  
Javobi:  $17,34 \text{ m}^3$ .
11.  $304 \text{ K}$  va  $95940 \text{ Pa}$  bosimda 1,6 tonna dolomitdan qancha  $\text{m}^3$   $\text{CO}_2$  gazi hosil bo'ladi? Dolomit tarkibida 8% aralashma borligini hisobga oling.  
Javobi:  $421,5 \text{ m}^3$ .
12. Biror gazning  $37^{\circ}\text{C}$  dagi hajmi  $0,5 \text{ m}^3$  ga teng. O'zgarinas bosim sharoitida harorat  $100^{\circ}\text{C}$  ga qadar ko'tarilsa, gazning hajmi necha  $\text{m}^3$  ga teng bo'ladi?  
Javobi:  $0,6 \text{ m}^3$ .
13.  $370 \text{ K}$  va  $98600 \text{ Pa}$  bosimda  $1,9 \cdot 10^{-3} \text{ kg}$  gaz  $3,8 \cdot 10^{-4} \text{ m}^3$  hajmni egallasa, uning molekular massasi (kg) qancha bo'lishi mumkin?  
Javobi:  $0,156 \text{ kg}$ .
14.  $353 \text{ K}$  va  $101325 \text{ Pa}$  bosimda hajmi  $1,5 \text{ m}^3$  li idishda benzol ( $\text{C}_6\text{H}_6$ ) bug'lari bo'lsa, shu sharoitda benzol bug'inining massasi qancha bo'ladi?  
Javobi:  $4,393 \text{ kg}$ .
15. Muayyan haroratda 3 l hajmni egallaydigan gazning bosimi  $93,3 \text{ kPa}$ . ga teng. Agar haroratni o'zgartirmagan holda, gazning hajmi  $2,8 \text{ l}$  gacha kamaytirilsa, uning bosimi qanday bo'ladi?  
Javobi:  $100 \text{ kPa}$ .
16.  $27^{\circ}\text{C}$  da gazning hajmi 600 ml. ga teng. Agar bosim o'zgartirilmagan holda haroratni  $57^{\circ}\text{C}$  gacha ko'tarilsa, gaz qanday hajmni egallaydi?  
Javobi:  $660 \text{ ml}$ .
17.  $15^{\circ}\text{C}$  da kislorodli ballondagi bosim  $91,2 \cdot 10^2 \text{ kPa}$ .ga teng. Harorat qancha bo'lganda ballondagi bosim  $101,33 \cdot 10^2 \text{ kPa}$ .ga teng bo'ladi?  
Javobi:  $320 \text{ K}$  yoki  $47^{\circ}\text{C}$ .
18.  $25^{\circ}\text{C}$  da  $99,3 \text{ kPa}$  bosimga ega bo'lgan gaz  $152 \text{ ml}$  hajmni egallaydi. Shu miqdordagi gaz  $0^{\circ}\text{C}$  da va  $101,33 \text{ kPa}$  bosimda qancha hajmni egallaydi?  
Javobi:  $136,5 \text{ ml}$ .

19.  $17^{\circ}\text{C}$  da muayyan miqdordagi gaz  $580 \text{ ml}$  hajmni egallaydi. Shu miqdordagi gaz  $100^{\circ}\text{C}$ . da, bosim o'zgartirilnagan holda qanday hajmni egallaydi?

Javobi:  $746 \text{ ml}$ .

20.  $2,5 \text{ l}$  hajmni egallaydigan gazning bosimi  $121,6 \text{ kPa}$ . ga teng. Harorat o'zgarmagan holda, gazni  $1 \text{ l}$  hajmgacha siqilsa, bosim nechaga teng bo'ladi?

Javobi:  $303,9 \text{ kPa}$ .

21.  $0^{\circ}\text{C}$  haroratda saqlanayotgan yopiq idishdag'i gazning bosimini 2 marta oshirish uchun, uni necha gradusgacha qizdirish lozim?

Javobi:  $273$ .

22.  $7^{\circ}\text{C}$  da yopiq idishdag'i gazning bosimi  $96,0 \text{ kPa}$ . ga teng. Idishni  $-33^{\circ}\text{C}$  gacha sovitilsa, bosim qanday bo'ladi?

Javobi:  $82,3 \text{ kPa}$ .

23.  $1,28 \text{ g}$  Metallning suv bilan o'zaro ta'sirlashuvidan  $380 \text{ ml}$  vodorod gazi ajralgan. Bunda, harorat  $21^{\circ}\text{C}$  ga va bosim  $104,5 \text{ kPa}$  ga teng bo'lган. Metallning ekvivalent massasini toping.

Javobi:  $39,4 \text{ g/mol}$ .

24.  $323 \text{ K}$  va  $39985 \text{ Pa}$  bosimda gaz hajmi  $1,7 \cdot 10^{-2} \text{ m}^3$  bo'lsa, normal sharoitda shu gazning hajmi qancha bo'ladi?

Javobi:  $5,67 \cdot 10^{-3} \text{ m}^3$ .

25.  $240 \text{ K}$  va  $4,052 \cdot 10^5 \text{ Pa}$  bosimda gaz  $15 \text{ m}^3$  hajmni egallasa, shu gazning hajmi normal sharoitda qancha bo'ladi?

Javobi:  $68,2 \text{ m}^3$ .

26.  $298 \text{ K}$  va  $9,594 \cdot 10^4 \text{ Pa}$  bosimda gaz  $1,5 \cdot 10^{-2} \text{ m}^3$  hajmga ega. Shu gaz  $353 \text{ K}$  va  $1,04 \cdot 10^5 \text{ Pa}$  bosimda qancha hajmni egallaydi?

Javobi:  $1,731 \cdot 10^{-2} \text{ m}^3$ .

27.  $\text{CO}_2$  gazi  $288 \text{ K}$  va  $100600 \text{ Pa}$  bosimda  $290 \text{ m}^3$  hajmni egallaydi, uning hajmini  $137 \text{ m}^3$  ga keltirish uchun  $2,253 \cdot 10^5 \text{ Pa}$  bosimda gazni necha gradus qizdirish kerak bo'ladi?

Javobi:  $304,7 \text{ K}$  yoki  $31,7^{\circ}\text{C}$ .

28.  $293 \text{ K}$  va  $250000 \text{ Pa}$  bosimda  $0,5 \text{ m}^3$  hajmli po'lat idishga maksimum necha kg  $\text{CO}_2$  gazi sig'adi?

Javobi:  $2,25 \cdot 10^{-3} \text{ kg}$ .

## *II bob KIMYOVIY TERMODINAMIKA. TERMOKIMYO*

### 2.1. MODDALARNING ISSIQLIK SIG'IMLARI

Moddalarning qizdirilganda issiqlik yutish xususiyati issiqlik sig'imi deyiladi. Har xil moddalarning issiqlik sig'imi turlicha bo'ladi.

Moddaning harorati  $1^{\circ}\text{C}$  ko'tarilganda yutilgan issiqlik miqdori shu moddaning issiqlik sig'imi deyiladi.

Issiqlik sig'imi turlicha: solishtirma, atom, molar va hajm issiqlik sig'implaridan iborat bo'ladi.

Solishtirma issiqlik sig'imi deb, 1 kg moddani  $1^{\circ}\text{C}$  ga qizdirilganda sarflangan issiqlik miqdoriga aytildi. Solishtirma issiqlik sig'imi  $\text{J/kg}\cdot\text{K}$  bilan ifodalanadi.

Mol issiqlik sig'imi deb, 1 mol moddani haroratini  $1^{\circ}\text{C}$  ga oshirish uchun sarflangan issiqlik miqdoriga aytildi. Mol issiqlik sig'imi o'lchov birligi  $\text{J/mol}\cdot\text{K}$  bilan ifodalanadi. Solishtirma issiqlik sig'imi moddaning molekular massasiga ko'paytmasi mol issiqlik sig'imi ifodalaydi.

$$S_{\text{mol}} = S + M \quad (1.2)$$

bu yerda,  $S_{\text{mol}}$  — mol issiqlik sig'imi;

$S$  — solishtirma issiqlik sig'imi;

$M$  — moddaning molekular massasi.

Texnikaviy termodynamikada kimyoviy reaksiyaning agregat holatiga qarab, hajmiy issiqlik sig'imi tushunchasi kiritilgan. Normal sharoitda  $1 \text{ m}^3$  gazni haroratini  $1^{\circ}\text{C}$  ga ko'tarish uchun sarflangan issiqlik miqdoriy-hajmiy issiqlik sig'im deyiladi va u  $S_{\text{haj}}$  bilan ishoralanadi.

Solishtirma va hajmiy issiqlik sig'implari quyidagicha belgilanadi:

$$S = \frac{C_{\text{mol}}}{M} (\text{J/kg}\cdot\text{K}) \quad (2.2)$$

$$S_{\text{haj}} = \frac{C_{\text{mol}}}{0,0224} (\text{kJ/m}^3\cdot\text{K}) \quad (3.2)$$

$$S_{\text{haj}} = \rho \frac{M}{0,0224} (\text{kJ/m}^3\cdot\text{K}) \quad (4.2)$$

Bunda,  $\rho$  — normal sharoitdagi gazning zichligi,  $\text{kg/m}^3$ .

Gazlarning issiqlik sig'imi sharoitga qarab, doimiy bosimdag'i issiqlik sig'imi –  $C_r$  va doimiy hajmdagi issiqlik sig'imi –  $C_v$  bilan belgilanadi.

Isitish jarayoni doimiy hajmda olib borilganida, termodinamikaring birinchi qonunining asosiy tenglamasiga muvofiq:

$$\delta Q = dU + PdV, \quad V = \text{const}; \quad dV = 0 \quad \text{bo'l ganda} \quad dQ = dU$$

Demak, sistemaga berilgan issiqlik faqatgina sistemaning ichki energiyasini oshirishga sarf bo'ladi. Isitish doimiy bosimda olib borilganda esa, issiqlik sistemaning ichki energiyasini oshirishdan tashqari ish bajarishga ham sarf bo'ladi. Shunga ko'ra,  $C_r > C_v$  bo'ladi.

Qattiq va suyuq holdagi moddalarda, harorat o'zgarishi bilan ularning hajmi kam o'zgaradi. Shunga ko'ra,  $C_v$ ,  $C_r$  o'rtasidagi farq kam bo'ladi. Shunga ko'ra, moddalarning bu holatlarida, taqrifiy hisoblarda  $C_r$ ,  $C_v$  – o'rtasidagi farqni hisobga olmasa ham bo'ladi. Lekin moddalar gaz holatda bo'lganida bu farqni e'tiborga olish zarur.

Gazlarda har doim  $C_r > C_v$  bo'ladi. Chunki doimiy bosimda gazning harorati ortishi bilan hajmi ham ortadi, ya'ni harorat ko'tarilishi bilan hajmi kengayib, ish ( $\Delta$ ) bajariladi. Shuning uchun  $C_r = C_v + \Delta$  ko'rinishida yoziladi.

Issiqliknki hisoblashda, ko'pincha doimiy haroratda haqiqiy mol issiqlik ( $C_{haq}$ ) sig'imidan yoki o'rtacha ( $C$ ) mol va solishtirma ( $C$ ) issiqlik sig'imidan, ma'lum harorat oraliq'ida ( $t_2 - t_1$ ) foydalaniadi. Tajribada ma'lum harorat oraliq'ida issiqlik sig'iming o'rtacha qiymati aniqlanadi. Masalan, 1 kmol moddani  $T_1$  dan  $T_2$  gacha qizdirish uchun  $Q$  miqdorda issiqlik sarflangan bo'lsa, o'rtacha issiqlik sig'imi:

$$C = \frac{Q}{T_2 - T_1} \quad \text{bo'ladi.} \quad (5.2)$$

$T_2 - T_1$  lar farqi ( $\Delta T$ ) juda kichik bo'lganda o'rtacha issiqlik sig'imi haqiqiy issiqlik sig'imi qiymatini ifodalaydi va quyidagicha aniqlanadi:

$$C_{haq} = \lim (Q / \Delta T) \Delta T \rightarrow 0 = dQ/dT \quad (6.2)$$

Moddalar har bir haroratda o'ziga xos issiqlik sig'imiiga ega bo'ladi. Haqiqiy issiqlik sig'iming haroratga bog'liqligini matematik qiymatidan foydalaniib, o'rtacha issiqlik sig'imi, mol va solishtirma issiqlik sig'imirni aniqlash mumkin. Bu issiqlik sig'imirni orasidagi o'zaro bog'liqliklar quyidagi formula bilan ifodalananadi:

$$C_p = a_0 + a_1 T + a_2 T^2 + \dots \quad (7.2)$$

yoki

$$C_p = a_0 + a_1 T + a_2'/T^2 + \dots \quad (8.2)$$

bunda,  $a_0$ ,  $a_1$ ,  $a_2'$  — koefitsiyentlar bo'lib, ko'pgina moddalar uchun ma'lumotnomadan olinadi.

Issiqlik sig'imi hisoblashda (6.2) formuladan foydalaniлади:

$$dQ = C_p dT$$

Harorat  $T_1$  dan  $T_2$  ga ko'tarilganda yutilgan issiqlik miqdorini (6.2) formulaning integral qiymatidan hisoblash mumkin:

$$Q = \int_{T_1}^{T_2} C_p dT \quad (9.2)$$

(7.2) formuladan haqiqiy issiqlik sig'imi qiymatini (9.2)ga qo'yib, quyidagi ifoda hosil qilinadi:

$$Q = \int_{T_1}^{T_2} (a_0 + a_1 T + a_2/T^2 + \dots) dT \quad (10.2)$$

(5.2) formuladan issiqlik sig'iming o'rtacha ( $\bar{C}$ ) qiymati asosida issiqlik miqdorini aniqlash mumkin:

$$Q = \bar{C} (T_2 - T_1) \quad (11.2)$$

(10.2) va (11.2) formulalarni chap tomonidagi qiymatlar teng bo'lgani uchun ularning o'ng tomonidagi qiymatlari ham teng bo'ladi.

$$\bar{C} (T_2 - T_1) = \int_{T_1}^{T_2} (a_0 + a_1 T + a_2/T^2 + \dots) dT$$

yoki


$$\bar{C} (T_2 - T_1) = a_0 (T_2 - T_1) + a_1 \frac{T_2^2 - T_1^2}{2} + a_2 \frac{T_2^3 - T_1^3}{3}$$

Bundan:  $\bar{C} = a_0 + a_1$  bo'ladi. (12.2)

(8.2) formula integrallansa, quyidagi ifoda kelib chiqadi:

$$\bar{C} = a_0 + \frac{a_1}{2} (T_2 - T_1) + \frac{a_2}{T_2 T_1} \quad (13.2)$$

Ko'pgina moddalar uchun ma'lum harorat intervalida issiqlik sig'iming o'rtacha qiymati ma'lumotnomalarda berilgan. Agar issiqlik sig'iming qiymati berilmasa, u holda uni (13.2) formuladan hisobla-nadi.



Haqiqiy issiqlik sig'imi o'rtacha issiqlik sig'imi qiymatidan  $0-T^{\circ}\text{C}$  intervalida aniqlash mumkin, buning uchun o'rtacha issiqlik sig'imi qiymati  $T$  ga ko'paytirilib,  $T$  bo'yicha differensiallanadi:

$$\bar{C}_{\text{haq}} = d(\bar{C}/dT)/dT \quad (14.2)$$

Aralashmalarda komponentlar o'zaro kimyoviy ta'sirlashmasa, uning issiqlik sig'imi additivlik qoidasi asosida hisoblanadi:

$$C_1 = 1/100 (a c_1 + \alpha c_2 + \dots) \quad (15.2)$$

yoki

$$C_2 = 1/100 (a_0 c_1 + \alpha_0 c_2 + \dots)$$

bunda:  $a, \alpha$  — aralashmadagi komponentlarning massa (%) miqdorları;

$c_1, c_2$  — moddalarning solishtirma sig'iplari;

$a_0, \alpha_0$  — aralashmadagi komponentlarning mol (gaz bo'lsa, hajm) miqdorları % da;

$C_1, C_2$  — moddalarning mol issiqlik sig'iplari.

### MASALALAR YECHIMIARIDAN NAMUNALAR

**1-misol** Havoning haqiqiy mol issiqlik sig'iming haroratga bog'liqligi  $C_p = 27,2 + 0,0042 T$  tenglama bilan ifodalanishidan foydalanib:  
 a)  $C_p/C_v = 1,4$  ga teng bo'lgan havoni  $673 \text{ K}$  da, o'zgarmas bosim va hajmdagi haqiqiy mol hamda solishtirma issiqlik sig'imi va  $773-473 \text{ K}$  haroratlar intervalidagi o'rtacha issiqlik sig'imi hisoblang.

**Berilgan:**  $C_p = 27,2 + 0,0042 T$ ;  $C_p/C_v = 1,4$ ;  $T=673 \text{ K}$ ;

$$\Delta T = 773-473 = 300 \text{ K}; \quad M=29$$

**Noma'lum:**  $C_p = ?$      $C_v = ?$      $\bar{C} = ?$

**Yechish.**

$$1) C_p = 27,2 + 0,0042 T = 27,2 + 0,0042 \cdot 673 = 30,03 \text{ kJ.}$$

$$2) C_0/C_v = 1,4 \text{ dan } C_v = C_p/1,4 = 30,03/1,4 = 21,45 \text{ kJ/mol.}$$

$$3) C = C_p/M = 30,03/29 = 1,04 \text{ J/g.K.}$$

$$4) C=C_v/M = 21,45/29 = 0,74 \text{ kJ/mol K.}$$

$Q = C_{\text{haq}} = T = (27,2 + 0,0042 T) dT = \bar{C} (T_2 - T_1)$  tenglik asosida o'rtacha issiqlik sig'imi hisoblanadi:

$$Q = 27,2 \cdot 300 + 0,0042 \frac{25000 - 4000}{2} = 8160 + 44,1 = 8160 \text{ K.}$$

$$8601 \text{ K} = C(T_2 - T_1) \text{ dan } 8601 \text{ K} = C \cdot dT$$

$$8601 \text{ K} = C \cdot 300 \text{ dan } C = 8601/300 = 27,2 \text{ kJ/kmol.}$$

**2-misol** Ammiakning chin issiqlik sig'imi qiymatini ifodasi  $C_r = 5,92 + 0,008963 T - 0,000001764 T^2$  bo'lsa, harorat 200 dan 300 K oraliq'idagi ammiakning o'rtacha mol issiqlik sig'imi qiymati topilsin.

**Yechish.** Yuqoridagi (14.2) formuladan foydalanib:

$$C = 5,92 + 0,004482 (300+200) -$$

$$- 0,000000588 (300^2 + 300 \cdot 200 + 200^2)$$

keltirilib chiqariladi. Undan,  $S = 8,05 \text{ kal/grad mol bo'ladi.}$

**3-misol** Doimiy bosimda 100 kg metil spirit bug'lari 200°C dan 100°C gacha sovitilganda qancha issiqlik berishini aniqlang.

**Yechish.** Ajralib chiqadigan issiqlik miqdorini ikki xil usulda hisoblab topish mumkin; 1) 200 va 100°C oraliq'idagi o'rtacha issiqlik sig'imi qiymati qo'llaniladi; 2) metil spirit bug'larining 0 dan 200 va 0 dan 100°C gacha o'rtacha issiqlik sig'imini aniqlash yo'li bilan aniqlanadi. Bunda,  $t_1 = 200^\circ\text{C}$  va  $t_2 = 100^\circ\text{C}$  dagi issiqlikning nisbiy miqdorini hisoblab, biri ikkinchisidan ayiriladi. Bu hisoblashda ikkinchi variant qo'llaniladi.

$\text{CH}_3\text{OH}$  uchun doimiy bosimda o'rtacha molar issiqlik sig'imi:

$$C_1^{200^\circ\text{C}} = 57 \text{ kJ/(kmol} \cdot \text{K}) \text{ va } C_2^{100^\circ\text{C}} = 53,7 \text{ kJ/(kmol} \cdot \text{K}) \text{ bo'ladi.}$$

(2.2) formulaga muvosiq:

$$C_1^{-200^\circ\text{C}} = C_1^{200^\circ\text{C}} / M = 57/32 = 1,78 \text{ kJ/(kg K);}$$

$$C_2^{-100^\circ\text{C}} = C_2^{100^\circ\text{C}} / M = 53,7 / 32 = 1,68 \text{ kJ/(kg K);}$$

$$Q = 100(C_1^{-200^\circ\text{C}} \cdot 200 - C_2^{-100^\circ\text{C}} \cdot 100) = 100(1,78 \cdot 200 - 1,68 \cdot 100) = 18800 \text{ kJ.}$$

**4-misol.** Agar  $C_r H_2 = 27,28 + 3,26 \cdot 10^{-3} T + 0,502 \cdot 10^5 T^{-2}$  bo'lsa, 400–500°C oraliq'idagi vodorodning o'rtacha molar issiqlik sig'imini hisoblang.

**Yechish.** Bunda (13.2) formula qo'llaniladi

$$\bar{C} = \alpha_0 + \alpha_1 / 2 (T_2 + T_1) + \alpha_2^{-1} / T_2 T_1;$$

$$C_r H_2 = 27,28 + \frac{3,26 \cdot 10^{-3}}{2} (773 + 673) + \frac{0,502 \cdot 10^5}{773 \cdot 673} = 29,73 \text{ J/ (mol} \cdot \text{K}).$$

**5-misol.**  $C_vCO_2 = 27,24 + 0,00809t \text{ J/(mol K)}$  bo'lganida, doimiy bosimdagи 100 g CO<sub>2</sub> ni 15° dan 100°C gacha qizdirilganda yutiladigan issiqlikni hisoblang.

**Yechish.** Bu yerda (10.2) formuladan foydalilanadi, haroratni gradus Selsiyda olish mumkin:

$$Q = \frac{100}{44} \int_{15}^{100} (27,24 + 0,00809t) dt = \\ \frac{100}{44} \left[ 27,24(100 - 15) + \frac{0,00809}{2} (100^2 - 15^2) \right] = 5353 \text{ J.}$$

**6-misol.** Doimiy bosimda kislorodning 0 dan 1500°C oraliq'idagi o'rtacha molar issiqlik sig'imi quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$C_pO_2 = 29,58 + 0,0034 t \text{ kJ/(kmol K).}$$

Doimiy bosimda, doimiy harorat 0 dan 1000°C oraliq'idagi o'rtacha molar, massaviy va hajmiy issiqlik sig'imirini aniqlang. Shu oraliq haroratda doimiy hajmda kislorodning o'rtacha molar issiqlik sig'imi qanday bo'ladi?

**Yechish.** 0 dan 1000°C gacha bo'lgan o'rtacha molar issiqlik sig'imi hisoblanadi:

$$C_pO_2 = 29,58 + 0,0034 \cdot 1000 = 32,98 \text{ kJ/(kmol K).}$$

(2.2) formula bo'yicha o'rtacha massaviy issiqlik sig'imi hisoblanadi:

$$C_pO_2 = C_pO_2 / MO_2 = \frac{32,98}{32} = 1,03 \text{ kJ/(kg K)}$$

(3.2) formula bo'yicha hajmiy issiqlik sig'imi aniqlanadi:

$$C_{hajm} = C_pO_2 / 22,4 = 32,98 / 22,4 = 1,472 \text{ kJ/(m}^3 \text{ K).}$$

Doimiy hajm, haroratning 0 dan 100°C oraliq'ida kislorodning o'rtacha molar issiqlik sig'imi hisoblanadi, bunda  $S_r = S_v + R$  formuladan foydalilanadi:

$$C_vO_2 = C_pO_2 - R = 32,98 - 8,31 = 24,67 \text{ kJ/(kmol K).}$$

**7-misol.** Mol issiqlik sig'iminin haroratga bog'liqligi ( $\frac{kJ}{mol \cdot K}$ )

$C_p = 9,05 + 0,208 T - 0,0651 \cdot 10^{-3} T^2$  formula bilan ifodalangan.  
1 kg etil spirit ( $R = \text{const}$ ) 400 dan 600K gacha qizdirilganda qancha issiqlik yutilishi (kJ) ni aniqlang.

**Berilgan:**  $m = 1 \text{ kg}$ ;  $M = 46$ ;  $T = 400-600$ ;  $T = 200 \text{ K}$ .

**Noma'lum:**  $Q = ?$

**Yechish:**  $Q = \frac{m}{M} \int_{T_1}^{T_2} C_p dT$  formuladan issiqlik miqdori hisoblanadi.

$$Q = \frac{1000}{46} \int_{400}^{600} 9,05(600-400) + \\ \frac{0,08}{2} (600^2 - 400^2) - \frac{0,0651}{3} (600 - 600 \cdot 400 - 400^2) = 419,1 \text{ kJ.}$$

### MUSTAQIL ISHLASHI UCHUN MISOL VA MASALALAR

1. Normal atmosfera bosimida, 358–388 K harorat chegarasida benzol bug'ining o'rtacha issiqlik sig'imi 1,257 kJ/kg·K bo'lsa, o'zgarmas bosim va hajmda benzolning mol issiqlik sig'imi va ular orasidagi nisbat qanday bo'ladi?

Javobi: 98,06 kJ/kmol·K; 89,732 kJ/kmol·K; 1:0,93.

2. O'zgarmas bosim va 373–773 K haroratlari chegarasida suv bug'ining solishtirma issiqlik sig'imi 2,01 kJ/kg·K o'zgarmas bosim va hajmda suv bug'ining o'rtacha mol issiqlik sig'imi hamda ular orasidagi nisbat qanday bo'ladi?

Javobi: 36,22 kJ/kmol·K va 27,866 kJ/kmol·K; 1:298.

3. Normal sharoitda azotning mol issiqlik sig'imi 20,95 kJ/mol·K bo'lsa, shu sharoitda azotning solishtirma va hajm issiqlik sig'imi qanday bo'ladi?

Javobi: 35,27 J/m<sup>3</sup>·K.

4. Mol issiqlik sig'iminin haroratga bog'liqligi  $C_p = 3,98 + 0,3377 - 0,1243 \cdot 10^{-3} T^2$  (kJ/mol·K) formula ifodalansa, 0,1 kg izopren bug'i 400 dan 500 K gacha qizdirilganda qancha issiqlik ajralib chiqadi?

Javobi: 3713,2 kJ.

5. Agar  $C_p = 33,14 + 10,27 \cdot 10^{-3} T - 16,8 \cdot 10^{-7} T^2$  bo'lsa, benzolning 303 K dagi haqiqiy issiqlik sig'imi qanday bo'ladi?

Javobi: 33,45 kJ/mol K.

6. Agar  $C_p = 48,77 + 4,525 \cdot 10^{-3} T$  bo'lsa, 1473 – 1573 K oraliqida MgO ning o'rtacha solishtirma issiqlik sig'imi qanday bo'ladi?

Javobi: 1,23 kJ/kg K

7. Doimiy bosimda issiqlik sig'imi 40,4 J/mol bo'lgan  $\text{CO}_2$  gazini 573 dan 673 K gacha qizdirish uchun qancha issiqlik kerak bo'ladi?

Javobi: 91,82 kJ.

8. Kristobalit ( $\beta - \text{HSO}_2$ ) ning haqiqiy mol issiqlik sig'iminining haroratga bog'liqligi  $C_p = 71,61 + 1,9 \cdot 10^{-3} T - 37,59 \cdot 10^5 T^2$  formula bilan ifodalansa, 1 kg kristobalit 289dan 1811K gacha qizdirilganda qancha issiqlik (kJ) sarf bo'ladi?

Javobi: 1905 kJ.

9. Agar  $C_p \text{NH}_3 = 29,8 + 25,48 \cdot 10^{-3} T - 1,67 \cdot 10^5 T^{-2}$  bo'lsa, ammakiyning 373dan 473K chegarasidagi o'rtacha molar issiqlik sig'imi hisoblang.

Javobi: 39,62 J/(mol K).

10. 50 kg etilenni 473 dan 773 K gacha qizdirish uchun qancha issiqlik miqdori kerak bo'ladi? Etilenning o'rtacha molar issiqlik sig'imi [kJ/(kmol·K)]:

$$\bar{C}_{200} = 48,6; \quad \bar{C}_{500} = 62,5$$

Javobi: 38370 kJ.

11. Agar temirning haqiqiy issiqlik sig'imi 0 dan  $600^\circ\text{C}$  gacha  $C_p = 0,4613 + 2,12 \cdot 10^{-4} T + 6,87 \cdot 10^{-7} T^2$  bo'lsa, 373–473 K oraliqida o'rtacha solishtirma issiqlik sig'imi qanday bo'ladi?

Javobi: 0,6552 KJ/kg K.

## 2.2.TERMODINAMIKANING BIRINCHI QONUNI

Bu qonunga muvofiq sistemaga issiqlik (Q) berilsa, u sitemaning ichki energiyasini oshirishga va foydali ish bajarishga sarf bo'ladi:

$$Q = \Delta U + A \tag{16.2}$$

yoki

$$\Delta U = Q - A \tag{17.2}$$

ya'ni ichki energiya sistemaga tashqaridan issiqlik berilganida yoki olin-ganida va sistema ustidan ish bajarilganida (yoki sistema ish bajarganda) o'zgaradi. Ichki energyaning o'zgarishini bevosita o'lhash mumkin

bo'Imaganligi uchun berilgan (olingan) issiqlik va bajarilgan ishlar yig'indisini o'lchab, uning o'zgarishi aniqlanadi.

Termodinamikaning birinchi qonuni har xil energiya turlarining bir-biriga ekvivalent miqdorlarida aylanishini e'tirof etadi. Shuning uchun ham bu qonun energyaning saqlanish qonuni deb ataladi.

Har qanday termodinamik sistema ma'lum miqdordagi energiyaga ega. Sistemadagi jism energiyasi uning ichki holatiga bog'liq bo'lib, o'sha jismning ichki energiyasi deyiladi. Ichki energiya U harfi bilan belgilanadi. Sistemaning ichki energiyasining mutlaq qiymatini aniqlab bo'lmaydi. Faqat sistema bir holatdan ikkinchi holatga o'tgandagi ichki energiyasining o'zgarish qiymatini hisoblash mumkin. Sistemaning dastlabki holatidagi ichki energiyasini  $U_1$ , oxirgi holatdagi-sini  $U_2$  bilan ishoralansa, ular orasidagi farq  $\Delta U$  ichki energyaning o'zgarish qiymatini ko'rsatadi, ya'nisi  $\Delta U = U_2 - U_1$  bo'ladi.

Ichki energyaning o'zgarishi sistemaning holatiga bog'liq. Sistema issiqlik olganida yoki chiqqanganida, yoxud tashqi bosimga qarshi hajmi kengayib ish bajarganida hamda sistema o'z ichida ish bajarganida uning ichki energiyasi o'zgaradi.

Sistema tashqaridan energiya olganida uning ichki energiyasi ortadi. Sistema o'z hajmini o'zgartirib ish ( $A$ ) bajarganida ham sistemaning ichki energiyasi o'zgaradi. Termodinamikaning birinchi qonuni uchun matematik ifoda  $Q = \Delta U + A$  dan iborat.

Agar sistemaning ichki energiyasi kamaysa ( $\Delta U < 0$ ), reaksiya issiqlik chiqishi bilan amalga oshadi (ekzotermik reaksiya). Agar sistemaning ichki energiyasi ko'paysa ( $\Delta U > 0$ ), unda jarayon tashqi muhitdan energiya yutilishi bilan sodir bo'ladi (endotermik reaksiya).

Har xil termodinamik jarayonlarda 1 kmol gaz hajmi  $V_1$  dan  $V_2$  ga o'zgarganda, sistema bajargan ishining qiymati o'zgarmas bosimda ( $R = \text{const}$ )

$$A_p = R \cdot (V_2 - V_1) \quad (18.2)$$

$$A_p = R \cdot (T_2 - T_1) \quad (19.2)$$

Izoxor jarayon uchun ( $V = \text{const}$ ), ya'nisi

$$V_1 = V_2; \quad \Delta V = 0 \quad \text{va} \quad A_V = 0 \quad (20.2)$$

Izotermik jarayon uchun ( $T = \text{const}$ ), ya'nisi

$$A_T = 2,303 RT \lg V_2/V_1 \quad (21.2)$$

$$A_T = 2,303 RT \lg C_2/C_1 \quad (21.2)$$

$$A_T = 2,303 RT \lg P_1/P_2 \quad (21.2)$$

bunda,  $T$  — jarayon sodir bo'layotgan harorat;

$V_1$  va  $V_2$  — gazning dastlabki va oxirgi holatlaridagi hajmi;

$C_1$  va  $C_2$  – gazning dastlabki va oxirgi holatlaridagi konsentratsiyasi;  
 $P_1$  va  $P_2$  gazning dastlabki va oxirgi holatlaridagi bosim;  
 $R$  – universal gaz doimiysi.

Har xil termodinamik jarayonlar uchun termodinamikaning birinchi qonuni quyidagi matematik ifodalarga ega:

Izobar jarayon uchun ( $R = \text{const}$ ):

$$Q_p = \Delta U + R(V_2 - V_1) \quad (22.2)$$

Izoxor jarayon uchun ( $V = \text{const}$ ):

$$Q_p = \Delta U \quad (23.2)$$

Izotermik jarayon ( $T = \text{const}$ ):

$$\Delta U = 0; \quad Q_T = A = 2,303 RT \lg V_2 / V_1$$

$$Q_T = A = 2,303 RT \lg P_2 / P_1 \quad (24.2)$$

Hisoblashlarda chiqarilayotgan va yutilayotgan issiqlikni aniqlash uchun entalpiya qiymatlaridan foydalaniladi. Ma'lum bir birikmada moddani (kg, mol va boshqalar)  $T_1$  dan  $T_2$  gacha o'zgarmas bosimda qizdirish uchun issiqlik miqdori  $C_p = Q/T_2 - T_1$  formuladan aniqlanadi:

$$Q_p = C_p(T_2 - T_1) = C_p T_2 - C_p T_1 \quad \text{bo'ldi.}$$

Shu issiqlik miqdorini (izobar jarayon uchun) termodinamikaning birinchi qonunidagi (22.2) formuladan aniqlash mumkin:

$$Q_p = (U_2 - U_1) + P(V_2 - V_1) = (U_2 + PV_2) - (U_1 + PV_1),$$

bunda  $U_2 + PV_2 = H_2$  va  $U_1 + PV_1 = H_1$  bo'lsa, u holda  $Q_p = H_2 - H_1$  kelib chiqadi.  $(25.2)$

$H = U + PV$  o'zgarmas bosimda sistemaning holatini energiya miqdori bo'lib, entalpiya deb ataladi.

Agar berilgan sharoitda entalpiya miqdori ma'lum bo'lsa, shu sharoitdagi moddaning issiqlik sig'imini aniqlash shart emas.

Entalpiya qiymatini hisoblash uchun jadvallarda berilgan ma'lumotlardan foydalilaniladi. Undan tashqari, agar masala shartida yoki tajribada entalpiya qiymatini hisoblash kerak bo'lsa, entalpiya issiqlik va bosim qiymatlari ma'lum bo'lsa,  $H-S$ ;  $H-T$  va  $H-R$  larning o'zarobog'liqligini ko'rsatuvchi diagrammalar tuzib, undan entalpiya qiymatini aniqlash mumkin.

Jadvallarda berilgan murakkab muddalarning entalpiya qiymatlari, standart sharoitda (298 K va 101325 Pa bosim) o'lcangan. Standart sharoitda, oddiy moddalar (masalan,  $O_2$ ,  $H_2$ ,  $CH_4$ , Ca, Fe va boshqalar) ning hosil bo'lishi issiqligi ( $\Delta H$ ) shartli ravishda nol deb qabul qilingan.

Gazlar aralashmasining entalpiya qiymatini aniqlash uchun esa, aralashtirish qoidasidan foydalaniladi:

$$\Delta H_{\text{aralashma}} = 1/100 (a_0 H_1 + b_0 H_2 + C_0 H_3 + \dots) \quad (26.2)$$

Bunda,  $a_0$ ,  $b_0$ ,  $C_0$  – aralashmadagi har bir gazning miqdori, hajmi %,  $H_1$ ,  $H_2$ ,  $H_3$  – shu gazlarning entalpiyaları. (J/mol; kJ/mol hisobida).

### MASALALAR YECHIMLARIDAN NAMUNALAR

**1-misol.** Agar spirtning bug' hosil qilish solishtirma issiqligi 858,95 J/g, bug'ining solishtirma hajmi 607  $\text{sm}^3/\text{g}$  bo'lganda, 20 g spirtning qaynash haroratidagi bug'lanish ichki energiya o'zgarishini hisoblab toping.

**Yechish.** Bunda termodinamikaning birinchi qonuni tenglamasi (16.2) dan foydalaniladi:

$$Q = J/g = 858,95 \text{ J/g}$$

Spirt qaynaganda, uning bug' bosimi atmosfera bosimi  $R = 101325 \text{ Pa}$  teng bo'ladi. Hisoblashda bug'langan spirtning grammlardagi miqdorini hisobga olish lozim, kengavish ishini joullarda, hajmi esa  $\text{m}^3/\text{g}$  da ifodalash kerak. Jarayon izobar holatda kechadi. (18.2) formulaga muvofiq:

$$A_p = 101325 \cdot 0,607 \cdot 10^{-3} = 61,48 \text{ J},$$

$$\Delta U = 20 (858,95 - 61,48) = 15949 \text{ J} = 15,949 \text{ kJ}; \Delta U > 0.$$

**2-misol.** Suvning bug' hosil qilish solishtirma issiqligi 2451 J/g. Suv bug'lari ideal gaz qonuniga bo'ysunadi, deb faraz qilinsa,  $20^\circ\text{C}$  da 100 g suv bug'lanishida ichki energiyaning o'zgarishini aniqlang.

**Berilgan:**  $m = 100 \text{ g}$ ;  $\text{MH}_2\text{O} = 18 \text{ g/mol}$ ;  $R = 8,314$ ;  $T = 293 \text{ K}$ .

**Noma'lum:**  $\Delta U = ?$

**Yechish.** Bunda ideal gaz holat tenglamasidan foydalaniladi:

$$R \Delta V = nRT, \text{ amma } P\Delta V = A \text{ bo'lGANI uchun}, \\ A = n RT = (100/18) 8,314 \cdot 293,$$

$$\Delta U = 100 (2451 - \frac{8,314 \cdot 293}{18}) = 231,57 \text{ kJ bo'ladi.}$$

**3-misol.**  $S = 40,2 \text{ J/mol}$  bo'lgan  $5 \cdot 10^{-3} \text{ kg CO}_2$  gazi o'zgarmas ha-jmda 573 dan 673 K gacha qizdirilsa, qancha issiqlik sarf bo'ladi?

**Berilgan:**  $m = 5 \cdot 10^{-3}$  kg;  $M_{CO_2} = 44 \cdot 10^{-3}$  kg;

$$n = \frac{5 \cdot 10^{-3}}{44 \cdot 10^{-3}} = 0,114 \text{ mol. } S = 40,2 \text{ J/mol; } T_1 = 573 \text{ K;}$$

$T_2 = 673 \text{ K; } \Delta T = 100 \text{ K.}$

**Noma'lum:**  $Q = ?$

**Yechish.**  $Q = nC(T_2 - T_1) = 0,114 \cdot 40,2 \cdot 100 = 458,3 \text{ J.}$

**4-misol** 293 K va 101325 Pa bosimda hajmni  $0,0112 \text{ m}^3$  bo'lgan  $CO_2$  gazi 313K gacha qizdirilgan, natijada uning hajmi  $0,0224 \text{ m}^3$  ortgan. Gazning kengayishida qancha ish bajarilgan? Jarayon natijasida qancha issiqlik ajralgan?

**Berilgan:**  $T_1 = 293 \text{ K; } V_1 = 0,0112 \text{ m}^3; R = 101325 \text{ Pa;}$

$T_2 = 313 \text{ K; } V_2 = 0,0224 \text{ m}^3$

**Noma'lum:**  $A = ?, Q = ?$

**Yechish.**

$$1) A = R(V_2 - V_1) = 101325(0,0224 - 0,0112) = 113,5 \text{ J}$$

$$2) C = S/2 \cdot R = 2,5 \cdot 8,314 = 20,785 \text{ J/mol-K}$$

$$3) Q = nC(T_2 - T_1) = 0,5 \cdot 20,785 (313 - 293) = 207,55 \text{ J.}$$

**5-misol.** 323 K va 101325 Pa bosimdagi 1 mol havoning harorati 248 K gacha pasaytirilsa, qancha ish bajariladi?

**Berilgan.**  $T_1 = 323 \text{ K; } n = 1 \text{ mol; } T_2 = 248 \text{ K; }$

$R = 101325 \text{ Pa; }$

**Noma'lum:**  $P_2 = ?, A = ?$

**Yechish.**

$$1) P_1/T_1 = P_2/T_2 \text{ dan } P_2 = \frac{P_1 \cdot T_2}{T_1} = \frac{101325 \cdot 248}{323} = 77797,5 \text{ Pa.}$$

$$2) A = 2,303 n \cdot RT \lg \frac{P_1}{P_2} = 2,303 \cdot 1 \cdot 8,314 \cdot 248 \lg \frac{101325}{77797,5} = 539 \text{ J.}$$

**6-misol.** 298 K da hajmi  $1 \cdot 10^{-2} \text{ m}^3$  bo'lgan 2 mol azot gazi izoter-mik kengayganda hajmi  $2,5 \cdot 10^{-5}$  ga yetadi. Shu hajm kengayganida gaz qancha ish bajaradi?

**Berilgan:**  $T = 298 \text{ K; } n = 2 \text{ mol; } V_1 = 1 \cdot 10^{-2} \text{ m}^3;$

$V_2 = 2,5 \cdot 10^{-5} \text{ m}^3$

**Noma'lum:**  $A = ?$

**Yechish.**

$$A = 2,303 \cdot n \cdot RT \lg V_2/V_1 = 2 \cdot 2,303 \cdot 8,314 \cdot 298 \lg \frac{2,5 \cdot 10^{-5}}{1 \cdot 10^{-2}} = 4541 \text{ J.}$$

## MUSTAQIL ISHLASH UCHUN MISOL VA MASALALAR

1. Toluolning bug'lanish issiqligi  $317,8 \text{ J/g}$ . Uning bug'i ideal gaz qonuniga bo'ysunadi, deb faraz qilinsa,  $303 \text{ K}$  da  $5 \cdot 10^{-2} \text{ kg}$  toluol bug'lanishida ichki energiyaning o'zgarishini toping.

Javobi:  $26,72 \text{ kJ}$ .

2.  $100 \text{ kmol}$  gazlar aralashmasi tarkibida hajm jihatdan (%):  $52 \text{ H}_2$ ;  $30 \text{ CO}_2$ ;  $15 \text{ N}_2$  va  $3 \text{ SO}$  gazlari bo'lib, shu aralashma  $773 \text{ K}$  dan  $1073 \text{ K}$  gacha qizdirilganda (bosim normal) qancha issiqlik sarf bo'ladi? Gazlarning ko'rsatilgan haroratdagi entalpiya qiymatlari 5-jadvaldan olinadi.

Javobi: a)  $1697,8 \text{ KJ}$ ; b)  $2819,4 \text{ kJ}$ ; v)  $1121,6 \text{ kJ}$ .

3. Benzolning bug'lanish issiqligi  $30,92 \text{ kJ/mol}$  bolsa, (benzol bug'larining ideal gaz qonunlariga bo'ysunishini hisobga olib),  $293 \text{ K}$  da  $0,2 \text{ kg}$  benzolning bug'lanishidagi ichki energiya o'zgarishini toping.

4. Entalpiya qiymatlariidan foydalanib (ilovadagi 5-jadval) normal bosimdan  $100 \text{ kg}$  suv bug'larining  $500$  dan  $100^\circ\text{C}$  gacha sovitilganida bergen issiqlik miqdorini aniqlang.

Javobi:  $-80641,5 \text{ kJ}$ .

5. Normal bosimda hajmi ulushi  $25\%$  azot va  $75\%$  vodoroddan tarkiblangan  $100 \text{ kmol}$  gazlar aralashmasini  $100$  dan  $500^\circ\text{C}$  gacha qizdirish uchun kerak bo'ladigan issiqlik miqdorini hisoblang. Gazlar entalpiyasi ilovadagi 4-jadvaldan oling.

Javobi:  $11840 \text{ kJ}$ .

6. Normal sharoitda olingen  $5 \cdot 10^{-3}$  kripton gazi o'zgarmas hamda  $543 \text{ K}$  gacha qancha issiqlik ajraladi?

Javobi:  $-4109,345 \text{ J}$ .

7. Azot gazi  $98,340 \text{ Pa}$  bosimda qizdirilganida uning hajmi  $2 \text{ m}^3$  dan  $5 \text{ m}^3$  gacha ortadi. Shu gaz kengayganda qancha ish ( $A$ ) bajaradi?

Javobi:  $29,5 \text{ kJ}$ .

8.  $0,2 \text{ kg}$  havo  $1,325 \cdot 10^6 \text{ Pa}$  bosimda  $8 \cdot 10^{-2} \text{ m}^3$  hajmni egallaydi. O'zgarmas bosimda shu gazning hajmi 4 marta oshirilsa, qancha ish ( $A$ ) bajariladi?

Javobi:  $2193 \text{ J}$ .

$300 \text{ K}$  da  $1 \text{ mol}$  xlor gazi izotermik kengayib, hajmi  $2,24 \cdot 10^{-3} \text{ m}^3$  dan  $22,4 \cdot 10^{-2} \text{ m}^3$  gacha oshsa, shu jarayonda qancha ish ( $A$ ) bajariladi.

Javobi:  $691,95 \text{ kJ}$ .

9.  $1 \text{ mol}$  azotni  $283 \text{ K}$  dan  $303 \text{ K}$  gacha izoxorik qizdirish uchun qancha issiqlik kerak bo'ladi?

Javobi:  $415,7 \text{ J}$ .

10.  $1 \text{ m}^3$  etilenni  $273 \text{ K}$  dan  $573 \text{ K}$  gacha qizdirish uchun qancha issiqlik sarflanadi? Hisoblash uchun ko'rsatilgan haroratlardagi entalpiya qiymatlarini 5-jadvaldan oling.

Javobi:  $691,96 \text{ kJ}$

11.  $1 \text{ m}^3$  metanni  $373 \text{ K}$  gacha qizdirish uchun qancha issiqlik sarflanadi? Hisoblash uchun ko'rsatilgan haroratlardagi entalpiya qiymatlarini ilovadagi 5-jadvaldan oling.

Javobi:  $841,4 \text{ J}$ .


12.  $0,1 \text{ kg}$  gazlar aralashmasidan miqdor jihatdan  $82\%$  azot,  $8\%$  sulfid angidrid va  $10\%$  kislород bo'lib, normal bosimda shu gazlar aralashmasini  $573$  dan  $773 \text{ K}$  gacha qizdirish uchun qancha issiqlik kerak bo'ladi? Ko'rsatilgan haroratlar uchun entalpiya qiymatlarini ilovadagi 5-jadvaldan oling.

Javobi:  $21411 \text{ kJ}$ .

### 2.3. TERMOKIMYO. GESS QONUNI

Moddalarning kimyoviy o'zgarishi, shuningdek, fizikaviy jarayonlar (bug'lanish, kondensatsianish, suyuqlanish, erish, sublimatsianish va boshqalar) sisternadagi moddalar ichki energiyasining o'zgarishi bilan kechadi. Natijada shu jarayonlarning hammasi issiqlik ajralishi yoki yutilishi bilan sodir bo'ladi.

Ko'pchilik reaksiyalar issiqlik chiqishi bilan (ekzotermik reaksiyalar), ba'zan issiqlik yutilishi bilan boradi (endotermik reaksiyalar). Chiqarilgan issiqlik musbat (+), yutilgan issiqlik manfiy (-) ishora bilan belgilanadi. Issiqliknki e'tiborga olganda reaksiya quyidagicha yoziladi:



Shunday jarayonlarning issiqlik effektini termodinamikaning termokimyo bo'limi o'rGANADI.

Turli jarayonlarda, shu jumladan, kimyoviy jarayonlarda ajraladigan yoki yutiladigan issiqlikka reaksiyaning issiqlik effekti deyiladi.

Termokimyoda (termodinamikaning aksicha) yutilayotgan issiqlik miqdori manfiy, chiqayotgani esa musbat ishora bilan ifodalanadi; uni

$$-Q = \Delta H \quad \text{yoki} \quad \dot{Q} = -\Delta H \quad \text{ko'rinishda yoziladi.}$$

Kimyoviy reaksiyaning issiqlik effekti  $\text{J/mol}$  yoki  $\text{kJ/mol}$  bilan ifodalanadi. Issiqlik effektining qiymati jarayonning borish sharoitiga bog'liq; izobarik jarayon uchun  $\dot{Q}_P$  ( $P = \text{const}$ ) bilan belgilanadi.

Termodinamikaning I-qonuniga muvofiq kimyoviy reaksiyaning issiqlik effekti:

$$Q_v = U_2 - U_1 \text{ yoki } Q_p = H_2 - H_1 = -\Delta H, \quad (27.2)$$

bundan esa

$$\bar{Q}_p = \bar{Q}_v - R \cdot \Delta V \quad (28.2)$$

$R$  – jarayon sodir bo'layotgan sistemaning bosimi, Pa yoki kPa;

$\Delta V$  – sistemaning o'zgargan hajmi.

Ideal gaz ishtirokida borayotgan sistemada ( $R = \text{const}$ ) hajm o'zgarishi, molekulalalar sonining o'zgarishiga bog'liq, ya'ni  $R\Delta V = \Delta nRT$  asosida (28.2) formula  $Q_p = Q_v + \Delta nRT$  qiymatga ega bo'ladi.

$V = \text{const}$  bo'lganda (27.2) formula asosida issiqlik effekti

$Q_v = Q_p - \Delta nRT$  bilan belgilanadi.

Kimyoviy reaksiyaning issiqlik effekti haroratga, reaksiyaga kirishayotgan moddalarning tabiatiga, agregat holatlari va boshqalarga bog'liq.

Odatda, ma'lumotnomalarda reaksiyada ishtirok etayotgan moddalarning hosil bo'lish issiqliklari standart sharoitda berilgan bo'ladi. Lekin jadvallarda hamma moddalalar hosil bo'lish issiqliklarini ko'rsatishni ilozi yo'q. Shuning uchun ko'pincha reaksiyalarning issiqlik effektini Gess qonuni va undan kelib chiqadigan xulosalar yoki kimyoviy moddalarni tarkibida atomlararo kimyoviy bog'lanish energiyasi asosida hisoblanadi.

Gess qonuniga muvofiq, kimyoviy reaksiyalarning tung'un hajm va tung'un bosimdag'i issiqlik effekti sistemaning boshlang'ich va oxirgi holatiga bog'liq bo'lib, jarayonning borish yo'liga, qanday oraliq bosqichlar orqali bog'langanligiga bog'liq emas.

Termokimyoviy hisoblashlarda Gess qonunidan keltirib chiqarilgan ikkita xulosadan foydalaniлади.

1) kimyoviy reaksiyaning issiqlik effekti reaksiya mahsulotlarining hosil bo'lish issiqligi yig'indisidan reaksiyaga kirishayotgan moddalarning hosil bo'lish issiqlik yig'indisining ayirmasiga teng.

Moddalarning hosil bo'lish issiqligini hisoblashda moddalarni oldidagi stexiometrik koefitsiyentlar, albatta, hisobga olinadi.

Kimyoviy reaksiyaning issiqlik effektini aniqlash tenglamasi quyidagicha yoziladi:

$$\Delta N_{r-ya} = \sum \Delta H^0_{\max} - \sum \Delta H^0_{\text{reag}} \quad (29.2)$$

Masalan, aluminiy oksid va sulfat angidriddan aluminiy sulfat tuzi hosil bo'lish reaksiyasing issiqlik effektini aniqlash zarur bo'lsa, dastlab reaksiya tenglamasini yozib, koefitsiyentlar tenglashtiriladi:



$$\Delta N_{r-ya} = \sum \Delta H^0 Al_2(SO_4)_3 - (\Delta H^0 Al_2O_3 + 3 \Delta H^0 SO_3)$$

bo'ladi.

1) Kimyoviy reaksiyaning issiqlik effekti reaksiyaga kirishayotgan moddalarning yonish issiqligi yig'indisidan mahsulotlarning yonish issiqliklari yig'indisini ayirmasiga teng bo'ladi.

$$\Delta N_{r-ya \text{ yon}} = \sum \Delta H^0_{\text{reag yon}} - \sum \Delta H^0_{\text{maxs.yon}} \quad (30.2)$$

Gess qonunidan keltirib chiqarilgan shu ikkita qoida asosida standart sharoitda berilgan noorganik moddalarning hosil bo'lish va organik moddalarning yonish issiqliklaridan foydalanib, turli xil reaksiyalarning issiqlik effektlarini aniqlash mumkin.



Kimyoviy reaksiyalar uchun 3 xil issiqlik effekti ifodasi mavjud:  
a) reaksiya issiqligi; b) molekulaning hosil bo'lish issiqligi; v) yonish issiqligi.

Reaksiya issiqlik effekti ( $\Delta H_P$ ) — ma'lum reaksiyada ajralgan yoki yutilgan issiqlikdir. Masalan,



bu yerda, g — gaz; s — suyuqlik; q — qattiq holatlar.

Hosil bo'lish issiqligi ( $\Delta H_{hos}$ ) — 1 mol molekula oddiy moddalardan hosil bo'lganda ajralgan yoki yutilgan issiqlikdir. Masalan,



bu yerda,  $\Delta H_1$ ,  $\Delta H_2$ ,  $\Delta H_3$  — sulfat kislota, oltingugurt (IV) oksid va  $H_2O$  ning hosil bo'lish issiqlik effekti.

Oddiy modda ( $H_2$ ,  $O_2$ ,  $N_2$ ,  $CH_4$  va hokazo) molekulalarining hosil bo'lish effekti nolga teng deb qabul qilingan.

Erish issiqligi ( $\Delta H_{erish}$ ) — bir mol (1 kmol) moddaning ko'p miqdordagi erituvchi (300-400 mol) da erishida yutilgan yoki ajralib chiqqan issiqlik miqdoridir. Erish issiqligining effektini tajribada aniqlash

mumkin. Ko'pgina moddalarning erish issiqlik effektlari ma'lumotnomada jadvallarida beriladi. Agar erigan modda bilan erituvchi molekulalari o'zaro ta'sirlashib gidratlar (solvatlar) hosil qilsa yoki erigan moddaning molekulalari ionlarga dissotsialansa, jadvalda berilgan erish issiqliginining effekti qiymatiga gidratlanish (solvatlanish) hamda dissotsialanish issiqliklarining qiymatlari qo'shilgan bo'ladi. 1 mol modda so'f holda va ko'p miqdordagi (erituvchi miqdori  $n \rightarrow \infty$ ) erituvchida ajralib chiqqan yoki yutilgan issiqlik miqdori o'sha moddaning integral erish issiqligi deyiladi.

Erish issiqligini tajribada aniqlash uchun g kg modda G kg erituvchida eritiladi va termometr bilan temperaturalari aniqlanib, ular orasidagi ayrim ( $\Delta t$ ) hisoblanadi.

Erish issiqligi quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$\Delta N_{\text{erish}} = \frac{(C_p m + C_{\text{kal}}) \Delta t \cdot M}{g} \quad (31.2)$$

bunda,  $m$  — eritma massasi ( $m = G + g$ );

$G$  — erituvchi miqdori, kg;

$g$  — erigan modda miqdori, kg;

$M$  — erigan moddaning molekula massasi, kg;

$C_p$  — eritmaning issiqlik sig'imi;

$K$  — kalorimetrik doimiyligi yoki asbobning issiqlik sig'imi.

1 mol mineral kislota  $n$  mol suvda eritilgandagi erish issiqligi quyidagi empirik formula bilan hisoblanadi:



Tuzlarning erish issiqligi kalorimetrik asbobi yordamida o'lchanadi. Dastlab erituvchi harorati  $t_1$  so'ng tuz erituvchiga solingandan keyingi erish paytidagi harorat  $t_2$  o'lchanadi. Haroratlarni farqi  $\Delta t$  ni hisoblab, tuzning erish issiqligi quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$Q_{\text{erish}} = K \cdot \Delta t \quad (34.2)$$

bunda,  $K$  — kalorimetrik doimiyligi;

$\Delta t = t_2 - t_1$  — eritma va erituvchi haroratlari orasidagi ayirma.

Yonish issiqligi ( $\Delta H_{f0}$ ) — 1mol moddaning kislород оқимидан то'ла yonganda ajralgan issiqlik (kJ) miqdoridir. Masalan,



Yonish issiqligi ham calorimetrik yordamida aniqlanadi. Yonish issiqligini aniqlash uchun D.P. Konovalov tenglamasidan foydalaniлади:

$$\Delta H_{v\text{ yon}} = 204,2 n + 44,4 m + x \quad (35.2)$$

bunda,  $n$  — 1mol moddaning to'liq yonishi uchun sarflangan kislородning miqdori;

$m$  — suvning mol sonlari;

$x$  — termik xususiyati, uglevodorodlarning gomologik qatori uchun doimiy son.

### MISOL VA MASALALAR YECHIMILARIDAN NAMUNALAR

**1- misol.**  $CaCO_3 = CaO + CO_2$ ,  $\Delta H^0 = 158,2$  kJ bu reaksiya tenglamasining yozilishi nimani anglatadi?

**Javob:** 1 mol  $CaCO_3$  ni parchalash uchun 158, 2 kJ ga teng issiqlik sarflanadi, ya'ni bu reaksiya endotermik bo'lib, termodinamika bo'yicha musbat ishora bilan belgilanadi.

**2-misol.** Metanning yonish reaksiyasi



Standart o'zgarish entalpiya ( $\Delta H^0$ ) sini,  $CO_2(g)$ ,  $H_2O(l)$  va  $CH_4(g)$  larning hosil bo'lish entalpiyalari — 393,5; — 241,8 va —74, 9 kJ/mol ligini bilgan holda aniqlang.

**Yechish.**  $CO_2$ ,  $H_2O$  va  $CH_4$  larning hosil bo'lish termokimyoiy tenglamalari yoziladi:



(a) tenglama bilan (b) tenglamani ikkiga ko'paytmasini jamlab, (d) tenglama ayirilsa, berilgan reaksiyaning termokimyoviy tenglamasi kelib chiqadi:



$$\Delta H^0 = \Delta H^0 \text{ CO}_2 + 2\Delta H^0 \text{ H}_2\text{O} - \Delta H^0 \text{ CH}_4$$

Misolda keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib, istalgan kattalikni quyidagicha topiladi:

$$\Delta H^0 = -393,5 - 241,8 \cdot 2 + 74,9 = -802,2 \text{ kJ}$$

**3-misol.** Magniy oksidning hosil bo'lish entalpiyasi  $-601,8 \text{ kJ/mol}$  va  $\text{CO}_2$  ning hosil bo'lish entalpiyasi  $-393,5 \text{ kJ/mol}$  ekanligini bilgan holda,



reaksiyaning standart entalpiya o'zgarishi ( $\Delta H^0$ ) ni hisoblang:

$$\text{Yechish. } \Delta H^0 = 2\Delta H^0 \text{ MgO} - \Delta H^0 \text{ CO}_2 = -601,8 \cdot 2 + 393,5 = -810,1 \text{ kJ.}$$

Demak,  $\Delta H^0 = -810,1 \text{ kJ}$  ga teng bo'ladi.

**4-misol.** 288 K da oddiy moddalardan metanning hosil bo'lish issiqlik effekti ( $P = \text{const}$ )  $\bar{Q}_P = 74,95 \text{ kJ/mol}$ . Shu haroratdagi  $\bar{Q}_V$  ni aniqlang.

**Berilgan:**  $T = 298 \text{ K}$ ;  $\bar{Q}_P = 74,95 \text{ kJ/mol}$

**Noma'lum:**  $\bar{Q}_V = ?$

**Yechish.** Reaksiya tenglamasini yozib, mol sonlari yig'indisi hisoblanadi:



$$\bar{Q}_P = \bar{Q}_V - n \cdot RT \text{ dan } \bar{Q}_V \text{ aniqlanadi.}$$

$$\begin{aligned} \bar{Q}_V &= \bar{Q}_P + n \cdot RT = 74,95 \text{ kJ} - 18,314 \cdot 298 = 74,95 - 2477,6 \text{ J} \\ &= 74,95 - 2,4776 = 72,47 \text{ kJ/mol.} \end{aligned}$$


**5-misol.** Etanning yonish issiqligi 1562, metanniki 891 va vodorodniki 285,84 kJ/mol ekanligini hisobga olib,  $\text{C}_2\text{H}_6 + \text{H}_2 \rightleftharpoons 2\text{CH}_4 + \Delta H_1$  reaksiyaning issiqlik effektini hisoblang.

**Berilgan:**  $\Delta H^0 \text{ CH}_4 = 891 \text{ kJ/mol}$ ;  $\Delta H^0 \text{ C}_2\text{H}_6 = 1562 \text{ kJ/mol}$ ;

$$\Delta H^0 \text{ H}_2 = 285,84 \text{ kJ/mol.}$$

**Noma'lum:**  $\Delta H^0 = ?$

**Yechish.** Moddalarning yonish reaksiyalari tenglamasi yoziladi:



2) reaksiyaning issiqlik effekti (29.2) formuladan hisoblanadi:

$$\Delta N = (\Delta N C_2H_6 + \Delta H^0 H_2) - 2 \\ \Delta H^0 = (1562 + 285,84) - 2 \cdot 891 = 65,84 \text{ kJ/mol.}$$

**6-misol.** Moddalarning standart sharoitda berilgan ( $\Delta H^0$ ) hosil bo'lish entalpiya qiymatlaridan soydalanib, quyidagi reaksiyalarning issiqlik effektlarini toping:



**Yechish.** 8-jadvaldan  $\Delta H^0$  298 larning qiymatlari olinadi:



$$\Delta N = (52,28 + 285,84 \cdot 2) + 2 \cdot 110,5 = 298,4 \text{ kJ/mol}$$




$$\Delta H^0 = (3 \Delta H^0 FeO - \Delta H^0 H_2O) - \Delta H^0 Fe_3O_4$$

$$\Delta H = (-3 \cdot 263,68 - (285,84 - 1117,71)) = 40,83 \text{ kJ/mol.}$$

**7-misol.** 2,1 g oltingugurt bilan to'liq birikkanda 3,77 kJ issiqlik ajralib chiqadi. Temir (II)-sulfidning hosil bo'lish issiqligini aniqlang.

**Yechish.** Reaksiyaning termokimyoiy tenglamasi:



**8-misol.**  $9,34 \cdot 10^{-3}$  kg KCl tuzi  $0,4454$  kg suvda eritilganda harorat  $-1,12^\circ\text{C}$  ga pasayadi. Hosil qiligan eritmaning solishtirma issiqlik sig'imi  $4,1 \text{ J/g}\cdot\text{K}$  bo'lib, asbob doimiyligi  $122,7 \text{ J/g}\cdot\text{K}$  ekanligini hisobga olib, tuzning erish integral issiqligini hisoblang.

**Berilgan:**  $m_1 = 9,34 \cdot 10^{-3}$  kg;  $M_{\text{KCh}} = 0,074$  kg;  
 $m_2 = 0,4454$  kg (suv);  $m = 9,34 \cdot 10^{-3} + 0,4454 = 0,445$  kg (eritma);  
 $\Delta t = -1,12^\circ\text{C}; \quad SR = 4,1 \text{ J/g}\cdot\text{K}; \quad K = 122,7 \text{ J/g}\cdot\text{K}$

**Noma'lum:**  $\underline{\underline{Q}_{\text{int}}}^{\text{KCl}} = ?$

**Yechish.** Erishning integral issiqligi

$$Q = \frac{(C_r \cdot m + K) \Delta t \cdot M}{g} \quad \text{dan hisoblanadi:}$$

$$Q = \frac{(4,1 \cdot 0,4454 + 122,7) \cdot (-1,12 \cdot 0,074)}{9,34} = 17622,3 \text{ J/mol.}$$

**9-misol.**  $0,5$  kg suvda  $38\%$  li HCH dan  $0,2$  kg eritilganida qancha issiqlik ajraladi?

**Berilgan:**  $m_1 = 0,5$  kg;  $S = 38\%$ ;  $m_2 = 0,2$  kg

**Noma'lum:**  $n_1 = ?$ ;  $n_2 = ?$ ;  $g = ?$

**Yechish.** 1) eritma tarkibidagi HCl miqdori hisoblanadi:

a)  $100 : 38 = 200 : x \quad x = 7,6 \cdot 10^{-2} \text{ kg}$

b)  $n_2 = \frac{7,6 \cdot 10^{-2}}{0,0365} = 2,08 \text{ mol.}$

2) eritma tarkibidagi suv massasi aniqlanadi:  $0,2 - 7,6 \cdot 10^{-2} = 0,124 \text{ kg.}$

a) suvning umumi massasi:  $0,5 + 0,124 = 0,624 \text{ kg};$

b)  $n_1 = \frac{0,624}{0,018} = 34,7 \text{ mol.}$

3) 1 mol xlorid kislota uchun sarflangan suvni mol miqdori hisoblanadi:  $34,7 : 2,08 = 16,7 \text{ mol.}$

4) erish issiqligi  $g = \left( \frac{50,1 \cdot n}{n+1} + 22,5 \right)$  dan hisoblanadi:

$$g = \left( \frac{50,1 \cdot 16,7}{16,7 + 1} + 22,5 \right) = 69,77 \text{ kJ/mol.}$$

### MUSTAQIL ISHLASHI UCHUN MISOL VA MASALALAR

1. Termodinamikaviy sistemaning holati quyidagicha ifodalanadi:

- a) tashqi muhit bilan massa va energiya almashinmaydi;
- b) tashqi muhit bilan faqat issiqlik almashinadi;
- d) tashqi muhit bilan massa va energiya almashinadi.

Bunday sistemalar qanday nomlanadi? Bu sistemalarda elektr zaryadi o'zgarishi sodir bo'ladi?

2. Quyidagi sistemalar qaysi termodinamikaviy sistema turlariga mansubligini belgilang:

- a) muz solingan termos;
- b) qaynoq suvli isitgich;
- d) quyidagi reaksiya amalga oshayotgan probirkaga



- e) argon gazi solib kavsharlangan ampula;

f)  $\text{H}^+_{(\text{e})} + \text{OH}^-_{(\text{e})} + 55,84 \text{ kJ}$  ko'rinishdagi neytrallanish reaksiyasi kechayotgan shisha idish.

3.  $P = \text{const}$  da kechayotgan kimyoiy jarayon gazsimon moddalarning hajmi o'zgarishi bilan kechib, bunda: a) reaksiyaga kirishayotgan moddalar hajmi reaksiya mahsulotlarinikidan kam; b) reaksiyaga kirishayotgan moddalar hajmi reaksiya mahsulotlarinikidan ko'p bo'lsa, ularning qaysi birida bajarilgan mexanikaviy ish, musbat yoki mansiy bo'ladi?

4. Quyidagi sistemalar uchun termodinamikaning birinchi bosh qonuning matematikaviy ifodasini keltiring: a) izolirlangan; b) yopiq, unda issiqlik almashinuvni sodir bo'lib, ish bajariladi; d) yopiq, unda ish bajarilmaydi; e) yopiq, unda issiqlik almashinuvni sodir bo'lmaydi.

5. Termodinamikaning birinchi bosh qonuni ifodalarida quyidagicha bo'lgan sistemalarining nomlarini ko'rsating:

- a)  $\Delta U = Q$ ;   b)  $\Delta U = -A$ ;   d)  $\Delta U = 0$ ;
- e)  $\Delta U = Q - A$ ;  $\Delta U \neq 0$ .

6. Quyidagi faza o'zgarishlarining qaysi biri ekzotermik va qaysilari endotermik bo'ladi?

- a)  $HG_{(s)} = HG_{(g)}$ ; b)  $NA_{(k)} = Na_{(s)}$ ; d)  $J_2 \frac{(s)}{(l)} = J_2 \frac{(k)}{(l)}$ ;  
c)  $C_{(\text{grafit})} = C_{(\text{olmos})}$ ; f)  $Br_2 \frac{(g)}{(l)} = Br_2 \frac{(s)}{(l)}$ ; g)  $C_{(\text{romb})} = C_{(g)}$ .

7. Qaysi reaksiya entalpiyasi gazsimon ozonning hosil bo'lish standart entalpiyasiga to'g'ri kelishini ko'rsating.

- a)  $3O_{(g)} = 3O_{(g)}$ ; b)  $\frac{1}{5} O_{2(g)} = O_{3(g)}$ ;  
d)  $O_{2(g)} + O_{(g)} = O_{3(g)}$ ; e)  $2O_{2(g)} = O_{(g)} + O_{3(g)}$ .

8. Izolrlangan sistemada quyidagi jarayonlar kechadi:

- a) muz holatdagи suvning hammasи suyuq holatga o'tadi;  
b) muz bir qismi suyuq holatga o'tadi;  
d) suyuq suvning hammasи bug'simon holatga o'tadi;  
e) suyuq suvning bir qismi bug'lanadi.

Ko'rsatilgan jarayonlar tugagandan so'ng ham sistemaning entropiya o'zgarishi davom etadimi?

9. Quyidagi tenglama bo'yicha  $PH_3$  ning hosil bo'lish standart entalpiyasini ( $\Delta N_{298}$ ) aniqlang:



Javobi: 5,3 kJ/mol.

10.  $2C_{(\text{grafit})} + 2H_2 = C_2H_4 + \Delta H_{(r-y)}$ , shu reaksiyada ishirok etayotgan moddalardagi atomlararo bog'lanish energiya qiymatlarini 7-jadvaldan olib, etilennenin hosil bo'lish issiqligini hisoblang va olingan natijaning nazariy berilgan – 52,2 kJ/mol qiymat bilan taqqoslang.

Javobi: - 52,2 kJ/mol.

11. Agar 1,473 g ammoniy xlorid tuzini 528, 5 G suvda eritilganda harorat  $0,174^\circ\text{C}$  ga kamaysa, tuzning integral erish issiqligini aniqlang. Hosil qilingan eritmaning issiqlik sig'imi 4,109 J/(G K), kalorimetring issiqlik sig'imi esa 181,4 J / K ga teng.

Javobi : -15,11 kJ/mol.

12. 200 g  $H_2SO_4$  monogidrati  $350 \text{ sm}^3$  suvda eritilganda qancha miqdor issiqlik ajralib chiqadi?

Javobi: 128,28 kJ.



13.  $2C_2H_{2(g)} + C_3H_{4(g)} \rightarrow C_6H_6 - CH_{3(s)}$ ; reaksiyaning 773 K dagi  $Q_p$  va  $Q_v$  lar orasidagi ayirmani toping.

Javobi: 19280,2 kJ.

14.  $2\text{Fe} + \frac{3}{2}\text{O}_2 = \text{Fe}_2\text{O}_3$  reaksiyaning 291 K dagi issiqlik effekti 823,3 kJ/mol. Shu reaksiya uchun  $Q_v$  ni aniqlang.

Javobi: 826,93 kJ.

15. Quyidagi keltirilgan reaksiyalar ma'lumotlaridan foydalanib:



etil spiritning yonish issiqlik effekti hisoblansin.

Javobi: 1367,32 kJ.

16.  $6\text{C} + 3\text{H}_2 = \text{C}_6\text{H}_6 + \Delta H_1$  shu reaksiya asosida, moddalarning yonish issiqligi qiymatlaridan foydalanib,  $\Delta H^\circ \text{ H}_2 = 285,84 \text{ kJ/mol}$ ;  $\Delta H^\circ \text{ C}_6\text{H}_6 = 3282,4 \text{ kJ/mol}$ ;  $\Delta H^\circ \text{ C} = 394 \text{ kJ/mol}$ , benzolning hosil bo'lish issiqligini hisoblang.

Javobi: - 60,9 kJ.

17.  $4,9 \cdot 10^{-3}$  kg sulfat kislota 0,25 kg suvda eritilganda qancha issiqlik ajraladi.

Javobi: 716677,51 kJ.


18.  $5 \cdot 10^{-4} \text{ m}^3$  suvda 20% li 0,17 kg NCH eritilganda erish issiqligi qancha bo'ladi?

Javobi: - 150,91 kJ/mol.

19. Normal sharoitda olingan 8,4 l qaldiroq gazning portlashida ajraladigan issiqlik miqdorini toping.

Javobi: 60,5 kJ.

20. Quyidagi reaksiyaning issiqlik effektidan foydalanib, kalsiy ortofosfatning hosil bo'lish standart entalpiyasi ( $\Delta H_{298}^\circ$ ) ni aniqlang:



Javobi: - 4137,5 kJ/mol.

21. 12,7 g CuO ni ko'mir bilan qaytarilganda (CO hosil bo'lishi bilan) 8,24 kJ issiqlik yutiladi. CuO ning hosil bo'lish  $\Delta H_{298}^\circ$  aniqlang.

Javobi: - 162,1 kJ/mol.


22. Etilenning to'liq yonishi natijasida (suyuq suv hosil bo'lishi bilan) 6226 KJ issiqlik ajraladi. Normal sharoitda reaksiyaga kirishgan kislorodning hajmini toping.

Javobi: 298,5 l.

23. "Suv gazi" teng hajmdagi vodorod va CO gazlarining aralashmasidan iborat. Normal sharoitda 112 l "suv gazi" ning yonishi natijasida ajralgan issiqlik miqdorini aniqlang.

Javobi: 1312 kJ

24. Quyidagi ma'lumotlardan foydalaniib, etilennning hosil bo'lish standart entalpiya ( $\Delta H^0_{298}$ ) si aniqlansin?



Javobi: 52,4 kJ/mol.

## 2.4. TERMODINAMIKANING IKKINCHI QONUNI. ENTROPIYA

Termodinamikaning birinchi qonuniga muvofiq turli jarayonlarda energiyaning bir turdan boshqa turga aylanishi, energiyaning saqlanish qonuni chegarasida ekvivalentlik qonuniga bo'ysungan holda sodir bo'ladi. Lekin birinchi qonundan foydalaniib, ma'lum jarayonning ayni sharoitda sodir bo'lish — va bu jarayonning davom etish chegarasini oлdindan ayтиб bo'lmaydi. Birinchi qonunga asosan, faqat jarayon sodir bo'lган taqdirda, energiyaning qaysi turi va qanchasi boshqa tur energiya yaga aylanishini aytma olamiz, xolos. Kimyo qoidalariга rioya qilib yozilgan barcha kimyoviy reaksiyalar amalda sodir bo'lavermaydi. Misol uchun, ma'lum sharoitda reaksiya  $A + V = S + D$  o'ngdan chapga yoki chapdan o'nga boradimi? Bu savolga birinchi qonun javob bera olmaydi. Masalan,  $3H_2 + N_2 = 2NH_3$  ekvimolekular nisbatda oлинган bo'lsin. Reaksiya ikki tomoniga borishi mumkin: bu termodinamikaning ikkinchi qonunga zidlik qilmaydi. Agar reaksiya past bosimda va yuqori haroratda o'tkazilsa, juda kam miqdorda  $NH_3$  hosil bo'ladi, ya'ni reaksiyaning unumi juda kam bo'ladi. Ikkinchi qonun reaksiyaning unumini oshirish usullari va buning uchun reaksiyani qanday sharoitda olib borish kerakligini nazarij jihatdan ko'rsatib beradi.

Bu qonun berilgan haroratda kimyoviy jarayonlarning yo'naliishi, ularning qay darajada kechishi, entropianing o'zgarishi va barcha ener-

giya turlaridan qanchasi foydali ishga aylanishi mumkin, degan savollarga javob beradi.

Issiqlikni ishga aylantiruvchi va qayta jarayon bilan ishlaydigan mashina uchun, albatta, ham isitgich, ham sovitgich bo'lishi kerak. Agar mashinaning isitgichdan oladigan issiqligini  $Q_1$ , sovitgichi beradigan issiqligini  $Q_2$  desak, u vaqtida  $Q_1 - Q_2$  ishga aylanishi mumkin bo'lgan issiqlikni ko'rsatadi. Bu ayirma mashinaning foydali ish ( $A$ ) ni tashkil qiladi.

Isitgichdan berilgan issiqlikning ishga aylangan qismi qaytar siklning foydali ish koefitsiyenti deb yuritiladi va  $\eta$  harfi bilan belgilanadi.  $\eta$  ni topish uchun maksimal ish  $A$  ni  $Q_1$  ga bo'lish kerak:

$$\eta = \frac{A}{Q_1} = \frac{Q_1 - Q_2}{Q_1} \quad (36.2)$$

Termodinamik sikk asosida ishlaydigan ideal mashinaning foydali ish koefitsiyentini 1824-yilda fransuz fabrikanti S. Karko keltirib chiqargan:

$$\eta = \frac{Q_1 - Q_2}{Q_1} = \frac{T_1 - T_2}{T_1} \text{ yoki } \eta = \frac{T_1 - T_2}{T_1} \quad (37.2)$$

Mashinaning foydali ish koefitsiyenti mashina ichidagi mavjud jismning turi va tabiatiga emas, balki isitgich harorati  $T_1$  bilan sovitgich harorati  $T_2$  orasidagi ayirmaga bog'liq. (36.2) va (37.2) formulalar yordamida mashinaning foydali ish koefitsiyenti, mashinaga berilgan yoki mashinadan chiqarilgan issiqlik miqdori hamda bajarilgan ishning qiymatini hisoblash mumkin. Termodinamikaning ikkinehi qonuniga muvofiq sistemaning ichki energiyasi ikkita qiymat yig'indisiga teng bo'ladi:

$$U = F + TS, \text{ bundan } F = U - TS \quad (38.2)$$

bunda,  $F$  — sistemaning erkin energiyasi, ya'nii ichki energiyaning bir qismi bo'lib, o'zgarmas haroratda ishga aylanadi;

$TS$  — bog'langan energiya, bu ham ichki energiyaning bir qismi, lekin u ishga aylanmaydi;

$S$  — sistema holatiga bog'liq termodinamik funksiya, ya'nii sistemaning betartib holatini belgilovchi kattalik bo'lib, u entropiya deb ataladi.

Issiqlik mashinalarida issiqlikning ancha qismi bekorga sarflanadi. Boshqa turdag'i energiyalardan foydalananilda ham energiyaning ma'lum qismi issiqlikka aylanib, bir qismi bekorga isrof bo'ladi, masalan, elektromagnit, transformator va boshqa mashinalar ishlayotganda elektr

energiyasining bir qismi issiqlikka aylanadi. Shuningdek, elektr lampasida elektr energiyasining faqat bir qismi yorug'likka, qolgan qismi esa issiqlikka aylanadi. Issiqlikka aylangan energiya atrofdagi muhitga tarqalib ketadi va undan soydali ish olib bo'lmaydi, demak, energiyaning miqdori o'zgarmasa ham, ammo uning sisati o'zgaradi. Demak, energiya o'z qiyimatini yo'qotadi. Qiymatini yo'qotgan bunday energiya miqdorini tasniflash uchun termodinamikaga "entropiya" degan tushuncha kiritilgan.

Entropiya qiymati  $ds = \frac{dQ}{dT}$  bilan belgilanadi, bunda,  $dQ$  — qaytar jarayonda yutiladigan issiqliknинг eng kichik miqdori. Adiabatik jarayonlarda issiqlik almashinmaydi, shuning uchun:

$$ds = \frac{dQ}{dT} = 0 \quad \text{yoki} \quad S = \text{const bo'ladi.}$$

1 mol ideal gaz  $T = \text{const}$  bo'lganda, bir holatdan ikkinchi holatga o'tganda entropiya o'zgarishi quyidagi formulalar bilan aniqlanadi:

$$S_2 - S_1 = R \ln \quad (39.2)$$

yoki

$$S_2 - S_1 = R \ln \frac{P_1}{P_2} + C_p \ln \frac{T_2}{T_1} \quad (40.2)$$

bunda,  $S_v$  va  $C_v$  lar doimiy kattalik. Sistemada qattiq yoki suyuq komponentlar ishtirok etsa, bosim va hajm kam o'zgradi. Shuning uchun muddaning ma'lum massa entropiyasining o'zgarish qiymati uning issiqlik sig'imiga bog'liq bo'ladi, ya'ni  $R$  va  $V = \text{const}$  bo'lganda,

$$S_2 - S_1 = C_v \cdot \ln \frac{T_2}{T_1} \quad \text{yoki} \quad S_2 - S_1 = SR \ln \frac{T_2}{T_1} \quad (41.2)$$

bunda,  $S_v = o'zgarmas hajmdagi muddaning issiqlik sig'imi;$

$S_r = o'zgarmas bosimdagи muddaning issiqlik sig'imi.$

Moddalarning agregat holatlari o'zgarganda, ya'ni modda bir ko'rinishdan ikkinchi ko'rinishga aylanganda entropiyaning o'zgarishi faza o'zgarishidagi issiqlik qiymati bilan aniqlanadi:

$$S_2 - S_1 = \frac{Z}{T} \quad (42.2)$$

bunda,  $Z$  — faza o'zgarishning (bug'lanish, suyuqlanish, sublimatlanish, kristallanish) issiqligi;  $T$  — faza o'zgarishidagi harorat.

Entropiyaning o'lchov birligi  $J/(mol\ K)$  bilan ifodalanadi. Mod-dalarning entropiya qiymati ham standart sharoitda aniqlangan bo'lib, maxsus jadvallarda keltiriladi.

### MASALALAR YECHIMIARIDAN NAMUNALAR

**1-misol.** 12 l kislороднинг 200 dan  $-40^{\circ}\text{C}$  gacha sovitilsa, bir vaqtning o'zida bosim  $10^5$  dan  $6 \cdot 10^6 \text{ Pa}$  gacha ortadi. Agar  $C_p O_2 = 29,2 \text{ J}/(\text{mol}\ K)$  bo'lsa, entropiya o'zgarishini hisoblang (kislородни ideal gaz deb hisoblang).

**Berilgan:**

$$P_1 = 10^5 \text{ Pa}; \quad P_2 = 6 \cdot 10^6 \text{ Pa}; \quad R = 8,314; \quad V = 12 \text{ l}; \\ T_1 = 473 \text{ K}; \quad T_2 = 273 - 40 = 233 \text{ K}; \quad C_p O_2 = 29,2 \text{ J}/(\text{mol}\ K).$$

**Noma'lum:**  $\Delta S = ?$

**Yechish.** Ideal gaz holat tenglamasi ( $RV = n RT$ ) bo'yicha kislороднинг mollar soni topiladi:

$$n = \frac{PV}{RT} = \frac{10^5 \cdot 12 \cdot 10^{-3}}{8,314 \cdot 473} = 0,3052$$

(40.2) formulani qo'llab,

$$S_2 - S_1 = 0,3052 \cdot 2,303 \cdot 8,314 \ln \left( \frac{10^5}{6 \cdot 10^6} + 29,2 \ln \frac{233}{473} \right) = \\ = 16,77 \text{ J/mol K}$$

Gaz sovitilganda entropiya kamayadi ( $S_1 < S_2$ ).

**2-misol.** 200 va 300 K orasida ishlayotgan Karno ideal mashinasi 83,68 kJ issiqlikni ishga aylantiradi. 200 K da rezervuarga berilgan issiqlik miqdorini aniqlang.

**Berilgan:**  $T_1 = 300 \text{ K}; \quad T_2 = 200 \text{ K}; \quad A = 83,68 \text{ kJ}$ .

**Noma'lum:**  $Q^{-1} = ?$

**Yechish.**

1)  $\eta = \frac{T_1 - T_2}{T_1}$  dan foydali ish koefitsiyenti hisoblanadi:

$$\eta = \frac{300 - 200}{300} = \frac{100}{300} = 0,333.$$

$$2) \eta = \frac{A}{Q_1} \text{ dan } Q_1 \text{ aniqlanadi:}$$

$$0,333 = \frac{83,68}{Q_1} \text{ dan } Q_1 = \frac{83,68}{0,333} = 251 \text{ kJ.}$$

**3-misol.** 30 g qattiq sirka kislotani suyuqlanish haroratidan 60°C gacha qizdirilgandagi entropiya o'zgarishi  $\Delta S$  ni aniqlang. Qattiq sirka kislotanining suyuqlanish harorati 16,6°C, suyuqlanish issiqligi 194 J/g.

0-80°C oralig'ida uning issiqlik sig'imi  $C = 1,96 + 0,0039t$  J/(g K) formula bilan ifodalanadi.

**Berilgan:**  $M \text{CH}_3\text{COOH} = 60 \text{ g}; C = 194 \text{ J/g}; m = 30 \text{ g}; T_1 = 289,6 \text{ K}; T_2 = 333 \text{ K}$

**Noma'lum:**  $\Delta S_2 = ?$

**Yechish.** Umumiyl entropiya o'zgarishi ( $\Delta S$ ) qattiq sirka kislotani suyuqlanishidagi entropiya o'zgarishi bilan uning suyuqlanish haroratidan berilgan (60°C) haroratgacha qizdirilganda entropiya o'zgarishi ( $\Delta S_2$ ) yig'indisiga teng:

$$\Delta S = \Delta S_1 + \Delta S_2$$

(42.2) formula bo'yicha suyuqlanishdagi entropiya o'zgarishi hisoblanadi:

$$\Delta S_1 = Z/\Gamma, \text{ bundan } Z = C \cdot M \text{ bo'lgani uchun,}$$

$$Z = C \cdot M = 194 \cdot 60 = 11640 \text{ J/mol}$$

$$\Delta S_1 = 11640 / 289 \cdot 6 = 40,20 \text{ K/(mol \cdot K).}$$

30 g (0,5 mol) sirka kislota uchun  $\Delta S_1 = 20,10 \text{ J/mol \cdot K}$ .  $\Delta S_2$  ni hisoblashdan oldin  $\text{CH}_3\text{COOH}$  ning 60°C dagi issiqlik sig'imi hisoblanadi:

$$C^{60} = 1,96 + 0,0039 \cdot 60 = 2,194 \text{ J/(g K).}$$

(42.2) formula yuzasidan  $\Delta S_2$  hisoblanadi:

$$\Delta S_2 = 2,303 \cdot 30 \cdot 2,194 \ln(333/289,6) = 9,20 \text{ J/mol K}$$

$$\Delta S = \Delta S_1 + \Delta S_2 = 20,10 + 9,20 = 29,30 \text{ J/mol K.}$$

**4-misol.** Kamio ideal mashinasining foydali ish koefitsiyenti 140 va 105°C oralig'ida qanday qiymatga ega bo'ladi?

**Berilgan:**  $t_1 = 140^\circ\text{C}; T_1 = 140 + 273 = 413 \text{ K};$

$$t_2 = 105^\circ\text{C}; T_2 = 105 + 273 = 378 \text{ K;}$$

**Noma'lum:**  $\eta = ?$

**Yechish.** (37.2) formuladan  $\eta$  aniqlanadi:

$$\eta = \frac{T_1 - T_2}{T_1} = \frac{413 - 378}{413} = 0,085.$$

**S-misol.**  $25^{\circ}\text{C}$  da quyidagi reaksiyalar uchun standart entropiyalarning o'zgarish qiymatlarini aniqlang.



Bu reaksiyalarda ishtirok etayotgan moddalarning standart sharoitdagi entropiya qiymatlari 8-jadvaldan olinadi.

**Berilgan:**  $t = 25^{\circ}\text{C}$ ;  $T = 298 \text{ K}$ ;

**Noma'lum:**  $\Delta S = ?$

**Yechish.** Reaksiyada ishtirok etayotgan moddalarning entropiya qiymatlari quyidagicha:

$$\begin{array}{ll} S^0_{\text{MgO}(\text{k})} = 26,94 \text{ J}/(\text{mol K}); & S^0_{\text{CO}} = 197,4 \text{ J}/(\text{mol K}); \\ S^0_{\text{CO}_2} = 213,6 \text{ J}/(\text{mol K}); & S^0_{\text{SO}_3} = 256,23 \text{ J}/(\text{mol K}); \\ S^0_{\text{FeO}(\text{k})} = 58,79 \text{ J}/(\text{mol K}); & S^0_{\text{H}_2\text{O}_{(\text{s})}} = 69,96 \text{ J}/(\text{mol K}); \\ S^0_{\text{CO}_2} = 248,1 \text{ J}/(\text{mol K}); & \end{array}$$

$\Delta S = (S^0_{\text{H}_2\text{O}_{(\text{s})}} + S^0_{\text{Mg}}) - (S^0_{\text{H}} + S^0_{\text{MgO}})$  dan entropianing o'zgarish qiymati hisoblanadi:

- 1)  $\Delta S = 69,96 - 26,94 = 43,02 \text{ J} / (\text{mol. K})$ ;
- 2)  $\Delta S = 2S^0_{\text{SO}} - S^0_{\text{CO}_2} = 2 \cdot 197,4 - 213,6 = 181,2 \text{ J}/(\text{mol K})$ ;
- 3)  $\Delta S = 2S^0_{\text{SO}_3} - 2S^0_{\text{SO}_2} = 2 \cdot 256,23 - 2 \cdot 248,1 = 16,26 \text{ J}/(\text{mol K})$ ;
- 4)  $S = S^0_{\text{CO}_2} - (S^0_{\text{FeO}} + S^0_{\text{CO}}) = 213,6 - 256,2 = -42,6 \text{ J}/(\text{mol K})$ .

### MUSTAQIL ISHLASH UCHUN MASALALAR

1. Ichki yonuv dvigatelining maksimal harorati  $1800^{\circ}\text{C}$ , mashina silindridan chiqayotgan gazlarning minimal harorati esa  $300^{\circ}\text{C}$ . Agar dvigatel Karko sikli bo'yicha ishlasa, foydali ish koefitsiyentining maksimal imkoniyatini aniqlang.

Javobi: 72,36%.

2. Karko siklidagi 1 kg havo  $800 \text{ K}$  da  $50,28 \text{ kJ}$  issiqlikka ega bo'lsa, mashinaning issiqlik qabul qiluvchi qismi  $273 \text{ K}$  da qancha issiqlik olgan va uning foydali ish koefitsiyenti qanchaga teng bo'ladi?

Javobi: 65,88%; 26,05 KJ.

3. 42 g azotni  $150$  dan  $20^{\circ}\text{C}$  gacha sovitilsa, bosim  $5 \cdot 10^5$  dan  $2,5 \cdot 10^6 \text{ Pa}$  gacha ortadi. Agar  $C_p \text{N}_2 = 1,039 \text{ J}/(\text{g K})$  bo'lsa, bu jarayondagi entropiya o'zgarishini hisoblang.

Javobi:  $-36,11 \text{ J/K}$ .

4. 5 mol aluminiyni 0 dan  $-100^\circ\text{C}$  gacha sovitilganda entropiya o'zgarishi qancha bo'l shini aniqlang. Shu harorat oralig'idagi aluminiyning o'rtacha issiqlik sig'imi  $0,8129 \text{ J/(g K)}$  ga teng.

Javobi:  $-50,07 \text{ J/K}$ .

5. Karnoning ideal mashinasi 423 va 523 K haroratlar oralig'ida  $183,8 \text{ kJ}$  issiqlikni ishga aylantirgan. 423 K da mashina isitgichi sovitichga qancha issiqlik beradi?

Javobi:  $778,81 \text{ kJ}$ .

6. Karko mashinasining isitgichidan 281 K da  $419 \text{ kJ}$  issiqlik harorati 353 K bo'l gan sovitichga berilgan. Shu jarayon vaqtida bajarilgan ish miqdori topilsin.

Javobi:  $107,36$ .

7. Suyuqlanish haroratida suyuqlanish issiqligi  $335 \text{ J/g}$  bo'l gan  $5 \cdot 10^{-3} \text{ kg}$  suv va harorati  $348 \text{ K}$  bo'l gan  $20 \cdot 10^{-2} \text{ kg}$  suvdan sistema tuzilgan. Muz erib ketguncha, issiqlik suvdan muzga o'tadi. Issiqlik suvdan muzga o'tganda harorat necha gradusga pasayadi va qancha ish bajaradi?

Javobi:  $740,62 \text{ K}$ .

8. Bosimni  $10^7$  dan  $10^6 \text{ Pa}$  gacha o'zgartirib, 5 kg havo 223 dan 323 K gacha qizdirilsa, uning entropiyasi qanday o'zgaradi? Havoning solishtirma issiqlik sig'imi  $1,005 \text{ J/g K}$ , molekular massasi 29.

Javobi:  $10,2 \text{ J/K}$ .

9. Aluminiy metalining  $273 - 173 \text{ K}$  oralig'ida o'rtacha issiqlik sig'imi 0, 813 J/G K bo'lsa, 5 mol aluminiy metali shu haroratlar oralig'ida sovitilganda uning entropiyasi qanday qiymatga teng bo'ladi?

Javobi:  $-50,07 \text{ J/mol K}$ .

10. O'rtacha issiqlik sig'imi  $1,315 \text{ J/mol}$  bo'l gan qattiq naftalin ( $C_{10}H_8$ ) ning suyuqlanish issiqligi  $149,6 \text{ J/G-K}$  ga teng bo'lsa, 5 mol naftalin  $273 \text{ K}$  dan  $353,4 \text{ K}$  gacha qizdirilganda, uning entropiyasi qanday qiymatga ega bo'ladi?

Javobi:  $489 \text{ J/K}$ .

11.  $600 - 1273 \text{ K}$  haroratlar oralig'ida qo'rg'oshinining issiqlik sig'imi 0, 1415  $\text{kJ/kg K}$ , suyuqlanish issiqligi esa  $24,8 \text{ kJ/kg}$  bo'lsa, suyuqlanish harorati  $600,4 \text{ K}$  bo'l gan  $50 \text{ kg}$  qo'rg'oshin  $1073 \text{ K}$  gacha qizdirilganda uning entropiyasi qanday qiymatga ega bo'ladi?

Javobi:  $6172,5 \text{ J/K}$ .

12. Quyidagi reaksiyalarni:





Jadvalda berilgan standart entropiya qiymatlaridan foydalanib, reaksiyaldagi entropiyaning o'zgarish qiymatlarini aniqlang.

Javobi: - 428,82 J/mol K

13. 1mol NaCl ni 298 dan ( $820^{\circ}\text{C}$  gacha) 1093 K gacha qizdirilganda entropiya o'zgarishi qancha bo'lishini aniqlang. Uning suyuqlanish harorati  $800^{\circ}\text{C}$ , issiqlik sig'imi esa  $800^{\circ}\text{C}$  gacha  $C_1 = 50,71 \text{ J/G mol}$  bo'ladi. suyuqlanishda hamda undan yuqorida bu tuzning suyuqlanish issiqligi  $30208,48 \text{ J/mol}$  bo'ladi.

Javobi:  $133,463 \text{ J/(mol K)}$ .

## 2.5. TERMODINAMIK POTENSIALLAR

Energiyaning hamma turlari (mexanik, elektrik, kimyoviy) issiqlikka aylana oladi, ammo issiqlik energiyasi boshqa tur energiyalarga aylana olmaydi. Demak, jismning bir qism energiyasi boshqa tur energiyasiga aylanish qobiliyatiga ega va bundan biror foydali ish bajaradi. ammo jismning boshqa qism energiyasi esa foydasiz bo'lib issiqlikka aylanib ketadi. Jismning foydali ish bajara oladigan umumiyligi energiyasi erkin energiya deyiladi.

Ichki energiya, entalpiya, entropiya, izoxor-erkin energiya va izobar - erkin energiyalar termodinamik potensiallар yoki funksiyalar ham deyiladi. chunki ularning o'zi yoki hisolalari orqali sistemaning termodinamik xossalarni aniq ifodalash mumkin. Bular sistemaning hossalarni xarakterlovchi funksiyalardir. Bu funksiyalar qaytar jarayonda berilgan sharoitlarda sistema bajargan ishni hisoblab topishga yordam beradi. Termodinamik potensiallар holat fuksiyalaridir, ya'ni ularning o'zgarishi sistemaning faqat boshlang'ich va oxirgi holatga bog'liq bo'lib, o'tilgan iyulga bog'liq emas.

Termodinamik potensiallар jumlasiga izoxoro-izotermik (qisqacha izoxorik) potensial  $G$ , izobaro - izotermik (qisqacha izobarik) potensial  $G$ , ichki energiya  $U$  va entalpiya  $N$  kiradi. Amalda izoxoro - izotermik va izobaro - izotermik potensiallар ko'p qo'llaniladi.

O'zgarmas harorat va hajmda boradigan jarayonlar uchun termodinamikaning ikkala qonunini birlashtirilgan ifodasini quydagicha yozish mumkin:

$$\Delta \leq T(S_2 - S_1) - (U_2 - U_1)$$

yoki

$$A < (U_1 - TS_1) - (U_2 - TS_2)$$

Bu yerda ham tenglik ishorasi qaytar jarayonga taalluqli va maksimal ish  $A_{\text{mak}}$  ni ko'rsatadi.

Funksiya  $U - TS$  izoxoro-izotermik potensial deyiladi va F harfi bilan belgilanadi:

$$F = U - TS \quad \text{yoki} \quad \Delta F = \Delta U - T \Delta S \quad (43.2)$$

F ichki energiya bilan bog'langan energiya ( $TS$ )ning ayirmasiga tengligi sababli erkin energiya ham deyiladi.

Yuqoridagi formulaga ko'ra, sistemaning maksimal ish qiymati erkin energiya o'zgarishining teskari ishorali qiymatiga teng bo'ladi:

$$A_{\text{mak}} = - \Delta F \quad (44.2)$$

O'zgarmas harorat ( $t^0 = \text{const}$ ) va bosim ( $R = \text{const}$ ) dagi sistemalar uchun izobar potensial yoki Gibbs energiyasi qiymati;

$$G = H - T \cdot S \quad \text{yoki} \quad \Delta G = \Delta H - T \Delta S \quad \text{bo'ladi.} \quad (45.2)$$

(45.2) dagi entalpiya qiymati  $N = U + PV$  bo'lgani uchun bu formulani quyidagicha ifodalash mumkin:

$$G = U - T \cdot S + PV \quad \text{yoki} \quad \Delta G = \Delta U - T \Delta S + P \Delta V \quad (46.2)$$

bu formuladan  $U - T \cdot S = F$  deb belgilansa, (46.2) formula

$$G = F + PV \quad \text{yoki} \quad \Delta G = \Delta F + P \Delta V \quad (47.2)$$

ko'rinishga ega bo'ladi. (44.2) formuladan  $-\Delta F = A_{\text{mak}}$  bo'lgani uchun bu qiymatni (47.2) ga qo'yib,  $\Delta G = A_{\text{mak}} - P \Delta V$  (48.2) hosil qilinadi

Bu formula izobar potensial qiymatini ifodalaydi. Izobar potensial qiymati muvozanat holatida bajarilgan maksimal foydali ish qiymatiga teng bo'ladi:

$$\Delta G = A'_{\text{mak}} \quad (49.2)$$

buni (48.2) ga qo'yib chiqilsa, izobar jarayonning maksimal foydali ish qiymati quyidagicha bo'ladi:

$$A'_{\text{mak}} = A_{\text{mak}} - P \Delta V \quad (50.2)$$

Xulosa qilib aytganda, izobar - izotermik jarayonda bajarilgan maksimal foydali ish qiymati erkin energiya hisobiga bajarilgan maksimal

foydali ish qiymatidan tashqi bosimga qarshi hajm kengayishida bajarilgan ishni ayirib tashlangan qiymatga teng bo'ladi.

$F$  va  $G$  lar sistemaning holat funksiyalari bo'lib,  $V$ ,  $T = \text{const}$  va  $R$ ,  $\Gamma = \text{const}$  bo'lganda o'z-o'zidan boradigan jarayonlarning yo'nalishini ko'rsatib beradi:  $\Delta G < 0$  bo'lsa,  $R = \text{const}$  va  $T = \text{const}$  bo'lganda jarayon to'g'ri yo'nalishda,  $\Delta G > 0$  bo'lsa, jarayon teskari yo'nalishda sodir bo'ladi. Agar  $\Delta G = 0$  bo'lsa, sistema muvozanat holatiga o'tadi.

$\Delta F$  va  $\Delta G$  ning haroratga bog'liqligi Gibbs – Gelmgolts tenglamasi bilan ifodalanadi:

$$\Delta F = \Delta U + T \left( \frac{d\Delta F}{dT} \right) V \quad (51.2)$$

$$\Delta G = \Delta H + T \left( \frac{d\Delta F}{dT} \right) P \quad (52.2)$$

O'zgarmas haroratda 1 mol ideal gazning izobar potensiali bilan bosim orasidagi bog'lanish quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:

$$G_T = G^{\circ}_T + RT \ln P \quad (53.2)$$

bunda,  $G_T$  –  $T$  harorat va  $R$  bosimdag'i gazning izobar potensiali;

$G^{\circ}_T$  – harorat  $T$  va bosim  $1,013 \cdot 10^5$  Pa dagi standart izobar potensial.

(53.2) tenglama asosida gazlardan iborat sistemalardagi reaksiyaning izobar potensialining o'zgarish qiymati quyidagicha bo'ladi:

$$\Delta G_1 = \Delta G^{\circ}_T + RT \Delta \ln P \quad (54.11)$$

bunda,  $\Delta \ln P$  – dastlabki va oxirgi jarayonlardagi bosimlar logarifmlari ayirmasi.

### MASALALAR YECHIMLARIDAN NAMUNALAR

**1-misol.** 300 K va  $30562,5$  Pa bosimda  $7,1 \cdot 10^{-3}$  kg neon gazi berk idishda saqlanadi. Neon gazini ideal gaz deb, uni berilgan haroratda  $103975$  Pa gacha siqilsa, gazning termodinamik potensiallari ( $\Delta F$ ,  $\Delta G$ ,  $\Delta S$ ,  $\Delta U$ ,  $\Delta H$ ) qanday o'zgaradi?

**Berilgan:**

$$t = 27^\circ\text{C}; \quad T = 273 + 27 = 300 \text{ K}; \quad m = 7,1 \cdot 10^{-3} \text{ kg}$$

$$M_{\text{Ne}} = 0,0282 \text{ kg}; \quad \text{bundan } n = \frac{7,1 \cdot 10^{-3}}{0,0282} = 0,25 \text{ mol};$$

$$P_1 = 30562,5 \text{ Pa}; \quad P_2 = 103975 \text{ Pa}; \quad R = 8,314 \text{ kJ/(mol}\cdot\text{K)}$$

$$\text{Noma'lum: } \Delta F = ?, \Delta G = ?, \Delta S = ?, \Delta U = ?, \Delta H = ?$$

Yechish. 1)  $\Delta G = n \cdot RT \cdot \ln \frac{P_2}{P_1}$  dan Gibbs energiyasi hisoblanadi.

$$\Delta G = 0,25 \cdot 2,303 \cdot 8,314 \cdot 300 \ln \frac{103975}{30562,5} = 1435 \ln 3,4020$$

$$\Delta G = 1435 \cdot 0,5318 = 763,5 \text{ kJ/mol}$$

2)  $T = \text{const}$ , izotermik jarayon entropiyasi  $\Delta S = n \cdot R \ln \frac{P_2}{P_1}$  formula asosida hisoblanadi:

$$\begin{aligned} \Delta S &= 0,25 \cdot 8,314 \cdot 2,303 \ln \frac{103975}{30562,5} = 4,7860 \ln 3,4020 = \\ &= 4,7860 \cdot 0,5318 = 2,4452 \text{ kJ/mol.} \end{aligned}$$

$T = \text{const}$ , izotermik jarayonda sistemaning entalpiya o'zgarish qiymati Gibbs energiyasi qiymatidan aniqlanadi:

$$\Delta G = \Delta H - T \Delta S \text{ dan } \Delta H = \Delta G + T \Delta S \text{ bo'ladi}$$

$$\Delta H = 763,5 + 300 \cdot 2,4452 = 1496,06 \text{ kJ/mol}$$

$T = \text{const}$  va  $V = \text{const}$  bo'lganda sistema ichki energiyasining o'zgarish qiymati uning bajargan ish qiymatiga teng bo'ladi.

$$\Delta U = A \text{ bo'lgani uchun } \Delta U = -2107,867 \text{ J/mol.}$$

$T = \text{const}$  bo'lganda sistemaning Gelmgols energiyasining qiymati

$\Delta F = \Delta U - T \Delta S$  yoki  $\Delta G = \Delta F + P \Delta V$  formulalardan hisoblanadi, agar

$$\Delta F = \Delta U - T \Delta S \text{ asosida ishlansa;}$$

$$\Delta F = -2107,867 - 300 \cdot 2,4452 = -2841,427 \text{ J/mol kelib chiqadi.}$$

**2-misol.**  $C_2H_2 + \frac{5}{2} O_2 = 2CO_2 + H_2O_{(l)} + \Delta G^0$  reaksiya uchun

izobar potensial  $\Delta G^0$  ning standart o'zgarishini hisoblang. Bunda jadval qiymatlari  $\Delta H^0_{298}$  va  $S^0_{298}$  dan foydalaniladi.

Yechish: Ma'lumotnomadan reaksiyada qatnashuvchi muddalarning entalpiya va entropiya standart qiymatlari topiladi. Standart sharoit uchun:

$$\Delta G^0 = \Delta H^0 - T \Delta S^0,$$

$$\begin{aligned} \Delta H^0_{\text{reaks.}} &= 2 \Delta H^0 CO_2 - \Delta H^0 H_2O_{(l)} - \Delta H^0 C_2H_2 = \\ &= 2 (-393,51) - 285,84 - 226,75 = -1299,61 \text{ kJ/mol,} \end{aligned}$$

$$\Delta S^0_{\text{reaks.}} = 2 S^0 \text{CO}_2 + S^0 \text{H}_2\text{O}_{(s)} - S^0 \text{C}_2\text{H}_2 - 2,5 S^0 \text{O}_2 = \\ = 2 \cdot 213,6 + 69,96 - 200,8 - 2,5 \cdot 205,03 = - 216,21 \text{ J/mol}\cdot\text{K}$$

yoki

$$\Delta S^0 = -0,2162 \text{ kJ/(mol}\cdot\text{K)} \\ \Delta G^0_{298} = -1299,61 - (-0,2162 \cdot 298) = -1235,19 \text{ kJ/mol.}$$

**3-misol.** Agar 1000 K haroratda  $\Delta G^0 \text{C}_6\text{H}_6 = 402,2 \text{ kJ/mol}$  va  $\Delta G^0 \text{C}_2\text{H}_4 = 114 \text{ kJ/mol}$  ga teng bo'lsa,  $\text{C}_6\text{H}_{12} \rightarrow 3\text{C}_2\text{H}_4$  reaksiya shu haroratda qaysi tomoniga boradi?

**Berilgan:**  $T=1000 \text{ K}$ ;  $\Delta G^0 \text{C}_6\text{H}_6 = 402,2 \text{ kJ/mol}$ ;  $\Delta G^0 \text{C}_2\text{H}_4 = 114 \text{ kJ/mol.}$

**Yechish.**  $\Delta G^0_{r-ya} = \Delta G^0 \text{C}_2\text{H}_4 - \Delta G^0 \text{C}_6\text{H}_{12} = 3 \cdot 114 - 402,2 = -60,2 \text{ kJ/mol.}$

Demak, reaksiyaning erkin energiyasi  $0 < \Delta G$ , shuning uchun reaksiya siklogeksanning parchalanish tomoniga boradi.

**4-misol.**  $\text{Na}_2\text{O} + \text{HSiO}_2 = \text{NaHSiO}_3$ , reaksiyaning  $25^\circ\text{C}$  dagi termodinamik potensiali ( $\Delta G^0$ ) aniqlansin. Hisoblash uchun reaksiyada ishtirot etayotgan moddalarning  $\Delta H^0_{298}$  va  $S^0_{298}$  qiymatlari 8-jadvaldan olinadi.

**Berilgan:**  $t = 25^\circ\text{C}$ ;  $T = 273 + 25 = 298 \text{ K}$ .

**Yechish.** Reaksiyada ishtirot etayotgan moddalarning standart sharoitda berilgan  $\Delta H^0$  va  $S^0$  qiymatlari quyidagicha:

$$\Delta H^0 \text{Na}_2\text{O} = -430,6 \text{ kJ/mol}\cdot\text{K}; \quad \Delta H^0 \text{NaHSiO}_3 = -1518 \text{ kJ/mol}\cdot\text{K}; \\ \Delta H^0 \text{HSiO}_2 = -857,7 \text{ kJ/mol}\cdot\text{K}; \quad S^0_{\text{Na}_2\text{O}} = 71,1 \text{ J/mol}\cdot\text{K};$$

$$S^0 \text{HSiO}_2 = 43,26 \text{ J/mol}\cdot\text{K}; \quad S^0 \text{NaHSiO}_3 = -113,8 \text{ J/mol}\cdot\text{K}.$$

$$\Delta H^0_{r-ya} = S^0_{\text{max}} - S^0_{\text{reag}} = -1518 - (-430 - 857,7);$$

$$\Delta H^0 = -1518 + 1287,7 = -230,3 \text{ kJ/mol};$$

$$\Delta S^0_{r-ya} = S^0_{\text{max}} - S^0_{\text{reag}} = -113,8 - (71,1 + 43,26);$$

$$\Delta S^0 = -228,16 \text{ J/mol}\cdot\text{K} = -0,2282 \text{ kJ/mol}\cdot\text{K}.$$

Sistema Gibbs energiyasining o'zgarish qiymati  $\Delta G^0 = \Delta H^0 - T \Delta S^0$  formuladan hisoblanadi:

$$\Delta GR_{-ya} = -230,3 - 298 (-0,2282) = -230,3 + 68 = -162,3 \text{ kJ/mol}; \\ \Delta G^0 = -162,3 \text{ kJ/mol.}$$

**5-misol.**  $\text{Fe}_3\text{O}_4 + \text{CO} = 3\text{FeO} + \text{CO}_2$  reaksiya uchun standart sharoitdagi entropiya va izobar-izotermik potensial o'zgarishini aniqlang

va quyidagi sharoitlarda o'z-o'zicha kechishi mumkin bo'lgan imkoniyatlarini ko'rsating:

$$\Delta G^0 \text{CO}_2 = -394,89 \text{ kJ/mol}; \quad \Delta G^0 \text{CO} = -137,4 \text{ kJ/mol};$$

$$\Delta G^0 \text{FeO} = -246,0 \text{ kJ/mol}; \quad \Delta G^0 \text{Fe}_2\text{O}_4 = -1010 \text{ kJ/mol};$$

**Yechish.** Reaksiyaning  $\Delta S^0_{298}$  va  $\Delta G^0_{298}$  qiymatlari Gess qonunidan foydalanib hisoblanadi:

$$\Delta S^0_{r-\text{ya}} = 3S^0_{\text{FeO}} + S^0 \text{CO}_2 - S^0 \text{Fe}_2\text{O}_4 - S^0 \text{CO};$$

$$\Delta S^0_{r-\text{ya}} = 3(58,79) + 213,6 - 151,46 - 197,4 = 39,11 \text{ J/(mol K)};$$

$$\Delta G^0_{r-\text{ya}} = 3(-246,0) - 394,89 + 1010 + 137,4 = +14,51 \text{ kJ/mol}.$$

Shunday qilib,  $\Delta G^0_{298} > 0$  bo'ladi. Demak, standart sharoitda  $\text{Fe}_3\text{O}_4$  ni uglerod (II) – oksid bilan o'z-o'zicha qaytarilish imkoniyati bo'lmaydi.

### MUSTAQIL ISHLASH UCHUN MISOL VA MASALALAR

To'g'ri yo'nalishda 298 K haroratda kechuvchi  $\text{AB}_{(k)} + \text{B}_{2(g)} = \text{AB}_3{}_{(k)}$  reaksiyaning  $\Delta H$ ,  $\Delta S$ ,  $\Delta G$  belgilarni aniqlang. Harorat ko'tarilishi bilan  $\Delta G$  qiymati qanday o'zgaradi?

Javobi:  $\Delta S < 0$ ,  $\Delta G < 0$ ,  $\Delta H < 0$ .

Harorat ko'tarilish bilan  $\Delta G$  ortadi.

Bir atomli ideal gazning 1 kmol miqdori 773 K va 5053,6 Pa dan  $1,013 \cdot 10^4$  Pa bosimgacha izotermik siqilgandan keyingi sistemaning  $\Delta H$ ,  $\Delta U$ ,  $\Delta S$ ,  $\Delta F$  va  $\Delta G$  qiymatlarini aniqlang.

Javobi:  $A = -4474 \cdot 10^3 \text{ J}$ ;  $\Delta N = 0$ ;  $\Delta U = 0$ ;

$\Delta S = -5,78 \cdot 10^3 \text{ J/kmol} \cdot \text{K}$ ;  $\Delta G = -44,76 \cdot 10^3 \text{ J}$ ;

$\Delta F = 4476 \cdot 10^3 \text{ J/kmol} \cdot \text{K}$ .

300 K da,  $7 \cdot 10^{-3}$  kg azot (u ideal gaz deb hisoblanadi) bosimi 50562,5 Pa dan 303975 Pa gacha oshirilganda termodinamik potensiali ( $\Delta G^0$ ) qanday o'zgaradi?

Javobi: 1130 J/ kmol.

$\text{CH}_4 + \text{Cl}_2 = \text{CH}_3\text{Cl}_{(g)} + \text{HCl}$  reaksiyada ishtirok etayotgan moddalarning standart sharoitdagi  $\Delta H^0$  va  $S^0$  qiymatlarini ilovadagi 8-jadvaldan olib, sistemaning ( $\Delta G^0$ ) potensialini aniqlang.

Javobi: -102,73 kJ/mol.


$\text{CH}_3 - \text{SO} - \text{CH}_{3(g)} + 4\text{O}_2 \rightleftharpoons 3\text{CO}_2 + 3\text{H}_2\text{O}_{(s)}$  reaksiyasida ishtirok etayotgan moddalarning standart sharoitdagi  $\Delta H^0$  va  $S^0$  qiymatlarini 8-jadvaldan olib, sistemaning izobar ( $\Delta G^0$ ) potensialini aniqlang.

Javobi:  $-1742,9 \text{ kJ/mol}$ .

6. Muzning erish issiqligi 273 K da  $334,7 \cdot 10^3 \text{ J/kg}$  ga teng. Suvning solishtirma issiqlik sig'imi  $4,184 \cdot 10^3 \text{ J/(kg}\cdot\text{K)}$ . Muzning solishtirma issiqlik sig'imi esa  $2,02 \cdot 10^3 \text{ J/(kg}\cdot\text{K)}$  bo'lsa, 1 kmol suv o'ta sovitlganda 268 K da muzlaydi. Bu vaqtda jarayonning erkin energiyasi ( $\Delta G^0$ ),  $\Delta H^0$  va  $S^0$  larning o'zgarish qiymatlarini toping.

Javobi:  $\Delta G = 108 \cdot 10^3 \text{ J/kmol}\cdot\text{K}$ ;

$\Delta H = -5840 \cdot 10^3 \text{ J/kmol}$ ;  $S = -21,3 \cdot 10^3 \text{ J/kmol}\cdot\text{K}$ .



8. Rombik oltingugurtning 298 K dagi entropiya qiymati  $32,04 \cdot 10^3 \text{ J/(kmol}\cdot\text{K)}$ , monoklinik oltingugurtningi esa  $32,68 \cdot 10^3 \text{ J/(mol}\cdot\text{K)}$  ga teng. Ularning yonish issiqliklari  $-297948 \cdot 10^3$  va  $-298246 \cdot 10^3 \text{ J/kmol}$  ga tengligini hisobga olib, allotropik shakl o'zgarish reaksiyasi:  $S_{\text{romb}} - S_{\text{monok}}$  uchun  $\Delta G^0$  ni aniqlang. Hisoblashda olitingugurtning har ikkala shaklini zichliklari orasidagi farq inobatga olinmasin.

Javobi:  $96,7 \cdot 10^3 \text{ J/kmol}$ .

9. Quyidagi reaksiya:  $\text{ZnO} + \text{CO} = \text{Zn} + \text{CO}_2$  da ishtirok etayotgan moddalarning  $\Delta H^0_{298}$  va  $S^0_{298}$  qiymatlarini 8-jadvaldan olib, reaksiyaning 298 K dagi standart termodinamik potensialini hisoblang.

Javobi:  $64,5 \cdot 10^3 \text{ J/kmol}$ .

10. Quyidagi reaksiya:  $1/2\text{H}_2 + 1/2\text{Cl}_2 = \text{HCl}$  da ishtirok etayotgan moddalarning standart  $\Delta H^0_{298}$  va  $S^0_{298}$  hamda  $C^0_p = \varphi(T)$  qiymatlarini 8-jadvaldan olib reaksiyaning izobar ( $\Delta G^0$ ) potensiali T ga bog'liqlik ifodasini toping.

Javobi:  $\Delta G = -10^6 \cdot 10^6 + 3,08 \cdot 10^3 \text{ T ln } T - 31,2 \cdot 10^3 \text{ T} - 29,2 \cdot 10^{-2} \text{ T}^2$ .

### III bob. KIMYOVIY MUVOZANAT

Hamma kimyoviy reaksiyalar unumiga qarab ikki sinfga bo'linadi – bir tomonlama (to'g'ri reaksiya) va ikki tomonlama (qaytar reaksiyalar) boruvchi reaksiyalar.

Ikki tomonlama boruvchi reaksiyalarda, bir vaqtning o'zida reaksiya ikki tomonga boradi – dastlabki moddalaridan mahsulot va mahsulotlardan dastlabki moddalar hosil bo'lishi mumkin. Bu xil reaksiyalarda dastlabki moddalarning bir qismigina mahsulotga aylanadi, demak, reaksiya unumi 100 % dan kam bo'ladi.

Reaksiya unumini muvozanat doimiysi ( $K$ ) deb atalgan kattalik bilan ifodalanadi. Sistemaning tabiatiga qarab bu kattalikning ifodasi turli xil ko'rinishda bo'ladi:

a) sistema gomogen bo'lib, u suyuqliklardan iborat bo'lsa, muvozanat doimiysi, odatda  $K_s$  bilan ifodalanadi;

b) sistema faqat gazlardan iborat bo'lsa, muvozanat doimiysi,  $K_r$  bilan ifoda etiladi.

Ko'pgina reaksiyalar bir xil sharoitda qarama-qarshi ikki tomonga boradi: dastlabki moddalar turli mahsulot va mahsulotlardan dastlabki moddalar hosil bo'ladi. Reaksiya davom etgan sari, dastlabki moddalarning konsentratsiyasi uzluksiz pasaya boradi, natijada massalar ta'siri qonuniga muvofiq, to'g'ri reaksiyaning tezligi kamayib boradi. Mahsulotlar konsentratsiyasi esa aksinchalik, orta boradi, natijada teskari reaksiyaning tezligi ham oshadi. Nihoyat shunday bir vaqt keladiki, bunda to'g'ri reaksiyaning tezligi teskari reaksiyaning tezligiga tenglashadi: bu vaqtida muvozanat qaror topadi. Muvozanat qaror topgan vaqtdagi moddalar konsentratsiyalari muvozanat konsentratsiyasi yoki muvozanat parsial bosim deyliladi.

Agar sistema faqat suyuqliklardan iborat bo'lsa, ya'ni sistema gomogen bo'lsa, massalar ta'siri qonuniga binoan  $A + B \rightleftharpoons C + D$

$$\bar{V} = K_1 Ca Cv \text{ va } \bar{V} = K_2 Cs Cd \quad (1.3)$$

$\bar{V}$ ,  $\bar{V}$  – to'g'ri va teskari yo'nalishda boradigan reaksiyalarning tezliklari,  $K_1$  va  $K_2$  – to'g'ri va teskari reaksiyalarning tezlik doimiyлari,

ya'ni reaksiyaga kirishuvchi moddalarning konsentratsiyalari birga teng bo'lqandagi tezlik. Muvozanat qaror topganda:

$$V = V \text{ va } K_1 \cdot C_A \cdot S_V = K_2 \cdot C_S \cdot C_D \dots \text{ va} \\ \frac{K_1}{K_2} = \frac{C_C \cdot C_D}{C_1 \cdot C_3} = K \quad (2.3)$$

$K_1$  va  $K_2$  – lar moddalarning konsentratsiyasiga bog'liq bo'lmasdan, aksincha moddalarning tabiatini va haroratiga bog'liq. Shunga ko'ra  $K_1/K_2 = K$  kattalik ham faqat reaksiyalarning haroratiga bog'liq. Bu kattalik ( $K$ ) muvozanat doimiysi deyiladi. Agar ukonsentratsiyalar orqali ifodalangan ( $K_s$ ):

$$K_s = \frac{C_2 \cdot C_4}{C_1 \cdot C_3} \quad (3.3)$$

Agar sistema faqat gaz moddalardan bo'lsa, ya'ni gomogen sistema bo'lsa, konsentratsiyalar o'miga reagentlarning parsial bosimi qo'yiladi, bosimlar orqali ifoda qilingan muvozanat doimiysi ( $K_r$ ):

$$K_r = \frac{P_2 \cdot P_4}{P_1 \cdot P_3} \quad (4.3)$$

R – moddalarning muvozanat parsial bosimlari.

aA + bB  $\rightleftharpoons$  dD + GG reaksiya uchun:

$$K_s = \frac{C^d D \cdot C^g G}{C^a A \cdot C^b B} \quad (5.3)$$

$$K_r = \frac{P^d D \cdot P^g G}{P^a A \cdot P^b B} \quad (6.3)$$

a, v, d, g – lar stexiometrik koefitsiyentlari; A, V, D, G – moddalarning muvozanat doimiysi ifodasini umumlashgan holda, termodinamik tenglamalaridan foydalanib keltirib chiqarish mumkin.

O'zgarmas sharoitda qaytar reaksiya borayotgan sistemaning vaqt o'tishi bilan o'zgarmaydigan holatga kelishiga muvozanat holati deyiladi. Lekin tashqi sharoit o'zgarganida muvozanat ham shunga qarab o'zgaradi, ya'ni yangi sharoitga mos yangi muvozanat holati qaror topadi. Har qanday muvozanat nisbiyidir.

Kimyoviy reaksiyalarning muvozanat holatiga harorat, bosim va muvozanatda ishtirok etayotgan moddalarning konsentratsiyasi ta'sir etadi. Agar bu omillarning birortasi o'zgarsa, muvozanat buziladi, ya'ni moddalarning muvozanat konsentratsiyasi o'zgaradi, jarayon va o'zgargan

tashqi sharoitga mos muvozanat qaror topguncha davom etadi. Tashqi sharoit ta'sirida muvozanat konsentratsiyalarining o'zgarishiga muvozanatning siljishi deyiladi. Muvozanat siljishi natijasida reaksiya mahsulotlarining miqdori (konsentratsiyasi) ko'paysa, muvozanat chap-dan o'ngga (ya'ni to'g'ri reaksiya yo'nalishida), reaksiya uchun olingen dastlabki moddalarning konsentratsiyasi ko'payganda esa muvozanat o'ngdan chapga (teskari reaksiya yo'nalishida) siljiydi. Tashqi sharoit o'zgarishi natijasida muvozanatning qaysi tomonga siljishi Le-Shatele prinsipiga bo'ysunadi. Bu prinsipga ko'ra, agar muvozanatdagi sistemaga tashqaridan biror ta'sir ko'rsatilsa, muvozanat shu ta'sirni yo'qotish tomonga siljiydi.

Bu prinsipga muvofiq, haroratni oshirish muvozanatni endotermik reaksiya tomonga, pasaytirish esa ekzotermik reaksiya tomonga siljitadi.

Le-Shatele prinsipiga muvofiq, bosim ortishi bilan muvozanat bosim kamayadigan reaksiya tomonga siljiydi.

Agar muvozanatda ishtirok etayotgan moddalardan birortasining konsentratsiyasi oshirilsa, muvozanat shu modda konsentratsiyasining kamayishiga olib keladigan reaksiya tomoniga siljiydi. Masalan:



Bunda muvozanat o'ng tomonga siljishi uchun xlor va suvning (yoki bittasining) konsentratsiyasini kamaytirish yoki kislorod va vodorod xloridning konsentratsiyasini oshirish kerak.

### MASALALAR YECHIMLARIDAN NAMUNALAR

**1-misol.** Muvozanat holatda  $C_{\text{CO}} = 0,004 \text{ mol/l}$ ;  $C_{\text{H}_2\text{O}} = 0,064 \text{ mol/l}$ ;  $C_{\text{CO}_2} = 0,016 \text{ mol/l}$  va  $C_{\text{H}_2} = 0,016 \text{ mol/l}$  bo'lganda qaytar reaksiya  $\text{CO} + \text{H}_2\text{O} \rightleftharpoons \text{CO}_2 + \text{H}_2$  uchun muvozanat doimiyini hisoblang.

**Yechish.** Umumiy ko'rinishdagi tenglama yoziladi va quyidagi hisoblash o'tkaziladi:

$$K = \frac{C_{\text{CO}_2} \cdot C_{\text{H}_2}}{C_{\text{CO}} \cdot C_{\text{H}_2\text{O}}}; \quad K = \frac{0,016 \cdot 0,016}{0,004 \cdot 0,064} = 1$$

Hamma muvozanat siljishi Le-Shatele prinsipiga bo'ysunadi, unga muvofiq, dastlabki moddalarning konsentratsiyalari oshirilsa, muvozanat chapdan o'ngga siljiydi, ya'ni to'g'ri reaksiya tezligi oshadi. Reaksiya

mahsulotining konsentratsiyasi oshirilsa, muvozanat o'ngdan chapga siljiydi, ya'ni teskari reaksiya tezligi oshadi.

**2-misol.** Quyidagi sistemalarda:



Harorat ko'tarilganda muvozanat qaysi tomonga siljiydi?

**Yechish.** Birinchi sistemada to'g'ri reaksiya endotermik bo'lib, ikkinchisida esa ekzotermikdir. Shuning uchun harorat ko'tarlishi bilan birinchi sistemada muvozanat to'g'ri reaksiya tomonga siljiydi.

**3-misol.** Quyidagi reaksiyalarning qaysi biri bosimning oshishi bilan, qaysisi kamayishi bilan va qaysi biri bosimni o'zgartirmasdan amalga oshadi?




**Javobi:** Birinchi reaksiyada 3 mol gazlar aralashmasidan 2 mol mahsulot hosil bo'ladi. Bunda reaksiya bosimni kamaytirish bilan amalga oshadi.

Ikkinci reaksiyadan 2 mol gazlar aralashmasidan 2 mol mahsulot hosil bo'ladi. Bunda, bosim o'zgarmagan holda reaksiya amalga oshadi.

Uchinchi reaksiyada 2 mol gazdan 3 mol mahsulot hosil bo'ladi. Demak, bu reaksiya bosimni oshirish bilan amalga oshadi.

**4-misol.** Quyidagi sistemalarda to'g'ri va teskari reaksiyalar qanday boradi?



**Javobi.** Birinchi sistemada to'g'ri reaksiya molekulalarning kamayishi bilan boradi. Demak, bosimning kamayishi sodir bo'ladi.

Shu sistemada teskari reaksiya esa molekulalarning oshishi bilan amalga oshadi va bunda bosimning ham ortishi kuzatiladi.

Ikkinci sistemada to'g'ri reaksiya ham, teskari reaksiyada ham molekulalar sonining o'zgarmasligi kuzatiladi va ularda bosim o'zgarmaydi.

Bosimni oshirish reaksiya muvozanatini bosim kamayishi bilan bora-digan tomonga siljitadi. Bosimni kamaytirish esa reaksiya muvozanatini bosim oshishi bilan boradigan tomonga siljitadi.

**5-misol.**  $A + B \rightleftharpoons C$ ,  $\Delta H^0 < 0$  bo'lgan sistemada: A, B va C gazlari orasida muvozanat qaror topdi. Sistemaning hajm birligida C

moddasining muvozanatdagi miqdoriga: a) bosimning ortishi; b) sistemadagi A modda konsentratsiyasining ko'payishi; d) haroratning ko'tarilishi qanday ta'sir etadi?

**Javobi:** a) reaksiya borayotganda gaz moddalarning hajmi qisqaradi, ya'ni konsentratsiya ortadi, natijada muvozanat C modda hosil bo'lish tomonga siljiydi;

b) A modda konsentratsiyasi oshganda ham muvozanat C modda hosil bo'lish tomoniga siljiydi;

d)  $\Delta H^0 < 0$  bo'lgani sababli to'g'ri reaksiyaning borishida issiqlik ajraladi, bu izotermik reaksiyadir. Teskari reaksiya endotermikdir. Haroratning ko'tarlishi doimo issiqlik yutilishi bilan boradigan reaksiyalarning ketishiga imkon beradi, ya'ni muvozanat A va B moddalar tomoniga siljiydi va C modda miqdori kamayadi.

**6-misol.**  $A_{(g)} + 2B_{(g)} = C_{(g)}$  sistemada, muvozanat qaror topganda:  $C_A = 0,06 \text{ mol/l}$ ;  $C_B = 0,12 \text{ mol/l}$  va  $C_C = 0,216 \text{ mol/l}$  ga teng bo'ladi. Reaksiyaning muvozanat konstantasini va A hamda B moddalarning dastlabki konsentratsiyalarini toping.

**Yechish.** Berilgan reaksiyaning muvozanat doimiysi quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:

$$K = \frac{C_C}{C_A \cdot 2C_B} \quad \text{yoki} \quad K = \frac{0,216}{0,06 \cdot 2 \cdot 0,12} = 250 \quad \text{bo'ladi.}$$

$$C^0_A = 0,06 + 0,216 = 0,276 \text{ mol/l};$$

$$C^0_B = 0,12 + 0,432 = 0,552 \text{ mol/l bo'ladi.}$$

**7-misol.** Ma'lum sharoitda vodorod xloridning kislород билан о'заро та'siri qaytar reaksiyadir:



Sistemaning muvozanat holatiga: a) bosimning ortishi; b) haroratning ko'tarlishi; d) katalizator ishlatalishi qanday ta'sir etadi?

**Javobi:** 1. Sistemadagi hamma moddalar gazzlardir. Le-Shatele prinsipiiga muvosiq, bosimni ortishi muvozanatni reaksiyaning gaz moddalari miqdorining kamayishi tomoniga, ya'ni  $Cl_2$  va  $H_2O$  hosil bo'lish tomoniga siljitadi.

2. To'g'ri reaksiya ekzotermik bo'lganligi sababli, haroratning ko'tarlishi issiqlikning yutilishi bilan boradigan jarayonlarga imkon beradi, ya'ni muvozanat endotermik reaksiya  $HCl$  va  $O_2$  hosil bo'lish tomoniga siljitadi.

Katalizator to'g'ri va teskari reaksiyalarni bir xilda tezlashtiradi. Shuning uchun uning ishtirokida reaksiyaning muvozanat doimiyining qiymati o'zgarmaydi.


**8-misol.** Yopiq idishda 8 mol  $\text{SO}_2$  va 4 mol  $\text{O}_2$  aralashtirilgan. Reaksiya doimiy haroratda amalga oshadi. Muvozanat qaror topishida dastlabki miqdor  $\text{SO}_2$  ning 80% reaksiyaga kirishadi. Agar dastlabki bosim 300 kPa ni tashkil etган bo'lsa, muvozanat qaror topgandagi gazlar aralashmasining bosimini aniqlang.

**Yechish.** Reaksiya tenglamasi  $2\text{SO}_{2(g)} + \text{O}_{2(g)} \rightleftharpoons 2\text{SO}_{3(g)}$ . Masala shartiga muvofiq, 80%, ya'ni 6,4 mol  $\text{SO}_2$  reaksiyaga kirishgan, sarflanmagan  $\text{SO}_2$  miqdori esa 1,6 molni tashkil etadi. Tenglamadan ko'rinish turibdiki, har 2 mol  $\text{SO}_2$  ga 1 mol  $\text{O}_2$  sarflanadi va 2 mol  $\text{SO}_3$  hosil bo'ladi. Demak, 6,4 mol  $\text{SO}_2$  ga 3,2 mol  $\text{O}_2$  sarflanib, 6,4 mol  $\text{SO}_3$  hosil bo'ladi. Bunda sarflanmagan  $\text{O}_2$  miqdori  $4 - 3,2 = 0,8$  molni tashkil etadi.

Shunday qilib, reaksiya boshlanguncha umumiylar mollar soni  $8+4 = 12$  bo'ladi, muvozanat qaror topgandan keyin esa  $1,6 + 0,8 + 6,4 = 8,8$  molni tashkil etadi. Yopiq idishda, doimiy haroratda gazlar aralashmasining bosimi, hamma gazlarning umumiylar miqdoriga proporsional bo'ladi. Shunga muvofiq, muvozanat holatdagi bosim ( $R$ ) quyidagi proporsiyadan aniqlanadi:

$$12 : 8,8 = 300 : R, \quad R = \frac{8,8 \cdot 300}{12} = 220 \text{ kPa.}$$

**9-misol.** Bosimning ko'tarlishi quyidagi qaytar sistemaning kimyoviy muvozanatiga qanday ta'sir etadi:



**Javobi:** Geterogen muvozanat sistemasida bosimning ortishi doimo gaz moddalarining kam miqdorda hosil bo'lish tomoniga muvozanatni siljitishi kerak. To'g'ri va teskari reaksiyalar davomida hosil bo'layotgan gaz moddalarining miqdori bir xil bo'lganligi sababli, bosimning o'zgarishi ushbu muvozanatning siljishiga olib kelmaydi.

**10-misol.** Gazlar aralashmasi hajmini kamaytirish yo'li bilan, o'zgarmas haroratda bosim oshirilsa, quyidagi sistemalar muvozanati qaysi yo'nalishda siljiydi?

- a)  $\text{SO}_{(g)} + \text{Cl}_{2(g)} \rightleftharpoons \text{COCl}_{2(g)}$ .
- b)  $\text{H}_{2(g)} + \text{J}_{2(g)} \rightleftharpoons 2\text{HJ}_{(g)}$ .

**Javobi.** a) to'g'ri yo'nalishda reaksiya borganda gazlarning umumiy mollar soni kamayadi, ya'ni sistemada bosim kamayadi. Shuning uchun Le-Shatele prinsipiiga muvofig, bosimning oshishi to'g'ri reaksiya tomon muvozanatning siljishiga olib keladi.


b) reaksiyaning borishida gazlarning mollar soni o'zgarmaydi, bunda bosim ham o'zgarmaydi. Bunday holatda bosimni oshirish muvozanatning siljishiga ta'sir ko'rsatmaydi.

**11-misol.** Ammiak sintezida muvozanat quyidagi holatda bo'lgan:

$$C_{H_2} = 2 \text{ mol/l} \quad C_{N_2} = 4 \text{ mol/l} \quad C_{NH_3} = 16 \text{ mol/l}$$

Vodorod va azotning dastlabki konsentratsiyasini aniqlab, muvozanat doimiysini hisoblang.

**Yechish.** 1. Reaksiya tenglamasini yozib muvozanat doimiysi qiymati topiladi:



2. Azotning dastlabki konsentratsiyasi:

$$C_{N_2} = C_{\text{muv. } H_2} + \frac{C_{NH_3}}{2} = 4 + \frac{16}{2} = 4+8 = 112 \text{ mol/l bo'ladi.}$$

3. Vodorodning dastlabki konsentratsiyasi quyidagicha bo'ladi:

$$C_{H_2} = C_{\text{muv. } N_2} + \frac{3}{2} C_{NH_3} = 2 + \frac{3}{2} \cdot 16 = 26 \text{ mol/l bo'ladi.}$$

**12-misol**  $850^{\circ}\text{C}$  da  $\text{CO}_2 + \text{H}_2 \rightleftharpoons \text{SO} + \text{H}_2\text{O}$  reaksiyaning muvozanat doimiysi 1 ga teng. Agar 1 mol  $\text{CO}_2$  va 5 mol  $\text{H}_2$  aralashtirilsa,  $\text{CO}_2$  ning necha foizi  $\text{SO}$  ga aylanadi?

**Yechish.** 1. Agar hosil bo'lgan  $\text{SO}$  va  $\text{H}_2\text{O}$  larning mollar soni x bilan ishoralansa, unda  $\text{CO}_2 + \text{H}_2 \rightleftharpoons \text{SO} + \text{H}_2\text{O}$  bo'ladi.



$$K = \frac{x+x}{(1-x) \cdot (5-x)} = 1; \quad x^2 = 5 - 6x + x^2; \quad 6x = 5$$

$$x = \frac{5}{6} = 0,83 \text{ mol.}$$


2.  $\text{CO}_2$  ning dastlabki miqdori 1 mol bo'lgani uchun:

$$1 : 0,83 = 100 : x, \quad x = \frac{0,83 \cdot 100}{1} = 83\%, \quad \text{ya'ni } \text{CO}_2 \text{ ning } 83 \text{ foizi}$$

SO ga aylanadi.


### MUSTAQIL ISHLASH UCHUN MISOL VA MASALALAR

1. Agar gazlar aralashmasi siqilsa, quyidagi sistemada muvozanat holati o'zgaradimi?



2. Agar normal sharoitda hajmlari bir xil bo'lgan xlor bilan vodorod aralashtirilib, ultrabinafsha nur bilan ta'sir ettirilsa, berk sistemadagi bosim o'zgaradimi? Javobingizni izohlab bering.

3. Horarat oshirilganda quyidagi sistemalarda muvozanat qaysi to-monga siljiydi:



4. Mis(II) – oksidning vodorod ta'sirida qaytarilishini muvozanat-dagi reaksiya sifatida qarash mumkinmi? Javobingizni izohlab bering.

5. Ushbu sistemalarda bosim oshirilganda muvozanat qaysi to-monga siljiydi:



6. Sistemada: a) bosimni oshirilishi; b) haroratni oshirilishi; d) kis-lorod konsentratsiyasining oshirilishi, quyidagi sistemaning muvo-zanatiga qanday ta'sir qiladi:



7. Adsorbsiya jarayoniga va unga teskari bo'lgan desorbsiya jara-yoniga harorat qanday ta'sir qiladi? Adsorbsiya ekzotermik jarayonmi yoki endotermikmi?

8. Muayyan haroratda  $\text{H}_{2(g)} + \text{Br}_{2(g)} \rightleftharpoons 2\text{HBr}_{(g)}$  reaksiya uchun  $K=1$ . Dastlabki aralashma 3 mol  $\text{H}_2$  va  $2_{\text{mol}}$   $\text{Br}_2$  dan iborat bo'lgan muvozanat holatdagi reaksiya aralashmaning tarkibi (hajm bo'yicha %) ni aniqlang.

Javobi: 49,6%  $\text{H}_2$ ; 29,6%  $\text{Br}_2$ ; 20,8%  $\text{HBr}$ .

$\text{N}_{2(g)} + 3\text{H}_{2(g)} \rightleftharpoons 2\text{NH}_{3(g)}$ ,  $\Delta H^0 = -92,4 \text{ kJ}$  sistemada muvozanat qaror topganda, reaksiyada ishtiroy etuvchi moddalarning konsentratsiya-lari:

$$C_{\text{N}_2} = 3 \text{ mol/l}; \quad C_{\text{H}_2} = 9 \text{ mol/l};$$

$C_{NH_3} = 4 \text{ mol/l}$  bo'ladi. Berilgan ma'lumotlardan foydalaniб: a)  $H_2$  va  $N_2$  larning dastlabki konsentratsiyalarini aniqlang; b) harorat ko'tarlishi bilan muvozanat qaysi tomonga siljiydi? d) idish hajmi kamaytirilsa, muvozanat qaysi yo'naliш tomom siljiydi?

Javobi: a)  $C_{N_2} = 5 \text{ mol/l}$ ;  $C_{H_2} = 15 \text{ mol/l}$ ;  
b) chapga; d) o'ngga.

Muayyan haroratda  $FeO_{(k)} + CO_{(g)} \rightleftharpoons Fe_{(k)} + CO_{2(g)}$  reaksiyasining muvozanat konstantasi 0,5 teng. CO va  $CO_2$  larning dastlabki konsentratsiyalari  $C_{CO} = 0,05 \text{ mol/l}$  va  $C_{CO_2} = 0,02 \text{ mol/l}$  bo'lsa, ularning muvozanat konsentratsiyalari qanday bo'ladi?

Javobi:  $C_{CO} = 0,04 \text{ mol/l}$ ;  $C_{CO_2} = 0,02 \text{ mol/l}$

11.  $2CO + O_2 \rightleftharpoons 2CO_2$  sistema muvozanatida kislороднинг konsentratsiyasi ontirliganda muvozanat qaysi tarafga siljiydi?

12.  $2SO_{2(g)} + O_{2(g)} \rightleftharpoons 2SO_{3(s)}$ ,  $\Delta H^0 = -284,2 \text{ kJ}$ . Qaysi omillarni o'zgartirish bilan muvozanatni  $SO_3$  hosil bo'lish tomonga siljитish mumkin?

13.  $N_2 + 3H_2 \rightleftharpoons 2NH_3$  dan iborat muvozanat sistemada, moddalarning konsentratsiyalari:  $C_{N_2} = 0,3 \text{ mol/l}$ ;  $C_{H_2} = 0,9 \text{ mol/l}$  va  $C_{NH_3} = 0,4 \text{ mol/l}$  bo'lsa, reaksiyaning muvozanat doimiyini toping.

Javobi: 0,73.

14. Quyidagi reaksiyalarning muvozanatiga: a) bosimning oshirilishi; b) haroratning oshirilishi qanday ta'sir qiladi?



15. a) harorat pasaytirilganda va b) bosim oshirilganda quyidagi temalarning muvozanati qaysi yo'naliшda siljiydi?



16. A + B  $\rightleftharpoons$  C + D reaksiyaning muvozanat doimiysi 1 ga teng. A moddaning dastlabki konsentratsiyasi  $Ca = 0,02 \text{ mol/l}$ . Agar B moddaning dastlabki konsentratsiyasi  $C_B = 0,02, 0,1$  va  $0,2 \text{ mol/l}$  bo'lganida necha foiz A moddasi o'zgarishga uchraydi?

Javobi: 50%, 83,3%, 90,9%.

17. Yopiq idishda  $AB_{(g)} \rightleftharpoons A_{(g)} + B_{(g)}$  reaksiyasi amalga oshadi, bunda reaksiyaning muvozanat doimiysi 0,04 va B moddaning muvozanat doimiysi 0,02 mol/l ni tashkil etadi. AB moddaning boshlang'ich konsentratsiyasini toping. Bunda necha % AB moddasi parchalangan?

Javobi:  $C_{AB} = 0,03 \text{ mol/l}$ , 66,7%.

18.  $\text{N}_2\text{O}_4$  ning boshlang'ich konsentratsiyasi  $C_{\text{N}_2\text{O}_4} = 0,08 \text{ mol/l}$  bo'lsa, muvozanat holat boshlanish oldida 50%  $\text{N}_2\text{O}_4$  dissotsialangan bo'lsa,  $\text{N}_2\text{O}_4 \rightleftharpoons 2\text{NO}_2$  reaksiyaning muvozanat doimiysi toping.

Javobi: 0,16

19. Quyidagi konsentratsiyalarda:  $C_B = 0,05 \text{ mol/l}$  va  $C_c = 0,02 \text{ mol/l}$   $A_{(g)} + B_{(g)} \rightleftharpoons C_{(g)} + D_{(g)}$  sistemada A va B gazlari aralashtirilgandan so'ng muvozanat qaror topadi. Reaksiyaning muvozanat doimiysi bu vaqtda  $4 \cdot 10^{-2}$  bo'ladi. A va B moddalarning dastlabki konsentratsiyalarini toping.

Javobi:  $C_A = 0,22 \text{ mol/l}$ ,  $C_B = 0,07 \text{ mol/l}$ .

20.  $A_{(g)} + B_{(g)} \rightleftharpoons C_{(g)} + D_{(g)}$  reaksiyasining muvozanat doimiysi birga teng. 3 mol A modda va 5 mol B modda aralashtirilsa, necha foiz A modda o'zgarishga uchraydi?

Javobi: 62,5%.

## IV bob. FAZALAR MUVOZANATI

Ba'zan kimyoviy jarayonlar anchagina murakkab tarzda boradi — jarayon davomida moddalarning holati va allotropik shakllari o'zgaradi, ya'ni yangi sohalar (fazalar) hosil bo'ladi yoki yo'qoladi.

### 4.1. BIR KOMPONENTLI SISTEMALAR

Geterogen sistemaning boshqa qismlaridan chegara sirtlar bilan ajralgan, ulardan o'z termodinamik xossalari va kimyoviy tarkibi bilan farq qiladigan gomogen qismi faza deyiladi. Fazaning hamma tomonlari bir xil tarkib va bir xil fizik-kimyoviy xossalarga ega bo'ladi. Bir fazadan iborat sistema gomogen sistema va bir necha fazadan iborat sistema geterogen sistema deyiladi. Suyuq va qattiq fazalar quyuqlashgan (kondensatlangan) fazalar deyiladi. Muvozanatda turgan sistemaning holati fazalar soni, kimyoviy tarkibi va termodinamik xossalari bilan xususiyatlansadi. Agar bu uch xususiyat ma'lum bo'lsa, sistemaning holati aniqlangan hisoblanadi. Sistema tarkibi-komponentlar soni, termodinamik xossalari esa, erkinlik darajalari soni bilan xarakterlanadi.

Sistemadan ajratib olingandan so'ng mavjud bo'la oladigan moddalar komponentlar yoki tarkibiy qismlar deyiladi.

Masalan,  $\text{NaCl}$  ning suvdagi eritmasi  $\text{H}_2\text{O}$  va  $\text{NaCl}$  dan tashqari,  $\text{Na}^+$ ,  $\text{Cl}^-$ ,  $\text{H}^+$ ,  $\text{OH}^-$  ionlar ham mavjud. Bu ionlar sistemadan tashqarida mavjud bo'la olmaydi. Shunga ko'ra, ular komponent bo'la olmaydi,  $\text{H}_2\text{O}$  va  $\text{NaCl}$  ni esa komponent deb hisoblash mumkin. Demak,  $\text{NaCl}$  ning suvdagi eritmasida ikkita komponent bor.

Sistemadagi har qaysi fazaning kimyoviy tarkibini aniqlash uchun zarur bo'lgan modda xillarining (komponentlarining) eng kichik soni sistemaning komponentlar soni deb ataladi.

Sistemaning termodinamik xossasi harorat, hajm, bosim va konsentratsiya bilan tasniflanadi. Sistemaning termodinamik xossasini aniqlash uchun zarur bo'lgan parametrlarining eng kichik soni erkinlik darajalari soni deyiladi. Masalan, sistema gaz holatdagi bir komponentdan iborat bo'lsin. Bu sistemaning termodinamik holatini aniqlash uchun kamida nechta parametr ma'lum bo'lishi kerak? Faraz qilaylik, bir parametr, masalan, sistemada harorat ma'lum bo'lsin. Ma'lumki, bu haroratda V

va  $R$  lar Boyl-Mariott qonuni chegarasida (agar gaz ideal gaz deb qabul qilinsa); bir qancha qiymatga ega bo'lishi mumkin: ya'ni  $V$ ,  $R$  lar qiymatini aniqlash uchun shuning o'zi kifoya emas. Ikki parametr, masalan,  $T$ ,  $R$  ma'lum bo'lsa, ma'lum  $T$ ,  $R$  qiymatida  $V$  bitta qiymatga ega bo'lishi mumkin. Bu qiymatni  $RV = n RT$  tenglamasidan foydalab hisoblash mumkin. Demak, sistemani termodinamik xossasini aniqlash uchun kamida 2 parametr qiymati ma'lum bo'lishi kerak. Demak, ushbu misolda sistemadagi erkinlik darajalari soni 2 ga teng.

#### 4.2. FAZALAR QOIDASI. SISTEMALARING HOLAT DIAGRAMMALARI ASOSIDA HISOBLASHLAR

Bu qoida ba'zan Gibbsning fazalar qoidasi deb ham yuritiladi. Fazalar qoidasi muvozanatdagi geterogen sistemalarda qo'llaniladi.

Muvozanat holatidagi geterogen sistemalarda: faza ( $F$ ), komponentlar soni ( $K$ ) va erkinlik darajasi ( $F$ ) orasidagi o'zaroborlig'liqlik quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$F = K - F + 2 \quad (4.1)$$

bunda, 2 – sistemadagi parametrlar soni ( $R$  va  $T$ ).

Bu formula fazalar qoidasining mohiyati nomi bilan atalib, bir necha faza va bir necha komponentlardan iborat bo'lgan sistemalardagi muvozanat holatlarini ifodalaydi. Masalan, bir komponentdan iborat uch fazali sistema (suv) muvozanatda bo'lganda:  $muz \approx suv \approx bug'$  ko'rinishida yoziladi.

Uchala faza ustidagi bug' bosimi teng va harorat  $+0,01^{\circ}\text{C}$  bo'lgandagina sistema muvozanat holatida bo'ladi. Bosim yoki harorat qisman o'zgarsa, bir komponentdan iborat uch fazali sistema bir komponentli ikki fazali sistemaga aylanadi.

Fazalar qoidasi yordamida (muvozanat holatidagi) sistemadagi fazalar va o'zgaruvchan parametrlar ( $R$ ,  $T$ ,  $S$ ) ning sonini aniqlash mumkin. O'zgarmas bosimda, ya'ni qattiq va suyuq fazalardan iborat sistemalar uchun o'zgaruvchan parametrlar soni bittaga kamayganida, fazalar qoidasining formulasi quyidagicha bo'ladi:

$$F = K - F + 1 \quad (4.2)$$

Sistemalar xossaliga ko'ra ikki xil bo'ladi: a) agar sistemada komponentlar o'zaro ta'sirlashmasa, bunday sistemalar fizik sistema; b) agar komponentlari o'zaro ta'sirlashsa, bunday sistema kimyoviy sistema deyiladi.


Fizik sistemalarda barcha komponentlar soni o'zaro ta'sirlashmaydigan komponentlar soniga teng.

Kimyoviy sistemadagi komponentlarning umumiy sonidan o'zaro tashlashadigan komponentlar soni ayirib tashlansa, ta'sirlashadigan soni ma'lum bo'ladi.

Fazalar muvozanatini o'rganishda fizik-kimyoviy tahlil uslublaridan foydalaniladi. Buning uchun tajribada sistemadagi komponentlarning kimyoviy tarkibi, fizik xossalarining ( $t_C$ ,  $t_K$ ,  $\rho$  va boshqalar) bir-biriga bog'liqligi o'rganiladi. Tajribadan olingan ma'lumotlar asosida tarkib – xossa diagramma tuziladi. Diagramma yordamida fazalar soni, tarkibi va xossalari aniqlanadi.

### MASALALAR YECHIMLARIDAN NAMUNALAR

**I-misol.** Sb – Pb ning holat diagrammasidan (4.1-rasm) foydalanib, tarkibida 40% qo'rg'oshin bo'lgan 3 kg suyuq qotishma  $430^{\circ}\text{C}$  gacha sovitilganda qancha miqdorda surma kristallga tushadi?



4.1-rasm. Sb – Pb sistemaning holat diagrammasi.

**Yechish.** Tarkibida 40% qo'rg'oshin bo'lgan suyuq qotishma  $430^{\circ}\text{C}$  gacha sovitilganda surma kristallga tushib, qo'rg'oshin miqdori 60% ga qadar ortadi. Holat diagrammasida G punkti chiziq G va D nuqta surmaning to'liq kristallga tushganini izohlaydi. Kristallga tushgan surmaning massasi  $g_1$ , quyuq qotishmaning massasi  $g_2$  deb olinsa, richag qoidasi bo'yicha kristallga tushgan massa  $g_1$  ning suyuq qotishma massasi  $g_2$  ga nisbatli holat diagrammasidagi GD kesmaning FD kesmaga nisbatli bilan belgilanadi:

$$\frac{g_1}{g_2} = \frac{GD}{FD}, \text{ bundan } g_1 = g_2 \frac{GD}{FD}.$$

4.1-rasmdan ma'lumki, FD = 60%, GD = 60-40 = 20% bo'ladi. U vaqtida g<sub>1</sub> = 320/60 = 1 kg surma. Demak, tarkibida 40% qo'rg'oshin bo'lgan suyuq qotishma 430°C gacha sovitilgan da 1 kg surma kristallga tushadi.

**2-misol.** Surma va qo'rg'oshining suyuq evtektik qotishmasi tarkibida 18% surma (4.1-rasm) bo'ladi. Tarkibida 10% surma bo'lgan 10 kg suyuq qotishma to'liq kristallga aylanguncha sovitilganda evtektik nuqtada qaysi metalldan qancha miqdorda kristall hosil bo'ladi?

**Yechish.** Qotishma tarkibida 10% surma, 90% qo'rg'oshin bor bo'lsa, 10 kg suyuq qotishma tarkibidagi har bir metallning miqdori aniqlanadi.

$$\begin{aligned} \text{Pb} &= 10 \cdot 0,9 = 9 \text{ kg} \\ \text{Sb} &= 10 \cdot 0,1 = 1 \text{ kg.} \end{aligned}$$

Suyuq qotishma tarkibida surma miqdori oz bo'lgani uchun evtektik haroratda surmaning hammasi kristallga aylanadi. Shunga asoslanib evtektika massasi hisoblanadi. 100 kg evtektiv qotishmada 18 kg Sb bo'lsa, quyidagicha proporsiya tuziladi:

$$18 : 1 = 100 : x, \quad \text{bunda } X = 1 \cdot 100 / 18 = 5,55 \text{ kg.}$$

bu yerda, x – evtektikaning massasi. Demak, evtektika tarkibida 1 kg surma va 5,55 kg qo'rg'oshin bo'ladi. Qotishmaning qolgan qismini qo'rg'oshin tashkil qiladi; uning miqdori 4,55 kg ga teng, ya'ni 10 - 5,55 = 4,45 kg qo'rg'oshin.

**3-misol.** Quyidagi tarkibga ega sistemalarning erkinlik darajasi hisoblanisin: a) NaCl va KCl eritmasi, eritmada ikkala tuzning kristallari va suv bug'i; b) ikkala tuz eritmasi, muz, NaCl va KCl kristallari, suv bug'i; d) ikkala tuz eritmasi, muz va suv bug'i.

**Yechish.** NaCl, KCl va suv molekulalari orasida kimyoviy ta'sir bo'limgani uchun komponentlar soni sistemaning tarkibiy qismiga teng bo'ladi, ya'ni K = 3.

Har uchala (a, b, d) holda ham (4.2) formula asosida sistemaning erkinlik darajasi (F) aniqlanadi:

a) suyuqlik, suv bug'i va ikkita qattiq (NaCl va KCl) modda muvozanatda bo'lгanda F = 4 bo'ladi. Bunda F = K - F + 1 = 3 - 4 + 2 = 1 ga teng.

Demak, bu sistema monovariantlidir;

b) suv bug'i, suyuqliklar, muz va ikkala modda (NaCl va KCl) kristallari muvozanatda turganida F = 5;

$$F = 3 - (5 - 2) = 0$$

bo'ladi. Demak, bu sistema variantsiz (novariantli) dir;

d) ikkala tuz eritmasi, suv bug'i va muz muvozanatda bo'lganida  $F = 3$  bunda  $F = 3 - 3 + 2 = 2$ .

Demak, bu sistema divariantlidir.

Sistemsning haroratini va ikkita tuzdan birortasining konsentratsiyasini o'zgartirib, uning erkinlik darajasini o'zgartirish mumkin.

**4-misol.**  $\text{CaCl}_2$  va  $\text{Mg}(\text{NO}_3)_2$  tuzlarini suyuqlantirilganda quyidagi reaksiya borishi mumkin:



Tuzlar suyuqlanmasi magniy nitrat kristallari bilan muvozanatda bo'lganida sistemaning erkinlik darajasi nechaga teng bo'ladi?

**Yechish.** Komponentlar soni aniqlanadi. Buning uchun berilgan sharoitda umumiy komponentlar sonidan kimyoiy reaksiya soni ayirladi:

$$K = 4 - 1 \text{ (reak)} = 3$$

$F=2$  (suyuqlanma va natriy nitrat kristallari).  $\text{CaCl}_2$ ,  $\text{Mg}(\text{NO}_3)_2$ ,  $\text{Ca}(\text{NO}_3)_2$  va  $\text{MgCl}_2$  tuzlari bug'lanmaydi. Shuning uchun bunday sistema kondensatlangan sistema deyiladi.

Fazalar qoidasi asosida системанинг erkinlik darajasi topiladi:

$$F = K + I - F = 3 + 1 - 2 = 2$$

Demak, sistema divariantlidir.

## MUSTAQIL ISHLASH UCHUN MISOL VA MASALALAR

1. Muvozanat holatdagi 1 va 2 komponentli sistemalardagi faza va erkinlik darajalarining maksimal sonlari aniqlansin.

Javobi:  $F = 2$ ,  $F = 3$ ,  $F = 4$


2. Muvozanat holatdagi uch komponentli sistemada nechta faza mavjud va erkinlik darajasi soni nechaga teng bo'lishini aniqlang.

Javobi:  $F = 4$ ,  $F = 5$ .


3. Quyidagi tarkibga ega bo'lgan: a)  $\text{Na}_2\text{SO}_4$  eritmasi, suv bug'i va muz kristallari bilan; b)  $\text{Na}_2\text{SO}_4$  eritmasi,  $\text{Na}_2\text{SO}_4 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$  kristallari, suv bug'i va muz kristalli bilan; d)  $\text{Na}_2\text{SO}_4$  eritmasi, natriy sulfat kristalligidrati va suv bug'i bilan; e)  $\text{Na}_2\text{SO}_4$  eritmasi va suv bug'idan iborat sistemaning erkinlik darajasi nechaga teng bo'ladi?

Javobi: 1,0, 0,2.

4. Uchuvchanlik xossasiga ega bo'lmagan moddaning sovish diagrammasidan (4.2-rasm) AB, BC va CD sohalardagi sistemalarning erkinlik darajalarini aniqlang.



4.2-rasm. Uchuvchanlik xossasiga ega bo'lmagan moddaning sovish diagrammasi.



4.3-rasm. Tarkibida 8% surma bor qotishmaning sovish diagrammasi.

5. Tarkibida 8% surma bor qotishmaning sovish diagrammasidan (4.3-rasm) AB, BC, CE va BED kesmalardagi sistemalarning erkinlik darajalarini aniqlang.

6. Sb – Pb sistemaning holat diagarmasidan (4.1-rasm) tarkibida 25 % qo'rg'oshin bo'lgan 10 kg suyuqlanma 573 K gacha sovitilganda qancha miqdorda surma kristallga tushadi:

Javobi: surma 7,88 kg.

7. Quyidagi sistemalarning:

a)  $S_{\text{romb}} \approx S_{\text{monokl}} \approx S_{\text{bug'i}}$ ; b)  $S_{\text{romb}} \approx S_{\text{monokl}} \approx S_{\text{suyuq}}$ ;

d)  $S_{\text{suyuq}} \approx S_{\text{bug'i}}$ ; e)  $S_{\text{romb}}$  – ning erkinlik darajasini aniqlang.

$S_{\text{romb}} \approx S_{\text{monokl}} \approx S_{\text{suyuq}} \approx S_{\text{bug'i}}$  ko'rinishda muvozanat bo'lishi mumkinmi? Asosli javob bering.

Javobi: a) 0; b) 1; d) 0; e) 2.

8. Quyidagi sistemalarning:



erkinlik darajasini aniqlang.

Javobi: F = 1.

9.  $\text{KNO}_3$  va  $\text{NaCl}$  tuzlari suvda eritilganda reaksiya borishi mumkin,



Eritmada  $\text{KNO}_3$ ,  $\text{NaCl}$  molekulalari,  $\text{KNO}_3$  kristallari va suv bug'i bo'lgan sistemaning erkinlik darajasini aniqlang.

Javobi:  $F = 3$ .

### 4.3. BIR KOMPONENTLI SISTEMALARDA FAZALAR MUVOZANATI

Bir komponentli sistemalarda fazalar muvozanatining qanday omil-larga bog'liqligi Klapeyron- Klauzius tenglamasi asosida o'rganiladi:

$$\Delta H_{f.u.} = T \frac{d \cdot P}{d \cdot T} \Delta V \quad (4.3)$$

bunda,  $\Delta H_{f.u.}$  – muvozanat sharoitdagи fazalar o'zgarishi (bug'lanish suyuqlanish, sublimatlanish, allotropik shakl o'zgarish) entalpiyasi;  $T$  – harorati;

$\frac{d \cdot P}{d \cdot T}$  – bug' bosimining haroratga bog'liqlik ifodasi;

$\Delta V$  – muvozanat holatidagi fazalarning molar hajmlari orasidagi ayirma.

Bug'lanish va sublimatlanish jarayonlari uchun bu tenglamadagi U o'rniiga molar hajmlar ayirmasi qo'yilsa, 4.3 formula quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$\Delta H_b = (V_b - V_{suyuq}) T \frac{d \cdot P}{d \cdot T} . \quad (4.4)$$

kritik haroratdan yuqori haroratda  $V_b = V_s$ . Yoki  $V_0 = \frac{RT}{P}$  bo'lgani uchun  $V_b - V_{suyuq} = V_b$  kabi yoziladi.

Masalan, 1 mol suv kritik qaynash haroratidan yuqori haroratda 22400 ml hajmni egallaydi. Shuning uchun  $V_b = V_b - V_s = 22400 - 18 = 22382 = 22400$  ml deb olinadi.

Shuni hisobga olib, (4.4) formula quyidagicha ifodalananadi:

$$\Delta H_b = \frac{d \ln P}{dT} \cdot RT^2 \quad (4.5)$$

Agar  $\Delta H_b$  haroratga bog'liq bo'lmaydi deb, (4.5) integrallansa,  $\Delta H_B$  ning R va T bilan bog'liqligini ifodalovchi quyidagi formula hosil bo'ladi:

$$\lg \frac{P_2}{P_1} = \frac{\Delta H_b}{2.3R} \cdot \frac{T_2 - T_1}{T_2 + T_1} \quad (4.6)$$

Sublimatlanish, suyuqlanish va bug'lanish issiqqliklari fazalar diagrammasining uchala nuqtasida quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:

$$\Delta H_{\text{sub}} = \Delta H_b + \Delta H_{\text{suyuq}} \quad (4.7)$$

Ko'pgina moddalarning normal qaynash haroratidagi bug'lanish issiqligi Truton formulasidan taqriban hisoblanadi:

$$\frac{\Delta H_b}{T_{n.k.h.}} = 21,3 \text{ kal} \quad \text{yoki} \quad \frac{\Delta H_b}{T_{n.k.h.}} = 89,12 \text{ J} \quad (4.8)$$

Bunda  $T_{n.k.h.}$  = moddalarning normal qaynash harorati.

Yoki aniqroq qilib, Kistakovskiy tenglamasi asosida hisoblanishi mumkin:

$$\frac{\Delta H_b}{T_{\text{qay}}} = 8,75 + 4,571 \lg T_{\text{qay}} \quad (4.9)$$

bunda,  $T_{\text{qay}}$  – normal bosimdag'i qaynash harorati (K bo'yicha).

Bug'lanish issiqligining haroratga bog'liqligi Kirxgof tenglamasi asosida ( $\Delta H_{T_2} = \Delta H_{T_1} + \int \Delta C_p dT$ ) hisoblanadi.

$$\Delta H_b(T_2) = \Delta H_b(T_1) + \int_{T_1}^{T_2} \Delta C_p dT$$

yoki

$$\Delta H_b(T_2) = \Delta H_0 + \Delta C_p dT, \quad (4.10)$$

bunda,  $\Delta C_p$  – muvozanat holatidagi fazalarning issiqlik sig'imi orasidagi ayirma;  $\Delta H_0$  – integrallanish doimiysi.

$\Delta C_p = C_b - C_{\text{suyuq}} = \text{const deb faraz qilinsa},$  (4.5) va (4.10) formulalarini integrallab quyidagi tenglama hosil qilinadi.

$$\lg R = - \frac{\Delta H_0}{2,303 \cdot RT} + \frac{\Delta C_p}{RT} \cdot T + \text{const} \quad (4.11)$$

(4.10) formuladagi  $\Delta C_p$  va  $\Delta H_b(T)$  qiymatlari berilganda integrallanish doimiysi ( $\Delta H_0$ ) ni aniqlash mumkin. So'ngra R va  $\Delta C_p$  ma'lum bo'lsa, (4.11) formuladan const qiymatini ham hisoblash mumkin.

## MASALALAR YECHIMLARIDAN NAMUNALAR

**1-misol.** Normal atmosfera bosimida simobning qaynash harorati  $357^{\circ}\text{C}$ , uning bug'lanish harorati  $283,2 \text{ J/g}$  ga teng. Normal atmosfera bosimida simobning qaynash haroratiga yaqin haroratni  $1^{\circ}\text{C}$  o'zgartirilganda bo'ladijan simob bug'i bosimi o'zgarishini aniqlang.

**Yechish.** Buning uchun 4.5 formula qo'llaniladi, ya'ni

$$d\rho/dT = \Delta H_b P/RT^2; \quad T = 357 + 273 = 630 \text{ K};$$

$$\Delta H_{f,u} = \Delta H_b M = 283,2 \cdot 200,6 \text{ J/mol}$$

$$d\rho/dT = \frac{283,2 \cdot 200,6 \cdot 101325}{8,314 \cdot 630} = 1744 \text{ Pa}$$

Demak, harorat  $1^{\circ}\text{C}$  ga o'zgartirilganda simob bug'i bosimi 1744 Pa bo'ladi.

**2-misol.** Uchlamchi nuqta haroratida ( $234,3 \text{ K}$ ) suyuq va qattiq holatdagi simobning suyuqlanish issiqligi  $11,792 \text{ J/g}$ , zichligi  $13690 \text{ kg/m}^3$  va  $14193 \text{ kg/m}^3$  bo'lsa, suyuqlanish harorati  $235,33 \text{ K}$  da sistema qanday bosimga ega bo'ladi?

**Berilgan:**  $T_1 = 234,3 \text{ K}$ ;  $T_2 = 235,33 \text{ K}$ ;

$$\Delta H_{\text{suyuq}} = 11,792 \text{ J/g} = 11,792 \cdot 200,59 = 2365,36 \text{ J/mol}.$$

$$\rho_{Hg_{\text{suyuq}}} = 13960 \text{ kg/m}^3 \text{ va } \rho_{Hg_{\text{suyuq}}} = 14193 \text{ kg/m}^3$$

**Noma'lum:**  $R = ?$

**Yechish:**

$$1) \Delta V = \frac{1}{\rho_{Hg_{\text{suyuq}}}} - \frac{1}{\rho_{Hg_{\text{suyuq}}}} \text{ dan } \Delta V \text{ hisoblanadi.}$$

$$\Delta V = \frac{1}{13960} - \frac{1}{14193} = 2,59 \cdot 10^{-6} \text{ m}^3$$

$$2) dP/dT = \Delta H_{\text{suyuq}}/T \cdot \Delta V \text{ dan } R \text{ hisoblanadi.}$$

$$\Delta R = \frac{\Delta H_{\text{suyuq}} \cdot T_2}{T_1 \cdot \Delta V} = \frac{2,4015 \cdot 235,33}{234,3 \cdot 2,59 \cdot 10^{-6}} = 9,313 \cdot 10^5 \text{ Pa}$$

**3-misol.** Klauzius-Klapeyron tenglamasining integral shakli yordamida Truton va Kistyakovskiy formulalari asosida simobning bog'lanish issiqligini hisoblab,  $629,8 \text{ K}$  qaynash harorati uchun aniqlangan  $58,12 \text{ kJ/mol}$  bug'lanish issiqligi qiymati bilan taqqoslang.

Berilgan:  $T = 629,8 \text{ K}$ ;  $R = 101325 \text{ Pa}$ ;  $\Delta H_b = 58,12 \text{ kJ/mol}$ .

Yechish. 1) Truton formulasi asosida:

$$\frac{\Delta H_b}{T_{nkh}} = 21,3 \cdot 4,184 = 89,12 \text{ J.}$$

$$\Delta H_b = 89,12 \cdot 629,8 = 56127,776 \text{ J} = 56,13 \text{ kJ/mol.}$$

Kistyakovskiy formulasi asosida:

$$\frac{\Delta H_b}{T_{qay}} = 8,75 + 4,57 \lg T_{qay} \quad \frac{\Delta H_b}{629,8} = 8,75 + 4,57 \lg 629,8$$

$$\Delta H_b = 629,8 (8,75 + 4,57 \lg 629,8) = 58,095 \text{ kJ/mol.}$$

Klapeyron-Klauzius tenglamasi asosida:

$$\Delta H_b = \frac{d \ln P}{dT} RT^2 = \frac{2,303 \cdot 101325}{629,8} \cdot 8,314 \cdot (629,8)^2 = 60,53 \text{ kJ/mol.}$$

Demak, har uchala formula asosida hisoblangan bug'lanish issiqligi qiyatlaridan Kistyakovskiy formulasi bo'yicha hisoblangan bug'lanish issiqligi ( $58,095 \text{ kJ/mol}$ )  $629,8 \text{ K}$  uchun aniqlangan nazariy bug'lanish issiqligi  $58,116 \text{ kJ/mol}$  ga yaqin keladi:  $58,12 = 58,1$ .

Truton formulasi yordamida keltirib chiqarilgan bug'lanish issiqligiga taxminan yaqin keladi:  $58,12 = 56,2$ .

Klapeyron-Klauzius tenglamasi bo'yicha keltirib chiqarilgan bug'lanish issiqligi kattaroqligi bilan ajralib turadi:  $60,54 > 58,2$ .

**4-misol** Vismut metalining suyuqlanish harorati  $544 \text{ K}$  bo'lib, suyuq va qattiq holatdagi vismut metalining hajmlari orasidagi farq  $\Delta V = -7,2 \cdot 10^{-7} \text{ m}^3 / \text{mol}$  ga teng. Vismutning suyuqlanish solishtirma issiqligi  $54,47 \text{ J/g}$  bo'lsa, normal bosimda vismut necha gradusda suyuqlanadi?

**Berilgan:**

$$T = 544 \text{ K}; \Delta V = -7,2 \cdot 10^{-7} \text{ m}^3 / \text{mol}; B = 54,47 \text{ J/g};$$

$$Z = 54,47 \cdot 208,95 = 11381,51 \text{ J/mol}; R = 101325 \text{ Pa}.$$

**Noma'lum?  $T_2 = ?$**

**Yechish:**

$$1) \frac{dT_2}{dP} = \frac{T \cdot \Delta H}{\Delta H} \quad (4.10) \text{ dan} \quad \frac{dT_2}{dP} \text{ hisoblanadi:}$$

$$\frac{dT_2}{dP} = \frac{544 \cdot 7,2 \cdot 10^{-7}}{11,382} = 3,442 \cdot 10^{-5} \text{ K.}$$

2) haroratlar orasidagi farqni aniqlash uchun  $\frac{dT_2}{dP}$  qiymati berilgan bosimga ko'paytililadi:

$$T = 3,442 \cdot 10^{-5} \cdot 101325 = 3,49 \text{ K.}$$

3) bosim ta'sirida vismutning suyuqlanish harorati necha gradusga pasayishi hisoblanadi:

$$T_2 = 544 - 3,49 = 540,51 \text{ K.}$$

### MUSTAQIL ISHLASH UCHUN MISOL VA MASALALAR

1. Qattiq fenolning zichligi  $1,072 \cdot 10^3 \text{ kg/m}^3$ , suyuq fenolniki esa  $1,056 \cdot 10^3 \text{ kg/m}^3$ , suyuqlanish issiqligi  $104,4 \text{ J/g}$ , qotish harorati  $314 \text{ K}$  ga teng.  $\frac{dP}{dT}$  va fenolning  $5,056 \cdot 10^7 \text{ Pa}$  bosimdagи suyuqlanish haroratini aniqlang.

Javobi:  $316,15 \text{ K.}$

2. Normal atmosfera bosimida suvning qaynash haroratida uning bug'lanish issiqligi  $2258, 4 \text{ J/g}$  ga teng, qaynash haroratiga yaqin, suvning  $1^\circ\text{C}$  haroratga o'zgargandagi uning bug' bosimi o'zgarishini aniqlang.

Javobi:  $3653 \text{ Pa/K.}$

3.  $95$  va  $97^\circ\text{C}$  da suv bug'larining bosimi  $84513$  va  $90920 \text{ Pa}$  ga teng. Suvning bug'lanish issiqligini ( $\text{J/mol da}$ ) Klauzius-Klapeyron formulasi yordamida aniqlang va  $100 \text{ kg}$  suvning bug'lanishi uchun kerak bo'ladigan issiqlik miqdorini hisoblang. Bunda, kuchli assotsialangan suv uchun Truton formulasini qo'llab ko'rsating.

Javobi:  $41320 \text{ J/mol; } 2,293 \cdot 10^5 \text{ kJ.}$

4.  $307,9 \text{ K}$  normal qaynash haroratida dietil esfirning to'yingan bug' bosimi ( $dP/dT$ ) ning qiymati  $3530 \text{ Pa}$  ga teng bo'lsa, Klapeyron-Klauzius va Truton formulalari asosida dietil esfirning bug'lanish issiqligini aniqlang.

Javobi:  $27,28 \text{ kJ/mol.}$

5. HCN kislotaning bug' bosimi haroratga bog'liqligi  $R = 9,16 - \frac{1237}{T}$  tenglama bilan ifodalangan bo'lsa, shu kislotaning bug'lanish issiqligi qanday bo'ladi?

Javobi: 23,6 kJ/mol.

6. 2777 va  $2376^{\circ}\text{C}$  da suyuqlantirilgan temir bug'larining bosimi 6666 va 13332 Pa ga teng. Ko'rsatilgan haroratlar oralig'ida o'rtacha bug'lanish issiqligini (kJ/kg) aniqlang.

Javobi: 7042 kJ/mol.

7. Yodning  $90^{\circ}\text{C}$  dagi bug' bosimi 3572, 4 Pa ga,  $100^{\circ}\text{C}$  dagisi esa 6065,15 Pa ga teng. Yodning  $115^{\circ}\text{C}$  dagi bug' bosimini aniqlang.

Javobi: 12760 Pa;

8. Suyuq ammiakning  $-10^{\circ}\text{C}$  dagi bug' bosimi  $2,907 \cdot 10^5$  Pa ga,  $0^{\circ}\text{C}$  da esa  $4,293 \cdot 10^5$  Pa ga teng. Suyuq ammiakning  $-5^{\circ}\text{C}$  dagi bug' bosimini aniqlang.

Javobi:  $3,646 \cdot 10^5$  Pa.

9. Simobning  $90^{\circ}\text{C}$  dagi to'yigan bug' bosimi 20,91 Pa ga,  $100^{\circ}\text{C}$  da esa 6,16 Pa ga teng. Ko'rsatilgan haroratlar oralig'ida 10 kg simobning bug'lanish issiqligini va  $106^{\circ}\text{C}$  dagi to'yigan bug' bosimini aniqlang.

Javobi: 3075 kJ, 49,55 Pa.

10 Metan gazining 88,2 va 113 K haroratlar oralig'idagi o'rtacha bug'lanish issiqligini quyidagi jadvalda berilgan ma'lumotlar asosida aniqlang:

T, K	88,2	92,2	98,2	104,2	112,2
R, Pa	80,0	13,3	26,6	53,3	101,3

Javobi: 8,87 kJ/mol.

### V bob. ERITMALAR

Erish jarayoni, sodda qilib aytganda, bir modda zarrachalarining ikkinchi modda zarrachalari orasida bir tekis taqsimlanishidan iboratdir.

Tarkibida ikki yoki bir necha modda bor bo'lgan bir jinsli sistema eritmalar deyiladi. Erish jarayoni bir modda molekulalari va ionlarining boshqa modda molekulalari yoki ionlari orasida oddiy taqsimlanishi dangina iborat bo'lib qolmay, balki ayni modda orasida turli xil fizikaviy va kimyoviy o'zaro ta'sirlar ham bo'lishi mumkin.

Eritmada qaysi moddaning miqdori ko'p bo'lsa yoki qaysi modda o'z agregat holatini o'zgartirmagan bo'lsa, shu modda erituvchi, qolgani esa erigan modda deyiladi. Eritmalar erigan modda zarrachalarining katta-kichikligiga qarab chin eritmalar, kolloid eritmalar va dagal eritmargaga bo'linadi. Chin eritmada erigan modda zarrachalarining o'lchami 1 nanometr ( $10^{-6}$  mm) dan kichik, kolloid eritmada 1 dan 100 nanometrgacha, dag'al eritmada esa 100 nanometrdan katta bo'ladi.

Eritmalar agregat holatiga ko'ra, uch guruhga bo'linadi: 1) gazlar aralashmasi (masalan, havo); 2) suyuq eritmalar; 3) qattiq eritmalar (masalan, mis bilan oltin qotishmasi).

Suyuq eritmargaga gazlarning suyuqlikdagi, suyuqliklarning suyuqlikdagi va qattiq moddalarning suyuqlikdagi eritmalarini kiradi.

Eritmaning eng muhim xususiyati uning konsentrasiyasidir. Eritmaning muayyan miqdoridagi erigan modda miqdori eritmaning konentratsiyasi deyiladi. Erigan moddaning miqdori eritmaning massasiga yoki hajmiga nisbatan olinishiga qarab og'irlilik yoki hajmiy konsentratsiya bo'ladi. Eritmaning og'irlilik konsentratsiyasi, odatda, massa ulushlarda (0 dan 1 gacha) yoki foizlarda ifodalanadi yoki eritmaning zichligi bilan beriladi. Masalan, 100 gramida 10 g tuz va 90 g suv bor eritmaning massa ulushi 0,1 ga yoki bu eritma 10% eritma deyiladi.

Erigan moddaning miqdori molda yoki 1 l eritmadiagi gramm ekvivalentlarda berilganligiga qarab hajmiy kohsentratsiya molarlik yoki normallik bilan ifodalanadi. Agar 1 l eritmada n mol erigan modda bo'lsa, hajmiy konsentratsiya  $C = \frac{n}{V}$  ga teng. Hajmiy konsentratsiyaga titr ham kiraadi. 1 sm<sup>3</sup> (yoki 1 ml) eritmadiagi erigan moddaning

grammlar soni bilan ifodalanadigan konsentratsiy titr deyiladi. Ba'zan konsentratsiya 1000 g erituvchidagi erigan moddaning mollar soni bilan ham ifodalanadi (molar konsentratsiya).

Har xil agregat holatdagi moddalarning erish jarayoniga erituvchi va erigan modda molekulalarining qutblanganligi katta ta'sir ko'rsatadi. Qutblanganlik shundan iboratki, ayrim moddalar molekulasida elektr zaryadlari notejis taqsimlanganligi sababli molekulaning bir qismini musbat zaryadlar, ikkinchi qismida esa manfiy zaryadlar ko'payib qoladi. Molekulaning qutblanganlik darajasini tushuntirish uchun dipol degan tushuncha kiritiladi. Kattalik jihatidan teng, lekin ishorasi qaramaqarshi bo'lgan va bir-biridan ma'lum I masofada turgan ikki elektr zaryad ( $e^+$  va  $e^-$  dan iborat sistema) dipol deyiladi. Zaryadlar o'lchamining ular orasidagi masofaga ko'paytmasi dipol moment deyiladi va  $\mu$  bilan ishoralanadi:

$$\mu = e.l$$

Eritmalarning qutblanganlik darajasi ularning dielektrik doimiysi degan kattalik bilan ham baholanadi. Bu kattalik ikkita elektr zaryad orasidagi tortilish yoki itarilish kuchi ayni muhitda vakuumdagidan qancha kichik ekanligini ko'rsatadi. Molekulalari qutblangan moddalar qutblangan erituvchilarda eritilganda turli kattalikdagi assotsiatlar (birlashgan molekulalar) hosil qiladi. D.I. Mendeleyev etil spirit suvda eritilganida eritmaning umumiyligi kamayib, issiqlik chiqishini, ba'zi qattiq moddalar suvda eritilganda esa eritmaning harorati pasayishini ko'rsatdi va shu asosda o'zining gidratlar nazariyasini yaratdi. Bu nazariyaga ko'ra erish murakkab fizik-kimyoviy jarayon bo'lib, erigan modda molekulalari erituvchi molekulalari bilan o'zaro ta'sirlashib beqaror birikmalar – solvatlar hosil qiladi. Agar erituvchi suv bo'lsa, hosil bo'lgan birikma gidrat deyiladi. Gidratlar konsentratsiya va harorat o'zgarishi bilan parchalanadi, yoki boshqa birikmalarga aylanadi. Masalan, bir chaqmoq qand suvgaga botirilganda gidratlanish sodir bo'ladi, ya'ni suv molekulalari qand molekulalarini o'rabi oladi va ular bilan gidrat hosil qiladi. Bunda, issiqlik ajralib chiqadi. Lekin gidrat hosil qilish uchun suv molekulalari kristall panjaradan qand (shakar) molekulalarini ajratib olishi kerak, buning uchun esa energiya sarflash lozim. Demak, agar gidratlanish jarayonida kristall panjaradan molekulani ajratib olishda sarflanganiga qaraganda ko'p issiqlik chiqsa, erish jarayonida eritma isiydi. Aksincha, agar qattiq modda kristallini parchalashga gidratlanishdan ajralib chiqqanga qaraganda ko'p issiqlik talab qilinsa, u holda erish jarayonida eritma soviydi.

## 5.1. SUYULTIRILGAN NOELEKTROLIT ERITMALARNING OSMOTIK BOSIMI

Eritmada erigan modda molekulalari bilan erituvchi molekulalari orasida fizikaviy va kimyoviy o'zaro ta'sirlar bo'lgani sababli eritmaning xossalari erigan moddaning va toza erituvchining xossalardan farq qiladi. Bundan tashqari, eritmada erigan modda miqdori ko'p, ya'ni eritmaning konsentratsiyasi yuqori bo'lsa, erigan modda molekulalarining bir-biri bilan o'zaro ta'siri ham kuchli bo'lib, bu ham eritmaning xossalarni anchagini o'zgartirib yuboradi va ularni o'rganish qiyinlashadi. Shu sababli eritmalarning ko'p xossalari suyultirilgan eritmalar o'rganilgan va eritmala doir ko'p qonunlar ham suyultirilgan eritmalar uchun keltirib chiqarilgan. Suyultirilgan eritmalar erigan modda zarrachalari orasida erituvchining juda ko'p molekulalari bo'lganligidan bu zarrachalar orasidagi o'zaro ta'sir shunchalik kuchsizki, u eritmaning xossalariiga deyarli ta'sir etmaydi. 'Suyultirilgan eritmalarning xossalari erigan modda zarrachalarining tarkibiga va ularni o'lchamiga bog'liq bo'lmaydi. Shu jihatdan suyultirilgan eritmalar gazlarga o'xshaydi.

Biror moddaning bitta erituvchida ikki xil konsentratsiyali eritmasidan olib, ularning o'zaro yarimo'tkazgich parda (to'siq) bilan ajratilsa, bunday parda erituvchi molekulalarini o'tkazib, erigan modda molekulalarini tutib qoladi. Ko'p hayvon va o'simlik to'qimalari ana shunday parda vazifasini o'tay oladi.

Eritmalar bir-biridan yarimo'tkazgich parda yordamida ajratilganda erituvchi molekulalari past konsentratsiyali eritmadan yuqori konsentratsiyali eritmaga o'ta boshlaydi. Aslida erituvchi yuqori konsentratsiyali eritmadan past konsentratsiyali eritmaga o'tadi. Lekin bunda juda oz molekulalar o'tganligi sababli uni hisobga olmasa ham bo'ladi.

Erituvchining parda orqali eritmaga o'tishi osmos hodisasi deyiladi. Erituvchi molekulalari yuqori konsentratsiyali eritmaga o'tishiga qarshilik qilish uchun yetarli qandaydir bosim bilan ta'sir qiladi, ana shu bosim osmotik bosim deyiladi.

Tajribalarning ko'rsatishicha, juda suyultirilgan eritmalar osmotik bosim ( $\pi$ ) erigan moddaning konsentratsiyasi ( $S$ )ga va mutlaq harorat ( $T$ ) ga to'g'ri proporsional bo'ladi:

$$\pi = CRT$$

bunda,  $R$  — universal gaz doimiysi. Bu tenglama ideal gazlarning holat tenglamasiga ( $PV = nRT$ ) juda o'xshaydi, faqat  $R$  o'rniga  $\pi$  va  $\frac{n}{v}$

o'rniga eritmaning konsentratsiyasi C olingan. Bu tenglama Vant-Goff qonunining tenglamasi bo'lib, u quyidagicha ta'riflanadi:

Suyultirilgan eritmada erigan modda shu haroratda gaz holida bo'lib, eritma egallagan hajmni egallaganda qancha bosimni ko'rsatsa, eritmaning osmotik bosimi shu bosimga teng bo'ladi.

Osmotik bosimning yuqorida keltirilgan tenglamasi elektrolitik dis-sotsialishga uchraydigan barcha suyultirilgan eritmalar uchun mos keladi. Osmotik bosimi bir xil bo'lgan eritmalar izotonik eritmalar deyiladi.

Har qanday konsentratsiyali ideal eritmalarning osmotik bosimi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\pi_{id} = - \frac{RT}{V} \ln \frac{P}{P_0} \quad (5.1)$$

yoki

$$\pi_{id} = - \frac{RT}{V} \ln(1 - x_2) \quad (5.2)$$

bunda, v — erituvchining molar hajmi ;

$P_0$  — toza erituvchining bug' bosimi;

$x_2$  — erigan moddaning mol qismi.

Suyultirilgan ideal eritmalarning osmotik bosimini aniqlash uchun Mendeleev-Klapeyron tenglamasidan keltirib chiqarilgan Vant-Goff tenglamasidan foydalaniladi:

$$\pi_{id} = CRT \quad (5.3)$$

bunda, C — eritmaning molar konsentratsiyasi.

Real eritmalarning osmotik bosimini hisoblashda (5.1) formulaga osmotik koefitsiyent (g) kiritilgan:

$$\pi_{real} = -g \frac{RT}{V} \ln \frac{P}{P_0}$$

Osmotik bosim qiymatlardan foydalanib, real eritmardagi erituvchining kimyoviy potensiali quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$\mu = \mu_0 + -\frac{\pi_{real}}{\pi_{id}} - RT \ln x \quad (5.4)$$

bunda, x — erituvchining mol qismi.

## MASALALAR YECHIMLARIDAN NAMUNALAR

**1-misol.** Saxaroza  $C_{12}H_{22}O_{11}$  ning suvdagi (293 K da) eritmasida 100 g suvgaga 6,84 g saxaroza to'g'ri keladi. Saxarozaning molekula massasi 342 g/mol ga teng. Eritmaning osmotik bosimi topilsin.

**Yechish.** a) 100 g suvda 6,84 g saxaroza erigan bo'lsa,  $1m^3$  suvda qancha saxaroza erishi topiladi:

$$x = \frac{100 \text{ g} : 6,84 \text{ g}}{100} = \frac{1000000 \text{ g} : x}{100} = 6,84 \cdot 10^4 \text{ g saxaroza.}$$

b) saxaroza eritmasining konsentratsiyasi:

$$S = \frac{6,84 \cdot 10^4 \text{ mol}}{342 m^3} = 200 \text{ mol/m}^3 = 0,2 \text{ mol/l}$$

d) osmotik bosimni topish uchun  $\pi = CRT$  formuladan foy-dalaniladi:

$$\begin{aligned} \pi &= CRT = 200 \text{ mol/m}^3 \cdot 8,314 \text{ J/(mol K)} 293K = \\ &487200 \text{ J/m}^3 = 487200 \frac{m^2 \cdot kg}{C^2} \cdot \frac{1}{m^3} = 487200 \text{ kg/C}^2\text{m} = \\ &487200 \text{ Pa} = 487,2 \text{ kPa} = 0,49 \text{ MPa.} \end{aligned}$$

$$\pi = CRT = 0,2 \cdot 314 \cdot 293 = 487,2 \text{ kPa.}$$

**2-misol.** 100 ml. da 6,33 g qonning buyovchi moddasi—gematin bo'lgan eritmaning  $20^\circ C$  dagi osmotik bosimi  $243,4$  kPa ga teng. Agar gematinning elementar tarkibi (%), massa bo'yicha): S — 64,6; N — 5,2; N — 8,8; O — 12,6 va Fe — 8,8 ekanligi ma'lum bo'lsa, uning molekulal formulasini aniqlang.

**Yechish.**  $\pi = CRT$  tenglamadan eritmaning molarligi topiladi.

$$243,3 = C_m \cdot 8,31 \cdot 293; \quad C_m = 243,4 / (8,31 \cdot 293) = 0,1 \text{ mol/l.}$$

Endi gematinning molekular massasi hisoblanadi. Masala shartidan ma'lumki, 1 l eritmada 63,3 g gematin mavjud; bu 0,1 molni tashkil etadi. Shunday qilib, gematinning mol massasi  $63,3 \text{ g} : 0,1 = 633 \text{ g/mol}$  bo'ladi, molekular massasi esa — 633 ga teng.

Gematinning oddiy formulasi topiladi. Gematin molekulasidagi C, H, N, O va Fe atomlar sonini x, u, z, m va n bilan belgilanib quyida gicha hisoblanadi.

$$\begin{aligned}
 x : y : z : m : n &= \frac{64,6}{12} : \frac{5,2}{1} : \frac{8,8}{14} : \frac{12,6}{16} : \frac{8,8}{56} = \\
 &= 5,38 : 5,2 : 0,629 : 0,788 : 0,157 = \\
 &= \frac{5,38}{0,157} : \frac{5,2}{0,157} : \frac{0,629}{0,157} : \frac{0,788}{0,157} : \frac{0,157}{0,157} = \\
 &= 34,3 : 33,1 : 4,0 : 1 : 34 : 33 : 4 : 5 : 1
 \end{aligned}$$

Demak, gematinning oddiy formulasi  $C_{34}H_{33}N_4O_5Fe$  bo'lib, unga 633 molekular massa to'g'ri keladi. Bu yuqorida topilgan qiymatga mos keladi. Shunday qilib, gematinning haqiqiy formulasiga o'xshash bo'ladi, ya'ni  $C_{34}H_{33}N_4O_5Fe$ .

**3-misol.** 293 K da  $2 \cdot 10^{-4} m^3$  suvda  $0,368 \cdot 10^{-3}$  kg mochevina eritilgan: eritma 74630 Pa osmotik bosimga ega bo'lsa, eritmadagi mochevinaning molekular massasi qanday?

Berilgan:  $T = 298 K$ ;  $m_1 = 2 \cdot 10^{-4} m^3$ ;  $m_2 = 0,368 \cdot 10^{-3}$  kg;  
 $\pi = 74630 Pa$ .

Noma'lum:  $M = ?$

Yechish. 1) eritmadagi mochevinaning massasi hisoblanadi:  
 $M = 0,368 \cdot 10^{-3} : 2 \cdot 10^{-4} = 1,84 \cdot 10^{-3} kg$

2)  $\frac{m}{M} RT$  dan moddaning molekular massasi hisoblanadi:

$$M = \frac{m \cdot RT}{\pi} = \frac{1,84 \cdot 10^{-3} \cdot 8,314 \cdot 103 \cdot 298}{74630} = 0,06 kg \text{ yoki } 60 g/mol.$$

**4-misol.** 273 K da  $2,53 \cdot 10^5$  Pa osmotik bosim hosil qilish uchun  $1 m^3$  eritmada qancha noelektrolit erigan holatda bo'lishi mumkin?

Berilgan:  $T = 273 K$ ;  $\pi = 2,53 \cdot 10^5 Pa$ ;  $R = 8,314 J / (mol \cdot K)$ .

Noma'lum:  $n = ?$

Yechish:  $\pi = n \cdot RT$  dan

$$n = \frac{\pi}{RT} = \frac{2,53 \cdot 10^5}{8,314 \cdot 10^3 \cdot 273} = 0,112 \text{ mol/ } m^3.$$

**5-misol.** 1 mol saxaroza eritmasining osmotik bosimi 303 K da  $27,7 \cdot 10^5$  Pa ga teng. suvning zichligi  $1000 \text{ kg/m}^3$  va bug' bosimi  $0,0438 \cdot 10^5$  Pa ligini hisobga olib, eritma ustidagi bug' bosimini aniqlang.

**Berilgan:**  $\pi = 27,7 \cdot 10^5 \text{ Pa}$ ;  $T = 303 \text{ K}$ ;  $R = 1000 \text{ kg/m}^3$ ;  
 $P^0 = 0,0438 \cdot 10^5 \text{ Pa}$

**Noma'lum:**  $V = ?$ ,  $P = ?$

$$\text{Yechish: 1)} \quad V = \frac{M}{\rho} = \frac{18}{1000} = 0,018 \text{ m}^3 / \text{kg}$$

2)  $\pi = - \frac{RT}{V} \cdot 2,303 \lg \frac{P}{P^0}$  dan eritma ustidagi bug' bosimi hisoblanadi.

$$27,7 \cdot 10^5 = - \frac{8,314 \cdot 10^3 \cdot 303}{0,018} 2,303 \lg P + \frac{8,314 \cdot 10^3 \cdot 303}{0,018} \cdot 2,303 \lg 4380$$

$$27,7 \cdot 10^5 = - 3218,904 \cdot 10^5 \lg R + 3218,904 \cdot 10^5 \cdot 3,6415$$

$$27,7 \cdot 10^5 - 11721,638 \cdot 10^5 = - 3218,904 \cdot 10^5 \lg R$$

$$\lg R = \frac{11693,938 \cdot 10^5}{3218,904 \cdot 10^5} = 3,6329 \cdot 10^5$$

$$R = 0,56 \cdot 10^5 \text{ Pa.}$$

### MUSTAQIL ISHLASH UCHUN MISOL VA MASALALAR

1.  $25^\circ\text{C}$  da  $0,5 \text{ M}$  glyukoza eritmasining osmotik bosimi nimaga teng bo'ladi.

Javobi:  $1,24 \text{ MPa}$ .

2.  $293 \text{ K}$  da  $350 \text{ g H}_2\text{O}$  da  $16 \text{ g}$  saxaroza  $\text{C}_{12}\text{H}_{22}\text{O}_{11}$  erigan bo'lsa, eritmaning osmotik bosimini aniqlang. Eritmaning zichligi  $1 \text{ ga}$  teng deb hisoblang.

Javobi:  $311 \text{ kPa}$ .

3.  $100 \text{ ml}$   $0,3 \text{ M}$  li saxaroza  $\text{C}_{12}\text{H}_{22}\text{O}_{11}$  ni suvli eritmasi ustiga  $300 \text{ ml}$  suv qo'shiladi.  $25^\circ\text{C}$  da hosil bo'lgan eritmaning osmotik bosimi ni-maga teng bo'ladi?

Javobi:  $309,6 \text{ kPa}$ .

4. Ayrim suvli eritmaning  $25^\circ\text{C}$  dagi osmotik bosimi  $1,24 \text{ MPa}$  ga teng. Shu eritmaning  $0^\circ\text{C}$  dagi osmotik bosimini hisoblang.

Javobi:  $1,14 \text{ MPa}$ .

5. 200 ml eritmada 2,80 g yuqori molekulalı modda tutuvchi eritmaning  $25^{\circ}\text{C}$  dagi osmotik bosimi  $0,70 \text{ kPa}$  ga teng, erigan moddaning molekulyar massasini toping.

Javobi:  $4,95 \cdot 10^4$ .

6. 291 K da glitserining osmotik bosimi  $0,039 \cdot 10^5 \text{ Pa}$  ga teng, eritma 3 marta suyultirilib, harorati  $310 \text{ K}$  ga ko'tarilsa, osmotik bosim qanchaga o'zgaradi?

Javobi:  $99330 \text{ Pa}$ .

7. 293 K da shakar eritmasining osmotik bosimi  $1,066 \cdot 10^5 \text{ Pa}$  ga teng. Shu eritmaning 273 K dagi osmotik bosimi qanday?

Javobi:  $5,484 \cdot 10^5 \text{ Pa}$ .

8. 290 K da noelektrolit eritma  $4,82 \cdot 10^5 \text{ Pa}$  bosimga ega. Shu eritma harorati 330 K gacha ko'tarilganda uning osmotik bosimi qancha bo'ladi:

Javobi:  $93,50 \text{ kPa}$ .

9.  $5 \cdot 10^{-4} \text{ m}^3$  eritmada  $1,56 \cdot 10^{-3} \text{ kg}$  anilin eritilganda, eritmaning  $294 \text{ K}$  dagi osmotik bosimi  $0,8104 \cdot 10^5 \text{ Pa}$  bo'lsa, anilinning molekular massasi topilsin.

Javobi: 342,2.

10.  $6,25 \cdot 10^{-4} \text{ m}^3$  eritmada  $7,5 \cdot 10^{-3} \text{ kg}$  shakar eritilgan,  $285 \text{ K}$  da eritmaning osmotik bosimi  $0,8307 \cdot 10^5 \text{ Pa}$ . Shakarning molekular massasi qancha?

Javobi: 179,2

11.  $2,5 \cdot 10^{-4} \text{ m}^3$  eritmada  $9 \cdot 10^{-3} \text{ kg}$  noelektrolit eritilgan eritmaning osmotik bosimi 273 K da  $4,56 \cdot 10^5 \text{ Pa}$  ga teng, noelektrolitning molekular massasi qancha?

Javobi: 774,1.

12.  $22^{\circ}\text{C}$  da shakar eritmasining osmotik bosimi  $7,3 \cdot 10^4 \text{ Pa}$  ga teng. Agar eritma ikki marta suyultirilsa va harorat  $25^{\circ}\text{C}$  ga ko'tarilsa, osmotik bosim qanchaga o'zgaradi.

Javobi:  $3,959 \cdot 10^4 \text{ Pa}$ .

13. 5 l eritmada 225 g shakar bo'lgan suvli eritmaning  $25^{\circ}\text{C}$  dagi osmotik bosimini hisoblang.

Javobi:  $3,257 \cdot 10^5 \text{ Pa}$ .

14. Massa ulushi 0,005 bo'lgan magniy xlorid eritmasining  $18^{\circ}\text{C}$  dagi osmotik bosimini hisoblang. Eritmaning zichligi 1 g/ml ga teng va tuzning dissotsialanish darajasi 75% ni tashkil etadi.

Javobi:  $3,177 \cdot 10^5 \text{ Pa}$ .

13.  $12^{\circ}\text{C}$  da  $625 \text{ sm}^3$  eritmada 7,5 g qand bo'lgan eritmaning osmotik bosimi  $8,307 \cdot 10^4 \text{ Pa}$  ga teng. Shakarning molekular massasini aniqlang.

Javobi: 342,2.

## 5.2. ERITMALARNING TO'YINGAN BUG' BOSIMI. RAUL QONUNI

Ma'lumki, har qanday suyuqlik ustidagi bosim deyilganda uning to'yingan bug' bosimi tushuniladi. Suyuqlikning to'yingan bug' bosimi berilgan haroratda o'zgarmas kattalikdir. Harorat ko'tarlishi bilan har qanday moddaning to'yingan bug' bosimi ortadi. Bunga sabab, avvalo, harorat ko'tarlishi bilan molekulalar harakatining o'rtacha kinetik enerjiyasini ortishi va natijada suyuqlik molekulalarining o'zaro tortishish kuchini yengib, suyuqlikdan ajraladigan va bug'ga o'tadigan molekulalar sonining ko'payishidir. Ikkinchidan, bug'lanish endotermik jarayon, ya'ni u issiqlik yutilishi bilan boradi, shu sababli harorat ko'tarilganda to'yingan bug' bosimi ortadi. Bu fikrlar, asosan, sof eruvchilar bilan to'g'ri keladi. Eritma ustidagi bug' bosimi esa harorat bilan bir qatorda shu eritmadiagi erigan moddaning miqdoriga ham bog'liq bo'ladi. Erituvchining eritma ustidagi to'yingan bug' bosimi toza erituvchining ustidagi bug' bosimidan doimo kichik bo'ladi. Eritmaning konsentratsiyasi qancha yuqori bo'lsa, uning ustidagi bug' bosimi shunc ha kichik bo'ladi. Chunki konsentratsiya ortgan sari eritmaning hajm birligida erituvching miqdori kamayib boradi.

Fransiz olimi F.M. Raul kam uchuvchan moddalarning suyultirilgan eritmalari uchun quyidagi qonunni kashf etdi: erituvchining suyultirilgan eritma ustidagi to'yingan bug' bosimining nisbiy pasayishi erigan moddaning molar qismiga teng.

Ideal eritmardagi komponent H ning bug' bosimi eritma haroratida toza komponent bug' bosimining eritma tarkibidagi komponentning mol qismi  $x_H$  ga ko'paytirilganiga teng:

$$R_H = P^0_H \cdot x_H \quad (5.5)$$

Eritmaning bug' bosimi uning molar qismiga to'g'ri mutonosibligi Raul tomonidan aniqlangan. Shuning uchun (5.5) Raul qonunining matematik ifodasi deyiladi.

Binar eritmalar uchun yuqoridagi formula quyidagicha yoziladi:

$$R_H = P^0_H (1 - x_2), \quad (5.6)$$

bunda,  $R_H$  — eritma ustidagi erituvchining bug' bosimi;

$P^0_H$  — toza erituvchi ustidagi bug' bosimi;

$x_2$  — erigan moddaning mol qismi;

$1 - x_2 = x_1$  — erituvchining mol qismi.

Ko'pincha Raul qonunining qiymati binar eritmalar uchun quyida-gicha ifodalanadi:

$$\frac{P^0 - P}{P^0} = x_2 \quad (5.7)$$

bunda:  $x_2 = \frac{n_2}{n_1 + n_2}$ , shuni (5.7) ga qo'yilsa,  $\frac{P^0 - P}{P^0} = \frac{n_2}{n_1 + n_2}$  kelib chiqadi.

$$\frac{P^0 - P}{P^0} = \frac{n_2}{n_1 + n_2} \quad (5.9)$$

yoki  $\frac{\Delta P}{P^0} = \frac{n_2}{n_1 + n_2}$  qilib yozish mumkin.

bunda,  $n_2$  – erigan moddaning mol sonlari,  $\frac{m_2}{M_2}$  ga teng bo'ladi.

$n_1$  – eruvchining mol sonlari  $\frac{m_1}{M_1}$  ga teng bo'ladi formuladagi

$n_2$  va  $n_1$  larning qiymati qo'yib chiqilsa,

$$\frac{P^0 - P}{P^0} = \frac{m_2 / M_2}{m_2 / M_2 + m_1 / M_1} \text{ bo'ladi.} \quad (5.11)$$

(5.11) formula yordamida eritma va erituvchining bug' bosimlari ma'lum bo'lganda eritmaning tarkibini, eritmadaagi komponentlardan birortasining molekular massasini ham aniqlash mumkin.

### MASALALAR YECHIMLARIDAN NAMUNALAR

**1-misol.**  $25^{\circ}\text{C}$  da toza suv bug' bosimi  $3167,73 \text{ Pa}$ , shu haroratda  $20\%$  glyukoza eritmasining bug' bosimi qanday bo'ladi? Glyukozaning molekular massasi  $M (\text{C}_6\text{H}_{12}\text{O}_6) = 180 \text{ g/mol}$ .

Berilgan:  $m_2 = 20\%$ ;  $M_2 = 180$ ;  $m_1 = 80$ ;  $M_1 = 18$

$n_2 = 20/180 = 0,11 \text{ mol}$ ;  $n_1 = 80/18 = 4,44 \text{ mol}$ ;  $P^0 = 3167,73 \text{ Pa}$ .

Noma'lum:  $R = ?$

Yechish. (11.V) formuladan eritmaning bosimi  $R$  hisoblanadi:

$$\frac{P^0 - P}{P^0} = \frac{n_2}{n_1 + n_2} \text{ berilgan qiymatlar shu formulaga qo'yiladi.}$$

$$\frac{3167,73 - P}{3167,73} = \frac{0,11}{0,11 + 4,44} \quad \text{dan} \quad R = 3091,14 \text{ Pa.}$$

**2-misol.** Eritmaning bug' bosimi 266,5 Pa ga pasaytirish uchun 303 K da 0,090 kg suvda qancha glitserin eriydi? (Shu haroratda toza suvning bug' bosimi 4242,30 Pa ga teng).

**Berilgan:**  $m_1 = 0,090 \text{ kg}$ ;  $M_1 = 0,018 \text{ g}$ ;  $n_1 = \frac{0,090}{0,018} = 5 \text{ mol}$ ;

$$M_2 = 0,092 \text{ g}; \quad P^0 = 4242,30 \text{ Pa}; \quad \Delta R = 266,5 \text{ Pa.}$$

**Noma'lum:**  $m_2 = ?$

**Yechish.** (5.11) dan glitserining massasi hisoblanadi:

$$\frac{266,5}{4242,30} = \frac{\frac{m_2}{0,092}}{\frac{m_2}{0,092} + 5} \quad \text{dan} \quad m_2 = 31 \text{ kg.}$$

**3-misol.**  $6,18 \cdot 10^{-3} \text{ kg}$  anilin 0,74 kg efir  $[(C_2H_5)_2O]$ da 303 K da eritilgan. Eritmaning bug' bosimi 85800 Pa ga teng bo'lgan. Shu haroratda toza suvning bug' bosimi 86380 Pa ga teng bo'lsa, anilinning molekular massasi qancha bo'lishi mumkin?

**Berilgan:**  $m_2 = 6,18 \cdot 10^{-3} \text{ kg}$ ;  $m_1 = 0,74 \text{ kg}$ ;  $M_1 = 0,074 \text{ kg}$ ;

$$n_1 = \frac{0,74}{0,074} = 10 \quad P^0 = 86380 \text{ Pa.} \quad R = 85800 \text{ Pa;}$$

$$R = 86380 - 85800 = 580 \text{ Pa.}$$

**Noma'lum:**  $m_2 = ?$

**Yechish:** (5.11) dan anilinning molekular massasi hisoblanadi:-

$$\frac{580}{86380} = \frac{\frac{6,18 \cdot 10^{-3}}{M^2}}{\frac{6,18 \cdot 10^{-3}}{M^2} + 10} \quad \text{dan} \quad M_2 = 0,0914 \text{ kg yoki } 91,4 \text{ g.}$$

### MUSTAQIL ISHLASH UCHUN MISOL VA MASALALAR

1.  $20^\circ\text{C}$  da toza atseton bug'ining bosimi 23940 Pa ga teng. Shu haroratda 200 g atsetonda 5 g kamfora bo'lgan eritma bug'ining bosimi

23710 Pa ga teng. Atsetonda erigan kamforaning molekular massasini aniqlang.

Javobi: 151,0.

2.  $6,4 \cdot 10^{-3}$  kg naftalin ( $C_{10}H_8$ ) 0,09 kg benzol ( $C_6H_6$ ) da eritilgan. Eritmaning 393 K dagi bug' bosimi qanday? Shu haroratda toza benzolning bug' bosimi 9953,82 Pa ga teng.

Javobi: 4177,37 Pa.

3. 0,15 kg eritmada  $34,2 \cdot 10^{-3}$  kg shakar ( $C_{12}H_{22}O_{11}$ ) eritilgan. 303 K da toza suvning bug' bosimi 4242,3 Pa. Shu haroratda eritmaning bug' bosimi qanday bo'ladi?

Javobi: 19142,913 Pa.

4. 293 K da toza efir  $[(C_2H_2)_2O]$ ning bug' bosimi 58920 Pa, shu haroratda 0,1 kg efirda  $12,2 \cdot 10^{-2}$  kg benzoy kislota ( $C_6H_5COOH$ ) eritilgan eritmaning bug' bosimi esa 54790 Pa ga teng. Eritmadagi kislotaning molekular massasi topilsin.

Javobi:  $0,11 \cdot 10^{-3}$  kg.

5.  $25^0C$  haroratda massa ulushi 0,2 (20%) bo'lgan glyukoza  $C_6H_{12}O_6$  eritmasi bug'ining bosimini hisoblang. Shu haroratda suvning bug' bosimi 167,73 Pa ga teng.

Javobi: 3091 Pa.

6.  $20^0C$  haroratda 6,4 g naftalin  $C_{10}H_8$  90 g benzol  $C_6H_6$  da eritilgan. Eritma bug'ining bosimini hisoblang. Shu haroratda benzolning bug' bosimi 9953,82 Pa ga teng.

Javobi: 9541 Pa.

7. Eritmaning bug' bosimini 399,7 Pa ga kamaytirish uchun 300 K da  $4,5 \cdot 10^{-3}$  kg glitserin ( $C_3H_8O_3$ ) qancha suvda eritiladi? Shu haroratda toza suvning bug' bosimi 3565 Pa ga teng deb qabul qilinsin.

Javobi: 7155 Pa.

8. 150 g suvli eritmada 34,2 g shakar  $C_{12}H_{22}O_{11}$  mavjud.  $30^0C$  haroratda bu eritmaning bug' bosimini hisoblang. Shu haroratda suvning bug' bosimi 4242,30 Pa ga teng.

Javobi: 4178 Pa.

9. 200 g naftalin  $C_{10}H_8$  ning benzol  $C_6H_6$  dagi eritmasisida 60 g naftalin bor. Shu eritmaning  $40^0C$  dagi bug' bosimini hisoblang. Shu haroratda benzolning bug' bosimi 24144,6 Pa ga teng.

Javobi: 19140 Pa.

10. 0,1 kg suvda  $1,3 \cdot 10^{-3}$  kg noelektrolit eritilgan, eritmaning 301 K dagi bug' bosimi 3642 Pa ga teng. Shu haroratda toza suvning bug' bosimi 3780 Pa bo'lsa, eritmadagi noelektritning molekular massasi qancha?

Javobi:  $4,33 \cdot 10^6$  Pa.

### 5.3. ERITMALARDA SUYUQLIK – QATTIQ MODDA MUVOZANATI. KRIOSKOPIYA

Suyultirilgan eritmalarda muzlash haroratning nisbiy pasayish qiymati Raul qonuniga muvofiq, eritmaning molar konsentratsiyasiga to'g'ri mutanosib bo'ladi:

$$\Delta T = K \cdot m \quad (5.12)$$

bunda,  $K$  – krioskopik doimiy bo'lib, erituvchi muzlash haroratning molar pasayishi deyiladi;  $m_2$  – eritmaning molar konsentratsiyasi.

K quyidagi formuladan hisoblanadi:

$$K = \frac{R \cdot T_0^2}{1000 \cdot l_s} \quad (5.13)$$

bunda,  $T_0$  – toza erituvchining muzlash harorati;  $l_s$  – toza erituvchining solishtirma bug'lanish issiqligi.

Eritma va toza erituvchilarning muzlash haroratini tajribada aniqlab, ularning farqi asosida, eritmadagi moddalarning molekular massasini hisoblash mumkin. Uning uchun (5.12) formuladagi  $m_2$  ning (5.13) dagiga qo'yilsa, quyidagi formula kelib chiqadi:

$$\Delta T = K \cdot \frac{m \cdot 1000}{g \cdot M} \quad (5.14)$$

Bundan molekular massasini aniqlash mumkin.

$$M = \frac{K \cdot m \cdot 1000}{\Delta T \cdot g} \quad (5.15)$$

**1-misol.** Muzlash harorati –  $1^\circ C$  bo'lgan glyukozaning suvli eritmasini % konsentratsiyasi qanday bo'ladi?

**Berilgan:**  $t = -1^\circ C$ ;  $t_0 = 0^\circ C$ ;  $\Delta t = 0 - (-1) = 1^\circ C$

$$K = 1,86; M_{glyuk} = 0,18 \text{ kg.}$$

**NO'malum:**  $m_1 = ?$   $m_2 = ?$

**Yechimi:** 1) (5.14) dan  $m_2$  hisoblanadi:

$$m_2 = \frac{T}{K} \cdot \frac{l}{1.86} = 0.54 \text{ mol}$$

2) Glyukozaning massasi aniqlanadi:

$$m_2 = 0.54 \cdot 0.18 = 0,0972 \text{ kg}$$

3) Eritmaning massasi:  $m = 1 + 0,0972 \text{ kg} = 1,0972$

4) Eritmaning % konsentratsiyasi:

$$1,0972 : 0,0972 = 100 : m \quad m = 8,36\%$$

**2-misol.** Eritma - 5°C da muzlamasligi uchun  $1 \cdot 10^{-3}$  kg suvda qancha glitserin eritilishi kerak?

**Berilgan:**  $t = -5^\circ\text{C}$ ;  $t_0 = 0^\circ\text{C}$ ;  $\Delta t = 0 - (-5) = 5^\circ\text{C}$

$$M = 0,092 \text{ kg}; g = 1 \cdot 10^{-3} \text{ kg}; K = 1,80 \text{ grad/mol}.$$

**Noma'lum**  $m = ?$

**Yechimi:** 1) (5.15) dan hisoblanadi:

$$M = \frac{K \cdot m \cdot 1000}{\Delta t \cdot g} \text{ dan } m = \frac{M \cdot \Delta t \cdot g}{K \cdot 1000} = \frac{0,092 \cdot 5 \cdot 1}{1,86 \cdot 1} = 0,247 \text{ kg}.$$

**3-misol.** Temir va ko'mir qotishmasida 6% S bor. Sof holdagi temirning suyuqlanish harorati molar pasayishi  $13,18^\circ\text{C}$ , suyuqlanish harorati esa  $1803 \text{ K}$  ga teng bo'lsa, qotishma necha gradusda suyuqlanadi?

**Berilgan:**  $m = 6\%$ ;  $T_{\text{Ofc}} = 1803 \text{ K}$ ;  $E_0 = 13,18^\circ\text{C}$ .

**Noma'lum:**  $T = ?$

**Yechimi:** 1) 1 kg qotishmadagi ko'mirning massasi aniqlanadi:

$$0,1 : 6 \cdot 10^{-3} = 1 : m \quad m = 0,06 \text{ kg}$$

$$2) \text{ Ko'mirning mol miqdori hisoblanadi: } n = \frac{m}{M} = \frac{0,06}{0,012} = 5M$$

3)  $T_{\text{qay}} = E \cdot n$  yoki  $T_0 = T = E \cdot n$ , bundan  $1803 - T = 13,18 - 5$  yoki  $T = 1727,1 \text{ K}$ .

**4-misol.** Zichligi  $879 \text{ kg/m}^3$  bo'lgan,  $1 \cdot 10^{-5} \text{ m}^3$  benzolda  $0,554 \cdot 10^{-3}$  kg naftalin eritilgan; eritma  $2,981^\circ\text{C}$  da qotadi. Benzolning muzlash harorati esa  $5,5^\circ\text{C/g}$ , suyuqlanish issiqligi  $127,4 \text{ J/g}$  ga teng bo'lsa, eritmadagi naftalining molekular massasi qancha bo'lishi mumkin?

**Berilgan:**

$$\rho = 879 \text{ kg/m}^3; V = 1 \cdot 10^{-5} \text{ m}^3; m = Vg = 8790 \cdot 1 \cdot 10^{-5} = 0,0879 \text{ kg};$$

$$m_0 = 9,669 \cdot 10^{-3} \text{ kg}; t_2 = 5,5^\circ\text{C}; t_1 = 2,981^\circ\text{C}; T_0 = 5,5 + 273 = 278,5 \text{ K};$$

$$\Delta t = t_2 - t_1 = 5,5 - 2,981 = 2,519^\circ\text{C}; m = 0,554 \cdot 10^{-3} \text{ kg};$$

$$|C = 127,4 \text{ J/g}; R = 8,314 \text{ J/(mol K)}.$$

**Noma'lum:**  $K = ?$   $M = ?$

**Yechimi:**

$$1) K = \frac{RT^2}{1000 \cdot l} = \frac{8,314 \cdot (278,5)^2}{1000 \cdot 127,4} = 5,06 \text{ grad/mol}$$

$$2) M = \frac{K \cdot m \cdot 1000}{\Delta t \cdot g} = \frac{5,07 \cdot 0,554 \cdot 1000}{2,519 \cdot 8,79} = 126,85.$$

**5-misol.** Noelektrolit eritma  $-2,2^{\circ}\text{C}$  da muzlaydi. Eritmaning qaynash harorati va  $273\text{ K}$  dagi bosimi qanday bo'ladi? Shu haroratda Toza suvning buh bosimi  $2337,8\text{ Pa}$  ga teng.

**Berilgan:**  $T_0 = 273\text{ K}$ ;  $t_1 = -2,2^{\circ}\text{C}$ ;  $\Delta t = t_2 - t_1 = 0 - (-2,2)^{\circ}\text{C}$ ;  $K = 1,86\text{ grad/mol}$ ;  $T_1 = 273\text{ K}$ ;  $E = 0,52\text{ K/mol}$ ,  $P^0 = 2337,8\text{ Pa}$ .

**Noma'lum:**  $t_2 = ?$   $R = ?$

**Yechimi:** 1)  $\Delta T_m = K \cdot s$  dan  $s$  topiladi.

$$s = \frac{\Delta T_m}{K} \frac{2,2}{1,86} = 1,183\text{ mol}.$$

2)  $T_{qay} = Ec$  dan eritma qainash haroratining ko'tarilish qiymati aniqlanadi:  $\Delta T_{qay} = 0,52 \cdot 1,183 = 0,6152^{\circ}\text{C}$ .  $T_2 - T_1 = 0,6152$ ;  $t_2 - 373 = 0,6152$ ;  $t_2 = 373,6152^{\circ}\text{C}$ .

3) Sharl va Gey-Lyussak qonunlari asosida eritmaning bug' bosimi hisoblanadi:

$$\frac{P_1}{T_1} = \frac{P_2}{T_2} \text{ dan } P_2 = \frac{P_1 \cdot T_2}{T_1} \text{ bo'ladi.}$$

$$P_2 = \frac{2337,8 + 373}{373,6152} = 2333,95\text{ Pa}.$$

**6-misol.** Timolning suyuqlanish issiqligini aniqlash uchun  $0,02\text{ kg}$  timol —  $\text{HOC}_6\text{H}_3(\text{CH}_3)\text{C}_3\text{H}_7$  ga  $0,5 \cdot 10^{-3}\text{ kg}$  qahrabo angidrid  $[(\text{CH}_2\text{CO})_2\text{O}]$  qo'shilsa, timolning suyuqlanish harorati  $321,2\text{ K}$  dan  $319,2\text{ K}$  ga qadar pasayadi. Timolning suyuqlanish issiqligi nechaga teng?

**Berilgan:**  $m = 0,5 \cdot 10^{-3}\text{ kg}$ ;  $g = 2 \cdot 10^{-2}\text{ kg}$ ;  $M = 0,15\text{ kg}$ ;

$T_0 = 321,2\text{ K}$ ;  $T_1 = 319,2\text{ K}$ ;  $T = 321,2 - 319,2 = 2\text{ K}$ ;

$R = 8,314\text{ J/(mol} \cdot \text{K)}$ .

**Noma'lum:**  $K = ?$   $l_c = ?$   $Z_{mol} = ?$

**Yechimi:**

$$1) \Delta T = \frac{K \cdot m \cdot 1000}{g \cdot M} \text{ dan } K = \frac{\Delta T \cdot g \cdot M}{m \cdot 1000} \text{ bo'ladi,}$$

$$K = \frac{2 \cdot 2 \cdot 10^{-2} \cdot 0,15}{0,5 \cdot 10^{-3} \cdot 1} = 12.$$

$$2) K = \frac{RT^2}{1000 \cdot l_c} \text{ dan } l_c = \frac{RT^2}{1000 \cdot K} \text{ bo'ladi, } l_c = \frac{8,314 \cdot (321,2)^2}{12 \cdot 1000} = 71,48\text{ J/g}.$$

$$3) Z_{mol} = l_c \cdot M = 71,48 \cdot 0,15 = 10,722\text{ kJ/kmol}.$$

## MUSTAQIL ISHLASH UCHUN MISOL VA MASALALAR

1. 45% li metil spirtining suvdagi eritmasi necha gradusda muzlaydi?

Javob. 1172,3 K.

2. Tarkibida 14,6% kremniy bo'lgan temir-kremniy qotishmasi necha gradusda qotadi? Temirning suyuqlanish haroratining molekular pasayishi  $13,18^{\circ}\text{C}$  va sof temirning suyuqlanish harorati 1803 Kga teng.

Javob. 1216 K.

3. Sof temirning suyuqlanish harorati 1803 K, qotish temperaturasining molekular pasayishi  $13,18^{\circ}\text{C}$  bo'lsa, tarkibida 3,6% S bo'lgan temir-uglerod qotishmasi necha gradusda qotadi?

Javob. 62,18.

4. Suyuqlanish harorati 504,61 K, qotish haroratining molar pasayishi  $34,61^{\circ}\text{C}$  bo'lgan 0,44 kg qalayda  $1,5163 \cdot 10^{-3}$  kg Su metali eritilgan qotishmaning harorati 502,092 Kga pasaygan. Qalayda erigan misning molekular massasi topilsin.

Javob. 152,2.

5. Toza benzolning muzlash harorati 278,5 K bo'lib,  $30,55 \cdot 10^{-2}$  kg benzolda  $0,2242 \cdot 10^{-3}$  kg kamfora eritilgan eritma 278,254 K da qotadi. Benzolda erigan kamforaning molekular massasi topilsin.

Javob. 271,3 K.

6. Eritmaning 291 K dagi osmotik bosimi  $2,1077 \cdot 10^6$  Pa bo'lishi uchun 0,25 kg suvda  $7,31 \cdot 10^{-3}$  kg osh tuzi eritilgan. Shu eritma necha gradusda muzlaydi?

Javob. 373,97 K.

7. Noelektrolit eritma 269,5 K da muzlaydi. 298 K da toza suvning bug' bosimi 3167,2 Pa ga teng, shu haroratda eritmaning bug' bosimi qancha bo'ladi va eritma necha gradusda muzlaydi?

Javob. 1,86; 5,07; 781; 40,2 kg/mol K.

8. Suv va benzolning suyuqlanish haroratlari 0 va  $5,5^{\circ}\text{C}$ , solishtirma suyuqlanish issiqliklari esa 332 va 125 kJ/kg ga teng, suv hamda benzolning krioskopik doimiysi topilsin.

Javob. 274,06 K.

9. Suvning normal suyuqlanish harorati ( $0^{\circ}\text{C}$ ), solishtirma suyuqlanish issiqligi 332 kJ/kg ga teng. 8% li glyukozaning suvdagi eritmasi necha gradusda kristallanadi?

Javob. Og'zaki.

10. Mochevina va sirka kislotalarning suyuqlanish haroratlari 405,1 va 289,65 K hamda krioskopik konstantlari 21,5 va 3,9 ga tengligini

hisobga olib, mochegini va sirka kislotalarning suyqlanish issiqligi topilsin.

Javob. 7,39 va 111,3 J/K

11. Fenolning suyqlanish harorati 314 K ga teng, unda  $0,172 \cdot 10^{-3}$  kg atsetanilid ( $C_6H_9CN$ ) eritilgan. Fenolning miqdori esa  $12,54 \cdot 10^{-2}$  kg. Shu eritma 313,25 Kda qotadi. Fenolning krioskopik doimiysi va solishtirma suyqlanish issiqligi J/g topilsin.

Javob.  $1,079 \cdot 10^6$  Pa.

#### 5.4. KUCHSIZ ELEKTROLITLAR. DISSOTSIATSIYA DOIMIYSI VA DARAJASI

Qutbli molekulalarga ega bo'lgan suvda yoki boshqa erituvchilarda elektrolitlar eriganda, ular elektrolitik dissotsatsiyaga uchraydi, ya'ni kam yoki ko'p darajada musbat va mansiy zaryadlangan ionlarga - kationlar va anionlarga parchalanadi. Elektrolit eritmalarida dissotsialangan molekulalar bilan dissotsialanmagan molekulalar orasida muvozanat vujudga keladi. Masalan, sirka kislotaning suvli eritmasida quyidagicha muvozanat qaror topadi:



dissotsialanish doimiysi ( $K$ ) quyidagicha yoziladi:

$$K = \frac{C_H \cdot C_{CH_3COOH}}{C_{HCOOH}}$$

Dissotsialangan molekulalar sonining eritmadagi umumiy molekulalar soni ( $N$ ) ga nisbatli dissotsialanish darajasi deb ataladi.

$$\alpha = \frac{n}{N}$$

bu yerda,  $\alpha$  - dissotsialanish darajasi;

$n$  - dissotsialangan molekulalar soni;

$N$  - eritilgan umumiy molekulalar soni.

$AX$  elektrolit misolida, u  $A^+$  va  $X^-$  ionlarga dissotsilanadi. Unda dissotsatsiya konstantasi va darajasi bir-biri bilan quyidagicha nisbatlar bo'yicha bog'langan bo'ladi (Ostvaldning uyultirish qonuni).

$$K = \alpha^2 SM / (1-\alpha)$$

bu yerda,  $SM$  - elektrolitning molar konsentratsiyasi, mol/l da.

Agar dissotsilanish darajasi birdan ancha kichik bo'lsa, unda  $1 - \alpha \approx 1$  deb qabul qilish mumkin, unda suyultirish qonuni ifodasi quyidagicha qisqa ko'rinishga ega bo'ladi:

$$K = \alpha^2 Sm, \text{ undan } \alpha = \sqrt{K/Sm} \text{ kelib chiqadi.}$$

Oxirgi nisbat shuni ko'rsatadiki, eritma suyultirilsa (ya'ni Sm elektrolit konsentratsiyasi kamaytirilsa), elektrolitning dissotsialanish darajasi ortadi.

Kislotalarning dissotsiatsiyasiga bog'liq hisoblashlarda, doimiy K o'rniga dissotsialanish doimiysi ko'rsatgichi pK ni ishlatalish qulayroq bo'ladi, u quyidagicha nisbat bilan aniqlanadi.

$$PK = -\lg K$$

K qiymati ortishi bilan, ya'ni kislota kuchi oshganda, pK qiymati kamayadi; demak, pK qancha katta bo'lsa, kislota shuncha kuchsiz hisoblanadi.

**1-misol.** 0,1 M li sirkalarning dissotsialanish darajasi  $1,32 \cdot 10^{-2}$  ga teng. Kislotalarning dissotsialanish doimiysi ko'rsatgichi pK qiymatini toping.

**Yechish.** Suyultirish qonuni tenglamasiga masala shartida keltirilgan sonlarni qo'yib quyidagicha hisoblanadi:

$$K = \alpha^2 SM / (1 - \alpha) = (1,32 \cdot 10^{-2})^2 \cdot 0,1 / (1 - 0,0132) = 1,77 \cdot 10^{-5}$$

$$\text{unda } PK = -\lg (1,77 \cdot 10^{-5}) = 5 - \lg 1,77 = 5 - 0,25 = 4,75$$

$K = \alpha^2 Sm$  bo'yicha hisoblansa, K qiymatiga yaqin son kelib chiqadi.

$$K = (1,32 \cdot 10^{-2})^2 \cdot 0,1 = 1,74 \cdot 10^{-5}, \text{ bundan } PK = 4,76 \text{ kelib chiqadi.}$$

Kuchsiz elektrolit eritmasiga o'xshash ionli boshqa elektrolit qo'shilsa, dissotsialanish muvozanati buziladi va u dissotsialmagan molekulalar hosil bo'lish tomoniga siljiydi. Masalan, sirkalarning konsentratsiyasi ortib, Le-Shatele prinsipiiga muvofiq,  $\text{CH}_3\text{COOH} \rightleftharpoons \text{H}^+ + \text{CH}_3\text{COO}^-$  muvozanat chap tomonga siljiydi.

**2-misol.** 1 l 0,2 M li chumoli kislota ( $K = 1,8 \cdot 10^{-4}$ )  $\text{HCOOH}$  eritmasiga 0,1 mol  $\text{HCOONa}$  tuzi qo'shilsa, vodorod ionlari konsentratsiyasi necha marta kamayadi? Tuz to'liq dissotsialangan bo'ladi.

**Yechish.** Tuz qo'shilguncha bo'lgan vodorod ion ( $\text{H}^+$ ) larning dastlabki konsentratsiyasi quyidagi tenglama bo'yicha topiladi:

$$C_{\text{H}^+} = \sqrt{KC_n} = \sqrt{1,8 \cdot 10^{-4} \cdot 0,2} = 6 \cdot 10^{-3} \text{ mol/l.}$$

Tuz qo'shilgandan keyingi vodorod ionlarining konsentratsiyasini x bilan belgilansa, kislotalarning dissotsialmagan molekulalari konsentrat-

siyasi  $0,2-x$  bo'ladi.  $\text{HCOO}^-$ -ionlarining umumiy konsentratsiyasi  $0,1+x$  bilan belgilanadi. Chumoli kislotaning dissotsialanish konstanta ifodasiga tegishli belgilarni qo'yib, uning dissotsialanish doimiysi topiladi.

$$K = \frac{C_H \cdot C_{\text{HCOO}^-}}{C_{\text{HCOOH}}} = \frac{x(0,1+x)}{0,2-x} = 1,8 \cdot 10^{-4}$$

Chumoli kislot eritmasiga o'xshash ion ( $\text{HCOO}^-$ ) lar qo'shilganda uning dissotsilanishi kamayadi, uning dissotsilanish darajasi ham kam bo'ladi. Unda oxirgi ifoda quyidagicha bo'ladi.

$$K = 0,1 x / 0,2 = 1,8 \cdot 10^{-4}$$

undan  $x=3,6 \cdot 10^{-4}$  mol/l kelib chiqadi. Vodorodning dastlabki konsentratsiyasi solishtirilsa, tuz qo'shilganda vodorod ionlarining konsentratsiyasini kamayishi kuzatiladi.  $6 \cdot 10^{-3}/3,6 \cdot 10^{-4}$ , ya'ni 16,6 marta vodorod ionlari konsentratsiyasi kamayadi.

Muayyan konsentratsiyadagi noelektrolit eritmasidagi zarrachalar soniga nisbatan elektrolit eritmasida dissotsilanish tufayli unda zarrachalar soni (molekula va ionlar birgalikda) shunday konsentratsiyada yuqori bo'ladi. Agar elektrolit eritmasiga dissotsilanish tufayli umumiy zarrachalar soni erigan modda molekulalariga nisbatan i marta ortgan bo'lsa, eritmaning osmotik bosimi va boshqa hossalarni aniqlashdagi hisoblashlarda buni nazarda tutish lozim bo'ladi. Unda erituvchi bug'i bosimi ( $\Delta R$ ) ni pasayishini hisoblash formulasi quyidagicha ko'rinishda bo'ladi:

$$\Delta P = i P_0 \frac{in_2}{n_1 + in_2}$$

bu yerda,  $P_0$  – toza erituvchi ustidagi to'yangan bug' bosimi;

$n_2$  – erigan modda miqdori;

$n_1$  – erituvchi miqdori;

$i$  – izotonik koefitsiyent yoki Vant-Goff koefitsiyenti.

Shunga o'xshash elektrolit eritmasida kristallanish haroratinining pasayishi  $\Delta T_{\text{krist}}$  va qayinash haroratinining oshishi  $\Delta T_{\text{qayn}}$  quyidagi formulalardan topiladi:

$$\Delta T_{\text{krist}} = iK m, \quad \Delta T_{\text{qayn}} = iEm$$

bu yerda,  $m$  – elektrolitning molar konsentratsiyasi;

$K$  va  $E$  – erituvchining krioskopik va ebulioskopik doimiyligi.

Elektrolit eritmasing osmotik bosimini hisoblash uchun quyidagi formula ishlataladi:

$$P = iC_m \cdot R \cdot T$$

bu yerda,  $C_m$  – elektrolitning molar konsentratsiyasi, mol/l;

$R$  – gaz doimiyligi ( $8,31 \text{ J mol}^{-1} \text{ K}^{-1}$ );

$T$  – mutlaq harorat, K.

Izotonik koefitsiyent i elektrolitning dissotsialanish darajasi ( $\alpha$ ) ga bog'liq:

$$i = 1 + \alpha (K - 1) \quad \text{yoki} \quad \alpha = (i - 1) / (K - 1)$$

bu yerda,  $K$  – elektrolit molekulasi to'liq dissotsialangandagi ionlar soni.

( $\text{KCl}$  uchun  $K = 2$ ,  $\text{BaCl}_2$   $\text{Na}_2\text{SO}_4$  uchun  $K = 3$  va hokazo).

3-misol. 125 g suv va 0,85 g rux xloriddan tarkib topgan eritma –  $0,23^{\circ}\text{C}$  da kristallanadi. Rux xloridning dissotsialanish darajasini aniqlang.

Yechish. Avval eritmada tuzning molar konsentratsiyasi ( $m$ ) topiladi.  $\text{ZnCl}_2$  ning mol massasi 136, 3 g/molga teng.

$$\text{Unda, } m = 0,85 \cdot 1000 / (136,3 \cdot 125) = 0,050 \text{ mol/kg bo'ladi.}$$

Endi elektrolitning dissotsialanishini hisobga olmagan holda kristallanish haroratining pasayishini (suvning krioskopik doimiyligi 1,86 ga teng) topish zarur:

$$\Delta t_{\text{crist ayir}} = 1,86 \cdot 0,050 = 0,093 = 2,47.$$

Endi tuzning dissotsialanish darajasi topiladi:

$$\alpha = (i - 1) / (K - 1) = (2,47 - 1) / (3 - 1) = 0,735.$$

4-misol. 1 l eritmada  $2,18 \cdot 10^{23}$  ta erigan modda zarrachalari bo'lsa (molekula va ionlar), 0,2 M li bunday elektrolit eritmasing izotonik koefitsiyenti topilsin.

Yechish. 1 l eritma taylorlash uchun elektrolit molekulalari soni  $6,02 \cdot 10^{23} \cdot 0,2 = 1,2 \cdot 10^{23}$  ga teng. Bunda, eritmada erigan moddaning  $2,18 \cdot 10^{23}$  ta zarrachasi hosil bo'ladi. Oxirgi son, olingan elektrolit molekulalaridan necha marta ko'pligini izotonik koefitsiyent ko'rsatadi, ya'ni:

$$i = 2,18 \cdot 10^{23} / (1,2 \cdot 10^{23}) = 1,82.$$

## MUSTAQIL ISHLASH UCHUN MISOL VA MASALALAR

1. Moy kislota  $C_3H_7COOH$  ning dissotsialanish konstantasi  $1,5 \cdot 10^{-5}$  ga teng. 0,005 M li bu kislota eritmasining dissotsialanish darajasini hisoblang.

Javobi: 0,055.

2. 0,2H li gipoxlorid kislota  $HClO$  ning dissotsialanish darajasini top-ing.

Javobi:  $5 \cdot 10^{-4}$ .

3. 0,2H li chumoli kislota  $HCOOH$  ning dissotsialanish darajasi 0,03 ga teng. Kislotaning dissotsialanish doimisiyo ko'rsatgichi  $pK$  ni aniqlang.

Javobi:  $K = 1,8 \cdot 10^{-4}$ ;  $pK = 3,75$ .

3. Nitrit kislota  $HNO_2$  ning qanday konsentratsiyasida dissotsialanish darajasi 0,2 ga teng bo'ladi?

Javobi: 0,01 mol/l.

4. Dissotsialanish darajasining ikki marta oshishi uchun 0,2M li 300ml sirkal kislota eritmasiga qancha suv qo'shish kerak?

Javobi: 900 ml.

5. Karbonat kislota  $H_2CO_3$  ning birinchi boshichidagi dissotsialanish darajasi 0,1H li eritmada  $2,11 \cdot 10^{-3}$  ga teng.  $K_1$  ni hisoblang.

Javobi:  $4,5 \cdot 10^{-7}$ .

6. 0,1 H. li eritmada sirkal kislotaning dissotsialanish darajasi  $1,32 \cdot 10^{-2}$  ga teng. Nitrit kislotaning qanday konsentratsiyasida uning dissotsialanish darajasi shunday bo'ladi?

Javobi: 2,3 mol/l.

7. 0,5 l 0,1H li sirkal kislota eritmasiga qancha suv qo'shilsa, uning dissotsialanish darajasi 4 marta ortadi?

Javobi:  $1,5 \cdot 10^{-3} m^3$ .

### 5.5. SUVNING IONLI KO'PAYTMASI

Toza suv elektr oqimini juda yomon o'tkazadi. Bunga sabab, uning qisman dissotsilanishidir:



Suvni juda kuchsiz elektrolit deb qarab, uning dissotsilanish doimisini tubandagicha yozish mumkin:

$$K = \frac{C_{H^+} \cdot C_{OH^-}}{C_{H_2O}}$$

Suvning  $22^{\circ}\text{C}$  da topilgan dissotsilanish doimiysi  $K = 1,8 \cdot 10^{-16}$  ni tashkil etadi.

$$C_{H_2O} = 1000 \text{ g/l} \text{ yoki } 1000 : 18 = 55,56 \text{ mol/l bo'ladi.}$$

$K \cdot C_{H_2O}$  ko'paytmasini  $K \omega$  bilan belgilansa, u holda:

$$\begin{aligned} K \cdot C_{H_2O} &= K \omega = CH^+ + COH \text{ yoki } K \omega = \\ &= 1,8 \cdot 10^{-16} \cdot 55,56 = 10^{-14} = CH^+ + COH^- \end{aligned}$$

bo'ladi.  $K \omega$  suvning ion ko'paytmasi deb ataladi.  $K \omega$  ayni haroratda suvdagi  $H^+$  va  $OH^-$  ionlarining konsentratsiyalari ko'paytmasi o'zgarmas qiymat ekanligini ko'rsatadi.  $K \omega$  ning qiymati harorat o'zgarishi bilan o'zgaradi.

$K \omega$  qiymatidan,  $22^{\circ}\text{C}$  da  $H^+$  va  $OH^-$  ionlar konsentratsiyalarining ko'paytmasi  $10^{-14}$  ga tengligini ko'rish mumkin.

Bundan  $CH^+ = COH^- = \sqrt{10^{-14}} = 10^{-7}$  mol/l dir. Demak, suvda  $H^+$  ionlari konsentratsiyasi  $10^{-7}$  mol/l ga,  $OH^-$  ionlari konsentratsiyasi ham  $10^{-7}$  mol/l ga tengdir. Kislotali muhitda  $H^+$  ionlarining konsentratsiyasi  $10^{-7}$  mol/l dan ortiq.  $OH^-$  ionlariniki esa  $10^{-7}$  mol/l dan kam bo'ladi. Ishqoriy muhitda, aksincha,  $OH^-$  ionlarining konsentratsiyasi esa  $10^{-7}$  mol/l dan ortiq,  $H^+$  ionlari konsentratsiyasi esa  $10^{-7}$  mol/l dan kam bo'ladi.

Eritmadagi vodorod ionlari konsentratsiyasining mansiy o'nlik logarifmi vodorod ko'rsatkich yoki pH deb ataladi.

$$pH = - \lg C H^+$$

Demak:  $C_{H^+} = 10^{-7}$  - neytral muhit uchun  $pH = 7$

$C_{H^+} > 10^{-7}$  kislotali muhit uchun  $pH < 7$

$C_{H^+} < 10^{-7}$  ishqoriy muhit uchun  $pH > 7$

**1-misol.** Eritmada vodorod ionlarining konsentratsiyasi  $4 \cdot 10^{-3}$  mol/l ga teng, eritmaning pH ni aniqlang.

**Yechish.** Logarism qiymatini 0,01 gacha jamlab, quyidagilar hosil qilinadi:

$$pH = - \lg (4 \cdot 10^{-3}) = - 3,60 = - (-3 + 0,60) = 2,40$$

**2-misol.** pH qiymati 4,60 ga teng bo'lgan eritmadagi vodorod ionlari konsentratsiyasini aniqlang.

**Yechish.** Masala shartiga ko'ra,  $- \lg C H^+ = 4,60$ .

Demak  $- \lg C H^+ = - 4,60 = 5,40$  bundan, logarism jadvali bo'yicha quyidagini topamiz:

$$C H^+ = 2,5 \cdot 10^{-5} \text{ mol}$$

**3-misol.** 0,033 molarli  $H_3PO_4$  eritmasida  $\alpha = 0,27$  bo'lsa, kislotasi eritmasining pH qiymati topilsin.

**Yechish.** Vodorod ionlarining konsentratsiyasi quyidagicha topiladi:

$$C_{H^+} = C_m \alpha n$$

$\alpha = 0,27$ ;  $C_m = 0,033$ ;  $n = 3$ , chunki  $H_3PO_4$  molekulasi uchta  $H^+$  ionini beradi,

$C_{H^+} = 0,033 : 3 \cdot 0,27 = 0,02673 = 2,7 \cdot 10^{-2}$  mol/l so'ngra pH ni hisoblab chiqiladi:

$$pH = -\lg C_{H^+} = -\lg (2,70 \cdot 10^{-2}) = 2 - 0,43 = 1,57.$$

**4-misol.** Eritma uchun  $pH = 5,6$  bo'lsa,  $C_{H^+}$  topilsin.

**Yechish.**  $pH = -\lg C_{H^+}$  yoki  $[\lg C_{H^+}] = pH = -5,6$ .

Bu sonning butun qismini manfiyligicha qoldirib, kasr qismi mustbatga aylantiriladi, buning uchun butun songa  $-1$  va kasr songa  $+1$  qo'shiladi:

$$-5,6 = -5 + (-1) + (-0,6) + 1 = -6 + 0,4.$$

Demak,  $-5,6$  o'rniiga  $-6 + 0,4$  olinadi, unda  $-6$  ga  $10^{-6}$  va  $0,4$  ga  $2,5$  to'g'ri keladi. Demak,  $C_{H^+} = 2,5 \cdot 10^{-6}$  mol/l ga teng bo'ladi.

$$C_{OH^-} = \frac{10^{-14}}{2,5 \cdot 10^{-6}} = 0,4 \cdot 10^{-8} = 4 \cdot 10^{-9}$$
 mol/l.

**5-misol.** pH qiymati 4,18 bo'lgan karbonat kislotaning 0,01 M eritmasidagi  $HCO_3^-$  va  $CO_3^{2-}$  ionlarining konsentratsiyasini aniqlang.

**Yechish.** Eritmadagi vodorod ionlari konsentratsiyasi topiladi.

$$-\lg C_{H^+} = 4,18; \lg C_{H^+} = -4,18 = 5,82;$$

$$C_{H^+} = 6,61 \cdot 10^{-5}$$
 mol/l.

Endi ilovada keltirilgan 4-jadvaldan foydalanib, karbonat kislotaning birinchi bosqichidagi dissotsialanish doimiysi uchun ifoda yoziladi:

$$K_1 = \frac{C_{H^+} \cdot C_{HCO_3^-}}{C_{H_2CO_3}} = 4,45 \cdot 10^{-7}$$

$C_{H^+}$  va  $C_{HCO_3^-}$  – qiymatlarini qo'yib quyidagicha topiladi:

$$C_{HCO_3^-} = 4,45 \cdot 10^{-7} \cdot 10^{-2} / (6,61 \cdot 10^{-5}) = 6,73 \cdot 10^{-5}$$
 mol/l

Shunga o'xshash, ikkinchi bosqich bo'yicha  $H_2CO_3$  dissotsialanish konstantasi uchun ifoda yoziladi va  $C_{HCO_3^-}$  ning qiymati topiladi.

$$K_2 = \frac{C_{H^+} \cdot C_{CO_3^{2-}}}{C_{HCO_3^-}} \cdot 4,69 \cdot 10^{-11}$$

$C_{CO_3^{2-}} = 4,69 \cdot 10^{-11} \cdot 6,73 \cdot 10^{-5} / (6,61 \cdot 10^5) = 4,8 \cdot 10^{-11}$  mol/l bo'ldi.

### MUSTAQIL ISHLASH UCHUN MISOL VA MASALALAR

1. Gidroksid ionlar konsentratsiyasi (mol/l da): a)  $10^{-4}$ ; b)  $3,2 \cdot 10^{-6}$  va d)  $7,4 \cdot 10^{-11}$  bo'lgan suvli eritmalardagi  $H^+$  ionlarining molar konsentratsiyasi topilsin.

Javobi: a)  $10^{-10}$  mol/l; b)  $3,12 \cdot 10^{-9}$  mol/l; d)  $1,35 \cdot 10^{-4}$  mol/l.

2. Vodorod ionlari konsentratsiyasi (mol/l da): a)  $10^{-3}$ ; b)  $6,5 \cdot 10^{-8}$  va d)  $1,4 \cdot 10^{-2}$  bo'lgan suvli eritmalardagi  $OH^-$  ionlarining molar konsentratsiyasi topilsin.

Javobi: a)  $10^{-11}$  mol/l; b)  $1,54 \cdot 10^{-7}$  mol/l; d)  $7,14 \cdot 10^{-3}$  mol/l.

3. Vodorod ionlari  $H^+$  konsentratsiyasi (mol/l da): a)  $2 \cdot 10^{-7}$ ; b)  $8,1 \cdot 10^{-3}$ ; d)  $2,7 \cdot 10^{-10}$  larga teng bo'lgan eritmalarining pH qiymati hisoblansin.

Javobi: a) 6,70; b) 2,09; d) 9,57.

4. Gidroksid ion  $OH^-$  lar konsentratsiyasi (mol/l da): a)  $4,6 \cdot 10^{-4}$ ; b)  $5 \cdot 10^{-6}$ ; d)  $9,3 \cdot 10^{-9}$  larga teng bo'lgan eritmalarining pH qiymati hisoblansin.

Javobi: a) 10,66; b) 8,70; d) 5,97.

5. Dissotsialish darajasi 0,042 ga teng bo'lgan 0,01 N li sirkalik eritmasingin pH i hisoblansin.

Javobi: 3,38.

6. 1 litrida 0,1 g NaOH bo'lgan eritmaning pH=i aniqlansin. Ishqor dissotsiatsiyasi to'liq deb hisoblansin.

Javobi: 11,40.

7. pH qiymati 6,2 bo'lgan eritmadiagi  $[H^+]$  va  $[OH^-]$  lar aniqlansin.

Javobi:  $[H^+] = 6,3 \cdot 10^{-7}$  mol/l;  $[OH^-] = 1,6 \cdot 10^{-8}$  mol/l.

8. Quyidagi kuchsiz elektrolitlar: a) 0,02 M NH<sub>4</sub>OH; b) 0,1 M HCH; d) 0,05 N HCOOH; e) 0,01 M CH<sub>3</sub>COON eritmalarining pH lari hisoblansin.

Javoblari: a) 10,78; b) 5,05; d) 2,52; e) 3,38.

9. Dissotsialish darajasi 1,3% bo'lgan 0,1M li NH<sub>4</sub>OH ning pH-i ni aniqlang.

Javobi: 11,4.

10. pH-i 2,54 va 11,62 bo'lgan eritmalaridagi  $H^+$  va  $OH^-$  ionlarining konsentratsiyasi qanday?

Javobi:  $2,88 \cdot 10^{-3}$  va  $2,4 \cdot 10^{-12}$  mol  $H^+$ ;  $3,47 \cdot 10^{-12}$  va  $4,17 \cdot 10^{-3}$  mol  $OH^-$ .

### VI bob. KIMYOVIY REAKSIYALAR KINETIKASI

Kimyoviy reaksiyalar kinetikasi — kimyoviy reaksiyalarning tezligiga turli omillarning, ya'ni reaksiyaga kirishuvchi moddalarning tabiatini, ularning konsentratsiyasini, reaksiya borayotgan haroratni, katalizatorning ishtirok etish-etmasligini va boshqa bir qancha omillarning ta'sirini o'rGANADI.

Reaksiya tezligini oshirish va reaksiyaga xalal beradigan qo'shimcha reaksiyalarning tezligini kamaytirish sanoatning ishlab chiqarish unumi-ni oshirishga, xom ashyodan to'laroq foydalanishga, kam vaqt ichida ko'p mahsulot ishlab chiqarishga imkon beradi.

Ilmiy jihatdan olganda, kimyoviy reaksiyalar kinetikasini tekshirish reaksiyalarning qanday borishi, ya'ni ularning mexanizmini o'rganishga yordam beradi. Bu esa kimyoviy reaksiyalarning yo'nalishini va ularning tezligini boshqarishga imkon beradi.

Kimyoviy reaksiyalarning o'zgarmas haroratda reaksiya tezligi bilan reagentlarning konsentratsiyasi orasidagi bog'lanishni tekshiradigan sohasi rasmiy kinetika deyiladi.

Reaksiyalar, odatda, statikaviy va dinamikaviy sharoitlarda olib boriladi. Statik sharoitda reaksiya berk idishda, demak, o'zgarmas hajmda olib boriladi. Dinamik usulda esa reagentlar reaksiya borayotgan hajmdan (masalan, maxsus naydan) uzlusiz yuboriladi.

Reaksiyaga kirishuvchi moddalar konsentratsiyasining vaqt birligi ichida o'zgarishi reaksiya tezligi deb ataladi.

Kimyoviy reaksiyaning tezligi bilan reaksiyaga kirishayotgan moddalarning konsentratsiyalari orasidagi bog'lanish massalar ta'siri qonuni bilan ifodalanadi.

1865-yilda N.N. Bektov o'zining asarlарida, shuningdek, 1867-yilda Guldberg hamda Vaage efirlarning gidrolizi haqida Bertlo tomonidan olingan natijalardan foydalanib, massalar ta'siri qonunini ta'rifladilar. Bu qonunga muvofiq, kimyoviy reaksiyaning tezligi reaksiyaga kirishuvchi moddalarning konsentratsiyalari ko'paytmasiga mutanosibdir.  $aA + bb \rightleftharpoons nC + gD$  reaksiyaning tezligi quyidagicha kinetik tenglama bilan ifodalanadi:

$$V = K C^a_A \cdot C^b_B$$

bunda,  $C_a$  va  $C_b = A$  va  $B$  moddalarning konsentratsiyalari, mol/l da;

$K$  – mutanosiblik koefitsiyenti, u reaksiyaning tezlik doimisi deyiladi.  $C_a = C_b = 1$  mol/l bo'lganda yuqoridagi tenglama quyidagi kurashda yoziladi.

$$V = K$$

Demak, kimyoviy tezlik konstantasining ma'nosi, reaksiyaga kirishuvchi moddalarning konsentratsiyalari 1 mol/l bo'lgandagi reaksiyaning tezligini bildiradi. Kimyoviy kinetikaning asosiy qonuni ko'pincha masalar ta'sir qonuni ham deyiladi.

### MISOL VA MASALALAR YECHIMLARIDAN NAMUNALAR

**1-misol.** Quyidagi reaksiyalar uchun masalalar ta'siri qonunining ifodasini yozing.



Yechish a)  $V = K \cdot C^2_{(NO)} \cdot C_{(Cl_2)}$

b) kalsiy karbonat qattiq modda bo'lgani uchun reaksiya tezligi uning konsentratsiyasiga bog'liq bo'lmaydi. Shuning uchun uning ifodasi:  $V = K$  ko'rinishda bo'ladi, ya'ni bu reaksiyaning tezligi muayyan haroratda doimiy bo'ladi.

**2-misol.** Reaksiya idishining hajmi 3 marta kamaytirilsa, quyidagi reaksiyaning tezligi qanday o'zgaradi?



Yechish. Hajm o'zgarguncha reaksiya tezligi quyidagicha o'zgarishga uchragan edi:

$$V = K \cdot C^2_{(NO)} \cdot C_{(O_2)}$$

Hajm o'zgargandan so'ng reaksiyaga kirishuvchi moddalarning konsentratsiyalari 3 martadan ortadi. Unda:

$$V_1 = K (3C_{NO})^2 \cdot (3C_{O_2}) = 3^2 \cdot 3 = 27 K \cdot C_{(NO)}^2 C_{O_2}$$

$V$  va  $V_1$  uchun ifodalarni solishtirib, reaksiya tezligi 27 marta ortishi topiladi.

**3-misol.**  $N_2 + 3H_2 \rightleftharpoons 2NH_3$  rayeksiyada azot va vodorodning konentratsiyalari 2 marta oshirilsa, reaksiya tezligi necha marta ortadi?

**Yechish.** Berilgan reaksiyaning, reaksiya tezligi ifodasi quyidagicha yoziladi:

$$V = K \cdot C(N_2) \cdot C^3(H_2)$$

Dastlabki moddalarning konsentratsiyalari quyidagicha bo'lsa:

$$S(N_2) = x \text{ mol/l}; \quad S(H_2) = u \text{ mol/l}, \text{ unda}$$

$$V_1 = K \cdot C(N_2) \cdot C^3(H_2) = K \cdot x \cdot u^3 \text{ bo'ladi.}$$

Endi, moddalarning konsentratsiyalari 2 marta oshirilsa:

$$S(N_2) = 2x \text{ mol/l}; \quad S(H_2) = 2u \text{ mol/l} \text{ bo'ladi.}$$

Unda,  $V_2 = K \cdot (2x) \cdot (2y)^3 = K \cdot 2x \cdot 8y^3 = 16K \cdot x \cdot y^3$  bo'ladi.

Dastlabki va keyingi reaksiya tezliklarini solishtirib, uning necha marta oshganligi aniqlanadi:

$$\frac{V_2}{V_1} = \frac{16 \cdot K \cdot x \cdot y^3}{K \cdot x \cdot y^3} = \frac{16}{1} = 16.$$

Demak, reaksiya tezligi 16 marta oshar ekan.

**4-misol.**  $2A + 3B = A_2B_3$  tenglamasi bo'yicha amalga oshadigan reaksiyaning tezligini aniqlang. A moddaning dastlabki konsentratsiyasi 4 mol/l va B moddaning konsentratsiyasi 5 mol/l bo'lgan. Reaksiyaning tezlik doimisi 2 mol/l · sek. ga teng.

**Yechish.**  $V = K \cdot C^2(A) \cdot C^3(B) = 2 \cdot 4^2 \cdot 5^3 = 2 \cdot 16 \cdot 125 = 4000$  mol/l sek.

**5-misol.** Kimyoiy reaksiya quyidagi tenglama  $N_2 + O_2 = 2NO$  bo'yicha amalga oshadi. Reaksiya aralashmasining bosimi 3 marta oshirilsa, berilgan reaksiyaning tezligi necha marta ortishini aniqlang.

**Yechish.** Berilgan reaksiya tezligining ifodasi quyidagicha yoziladi:

$$V = K \cdot C(N_2) \cdot C(O_2)$$

Dastlabki moddalarning konsentratsiyalari quyidagicha bo'ladi:

$$S(N_2) = x \text{ mol/l}, \quad S(O_2) = u \text{ mol/l}, \text{ unda } V_1 = K \cdot x \cdot y \text{ bo'ladi.}$$

Gazlarning bosimi ularning konsentratsiyalari bilan bog'liqlikka ega, agar gazlarning bosimi uch marta oshirilsa, ularning konsentratsiyalari ham uch marta ortadi:

$$S_{(N_2)} = 3 \text{ x mol/l}; C_{(H_2)} = 3 \text{ u mol/l bo'ladi unda},$$

$$V_2 = K (3x) (3y) = 9 K \cdot x \cdot u$$

Dastlabki va keyingi reaksiya tezliklari solishtirilib, tezlik necha marta oshganligi aniqlanadi:

$$V_2/V_1 = 9 K \cdot x \cdot u / K \cdot x \cdot u = 9/1 = 9$$

Demak, reaksiya tezligi 9 marta ortadi.

**6-misol.**  $2H_2 + O_2 = 2H_2O$  reaksiyasida gazlar aralashmasining hajmi ikki marta oshirilganda reaksiya tezligi necha marta o'zgarishga uchraydi.

**Yechish.** Reaksiyaning dastlabki konsentratsiyasi uchun reaksiya tezlik ifodasi quyidagicha bo'ladi:

$$V = K \cdot C^2(H_2) \cdot C(O_2)$$

Dastlabki moddalarning konsentratsiyalari quyidagicha bo'ladi:

$$C_{(N_2)} = x \text{ mol/l}, C_{(O_2)} = u \text{ mol/l}, \text{unda } V_1 = K x^2 y \text{ bo'ladi}.$$

Reaksiyaviy aralashmaning hajmi ikki marta oshirilganda gazlar konsentratsiyasi ikki marta kam bo'ladi, ya'ni

$$C_{(N_2)} = x/2 \text{ mol/l}, C_{(O_2)} = u/2 \text{ mol/l},$$

$$\text{unda } V = K \frac{x^2}{4} \cdot \frac{y}{2} \text{ bo'ladi.}$$

Dastlabki va keyingi reaksiya tezliklari solishtirilib, tezlik necha marta kamaygani aniqlanadi:

$$\frac{V_2}{V_1} = \frac{(K \cdot x^2 \cdot y)/8}{K \cdot x^2 \cdot y} = \frac{K \cdot x^2 \cdot y}{8 \cdot K \cdot x^2 \cdot y} = \frac{1}{8} \text{ bo'ladi.}$$

Shunday qilib, berilgan reaksiyaning tezligi 8 marta kam bo'ladi.

Haroratning o'zgarishi reaksiya tezligiga juda katta ta'sir etadi. Harorat o'zgarganda reaksiyaning tezlik doimiysi ortadi.

Gollandiyalik kimyogar Vant-Goff tajriba asosida tubandagi qoidani topdi: Harorat  $10^{\circ}\text{C}$  ga ko'tarilganda gomogen reaksiyaning tezligi 2-4 marta ortadi. Reaksiyaning  $t+10$  dagi tezlik doimiysining  $t$  dagi doimiysisiga nisbati reaksiya tezligining harorat koefitsiyenti deb ataladi va  $\gamma$  bilan belgilanadi:

$$\gamma = \frac{Kt + 10}{Kt}$$

Tajriba, haroratlar oralig'i kichik bo'lganda  $\gamma$  ning qiymati haroratga qarab kam o'zgarishini ko'rsatadi, ya'ni bunda  $\gamma$  ning qiymatini o'zgarmas deb hisoblash mumkin.

Umumiy holda  $\frac{Kt + n10}{Kt} = \gamma \cdot n$  deyish mumkin. Masalan, agar harorat koefitsiyenti 2 ga teng deyilsa, harorat  $100^{\circ}\text{C}$  ga ko'tarilganda reaksiya tezligi  $\frac{K(t + 100)}{Kt} = 2^{10} = 1024$  marta ortadi.

Vant-Goff qoidasi matematik usulda ushbu nisbat bilan ifodalanadi:

$$V_{t_2} = V_{t_1} \cdot j \frac{t_2 - t_1}{10}$$

bunda,  $V_{t_1}$ ,  $V_{t_2}$  – tegishlicha boshlang'ich ( $t_1$ ) va oxirgi ( $t_2$ ) haroratlar-dagi reaksiya tezligi;

$j$  – reaksiya tezligining harorat koefitsiyenti, u reaksiyaga kirishuvchi moddalarning harorati  $10^{\circ}\text{C}$  ga ko'tarilganda reaksiyaning tezligi necha marta ortishini ko'rsatadi.

7-misol. Agar tezlikning harorat koefitsiyenti 3 ga teng bo'lganda, harorat 0 dan  $50^{\circ}\text{C}$  gacha ko'tarilsa, kimyoviy reaksiya tezligi necha marta ortadi?

Yechish.  $V_{t_1} = 0^{\circ}\text{C}$ ;  $V_{t_2} = 50^{\circ}\text{C}$ ;  $j = 3$  bo'lsa, bu sonlarni Vant-Goff ifodasiga qo'yib hisoblansa, tezlik qiymati kelib chiqadi:

$$V_{t_2} = V_{t_1} \cdot j^{\frac{t_2 - t_1}{10}} = 3^{\frac{50-0}{10}} = 3^5 = 243.$$

Demak, berilgan reaksiyaning tezligi 243 marta oshar ekan.

8-misol. Reaksiya tezligining harorat koefitsiyenti 2,8 ga teng. Harorat 20 dan  $75^{\circ}\text{C}$  gacha ko'tarilsa, reaksiya tezligi necha marta oshadi?

Yechish. Harorat farqi  $\Delta t = 55^{\circ}\text{C}$  bo'lgani uchun 20 va  $75^{\circ}\text{C}$  lardagi reaksiya tezligini  $V$  va  $V_1$  bilan belgilab quyidagicha yoziladi:

$$\frac{V}{V_1} = 2,8^{55/10} = 2,8^{5,5};$$

$$\lg \frac{V^1}{V} = 5,5 \lg 2,8 = 5,5 \cdot 0,447 = 2,458$$

bundan,  $V_1/V = 287$  kelib chiqadi. Demak, reaksiya tezligi 287 marta oshadi.

**9-misol.** Reaksiya tezligining harorat koefitsiyenti 2 ga teng bo'lsa, reaksiya vaqtida harorat  $60^\circ\text{C}$  ga ko'tarilsa, reaksiya tezligi necha marta oshadi?

**Yechish.**  $\Delta t = 60^\circ\text{C}$ ,  $j = 2$ ,  $V_2/V_1 = ?$

$$V_2/V_1 = 2^{60/10} = 2^6 = 64.$$

Demak, reaksiya tezligi 64 marta oshar ekan.

**10 misol.**  $j = 3$  bo'lsa, harorat  $115^\circ\text{C}$  dan  $145^\circ\text{C}$  pasaytirilsa, reaksiya tezligi necha marta kamayadi?

**Yechish.**  $t_1 = 145^\circ\text{C}$ ,  $t_2 = 115^\circ\text{C}$ ,  $j = 3$ ,  $V_2/V_1 = ?$

$$V_2/V_1 = 3 \frac{115-145}{10} = 3^{-3} = 1/27$$

Demak, 27 marta kamayadi.

**11-misol.** Harorat  $10^\circ\text{C}$  ga ko'tarilganda reaksiya tezligi 4 marta oshadi.  $20^\circ\text{C}$  da u 0,6 mol/l sek. ga teng.  $50^\circ\text{C}$  dagi reaksiya tezligini aniqlang.

**Yechish.**  $t_1 = 20^\circ\text{C}$ ,  $t_2 = 50^\circ\text{C}$ ,  $j = 4$ ,  $V_1 = 0,6 \text{ mol/l sek. } V_2 = ?$

$$V_2 = V_1 \cdot j \Delta t / 10 = 0,6 \cdot 4 \frac{50-20}{10} = 0,6 \cdot 4^3 = 0,6 \cdot 64 = 38,4 \text{ mol/l sek.}$$

Demak, reaksiya tezligi  $55^\circ\text{C}$  da 38,4 mol/l sek. bo'ladi.

**12-misol.** Reaksiya tezligining harorat koefitsiyenti 5 ga teng bo'lsa, reaksiya tezligini 625 marta oshirish uchun haroratni necha gradusga ko'tarish kerak?

**Yechish.**  $V_2/V_1 = 625$ ,  $j = 5$ ,  $\Delta t = ?$

$$625 = 5 \Delta t / 10, 625 = 5^4 \text{ bo'ladi, unda } \Delta t / 10 = 4 \text{ va } \Delta t = 4 \cdot 10 = 40.$$

Demak, reaksiya tezligini 625 marta oshirish uchun haroratni  $40^\circ\text{C}$  ga ko'tarish kerak.

**13-misol.** Harorat  $30^\circ\text{C}$  ga ko'tarilganda, reaksiya tezligi 8 marta oshdi. Reaksiya tezligining harorat koefitsiyentini hisoblang.

**Yechish.**  $\Delta t = 30^\circ\text{C}$ ,  $V_2/V_1 = 8$ ,  $j = ?$

$8 = j^{ΔU/10}$ ,  $8 = 2^3$  bo'lgani uchun quyidagicha yozish mumkin:

$$j^{30/10} = 2^3 \quad \text{yoki} \quad j^3 = 2^3.$$

Undan  $j = 2$  kelib chiqadi. Demak, harorat ko'effitsiyenti 2 ekan.

Yuqorida keltirilgan masalalardan ko'rini turibdiki, harorat ko'tarilganda reaksiya tezligi juda tez oshar ekan. Ma'lumki, ikkita molekula o'zaro reaksiyaga kirishganda bir-biri bilan to'qnashishi kerak.

Lekin tajribalarning ko'rsatishicha har qanday to'qnashuvda ham reaksiya sodir bo'lavermas ekan. Arrhenius barcha molekulalar emas, balki faol molekulalar to'qnashgandagina reaksiya sodir bo'ladi, degan fikrni o'rta ga tashladi. Bu degan so'z to'qnashuvda kimyoviy reaksiya sodir bo'lishi uchun to'qnashayotgan molekulalarning energiyasi barcha molekulalarning o'rtacha energiyasidan ortiqcha bo'lishi kerak, demakdir. Ana shu ortiqcha energiya faollanish energiyasi deyiladi. Shuning uchun ham ko'p reaksiyalar oddiy sharoitda sekin boradi yoki sodir bo'lmaydi.

Faollanish energiyasi qancha katta bo'lsa, berilgan haroratda reaksiya shuncha sekin ketadi; faollanish energiyasi pasayganda reaksiyaning tezligi ortadi. Molekulalarning faollanish energiyasini katalizator ta'sirida pasaytirish mumkin.

Harorat ko'tarilishi bilan faol molekulalar soni tez ortadi, shu tufayli reaksiya tezligi tez oshadi.

Reaksiyaning tezlik doimiysi  $K$  ning faollanish energiyasi ( $E_a$ , J/mol) ga bog'liqligi quyidagi Arrhenius tenglamasi bilan ifodalanadi:

$$K = z Pe^{-E_a/RT}$$

bu yerda,  $Z$  — hajm birligida bir sekundda to'qnashgan molekulalar soni;

$e$  — natural logarifmlar asosi ( $e = 2,718 \dots$ );

$R$  — universal gaz doimiysi ( $8,314 \text{ J mol}^{-1}, \text{ K}^{-1}$ );

$T$  — harorat, K da;

$p$  — sterikaviy ko'paytma.

Arrhenius tenglamasidan ko'rini turibdiki, faollanish energiyasi kam bo'lsa, reaksiyaning tezlik doimiysi katta bo'ladi.

Katalizator ishtirokida ham kimyoviy reaksiya tezligi ortadi, chunki katalizatorlar reaksiyaning faollanish energiyasini kamaytiradi. Buning sababi shuki, katalizator ishtirokida barqaror bo'laman oraliq mahsulotlar (faollangan komplekslar) hosil bo'lib, ularning parchalanishi natijasida reaksiya mahsuloti hosil bo'ladi. Shuning uchun reaksiyaning faollanish energiyasi kamayadi va ayrim molekulalarning faolligi ortadi. Natijada faol molekulalarning umumiy soni oshib, reaksiya tezligi ham ortadi.

**14-misol.** Ayrim reaksiyaning faollanish energiyasi katalizator ishtirok etmaganida 75,24 kJ/mol ga teng, katalizator ishtirokida esa 50,14 kJ/mol ni tashkil etadi. Katalizator ishtirokida 25°C haroratda reaksiya tezligi necha marta oshadi?

**Yechish.** Katalizator ishtirok etmaganidagi reaksiyaning faollanish energiyasini  $E_a$  bilan katalizator ishtirokidagisini esa  $E_a^1$  bilan belgilab, tegishli reaksiyaning tezlik doimiyalarini esa  $K$  va  $K^1$  bilan belgilanadi.

Arrenius tenglamasidan foydalanib, quyidagicha topiladi:

$$\frac{K^1}{K} = \frac{e^{-E_a^1 / RT}}{e^{-E_a / RT}} = e^{(E_a - E_a^1) / RT}$$

bundan:

$$\lg \frac{K^1}{K} = 2,30 \quad \lg \frac{K^1}{K} = \frac{E_a - E_a^1}{RT}; \quad \lg \frac{K^1}{K} = \frac{E_a - E_a^1}{2,30RT}$$

Oxirgi tenglamaga masalada berilgan ma'lumotlar qo'iyilsa, quyidagi kelib chiqadi:

$$\lg \frac{K^1}{K} = \frac{(75,24 - 50,14) \cdot 10^3}{2,30 \cdot 8,314 \cdot 298} = \frac{25,1 \cdot 10^3}{2,30 \cdot 8,314 \cdot 298} = 4,40$$

bundan:

$$\frac{K^1}{K} = 2,5 \cdot 10^4 \quad \text{kelib chiqadi.}$$

Demak, faollanish energiyasini 25,4 kJ gacha pasaytirilsa, reaksiya tezligi 25000 marta ortar ekan.

### MUSTAQIL ISHLASH UCHUN MISOL VA MASALALAR

1. Reaksiyaning tezligi qanday omillarga bog'liq? Misollar keltiring.
2. Ko'pchilik kimyoiy reaksiyalarning tezligi vaqt o'tishi bilan nima sababdan sekinlashadi? Asosli javob bering.
3. Muvozanat qaror topgunga qadar to'g'ri va teskari reaksiyalarning tezligi bir-biridan farq qilishi mumkinmi? Misollar keltiring.
4. Agar vodorod bilan kislorod aralashmasiga sharoitni (qanday sharoitni?) saqlab qolib, azot kiritilsa, vodorod bilan kislorod orasidagi reaksiya tezligi o'zgaradimi?
5. Sirka kislota bilan etil spirti orasidagi reaksiya quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:



Eritma ikki marta suyultirilsa, reaksiya tezligi qanday o'zgaradi?

6. Sırka etil efirining sovunlanish reaksiya tenglamasi quyidagicha yoziladi:



Reaksiya boshlangunga qadar reaksiyaga kirishuvchi moddalarning dastlabki konsentratsiyalari:  $S_{\text{efir}} = 0,50 \text{ mol/l}$ ;  $S_{\text{NaOH}} = 0,25 \text{ mol/l}$  bo'lgan.  $S_{\text{efir}} = 0,30 \text{ mol/l}$  bulganda reaksiya tezligi qanday va necha marta o'zgaradi?

Javobi: 83 marta tezlik kamayadi.

7.  $2\text{NO} + \text{O}_2 = 2\text{NO}_2$  reaksiyada, reaksiyaviy aralashma bosimi 3 marta oshirilsa, reaksiya tezligi qanday o'zgaradi?

Javobi: 27 marta ortadi.

8.  $\text{N}_2 + \text{O}_2 = 2\text{NO}$  reaksiyasida bosim 100 marta kamayitirilsa reaksiya tezligi necha marta kamayishini hisoblang.

Javobi: Tezlik 10000 marta kamayadi.

9. Natriy tiosulfat  $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$  bilan sulfat kislota o'zaro ta'sir ettirilganda:



Agar ana shu reaksiyaga kirishuvchi aralashma suv bilan uch marta suyultirilsa, reaksiyaning tezligi qanday o'zgaradi?

10. Temir (III)-xlorid bilan kaliy rodanid o'zaro ta'sir ettirilganida:



reaksiyaga kirishuvchi aralashma suv bilan ikki marta suyultirilsa, reaksiya tezligi qanday o'zgaradi?

11.  $\text{CO} + \text{Cl}_2 = \text{COCl}_2$  sistemasida CO ning konsentratsiyasi 0,03 dan 0,12 mol/l ga qadar,  $\text{Cl}_2$  ning konsentratsiyasini 0,02 dan 0,06 mol/l ga qadar oshirilgan. Reaksiya tezligi necha marta oshganligini to'ping.

12. Kimyoviy reaksiya eritmada  $A + B = C$  tenglamaga muvofiq boradi. Boshlang'ich konsentratsiyalar:  $A = 0,80 \text{ mol/l}$ ,  $B = 1,0 \text{ mol/l}$ . 20 minut o'tgandan keyin A moddaning konsentratsiyasi 0,78 mol/l kamaydi. Bu vaqtida B ning konsentratsiyasi qancha bo'lgan? Reaksiya tezligi haqida A modda bilan B inoddaning konsentratsiyalari kamayishiiga qarab fikr yuritiladigan bo'lsa, shu vaqt oralig'ida reaksiya qanday o'rtaча tezlik bilan borgan?

13. Eritmada kimyoviy reaksiya quyidagicha tenglamaga muvofiq so-dir bo'ladi:  $A + B = C$ . Agar: a) A moddaning konsentratsiyasi 2 baravar oshirilib, B moddaning konsentratsiyasi o'zgarishsiz qoldirilsa; b) B moddaning konsentratsiyasi ikki baravar oshirilib, A moddaning konsentratsiyasi o'zgarishsiz qoldirilsa; c) ikkala moddaning konsentratsiyasi ikki baravar oshirilsa; d) moddalaridan birining konsentratsiyasi ikki baravar oshirilib, ikkinchisini ikki baravar kamaytirilsa; e) gazsimon moddalar aralashmasi bir-biri bilan reaksiyaga kirishayotir, deb faraz qilinib, reaksiyaga kirishayotgan aralashmaning bosimi ikki baravar oshirilsa, reaksiyaning tezligi qanday o'zgaradi?

14. Uglerod (II) – oksid CO va xlor orasidagi o'zaro ta'sirlashuv reaksiyasi quyidagi tenglama bo'yicha amalga oshadi:



$C_{CO} = 0,30 \text{ mol/l}$ ,  $C_{Cl_2} = 0,2 \text{ mol/l}$  bulganda, xlorning konsentratsiyasi  $0,6 \text{ mol/l}$  gacha va CO ning konsentratsiyasi  $1,2 \text{ mol/l}$  gacha oshirilsa, reaksiya tezligi qanday o'zgaradi?

Javobi: 12 marta ortadi.

15. Yopiq idishda borayotgan reaksiya  $2NO + O_2 = 2NO_2$  ning bosimi 4 marta oshirilsa, reaksiya tezligi qanday o'zgaradi?

Javobi : 64 marta ortadi.

16. Ayrim reaksiya  $150^\circ\text{C}$  haroratda, 16 minutda tugaydi. Agar reaksiya tezligining harorat koefitsiyenti  $2,5$  ga teng bo'lsa, bu reaksiya  $200^\circ\text{C}$  da va  $80^\circ\text{C}$  da qancha vaqt dan keyin tugaydi?

Javobi:  $0,16 \text{ min}$ ;  $162,5 \text{ soat}$ .

17.  $j = 2$  bulganda, harorat  $40$  dan  $200^\circ\text{C}$  gacha ko'tarilsa, reaksiya tezligi necha marta oshishini hisoblang.

Javobi: 65000 marta.

18. Harorat  $10^\circ\text{C}$  ga oshirilganda biror kimyoviy reaksiyaning tezligi ikki baravar ortadi.  $20^\circ\text{C}$  da bu tezlik  $0,04 \text{ mol/(l.s)}$  ga teng. Shu reaksiyaning tezligi: a)  $40^\circ\text{C}$  da; b)  $10^\circ\text{C}$ ; d)  $0^\circ\text{C}$  da qanchaga teng bo'ladi?

Javobi: a)  $0,16$  b)  $0,02$ ; d)  $0,01$ .

19.  $30^\circ\text{C}$  da kimyoviy reaksiyaning tezligi  $0,01 \text{ mol/(l min.)}$  ga teng. Agar harorat  $10^\circ\text{C}$  ga ko'tarilsa, tezlik 3 marta ortadigan bo'lsa, u: a)  $0^\circ\text{C}$ ; b)  $60^\circ\text{C}$  da qanchaga teng bo'ladi?

Javobi: a)  $0,0044$ ; b)  $0,27$ .

20.  $40^\circ\text{C}$  da kimyoviy reaksiyaning tezligi  $0,2 \text{ mol/(l soat.)}$  ga teng. Harorat  $10^\circ\text{C}$  ga ko'tarilganda reaksiyaning tezligi 2 baravar ortsas, reaksiya tezligining haroratga bog'liqligini ko'rsatuvchi grafik tuzing.

21. Ikkita reaksiya  $25^{\circ}\text{C}$  da bir xil tezlikda amalga oshadi. Birinchi reaksiyaning harorat koeffitsiyenti 2 ga, ikkinchisini esa 2,5 ga teng. Shu reaksiyalarning  $95^{\circ}\text{C}$  dagi tezlik nisbatini toping.

Javobi:  $V_2/V_1 = 4,47$ .

22. Agar reaksiya harorati  $30^{\circ}\text{C}$  ga ko'tarilganda, reaksiya tezligi 15,6 marta oshsa, reaksiya tezligining harorat koeffitsiyenti nimaga teng bo'ladi.

Javobi: 2,5.

23. Reaksiya tezligining harorat koeffitsiyenti 2,3 ga teng. Agar haroratni  $25^{\circ}\text{C}$  ga ko'tarilsa, bu reaksiyaning tezligi necha marta ortadi?

Javobi: 8 marta.

24. a) bir katalizatorni ikkinchisi bilan almashtirilganda; b) reaksiya kirishuvchi moddalarning koeffitsiyentlarini o'zgartirilganda, reaksiyaning tezlik doimiysi qiymati o'zgaradimi?

25. Reaksiyaning issiqlik effekti, uning faollanish energiyasiga bog'liq bo'ladimi? Izohli javob bering.

26. Agar to'g'ri reaksiya issiqlik chiqishi bilan borsa, faollanish energiyasi to'g'ri reaksiyada ko'p bo'ladimi yoki teskari reaksiyada?

27. Agar faollanish energiyasini 4 kJ/mol ga ko'paytirilsa, 298 K da kechadigan reaksiya tezligi necha marta ortadi.

Javobi: 5 marta.

*VII bob.* ELEKTROKIMYOVIY JARAYONLAR.  
ELEKTROLIZ

7.1. ELEKTROD POTENSIALLAR

Elektr o'tkazgich ikki xil bo'ladi: a) birinchi xil o'tkazgichlar (qattiq va suyuq metallar, grafit). Ularda elektr tokini elektronlar tashiydi; b) ikkinchi xil o'tkazgichlarda elektr tokini ionlar tashiydi (elektrolit eritmalarida).

Agar birinchi xil o'tkazgichlar bilan bir qatorda ikkinchi xil o'tkazgichlar ham bo'lsa, elektr oqimini vujudga keltiruvchi bunday sistemaga elektr kimyoviy zanjir deyiladi. Bunday zanjirdan (metall elektrolit eritmaga tushirilgan sistemasi) elektr oqimi o'tganda, bu eritma va o'tkazgichlarning chegarasida (metall elektrod botgan qism yuzasida) kimyoviy reaksiya boradi. Bu jarayonga elektr kimyoviy jarayon deyiladi.

Fazalarning bir-biriga tegib turgan yuzasi, ya'ni elektrning kirib chiqadigan joyiga elektrod deyiladi. Metall (birinchi xil o'tkazgich) elektrolit eritmasiga (ikkinchi xil o'tkazgich) tushirilgan joyida elektr oqimi metaldan eritmaga va aksincha, eritmadan metallga o'tadi. Shu yuza va metall elektrod deb ataladi.

Bu jarayonning teskarisi, ya'ni elektr kimyoviy jarayon natijasida elektr oqimi vujudga kelishi mumkin. Bunda kimyoviy energiya elektr energiyaga aylanadi. Bu jarayon elektr-kimyoviy galvanik elementlarda sodir bo'ladi.

Birinchi xil o'tkazgichlar elektrolit eritmalgarda tushirilganda, elektrod eritma chegarasida qo'sh elektr qavati va elektr potensialari ayirmasi hosil bo'lishining asosiy sharti qo'sh elektr qavatning hosil bo'lishidir. Metall suyuqlikka tushirilganda metall bilan suyuqlik chegarasida hosil bo'lgan potensiallar ayirmasi elektrod potensiali deb ataladi.

Metall ionning metall plastinkadagi kimyoviy potensiali zaryadlangan zarralarning faza yuzasidagi potensiali elektrokimyoviy potensial deb ham aytildi. Uning qiymati eritmadagi potensial qiymatidan katta bo'lsa, metall plastinkadan bir qismi eritmaga o'tadi va metall ionlarining elektronlari plastinkada qolganligidan, plastinka mansiy zaryadlanadi. Mansiy zaryadlangan metall, eritmadag musbat zaryadlangan ionlarni —

kationlarni o'ziga tortadi. Natijada, metall bilan eritma chegarasida qo'sh elektr qavat hosil bo'ladi.

Agar ionning metalldagi potensiali uning eritmada potensialidan kichik bo'lsa, metall ion eritmada metall plastinkaga o'tadi. Natijada metall musbat zaryadlanadi va uning atrofida (eritmada) mansiy ionlar to'planadi, bunda ham xuddi yuqoridagi kabi qo'sh elektr qavat hosil bo'ladi. Natijada metall bilan eritma chegarasida potensiallar ayirmasi hosil bo'ladi. Demak, potensiallar ayirmasi hosil bo'lishining asosiy sharti elektr qavatning hosil bo'lishidir.


Shunday qilib, elektrod potensial "elektrod-eritma" chegarasida ionlarning almashinishi natijasida hosil bo'ladi. Bu potensial, metallning elektrod potensiali, deb ham ataladi.

Barcha elektrodlarning potensiallari normal elektrod potensial qiy-mati bilan solishtiriladi. Biror metallning o'zini 1g/ekv konsentratsiyali eritmaga tushurishdan hosil bo'lgan elektrod normal elektrod deyiladi. Ko'pchilik metallarning normal elektrod potensiallari tajriba yo'lli bilan topilgan. Ishqoriy va ishqoriy – yer metallarning potensiallari esa, bilsosita yo'llar bilan hisoblab chiqariladi. Agar metallar normal poten-siallari algebraik qiymatlarning oshib borishi tartibida joylashtirilsa, elektrokimyoiy kuchlanishlar qatori hosil bo'ladi.

Kimyoviy galvanik elementlarda elektr yurituvchi kuch (elektr ener-giyasi) kimyoviy reaksiya energiyasi hisobiga hosil bo'ladi. Bu xil ele-mentlarga Daniel-Yakobi elementi misol bo'la oladi. Har qanday galvanik elementning bir elektrodida oksidlanish, ikkinci elektrodida qaytarilishi jarayoni boradi. Qaytarilishi jarayoni borgan elektr od manfiy qutb (katod), oksidlanish jarayoni borgan elektr od esa musbat qutb (anod) deyiladi.

Har qanday galvanik element elektrolit eritmasisiga tushirilgan ikkita elektroddan iborat bo'lib, eritmalar orasiga yarimo'tkazgich pardas o'ma-tilgan bo'ladi. Reaksiya vaqtida oksidlanish jarayoni boradigan elektrodga anod, qaytarilishi jarayoni kechadigan elektrodga katod deyiladi.

Galvanik elementni sxema shaklida ifodalashda, metall bilan eritma chegarasini ifodalashda vertikal chiziq, elektrolit eritmalarini chegarasini ifodalashda ikkita vertikal chiziq qo'llaniladi. Masalan, reaksiya tufayli ishlaydigan galvanik elementning sxemasini yozish quyidagicha amalga oshiriladi:



Bu reaksiya quyidagi sxema tarzida yoziladi:



Bu sxema ionli shaklda yozilsa, quyidagicha bo'ladi:




Bu jarayonda metall elektrodlari bevosita kechayotgan reaksiyada qatnashadi. Anodda rux oksidlanadi.



va ionlar shaklda eritmaga o'tadi, katodda esa kumush qaytariladi



va metall shaklda elektrodga cho'ka boshlaydi. Elektrodlar jarayonlarida kechgan reaksiya tenglamalarini jamlab quyidagicha umumiy reaksiya tenglamasi yoziladi:



Elektrod potensialining ( $\varphi$ ) qiymati eritmadagi ionlarning kon-sentratsiyasi ( $S$ ) ga bog'liq va bu bog'liqlik quyidagicha tenglama bilan ifodalanadi:

$$\varphi = \varphi_0 + \frac{RT}{ZF} \ln C$$

bu yerda,  $\varphi_0$  – normal elektrod potensial;  $Z$  – jarayonda ishtirok etay-otgan elektronlar soni.

Galvanik elementning elektr yurituvchi kuchi (e.yu.k.) ikkita elektrod potensiallarining ( $\varphi$ ) farqiga teng bo'ladi. Masalan, bu farqni kumush- rux elementida quyidagicha yozish mumkin.

$$E = \varphi_{\text{Ag}} - \varphi_{\text{Zn}}$$

bu yerda,  $\varphi_{\text{Ag}}$  va  $\varphi_{\text{Zn}}$  – kumush va rux elektrodlarida kechadigan jarayon potensiallari.

Elektr yurituvchi kuchni hisoblashda elektrod potensiali kattasidan kichigi ayiriladi.

Oksidlanish-qaytarilishi (Red - x) elektrodlarida metall elektrod jarayon vaqtida kimyoviy o'zgarishga uchramaydi. (inert elektrodlar), u faqat elektronlarni uzatishda ishtirok etadi, masalan,



galvanik elementida inert elektrod vazifasi platina bajaradi. Platina anoda  $\text{Fe}^{2+}$  oksidlanadi:



Platina katodida esa permanganat anioni qaytariladi:



Birinchi tenglamani beshga ko'paytirib, ikkinchi tenglamani unga qo'shib kechadigan reaksiyaning umumiy tenglamasi quyidagicha yoziladi:



Oksidlanish-qaytarilish elektrod potensialning elektrod jarayonlarda qatnashadigan moddalarning konsentratsiyalariga va haroratga bog'liqligi Nernst tenglamasi bilan ifodalanadi:

$$\varphi = \varphi_0 + \frac{2,3 \cdot R \cdot T}{Z \cdot T} \lg \frac{[\text{Ox}]}{[\text{Red}]}$$

bu yerda,  $\varphi^0$  – standart elektrod potensial, ya'ni  $[\text{Ox}] = [\text{Red}]$  bo'l-gandagi potensiali;

R – gaz doimiyligi;

T – mutlaq harorat;

F – Faradey doimiysi (96500 KJ/mol);

Z – elektrod jarayonida qatnashuvchi elektronlar soni;

$[\text{Ox}]$  va  $[\text{Red}]$  – oksidlangan  $[\text{Ox}]$  va qaytarilgan  $[\text{Red}]$  shaklga mos keluvchi moddalar konsentratsiyalari ko'paytmalari.

### MISOL VA MASALALAR YECHIMLARIDAN NAMUNALAR

**1-misol.** Galvanik element rux metalidan (u 0,1 M li rux nitrat tuzi eritmasiga tushirilgan) va qo'rg'oshin metalidan (u 0,02 molarli qo'r-g'oshin nitrat tuzi eritmasiga tushirilgan) tuzilgan. Elementning e.yu.k. ni hisoblang, elektrod jarayonlarining tenglamasini yozing va element sxemasini tuzing.

**Yechish.** E.yu.k. ni aniqlash uchun, elektrod potensiallarini hisoblash lozim. Buning uchun ilovadagi 7-jadvaldan  $\text{Zn}^{2+}/\text{Zn}$  (-0,76 B) va  $\text{Pb}^{2+}/\text{Pb}$  (-0,13 V) sistemalarning standart elektrod potensialari topiladi, keyin Nernst tenglamasidan foydalanib,  $\varphi$  ning qiymati hisoblanadi:


$$\varphi_{\text{Zn}} = -0,76 + \frac{0,059}{2} \lg 0,1 = -0,76 + 0,030 (-1) = -0,79 \text{ B}.$$

$$\varphi_{\text{Pb}} = -0,13 + \frac{0,059}{2} \lg 0,02 = -0,13 + 0,030 (-1,7) = -0,18 \text{ B}.$$

Endi, elementning e.yu.k. topiladi:

$$E = \varphi_{\text{Pb}} - \varphi_{\text{Zn}} = -0.18 - (-0.79) = 0.61 \text{ B}$$

$\varphi_{\text{Pb}} > \varphi_{\text{Zn}}$  bo'lgani uchun qo'rg'oshin elektrodda qaytrilishi kuza tiladi, ya'ni u katod xizmatini o'taydi:



Rux elektrodda oksidlanish jarayoni kechadi:



ya'ni bu elektrod anod hisoblanadi.

Ko'rilgan galvanik elementning sxemasi quyidagicha ko'rinishda bo'ladi:



2-misol.  $EK = 6 \cdot 10^{-13}$  bo'lgan  $\text{AgBr}$  ning to'yingan eritmasiga 0,1 mol/l kaliiy bromid eritmasi qo'shilgan. Shu eritmaga tushirilgan kumush elektrodnинг potensialini hisoblang.

Yechish.  $\text{Ag}^+ | \text{Ag}$  sistemasi uchun Nernst tenglamasi yoziladi:

$$\varphi = \varphi_0 + 0,059 \lg C_{\text{Ag}^+}$$

Bu sistema uchun  $\varphi_0$  qiymati (ilovadagi 7 jadval) 0,80 B ni tashkil etadi. Bundan, kumush ionlari konsentratsiyasi topiladi:

$$C_{\text{Ag}^+} = \frac{EK_{\text{AgBr}}}{C_{\text{Br}^-}} = \frac{6 \cdot 10^{-13}}{0,1} = 6 \cdot 10^{-12} \text{ mol/l}.$$

Endi,  $\varphi_0$  va  $C_{\text{Ag}^+}$  qiymatlarini elektrod potensial tenglamasiga qo'yib kumush elektrod potensiali topiladi:

$$\begin{aligned} \varphi_{\text{Ag}} &= 0,80 + 0,059 \lg (6 \cdot 10^{-12}) = 0,80 + 0,059 (-12 + 0,78) = \\ &= 0,80 + 0,059(-11,22) = = 0,80 - 0,66 = 0,14 \text{ B}. \end{aligned}$$

3-misol. Vodorod elektrod potensiali 82 mB bo'lgan eritmaning  $\text{H}^+$  ionlari faolligini hisoblang.

Yechish.  $\varphi = -0,059 \lg a_{\text{H}^+}$  tenglamadan

$$\lg a_{\text{H}^+} = -\frac{\varphi}{0,059} = \frac{0,082}{0,059} = 1,39 \text{ topiladi.}$$

Demak,  $-\lg a_{H^+} = 1,39$ ;  $\lg a_{H^+} = -1,39 = 2,61$ ;  $\lg a_{H^+} = 0,041 \text{ mol/l}$  bo'ladi.

Galvanik element har xil elektrodlardan emas, bir xil elektrodlardan ham tuzilishi mumkin. Bunda bu elektrodlar har xil konsentratsiyali bir xil elektrolit eritmasiga tushirilishi ham mumkin (bunday elementlar konsentratsion galvanik elementlar deyiladi). Bunday elementlarning e.yu.k. ham yuqorida ko'rilgan elementlardagiga o'xshash elektrodlar potensiallari farqidan kelib chiqadi.

**4-misol.**  $\text{Ag}|\text{AgNO}_3(0,001\text{M})||\text{AgNO}_3(0,1\text{M})|\text{Ag}$  Galvanik elementning e.yu.k. ni aniqlang. Bu elementning ishlashida, tashqi zanjirda elektronlar qaysi yo'nalishda harakatlanadi?

**Yechish.**  $\text{Ag}^+ | \text{Ag}$  sistemasining standart elektrod potensiali  $0,80 \text{ V}$  ga teng. Chap elektrodnini  $\varphi_1$  bilan, o'ng elektrodnini esa  $\varphi_2$  bilan belgilab, quyidagilar topiladi.

$$\varphi_1 = 0,80 + 0,059 \lg 0,001 = 0,80 + 0,059 (-3) = 0,62 \text{ B.}$$

$$\varphi_2 = 0,80 + 0,059 \lg 0,1 = 0,80 - 0,059 = 0,74 \text{ B.}$$

Keyin, elementning e.yu.k. hisoblanadi:

$$E = \varphi_2 - \varphi_1 = 0,74 - 0,62 = 0,12 \text{ B.}$$

$\varphi_1 < \varphi_2$  bo'lgani uchun chapdagagi elektrod elementning manfiy qutbi rolini bajaradi va elektron chapdagagi elektroddan tashqi zanjir orqali o'ngdagagi elektrod tomon harakatlanadi.

Galvanik elementning ishlashida elektrod potensialining qiymati yuqori bo'lgan elektrkimiyoiy sistema oksidlovchi sifatida, past elektrod potensialiga ega bo'lgani esa qaytaruvchi vazifasini bajaradi.

Har qanday o'z-o'zicha boruvchi jarayonlar kabi, galvanik elementda kechadigan reaksiya ham Gibbs energiyasining kamayishi bilan amalga oshadi. Shunday qilib, tegishli sistemalarning elektrod potensialarini solishtirib, oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarini qaysi yo'nalishda borishini oldindan aniqlash mumkin.

**5-misol.** Quyidagicha reaksiyaning qaysi yo'nalishda borishini ko'rsating.



**Yechish.** 1. Reaksiya tenglamasini ion-molekular shakli:



Reaksiyada qatnashuvchi elektrkemyoviy sistemalarining standart elektrod potensiallari yoziladi (ilovaning 7-jadvali):

$$\text{Cl}_2 + 2e^- = 2\text{Cl}^- \quad \varphi_1^0 = 1,36 \text{ B}$$

$$\text{Fe}^{3+} + e^- = \text{Fe}^{2+} \quad \varphi_2^0 = 0,77 \text{ B}$$

$\varphi_1^0 > \varphi_2^0$  bo'lgani uchun xlor oksidlovchi,  $\text{Fe}^{2+}$  ioni esa qaytaruvchi bo'lib xizmat qiladi va ayni reaksiya o'ngdan chapga tomon boradi.

Oxirgi misolda, o'zaro ta'sir etuvchi elektrkemyoviy sistemalarining standart elektrod potensiallari ancha farq qilganligi uchun o'zaro ta'sir etuvchi har qanday konsentratsiyaga ega bo'lgan  $\varphi^0$  qiymati bilan jarayonning kechish yo'nalishini aniqlash mumkin bo'ladi. Ammo, ayrim hollarda, solishtirilayotgan  $\varphi^0$  qiymati bir-biriga yaqin bo'lsa, reaksiyada ishtirot etayotgan sistemalar konsentratsiyasiga bog'liq holda jarayonning yo'nalishi o'zgarishi mumkin.

**6-misol.**  $2\text{Hg} + 2\text{Ag}^+ = 2\text{Ag} + \text{Hg}_2^{2+}$  reaksiyaning o'z-o'zicha borish yo'nalishini, reaksiyada ishtirot etayotgan ionlarning quyidagicha konsentratsiya (mol/l) ga:

$$a) \text{C}_{\text{Ag}^+} = 10^{-4}, \text{C}_{\text{Hg}_2^{2+}} = 10^{-1};$$

$$b) \text{C}_{\text{Ag}^+} = 10^{-1}, \text{C}_{\text{Hg}_2^{2+}} = 10^{-4}$$

ega ekanligini bilgan holda aniqlang.

**Yechish.** 1. O'zaro ta'sirlashuvchi elektrkemyoviy sistemalarining standart elektrod potensiallari qiymati yoziladi:

$$\text{Hg}^{2+} + 2e^- = 2\text{Hg} \quad \varphi_1^0 = 0,79 \text{ B.}$$

$$\text{Ag}^+ + e^- = \text{Ag} \quad \varphi_2^0 = 0,80 \text{ B.}$$

Endi, quyidagicha hisoblash o'tkaziladi:

$$a) \varphi_1 = \varphi_1^0 + \frac{0,059}{2} \lg C_{\text{Hg}_2^{2+}} = 0,79 + 0,030 \lg 10^{-1} = \\ = 0,79 - 0,03 = 0,76 \text{ B.}$$

$$\varphi_2 = \varphi_2^0 + 0,059 \lg C_{\text{Ag}^+} = 0,80 + 0,059 \lg 10^{-4} = 0,80 - 0,24 = 0,56 \text{ B.}$$

Ayni holda  $\varphi_1 > \varphi_2$  bo'lgani uchun reaksiya o'ngdan chapga tomon yo'nalgan bo'ladi.

$$b) \varphi_1 = 0,79 + 0,030 \lg 10^{-4} = 0,79 - 0,12 = 0,67 \text{ B.}$$

$$\varphi_2 = 0,80 + 0,059 \lg 10^{-1} = 0,80 - 0,06 = 0,74 \text{ B.}$$

$\varphi_1 < \varphi_2$  bo'lgani uchun reaksiya chapdan o'nga yo'nalgan bo'ladi.

Galvanik elementning standart e.yu.k. elementda kechadigan reaksiyaning standart Gibbs energiya  $\Delta G^0$  ga bog'liq bo'lib, quyidagicha ifodalanadi:

$$Z \cdot F \cdot E^0 = -\Delta G^0$$

bu yerda,  $Z$  – reaksiyada ishtirok etayotgan ionlar soni;

$F$  – Faradey doimiyligi.

Boshqa tarafdan,  $\Delta G^0$  reaksiyaning muvozanat konstantasi  $K$  bilan ham bog'liq bo'ladi:

$$\Delta G^0 = -2,3 R T \lg K$$

Oxirgi ikki tenglamadan quyidagicha tenglama kelib chiqadi:

$$Z F E^0 = 2,3 R T \lg K$$

Bu nisbatdan foydalanib, eksperiment bo'yicha aniqlangan e.yu.k. asosida tegishli oksidlanish-qaytarilish reaksiyasining muvozanat konstantasini hisoblash mumkin.

$C$  (298 K) uchun  $R = 8,31 \text{ J}/(\text{mol K})$  va  $F = 96500 \text{ KJ/mol}$  qiymatlari qo'yilsa, oxirgi tenglama quyidagicha ko'rinishga ega bo'ladi:

$$\lg K = Z \cdot E^0 / 0,059.$$

7-misol.  $Hg_2(NO_3)_2 + 2Fe(NO_3)_2 = 2Hg + 2Fe(NO_3)_3$  reaksiyaning  $25^\circ C$  dagi muvozanat doimiysini toping.

Yechish. 1. Reaksiyaning ion-molekular shakldagi tenglamasi:



2. Reaksiyada ikkita elektr kimyoviy sistema qatnashadi:



3. Ko'rilibotgan elementning standart e.yu.k. qiymati topiladi:

$$E^0 = \varphi^0_1 - \varphi^0_2 = 0,79 - 0,77 = 0,02 \text{ B}$$

Endi reaksiya muvozanati doimiysi hisoblanadi:

$$\lg K = \frac{Z \cdot E^0}{0,059} = \frac{2 \cdot 0,02}{0,059} = 0,678; \quad K = 4,76.$$

## 7.2. ELEKTROLIZ

Elektrolit eritmasidan yoki elektrolitlarning suyuqlanmalaridan elektr oqimi o'tkazilganda elektrodlarda sodir bo'ladigan kimyoviy jarayonlarga elektroliz deyiladi. Eritmaga ikkita elektrod tushirib, ularni tashqi elektr manbayi (masalan, akkumulator) ning qutblariga ulansa, eritmadan elektr oqimi o'ta boshlaydi. Tashqi elektr manbayining musbat qutbiga ulangan elektrod anod (+) va manfiy qutbiga ulangani katod (-) deyiladi. Bu vaqtida elektrodlarda, galvanik elementning qutblarida bora-digan jarayonlarning aksi boradi: anodda oksidlanish, katodda qaytarishi jarayolari sodir bo'ladi.

Suvli eritmada tuz ionlaridan tashgari suvning  $N^+$  va  $ON^-$  ionlari ham bo'ladi. Shu sababli elektrolitlarning suvdagi eritmalarida sodir bo'ladigan katod jarayonlarni ko'zdan kechirishda birinchi navbatda vodorod ionlarning qaytarilishi potensialini nazarda tutish kerak. Bu potensialning qiymati vodorod ionlar konsentratsiyasiga, binobarin, eritmadiagi pH ga bog'liq. Vodorod elektrod potensiali uchun Nernst tenglamasi:

$$\varphi_{H_2} = 0,059 \lg C_{H^+} \quad \text{yoki} \quad \varphi_{H_2} = -0,059 \text{ pH}$$


Neytral muhit uchun

$$pH = 7; \text{ binobarin: } \varphi_{H_2} = -0,059 \cdot 7 = -0,41 \text{ B.}$$

Demak, agar elektrolit kationini tashkil qiluvchi metallning normal-potensiali – 0,41B dan ko'ra musbatroq bo'lsa, neytral eritmaning elektroliz katodda metall ajralib chiqadi. Bunday metallar kuchlanishlar qatorida vodoroddan keyin turadi (masalan, mis). Agar elektrolitni tashkil qilgan metallning elektrod potensiali – 0,41 B ga qaraganda ancha manfiy bo'lsa, katodda, albatta, vodorod ajralib chiqadi.

Bunday metallar jumlasiga, kuchlanishlar qatorining boshida (litiy-dan aluminiygacha) turuvchi metallar kiradi. Nihoyat, agar metallning elektrod potensiali –0,41 B ga yaqin bo'lsa, eritma konsentratsiyasiga, haroratga, elektr oqimining zichligiga qarab, katodda metall va vodorod ajralib chiqadi (aluminiydan vodorodgacha).

Katodda vodorodning ajralib chiqish jarayoni eritmaning muhitiga qarab turlicha bo'ladi. Kislotali muhitda vodorod ionlarning elektr kimyoviy qaytarilishi ustun turadi: uni  $2H^+ + 2e^- \rightarrow H_2$  tarzida ifodalanadi. Neytral eritmalarida esa suvning qaytarilishi jarayoni ustun turadi:



Eritmada bir necha xil kationlar bo'lsa, ularning ajralib chiqish tartibi, ularning standart elektrod potensiallar qatorida joylashgan o'rniغا va ajralish potensialiga bog'liq bo'ladi.

Anodlar ikki xil: inert va faol bo'lishi mumkin: inert anod elektroliz vaqtida o'zgarmaydi, faol anod esa elektroliz vaqtida oksidlanadi. Inert anod sifatida grafit, ko'mir va platinadan yasalgan elektrodlar xizmat qiladi. Ishqor eritmalar, kislородли kislota yoki ularning tuzlari eritmalar elektroliz qilinganda, inert anodda kislород ajralib chiqadi. Eritmadagi pH qiymatiga qarab, bu jarayonni ikki tur tenglama bilan ifodalash mumkin. Ishqoriy muhitda gidroksil ionlar zaryadsizlanadi:



Neytral muhitda esa suv elektrikimyoviy oksidlanadi:



Tarkibida kislород bo'lmagan ( $\text{HCl}$ ,  $\text{HBr}$ ,  $\text{H}_2\text{S}$  va hokazo) kislota va uning tuzlari ( $\text{NaCl}$ ,  $\text{KBr}$ ,  $\text{K}_2\text{S}$  va hokazo) eritmalar elektroliz qilinganda anionlar o'z elektronlarini yo'qotib, inert anodda ular erkin holda (xlor, brom, oltingugurt va hokazo) ajralib chiqadi.

### MISOL VA MASALALAR YECHIMLARIDAN NAMUNALAR

**1-misol.** Inert anod ishlatalganda natriy sulfat tuzining suvli eritmasi elektrolizida kechadigan jarayonlarning tenglamasini yozing.

**Yechish.**  $\text{Na}^+ + e^- = \text{Na}$  (-2,71 B) sistemasining standart elektrod potensiali neytral suvli muhitdagi vodorod elektrodi potensiali (-0,41 B) dan ancha manfiy bo'ladi. Shuning uchun katodda suvning elektr kimyoviy qaytarilishi sodir bo'ladi va natijada vodorod gazi ajrala boshlaydi:



$\text{Na}^+$  ionlari esa katodga yaqinlashib, uning atrofidagi eritmada to'plana boshlaydi.

Anodda esa suvning elektrikimyoviy oksidlanishi sodir bo'ladi va kislород gazi ajralib chiqsa boshlaydi:



Anodga yaqinlashayotgan  $\text{SO}_4^{2-}$  ionlari esa anod atrosida to'planaadi. Chunki  $\text{SO}_4^{2-}$  ionning oksidlanish potensiali ( $2\text{SO}_4^{2-} - 2e^- \rightarrow \text{S}_2\text{O}_8^{2-}$  jarayonida) 2,01 B ga teng. Bu qiymat kislородning ajralib chiqish potensiali 1,23 B ga qaraganda ancha yuqoridir. Shuning uchun  $\text{SO}_4^{2-}$  ionidan kislород ajralib chiqmaydi.

Katod jarayoni tenglamasini ikkiga ko'paytirib va uni anod jarayoni tenglamasi bilan qo'shilganda, quyidagicha elektroliz jarayonining umumiy tenglamasi kelib chiqadi:



Bir vaqtning o'zida katod atrofida  $\text{Na}^+$  ionlari va anod atrofida  $\text{SO}_4^{2-}$  ionlarning to'planishi e'tiborga olinsa, jarayonning umumiy tenglamasini quydagicha yozish mumkin:



Shunday qilib, vodorod va kislorod chiqishidan tashqari katod atrofida NaOH eritmasi, anod atrofida esa sulfat kislota  $H_2SO_4$  eritmasi hosil bo'ldi.

Elektr energiyasi bilan kimyoviy jarayonlar orasida miqdoriy bog'lanish borligini dastlab ingliz olimi M. Faradey aniqlagan. Faradey o'z tajribalarini bajarishda bir necha galvanik elementni ketma-ket ulab, batareya hosil qilgan. Elektroliz qilishda ana shu batareyadan elektr manbayi sifatida foydalangan va elektroliz qonunlarini taysislab bergan.

Elektrolizning birinchi qonuni quyidagicha ta'riflanadi: elektroliz vaqtida elektrodda ajralib chiqadigan moddaning massa miqdori eritma-dan o'tgan elektr miqdoriga to'g'ri propotionsaldir.

Agar elektrodda ajralib chiqqan moddaning massa miqdori  $m$  bilan, elektr miqdorini  $Q$  bilan, elektr oqimi  $k$ uchini  $i$  bilan, vaqtini  $t$  bilan belgilasak, Faradeyning birinchi qonuni quyidagicha yoziladi:

$$m = K \cdot O = K \cdot i \cdot t$$

bu yerda,  $K$  — elementning elektrikimyoviy ekvivalenti, ya'ni eritma orqali 1 kulon elektr o'tganda ajralib chiqadigan miqdori.

Elektrolizning 2-qonuni quyidagicha ta'rifga ega: Agar bir necha elektrolit eritmasi orqali ketma-ket ulangan holda, bir xil miqdorda elektr toki o'tkazilsa, elektrodlarda ajralib chiqadigan moddalarning massa miqdorlari o'sha, moddalarning kimyoiy ekvivalentlariga proportional bo'ladi.

Agar bir idishga  $\text{AgNO}_3$  eritmasi, ikkinchi idishga  $\text{HCl}$  eritmasi, uchinchi idishga  $\text{CuSO}_4$  eritmasi, turtinchi idishga  $\text{FeCl}_3$  eritmasi solinib, har qaysi idishga bir xil moddadan yasalgan bir xil kattalikdagı ikki elektrod tushirilsa va barcha elektrodlar bir-biri bilan ketma-ket ulanib, elektrodlarga elektr oqimi berilsa, sistema orqali 96500 kulon yoki 26.8 amper/soat elektr o'tganda, birinchi idishda 108 g kumush va

8 g kislorod (ya'ni 1 g – ekv kumush 108 g va 1 g- ekv kislorod – 8 g), ikkinchisida 1 g vodorod va 35,5 g xlor, uchinchisida 31,8 g mis va 8 g kislorod, to'rtinchisida esa 18,66 g temir va 35,5 g xlor ajralib chiqadi.

Faradeyning ikkinchi qonuni  $K = \frac{1}{96500} E$  formula bilan ifodalanadi.

Uning birinchi va ikkinchi qonunlari uchun  $m = \frac{E \cdot i \cdot t}{96500}$  ifoda

kelib chiqadi. Bu yerda,  $E$  – moddaning kimyoviy ekvivalenti.

Elektroliz vaqtida asosiy jarayondan tashqari turli qo'shimcha hodisalar ham sodir bo'lishi sababli, ma'lum miqdor elektr berilganda elektrodlarda ajralib chiqadigan muddanining miqdorlari Faradey qonunlari bilan hisoblanadigan miqdordan kamroq bo'ladi. Shunga ko'ra "elektrolizunumi" degan tushuncha kiritilgan.

$$\eta = \frac{m_1}{m} \cdot 100\%$$


bu yerda,  $m_1$  – amalda ajralib chiqqan modda miqdori,

$m$  – nazariy miqdor, ya'ni  $m = \frac{E \cdot i \cdot t}{96500}$ . Binobarin:

$$\eta = \frac{m_1 \cdot 96500}{E \cdot i \cdot t} \cdot 100\% \text{ bo'ladi.}$$

**2-misol.** Natriy xlorid tuzining suvdagi eritmasi elektroliz qilinganda qanday reaksiya amalga oshadi?

**Yechish.** Natriy xlorid eritmasida  $\text{Na}^+$  va  $\text{Cl}^-$  hamda  $\text{H}^+$  va  $\text{OH}^-$  ionlari bo'ladi. Eritmadan elektr oqimi o'tkazilganda,  $\text{Na}^+$  va  $\text{H}^+$  ionlari katod tomoniga harakatlanadi,  $\text{Cl}^-$  va  $\text{OH}^-$  ionlari esa anod tomoniga harakatlanadi. Elektroliz sxemasi quyidagicha bo'ladi:




Elektroliz jarayonini quyidagicha umumiy tenglama bilan ifodalash mumkin:



**3-misol.** Natriy sulfat  $\text{Na}_2\text{SO}_4$  tuzining suvli eritmasi elektrolizida qanday mahsulotlar hosil bo'ladi?

**Yechish.** Eritmada  $\text{Na}^+$ ,  $\text{SO}_4^{2-}$  hamda  $\text{H}^+$  va  $\text{OH}^-$  ionlari mavjud. Eritmadan elektr oqimi o'tkazilganda katod tomon  $\text{Na}^+$  va  $\text{H}^+$  ionlari, anodga esa  $\text{SO}_4^{2-}$  va  $\text{OH}^-$  ionlari harakatlanadi.  $\text{Na}^+$  ionlari qiyin zaradsizlanganligi uchun katodda vodorod qaytariladi. Anodda esa  $\text{SO}_4^{2-}$  ionlari  $\text{OH}^-$  ionlariiga nisbatan qiyin zarayadsizlanganligi uchun, u yerda  $\text{OH}^-$  ionlari zaryadsizlanib kislorod gazi hosil qiladi.

Elektroliz sxemasi quyidagicha bo'ladi:



Jarayon, umumiy tenglama holda yozilsa, quyidagicha ko'rinishga ega bo'ladi.




Yuqoridagilardan ko'riniib turibdiki, amalda faqat suv elektrolizga uchraydi. Katodda  $\text{NaOH}$  eritmasi va anodda  $\text{H}_2\text{SO}_4$  hosil bo'ladi. Katodda ajralgan vodorod va anoddagi kislorod elektroliz zonasidan chiqib ketadi. Anod va katod zonasidagi eritmalar aralashtirilsa, yana  $\text{Na}_2\text{SO}_4$  hosil bo'ladi:



**4-misol.** Mis kuperosi eritmasiga mis anodi joylashtirilgan bo'lsa, elektroliz qanday kechadi?

**Javobi.** Jarayon katodda mis ajralishi va anodning yemirilishi bilan kechadi. Eritmada esa mis sulfat miqdori o'zgarishsiz qoladi.

Elektroliz sxemasi:




**5-misol.** Natriy xlorid suyuqlanmasi elektrolizi qanday kechadi?

**Javobi.** Suyuqlanmalar elektrolizida ham xuddi suvli eritmalar elektrolizidagi kabi qonuniyatlar saqlanadi. Ammo reaksiya xususiyatiga suvning yo'qligi ta'sir qiladi.

Natriy xlorid NaCl suyuqlanmasida  $\text{Na}^+$  va  $\text{Cl}^-$  ionlari bo'ladi. Suyuqlanmadan elektr oqimi o'tkazilganda  $\text{Na}^+$  ionlari katodda elektron biriktirib olib qaytariladi va natriy atomlarini hosil qiladi. Xlor  $\text{Cl}^-$  ionlari esa anodga elektron berib, oksidlanadi va xlor molekulasini hosil qiladi.

**Elektroliz sxemasi** quyidagicha bo'ladi:



elektroliz natijasida natriy metalli va xlor gazi hosil bo'ladi.





**6-misol.** Aluminiy oksid  $\text{Al}_2\text{O}_3$  bilan kriolit  $\text{Na}_3\text{AlF}_6$  suyuqlanmasi elektroliz qilinganda qandadi mahsulotlar hosil bo'ladi?

**Javobi:**  $\text{Al}_2\text{O}_3$  va  $\text{Na}_3\text{AlF}_6$  suyuqlanmasi quyidagi holatda bo'ladi:



Kuchlanishlar qatorida aluminiy natriyga nisbatan o'ngroqda ( $\text{Al}^{3+}$  elektrod potensiali  $\text{Na}^+$  elektrod potensialidan katta), katodda aluminiy ionlari qaytariladi. Anionlar  $\text{AlO}_3^{3-}$  va  $[\text{AlF}_6]^{3-}$  ning elektrod potensiali kichik bo'lganligi uchun, ular anodda oksidlanishga uchraydi.


**Elektroliz sxemasi:**



Qo'shimcha ravishda,  $\text{Na}^+$  va  $[\text{AlF}_6]^{3-}$  ionlari bo'lgani uchun katodda  $\text{Na}_3\text{AlO}_3$  va anodda  $\text{AlF}_3$  hosil bo'la boshlaydi.

**7-misol.** Mis (II) – xlorid  $\text{CuCl}_2$  ning suvli eritmasidan 2 minut davomida 4A elektr oqimi o'tkazilganda grafit elektrod yuzasida qanday moddalar va qancha miqdorda hosil bo'ladi?

**Yechish.** 1. Elektroliz sxemasi:



Shunday qilib, mis (II) – xlorid tuzining suvdagi eritmasi elektroliz qilinganda katod yuzasida mis va anod yuzasida xlor gazi hosil bo'ladi.

2. Endi hosil bo'lgan moddalar miqdori topiladi:

$$E_{\text{Cu}} = \frac{Ar(\text{Cu})}{B_{\text{Cu}}} = \frac{64}{2} = 32 \text{ g/mol.}$$

$$E_{\text{Cl}} = \frac{Ar(\text{Cl})}{B_{\text{Cl}}} = \frac{35,5}{1} = 35,5 \text{ g/mol.}$$

3. Faradey qonunining matematikaviy ifodasidan foydalanib moddalar miqdori topiladi:

$$m = \frac{E}{F} \cdot i \cdot t;$$

$$m_{\text{Cu}} = \frac{32}{96500} \cdot 4 \cdot 120 = 0,16 \text{ g};$$

$$m_{\text{Cl}_2} = \frac{35,5}{96500} \cdot 4 \cdot 120 = 0,18 \text{ g.}$$

**8-misol.** 30 minut davomida elektrolit eritmasidan 2,5 A elektr oqimi o'tkazilganda 2,77 g metall hosil bo'ladi. Metallning ekvivalent massasini toping.

**Yechish.** Metallning ekvivalent massasi uchun Faradey qonuni tenglamasini yozib, masalada ko'rsatilgan sonlarni qo'yib chiqiladi.

$$\begin{aligned} m &= 2,77 \text{ g.}, \quad i = 2,5 \text{ A.}, \quad t = 30 \text{ min} = 1800 \text{ S. :} \\ E &= mF/(i t) = 2,77 \cdot 96500 / (2,5 \cdot 1800) = 59,4 \text{ g/mol.} \end{aligned}$$

**9-misol.** Sulfat kislota eritmasidan 1,5 soat davomida 6A kuchga ega bo'lgan elektr oqimi o'tkaziladi. Parchalangan suv massasini va ajralgan vodorod va kislordolarning hajmlarini (n.sh.da) hisoblang.

**Yechish.** 1. Faradey qonunidan foydalanib parchalangan suv massasi topiladi.

$$(t = 1,5 \text{ soat} = 5400 \text{ sek.} \text{ va } E_{H_2O} = 9 \text{ g/mol}).$$

$$m_{H_2O} = E \cdot i \cdot t / F = 9 \cdot 6 \cdot 5400 / 96500 = 3,02 \text{ g.}$$

Hosil bo'lgan gaz hajmlarini hisoblashda Faradey qonuni tenglamasi quyidagicha ko'rinishga ega bo'ladi:

$$V = V_E \cdot i \cdot t / F$$

bu yerda,  $V$  – ajralgan gazning hajmi, l;

$V_E$  – uning ekvivalent hajmi, l/mol.

Normal sharoitda vodorodning ekvivalent hajmi 11,2 l/mol va kislorodniki esa 5,6 l/mol, undan quyidagilar kelib chiqadi:

$$V_{H_2} = \frac{11,2 \cdot 6 \cdot 5400}{96500} = 3,76 \text{ l}$$

$$V_{O_2} = \frac{5,6 \cdot 6 \cdot 5400}{96500} = 1,88 \text{ l}$$

### MUSTAQIL ISHLASH UCHUN MISOL VA MASALALAR

1. Quyidagi galvanik elementlarning tashqi zanjiridan elektronlar qaysi tomon yo'naladi?

- a) Mg | Mg<sup>2+</sup> || Pb<sup>2+</sup> | Pb;
- b) Pb | Pb<sup>2+</sup> || Cu<sup>2+</sup> | Cu;
- c) Cu | Cu<sup>2+</sup> || Ag<sup>2+</sup> | Ag

Bularda hamma eritmalar bir molarli. Har qaysi elementda qaysi metall eriydi?

2. Galvanik element 1M li AgNO<sub>3</sub> eritmasiga botirilgan kumush elektrodlardan va standart vodorod elektroddan tashkil topgan. Element ishlashidagi elektrod jarayonlar va reaksiyaning umumiy tenglamalarini yozing. Uning e.yu.k. nimaga teng?

Mg<sup>2+</sup> ionlarning konsentratsiyasi 0,1; 0,01 va 0,001 mol/l ga ega bo'lgan magniy tuzlari eritmasiga tushirilgan magniyning elektrod potensialini hisoblang.

Javobi: - 2,39 B; -2,42 B; -2,45 B.

3. Agar  $C_{Br^-} = 1 \text{ mol/l}$  va  $EK PbBr_2 = 9,1 \cdot 10^{-6}$  bo'lgan  $PbBr_2$  ning to'yingan eritmasiga tushirilgan porshin elektrodning potensialini hisoblang.

Javobi: - 0,28 V.

4.  $pH = 10$  bog'langanda vodorod elektrodning potensiali nimaga teng bo'ladi?

- a) -0,59 B; b) -0,30 B; d) 0,30 B; g) 0,59 B.

5.  $Pb | Pb^{2+} || Ag^+ | Ag$  galvanik element mavjud. Qo'rg'oshin ionlari mavjud bo'lgan eritmaga vodorod sulfid qo'shilsa, uning e.yu.k. qanday o'zgarishga uchraydi?

- A. ortadi. B. kamayadi. D. o'zgarishsiz qoladi.

6. Quyidagi reaksiyalarni qaysi yo'nalishda o'z-o'zicha borishini ko'rsating.

- a)  $H_2O_2 + HOCl = HCl + O_2 + H_2O$ ;  
 b)  $2HJO_3 + 5H_2O_2 = J_2 + 5O_2 + 6H_2O$ ;  
 d)  $J_2 + 5H_2O_2 = 2HJO_3 + 4H_2O$ .

7. Quyidagi reaksiyalarning qaysi biri o'z -o'zicha boradi?

- a)  $H_3PO_4 + 2HJ = H_3PO_3 + J_2 + H_2O$   
 b)  $H_3PO_3 + SnCl_2 + H_2O = 2HCl + Sn + H_3PO_4$   
 d)  $H_3PO_3 + 2AgNO_3 + H_2O = 2Ag + 2HNO_3 + H_3PO_4$   
 e)  $H_3PO_3 + Pb(NO_3)_2 + H_2O = Pb + 2HNO_3 + H_3PO_4$

8. Suvli eritmadagi temir (III)-tuzini: A) kaliy bromid; b) kaliy yodidlar bilan qaytarib temir (II) – tuziga aylantirib bo'ladi?

Javobi: a) bo'lmaydi, b) bo'ladi.

9. Illovadagi standart elektrod potensiali jadvali (7-jadval)dan soy-dalanib, quyidagi reaksiyalarning muvozanat konstantalarini hisoblang:

- a)  $Zn + CuSO_4 = Cu + ZnSO_4$ ,  
 b)  $Sn + Pb(CH_3COO)_2 = Sn(CH_3COO)_2 + Pb$

Javobi: a)  $2 \cdot 10^{37}$ ; b) 2,2.

10. Quyidagicha galvanik elementlarda boradigan reaksiyalarning muvozanat konstantalarini hisoblang: a) kadmiy-rux galvanik elementidagi; b) mis- qo'rg'oshin galvanik elementidagi.

11.  $H_2SO_4$ ,  $CuCl_2$ ,  $Pb(NO_3)_2$  larning suvli eritmalarining platina elektrodlari bilan kechadigan elektroliz sxemalarini tuzing.

Ko'mir elektrodlar qo'llanilganda  $BaCl_2$  va  $Pb(NO_3)_2$  larning suvli eritmalarini elektrolizida kechadigan elektrod jarayonlarining tenglamalarini yozing.

12. Inert anod ishlataliganda,  $FeCl_3$  va  $Ca(NO_3)_2$  larning suvli eritmalarini elektrolizida kechadigan elektrod jarayonlarning tenglamalarini yozing.

13. Agar: a) anod mis; b) anod ko'mir ishlataliganda mis sulfat tuzining suvli eritmasi elektrolizining sxemasini tuzing.

14. Kaliy nitrat  $KNO_3$  tuzining suvli eritmasi elektrolizi vaqtida mis elektroldarda kechadigan jarayonlarning sxemasini tuzing.

15. KON ning suvli eritmasidan 30 minut davomida 6 A quvvatga ega bo'lgan elektr oqimi o'tkazilganda chiqadigan kislород gazi hajmini (n.sh. da) toping.

16.  $H_2SO_4$  ning suvli eritmasidan 1 soat davomida 3 A quvvatga ega bo'lgan elektr oqimi o'tkazilganda ajraladigan vodorod gazi hajmini (n.sh. da) toping.

17. Eritmadan:

a) 2 g vodorod; b) 2 g kislород ajralishi uchun qancha miqdor elektr quvvati kerak bo'ladi?

18.  $Cr_2(SO_4)_3$  tuzining suvli eritmasi 2A elektr quvvati ishtirokida elektroliz qilinganda katodning massasi 8g ga ortadi. Qancha muddat davomida elektroliz o'tkazilgan?

19. 264 g kaliy gidroksid KOH suyuqlanmasi elektroliz qilinganda necha gramm kaliy metalli hosil bo'ladi.

Javobi: 183,9 g.

20. 100 g natriy xlorid NaCl tuzi eritmasi elektrolizida 13,44 l gaz (N.sh.da) ajraladi. Eritmaning foiz konsentratsiyasini toping.

Javobi: 35,1% li eritma.

21. 234 g natriy xlorid suyinmasi elektroliz qilinsa, qanday moddalar va qancha miqdorda hosil bo'ladi? Anodda ajralgan modda bilan necha gramm temir reaksiyaga kirishadi?

Javobi: 92 g natriy; 44,81  $Ck_2$ ; 74,66 g Fe.

22. 11 mis (II) – natratning suvli eritmasi ( $\rho = 1,0$ ) to'liq elektroliz qilinganda, anodda 3,36 l gaz (n.sh. da) ajraladi. Katodda ajralgan modda miqdorini va dastlabki eritmaning foiz konsentratsiyasini aniqlang.

Javobi: 19,05 g Cu; 5,62% li  $Cu(NO_3)_2$  eritma.

23. Kumush nitrat  $AgNO_3$  va mis (II) – sulfat  $CuSO_4$  tuzlari eritmalarini orqali bir xil miqdordagi elektr oqimi o'tkazilganda, jarayon natijasida 0,64 g mis ajraldi. Shu vaqt davomida ajralgan kumush miqdorini toping.

Javobi: 2,17 g kumush.

23. Tarkibida 68g kumush nitrat  $AgNO_3$  bo'lgan eritmaning elektrolizi natijasida, anodda 2 l kislород gazi (n.sh.da) ajraldi. Tuzning necha foizi parchalangan?

Javobi: 60,7 g.

24.  $\text{CuCl}_2$  tuzining suvli eritmasidan 500 sekund davomida 2,5A kuchga ega bo'lgan elektr oqimi o'tkazilganda, inert anod sirtida necha litr (n.sh.da) xlor hosil bo'ladi. Uning chiqish unumi 80 foizga teng.

Javobi: 0,12 l

25. Mis (II) – sulfat  $\text{CuSO}_4$  tuzining suvli eritmasini elektroliz qilib, olingan sulfat kislotani neytrallash uchun, zichligi 1,05 g/ml bo'lgan 26% li 16 ml kaliy gidroksid eritmasi sarflandi. Katodda necha gramm mis hosil bo'ladi?

Javobi: 1,15 g.

26. 40,95 g suyultirilgan natriy xlorid tuzini elektroliz qilinganda 15,2g natriy metali ajraldi. Mahsulotning chiqish unumini foizda hisoblang.

Javobi: 93,8%.

27. 121,8 g kaliy sulfatning suyqlanmasi elektroliz qilinganda inert elektrodlar yuzasida qaysi moddalar va qancha miqdorda hosil bo'ladi?

Javobi: 54,6 g K; 44,8 l  $\text{SO}_2$  gazi; 22,4 l  $\text{O}_2$  gazi.

### VIII bob. DISPERS SISTEMALAR VA SIRT HODISALAR

O'zaro chegara sirtlari rivojlangan ikki yoki bir necha fazadan iborat geterogen sistemalar — dispers sistemalar deb ataladi.

Bu fazalarning biri uzlusiz dispersiyaviy muhit bo'lib, uning hajmiga mayda, qattiq zarrachalar, tomchilar yoki ko'piklar holida dispers faza zarrachalari tarqalgan bo'ladi.

Kolloid eritmalar — dispers sistemalarning shunday turiki, ularda dispers fazaning o'lchami dispersion muhit zarrachalari o'lchamlaridan bir muncha kattaroq bo'ladi.

Kolloid eritmada dispers faza zarrachalarning o'lchami 1—100 nm (nanometr) ga yaqin bo'ladi. Haqiqiy eritmadagi zarrachalarning o'lchamlari esa 1 nm dan kichik, dag'al dispers sistema hisoblanuvchi suspenziya (qattiq jism zarrachalarining suyuqlikda tarqalishidan hosil bo'lgan sistema) va emulsiyalarning (suyuqlik zarrachalarining suyuqlikda tarqalishidan hosil bo'lgan sistemalarning) zarracha o'lchamlari 100 nm dan katta bo'ladi.

Kolloidlar dispers fazaning dispersion muhitga munosabatiga ko'ra ikki turga bo'linadi liofil va liofob. Agar dispers faza dispersion muhitda erisa — liofil, erimasa — liofob kolloid sistema hisoblanadi. Suvda eriydigan tuzlar, oksidlar, asoslar va nodir metallarning suvdagi dispers sistemalari gidrofob kolloid sistemalar hisoblanadilar. Polimerlarning eritmalari liofil kolloid sistemadir. Shuning uchun polimerlarning eritmalarini o'rganishda kolloid kimyo muhim o'r'in tutadi. Suvda eriydigan polimerlar tuproqqa yutilganda tuproqning dispersligi kattalashadi, natijada tuproqning unumдорлиги ortadi. Bu sohada akademik K.S.Axmedov rahbarligida O'zbekistonda olib borilgan nazariy va amaliy izlanishlar xalq xo'jaligida muhim ahamiyatiga egadir.

Kolloid sistemalardagi dispers zarrachalar sferik, silindr, ko'pincha nomuntazam shakllarda bo'ladi. Dispers zarrachani eng sodda holda barqa yoqlarining (a) uzunliklari o'zaro teng muntazam parallelepiped deb, tasvirlash mumkin. Dispers sistemaning disperslilik darajasi ( $D$ ) deganda, dispers zarrachanining o'lchami — a ga teskari qiymat  $D = 1/a$  tushuniladi. Bu o'rinda ko'pincha yana uchinchi atama — solishtirma sirt  $S_{sol}$ . tushunchasi ham ishlataladi. U quyidagieha ta'riflanadi: fazalararo

sirtkattaligi  $S$  ning faza hajmi  $V$  ga nisbati shu fazaning solishtirma sirti deb ataladi:

$$S_{\text{sol}} = \frac{S}{V} \quad (1.8)$$

Bu uch xususiyat ( $a$ ,  $1/a$ ,  $S_{\text{sol}}$ ) o'zaro chambarchas bog'langan. Agar a kichraysia,  $1/a$  va  $S_{\text{sol}}$  kattalashadi. Disperslik darajasining kattalashishi sistemada sirt hodisalari ahamiyatini oshiradi. Shunday qilib, kolloid sistemalarning miqdoriy belgisi disperslik darajasi bo'lib, uning sifat belgisi geterogenlikdir. Bu ikkala belgi sirt hodisalar bilan chambarchas bog'liq. Geterogenlikning, binobarin, fazalararo sirtni mavjudligi sirt taranglik borligidan darak beradi. Sirt taranglik ayni sistemaning geterogenlik darajasini harakterlaydi: bir-biriga tegib turgan ikkala faza geterogenlik jihatidan o'zaro qancha ko'p farq qilsa, fazalararo sirt taranglik shuncha katta qiymatga ega bo'ladi. Fazalararo sirt yuzasining sirt taranglik koefitsiyentiga ko'paytmasi sirtning erkin energiyasi qiymatini ko'rsatadi:

$$A = \sigma \cdot S \quad (2.8)$$

bu yerda,  $\sigma$  — sirtni 1  $\text{sm}^2$  ga kattalashtirish uchun sarflanadigan ish bo'lib, u sirt taranglik koefitsiyenti deb ataladi.

Kolloid kimyo, yuqori molekular va yuqori dispersli, ya'ni o'ta maydalangan holatga ega bo'lgan fazali dispers sistemalarning xossalarni o'rganadi. Dispers sistemalar geterogen (ko'p jinsli) sistemalardir va o'ta yuqori sirtga ega bo'ladi, shuning uchun ham bunday sistemalarda sirt hodisalari amaliy ahamiyatga ega.

Solishtirma yuza ( $S_{\text{sol}}$ ) — umumiy hajmi 1  $\text{sm}^3$  ni tashkil etadigan moddaning hamma zarrachalari yuzasining yigindisidir. Agar zarrachalarning qirralari 1  $\text{sm}$  bo'lgan kub shaklida deb qabul qilinsa, unda solishtirma yuza:

$$S_{\text{sol}} = \frac{S}{V} = \frac{6\ell^2}{\ell} = \frac{6}{\ell} \text{ bo'ladi.} \quad (3.8)$$

Moddalar maydalanganda kub qirralari 0,001  $\text{sm}$  ga teng zarrachalari hosil bo'lsa:

$$S_{\text{sol}} = \frac{6}{0,001} = 6000 \text{ sm}^{-1} \text{ bo'ladi.}$$

Sharsimon shakldagi zarrachalar uchun:

$$S_{\text{sol}} = \frac{S}{V} = \frac{\frac{4\pi r}{4/3\pi r^3}}{r} = \frac{3}{r} \text{ bo'ladi.} \quad (4.8)$$

bu yerda,  $r$  — sharsimon zarrachalar radiusi. Modda maydalanaverilsa, zarrachalar soni tez oshadi, bir vaqtning o'zida umumiy va solishtirma

yuza ham ortadi hamda sistemada erkin yuza energiya zaxirasi ham ortadi.

### MISOLLAR YECHIMLARIDAN NAMUNALAR

**1-misol.** Qirralari  $\ell$  ga teng bo'lgan kubning solishtirma sirti hisoblansin.

$$\text{Yechish: } S_{\text{sol}} = \frac{S}{V} = \frac{6\ell^2}{\ell^3} = \frac{6}{\ell}$$

**2-misol.** Radiusi  $r$  ga teng bo'lgan sharning solishtirma sirti topilsin.

$$\text{Echish: } S_{\text{sol}} = \frac{S}{V} = \frac{4\pi r^2}{4/3\pi r^3} = \frac{3}{r}$$

**3-misol.** Moddani maydalaganda uning sirti kattalashadi. Bu hodisani sirtning ribojlanishi deb ataladi. 1 gramm oltingugurt maydalaniib, har qaysi tomonining uzunligi  $10^{-5}$  sm ga teng kublarga ajralgan bo'lsa, umumiy sirt yuzasi aniqlansin (oltingugurtning solishtirma massasi  $2,07 \text{ g/sm}^3$ ).

**Yechish 1.** Birinchi navbatda zarrachaning solishtirma sirti topiladi:

$$S_0 = \frac{S}{V}$$

bu yerda,  $S_{\text{sol}}$  — solishtirma sirti,  $S$  — zarracha sirti. Ko'rileyotgan misolda  $S = 6\ell^2$  ( $\ell$  — kubning qirrasi,  $\ell = 10^{-5} \text{ sm}$ ),  $V$  — zarracha hajmi. Bu yerda,  $V = \ell^3$  bo'lgani uchun:

$$S_{\text{sol}} = \frac{S}{V} = \frac{6\ell^2}{\ell^3} = \frac{6}{\ell} = \frac{6}{10^{-5}} = 6 \cdot 10^5 \text{ sm}^{-1}$$

1 g oltingugurt egallagan hajm topiladi:

$$V_0 = \frac{1}{2,07} = 0,4831 \text{ sm}^3$$

Endi umumiy sirt yuzasi topiladi:

$$S_{\text{um}} = 6 \cdot 10^5 \cdot 0,4831 = 2,9 \cdot 10^5 \text{ sm}^2 \text{ yoki } 29 \text{ m}^2.$$

Демак, umumiy sirt yuzasi  $29 \text{ m}^2$  ekan.

**4-misol.** Qalinligi (a) ga, ikki tomonining uzunligi B ga teng bo'lgan plyonkaning; uzun tomoni B ga, ikki qisqa tomonining har biri (a) ga teng bo'lgan to'sinning (brusok) va hamma tomonlari (a) ga teng bo'lgan kubning umumiy va solishtirma sirtlari topilsin.

**Yechish:** Plyonkada ikkita sirt bor. Shuning uchun uning umumiy sirti  $2 B^2$  ga, uning hajmi  $B^2 \cdot a$  ga teng. Bundan  $S_{\text{sol}}$  topiladi:

$$S_{\text{sol}} = \frac{S}{V} = \frac{2B^2}{B^2 \cdot a} = \frac{2}{a}$$

To'sining umumiy sirti  $4B \cdot a$  ga teng, hajmi  $B \cdot a^2$ ;  
Shu sababli:

$$S_{\text{sol}} = \frac{4B \cdot a}{B \cdot a^2} = \frac{4}{a}$$

Kubning umumiy sirti  $6 a^2$  ga teng; uning hajmi  $a^3$ , binobarin, solishtirma sirti:

$$S_{\text{sol}} = \frac{6a^2}{a^3} = \frac{6}{a} \quad \text{bo'ladi.}$$

**5-misol.** Hajmi  $1 \text{ sm}^3$  bo'lgan kubning umumiy va solishtirma sirtlari topilsin. Agar uning har qaysi tomoni  $10 \text{ ga}$  bo'linsa, umumiy va solishtirma sirtlari qanchaga teng bo'ladi?

**Yechish:** Hajmi  $1 \text{ sm}^3$  bo'lgan kubning har qaysi sirti  $1 \text{ sm}^2$  dan, hajmi  $6 \text{ sm}^2$  ga teng bo'ladi. Binobarin:

$$S_{\text{sol}} = \frac{6 \text{ sm}^2}{\text{sm}^3} = \frac{6}{\text{sm}} = 6 \text{ sm}^{-1}$$

Agar uni  $10 \text{ bo'lakka}$  bo'lsak, uning hajmi o'zgarmaydi, lekin uning sirti  $60 \text{ sm}^2$  bo'lib qoladi. Kubchalar soni  $1000$  ga yetadi. Hosil bo'lgan kubchalarni yana  $10 \text{ ga}$  (va bir necha marta  $10 \text{ ga}$ ) bo'linsa, quyidagi jadval kelib chiqadi:

**1 sm<sup>3</sup> jism maydalanganda umumiy va solishtirma sirtning ortishi**

Jadval

Kubning qirrasi, sm	Kublar soni donalar	Umumiy sirt, sm <sup>3</sup>	Solishtirma sirt, sm <sup>-1</sup>
1	1	6	6
10 <sup>-1</sup>	10 <sup>3</sup>	6 10	60
10 <sup>-2</sup>	10 <sup>6</sup>	6 10 <sup>2</sup>	600
10 <sup>-3</sup>	10 <sup>9</sup>	6 10 <sup>3</sup>	6000
10 <sup>-4</sup>	10 <sup>12</sup>	6 10 <sup>4</sup>	60000
10 <sup>-7</sup>	10 <sup>21</sup>	6 10 <sup>7</sup>	6 · 10 <sup>-7</sup>

**6-misol.** Qirrasining uzunligi  $8 \cdot 10^{-6}$  sm li to'g'ri kublar shaklida maydalangan  $0,2 \text{ sm}^3$  simobdagagi zarrachalar sonini aniqlang. Simobning zichligi  $13,546 \text{ g/sm}^3$  ga teng.

Yechish. a)  $0,2 \text{ sm}^3$  simob massasi topiladi:  $M_{Hg} = 0,2 \cdot 13,546 = 2,709 \text{ g}$ .

b) bitta zarracha hajmi aniqlanadi:  $V = \ell^3 = (8 \cdot 10^{-6})^3 = 5,12 \cdot 10^{-16} \text{ sm}^3$

d) bitta zarracha massasi:  $5,12 \cdot 10^{-16} \cdot 13,546 = 6,94 \cdot 10^{-15} \text{ g}$  bo'ladi.

e) zarrachalar soni esa:

$$N = \frac{2,709}{6,94 \cdot 10^{-15}} = 3,9 \cdot 10^{14} \text{ bo'ladi.}$$

**7-misol.**  $10^6 \text{C}$  da konsentratsiyasi  $50 \text{ mg/l}$  ga teng bo'lgan pelargon ( $C_8H_{17}COOH$ ) kislotasining solishtirma adsorbsiyasi ( $\text{kmol/m}^2$  da) topilsin. Shu haroratda suvning sirt tarangligi  $74,22 \cdot 10^{-3} \text{ H/m}$  ga, berilgan kislota eritmasiniki esa –  $57,0 \cdot 10^{-3} \text{ H/m}$  ga teng.

Yechish: Bu yerda quyidagicha formula  $\Gamma = -\frac{C_2}{RT} \left( \frac{\sigma_2 - \sigma_1}{C_2 - C_1} \right)$

qo'llaniladi. Konsentratsiyani  $\text{kmol / m}^3$  bilan ifodalanadi.

$$M_{K-ta} = 158$$

Eritmaning 1 l da  $0,05 \text{ g}$  kislota bo'ladi. Bu eritmaning  $1 \text{ m}^3$  da esa  $0,05 \text{ kg}$  kislota bo'ladi, ya'ni  $\frac{0,05}{158} \text{ kmol/m}^3 C_1 = 0$  unda:

$$\Gamma = - \frac{0,05}{158 \cdot 8,313 \cdot 10^3 \cdot 283} \left( \frac{57 \cdot 10^{-3} - 74,22 \cdot 10^{-3}}{0,05/158} \right);$$

$$\Gamma = - \frac{(-17,22) \cdot 10^{-3}}{8,313 \cdot 10^3 \cdot 283} = 7,318 \cdot 10^{-9} \text{ kmol/m}^2$$

$\Gamma > 0$  bo'lgani va  $\sigma_2 < \sigma_1$  bo'lgani uchun, adsorbsiya musbatdir.

### MUSTAQIL YECHISH UCHUN MASALALAR

1. Platina metali zarrachalarini qirralarining uzunligi  $10^{-6}$  sm bo'lgan kubchalarga maydalangan. Platina metalining zichligi 22,4 g/sm<sup>3</sup>. Maydalangan 2g platina zarrachalarining umumiy yuzasini hisoblang.

Javobi: 56,08 m<sup>2</sup>.

2. Oltin metali qirrachasining uzunligi  $5 \cdot 10^{-7}$  sm bo'lgan kubchalarga maydalangan. Oltin metalning zichligi 19,3 g/sm<sup>3</sup>. Maydalangan 1 g oltin zarrachalarining umumiy yuzasini hisoblang.

Javobi: 62,18 m<sup>2</sup>.

3. Simob zoli diametri  $6 \cdot 10^{-6}$  sm bo'lgan sharsimon shaklli zarrachalardan tarkib topgan. 0,5 sm<sup>3</sup> simobdan hosil bo'lgan zarrachalarning yuzasi nimaga teng bo'ladi?

Javobi: 50 m<sup>2</sup>.

4. Kumushning kolloid eritmasida har bir zarracha kub shaklida bo'lib, qirrasining uzunligi  $4 \cdot 10^{-6}$  sm va zichligi 10,5 g/sm<sup>3</sup> ekanligini bilgan holda: a) 0,1 g kumushdan qancha kolloid zarracha hosil bo'lishini; b) hamma kumush zarrachalarining umumiy yuzasi nimaga teng bo'lishini hisoblang.

Javobi: a)  $1,488 \cdot 10^{14}$  zarracha; b) 1,429 m<sup>2</sup>.

5. Simob zoli diametri  $6 \cdot 10^{-6}$  sm bo'lgan sharsimon shaklli zarrachalardan tarkib topgan. a) zarrachalarning umumiy sirt yuzasini; b) Eritmada lg simob maydalanganda hosil bo'ladigan zarrachalarning umumiy soni nimaga tengligini hisoblang. Simobning zichligi 13,546 g/sm<sup>3</sup>.

Javobi: a) 7,381 m<sup>2</sup>; b)  $6,53 \cdot 10^{14}$  zarracha.

6. Zichligi 1932 kg/m<sup>2</sup> bo'lgan  $2 \cdot 10^{-3}$  kg maxsus oltin tegirmونчада maydalanimib ezilsa, qirrachasining uzunligi  $10^{-8}$  m li kulbachalar hosil bo'ladi. Bu zarrachalarning umumiy sirt yuzasini hisoblang.

Javobi: 621,12 m<sup>2</sup>.

7. Kamforaning kolloid eritmasi  $1 \text{ sm}^3$  da  $200 \text{ mln.}$  diametri  $10^{-4} \text{ sm}$  ga yaqin bo'lgan kamfora sharchalaridan tashkil topgan. Shunday eritmaning  $200 \text{ sm}^3$  dagi kamfora zarrachalarining umumiy sirt yuzasini hisoblang.

Javobi:  $0,1256 \text{ m}^2$ .

8. Quiydagi ma'lumotlarga asoslanib,  $20^\circ\text{C}$  da fenolning suvdagi kolloid eritmasidagi dispers fazaning sirt yuzni hisoblang ( $\text{K mol/m}^2$ ).

Fenol konsentratsiyasi,  $\text{K mol/m}^2$        $0,0156$        $0,0625$

Sirt taranglik,  $\text{n/m}$                            $58,2 \cdot 10^{-3}$        $43,3 \cdot 10^{-3}$

$20^\circ\text{C}$  da suvning sirt tarangligi       $72,75 \cdot 10^{-3} \text{ n/m}$       ga teng.

Javobi:  $\Gamma_1 = 5,973 \cdot 10^{-9} \text{ K mol/m}^2$ ;

$\Gamma_2 = 1,209 \cdot 10^{-8} \text{ K mol/m}^2$ .

9.  $18^\circ\text{C}$  da  $20\%$  li sulfat kislotaning sirt tarangligi  $75,2 \cdot 10^{-3} \text{ n/m}$  ga tengligini bilgan holda, shu konsentratsiya va shu haroratdagi kislotan eritmasining sirt tarangligini hisoblang ( $\text{K mol/m}^2$ ). Suvning shu haroratdagi sirt tarangligi  $73,05 \cdot 10^{-3} \text{ n/m}$  ga teng.  $20\%$  li sulfat kislotaning zichligi  $1,143 \text{ g/sm}^3$ .

Javobi:  $G = -8,886 \cdot 10^{-10} \text{ K mol/m}^2$ .

10.  $20^\circ\text{C}$  da  $20\%$  li o'yuvchi natriy eritmasining sirt tarangligi  $85,8 \cdot 10^{-3} \text{ n/m}$  ga tengligini bilgan holda, shu konsentratsiya va shu haroratdagi ishqor eritmasining sirt tarangligini hisoblang ( $\text{kmol/m}^2$ ) va uning zaryad belgisini aniqlang.  $20^\circ\text{C}$  da suvning sirt tarangligi  $72,75 \cdot 10^{-3} \text{ n/m}$  ga teng.  $20\%$  li o'yuvchi natriy eritmasining zichligi  $1,219 \text{ g/sm}^3$  ga teng.

Javobi:  $-5,346 \cdot 10^{-9} \text{ kmol/m}^2$ .

## IX bob. KOLLOID SISTEMALARING ELEKTROKINETIK ASSOSLARI

Kolloid zarrachalarning sirti katta bo'lganligi uchun ionlar ularga oson yopishadi, ya'ni adsorblanadi. Adsorbilangan shu ionlar kolloid eritmalarining barqarorligiga ta'sir etadi. Kolloid eritma ichidagi barcha Zarrachalar bir xil musbat yoki mansiy zaryadga ega bo'lib, bu zarrachalar bir-biridan qochadi, bu esa kolloid eritmani barqaror bo'lishiga olib keladi. Zaryadlangan kolloid zarracha sirti eritmadan qarama-qarshi zaryadli ionlarni tortib olishga intiladi, natijada zarracha bilan suyuqlik orasida xuddi kondensatordagi kabi, qarama-qarshi zaryadli ionlar qavati, ya'ni qo'sh elektr qavat vujudga keladi.

Suyuqlik qattiq zarrachaga nisbatan (yoki zarracha suyuqlikka nisbatan) harakat qilganida qo'sh elektr qavatning adsorbsion va diffuzion qavatlari chegarasida hosil bo'ladijan potensial, elektrokinetik potensial deyiladi. U ҳарфи bilan belgilanadi va dzeta-potensial deb yuritiladi.

Elektrokinetik potensialdan tashqari yana termodinamik potensial degan tushuncha ham kiritilgan; termodinamik potensial qattiq zarracha sirti bilan suyuqlik o'rtaсидаги umumiy potensialлар ayirmasini ko'rsatadi.

Kolloid zarrachalarning tashqi o'zgarmas elektr maydoni ta'sirida harakat qilish hodisasi elektroforez yoki kataforez deyiladi. Elektroforez usulida kolloid zarrachalarning zaryadlarini aniqlash mumkin.

Suyuqlikning elektr maydonida g'ovak jism (diafragma) orqali elektrodlar tomon harakat qilishi elektroosmos deyiladi. Elektroosmos yo'naliishiga qarab, suyuqlik zaryadi ishorasini aniqlash mumkin. Elektroosmos hodisasidan foydalanib oqava suvlarni tozalash usuli topilgan.

Elektroforezda zarrachalarning harakati yo'naliishiga qarab, uning zaryadi ishorasini va elektrkinetik potensialining qiymatini aniqlash mumkin. Kolloid zollarining barqarorligi elektrkinetik (dzeta) potensial qiymatiga bog'liq bo'lib, silindr shaklidagi zarrachalar uchun quyidagicha aniqlanadi:

$$Q = \frac{4 \pi \eta \cdot u}{EH} \quad (1.9)$$

bunda,  $\eta$  - muhit qovushqoqligi;  $u$  -- zarrachalarning elektroforezdagi

tezligi;  $\epsilon$  – dielektrik doimiylik (o'tkazuvchanlik);  $H$  – potensial gradiyenti (berilgan potensiallar ayirmasi  $E$  ning  $t$  ga nisbati).

Potensial gradiyentini aniqlash uchun EYUK ( $E$ ) qiymatini elektrodlar orasidagi masofa ( $t$ ) ga bo'linadi:

$$H = \frac{E}{t} \quad (2.9)$$

(1.9) formuladan silindr shaklidagi zarrachalarning elektrokinetik potensial qiymatini va potensiallar gradiyenti hisoblanadi.

Sfera shaklidagi zarrachalarning elektrokinetik potensiali quiydagi formula bilan hisoblanadi:

$$Q = \frac{6 \pi \eta u}{\epsilon H} \quad (3.9)$$

Kolloid zollari zarrachalarining elektrokinetik potensiali elektrolitlarning konsentratsiyasi va ularning ion zaryadiga bog'liq bo'ladi. Elektrolit konsentratsiyasi qancha yuqori bo'lsa, ikki elektr qatlami diffuzion qavat shuncha yupqa va muvofiq ravishda elektrokinetik potensiali ham kichik bo'ladi. Agar diffuzion qavatdagi ionlar adsorbsion qavatga o'tib ketsa, u holda dzeta potensial qiymati nolga teng bo'ladi.

Elektroforez usulidan foydalanim, sharsimon kolloid sistemalarning dzeta-potensialini aniqlash mumkin. Dzeta-potensialini hisoblab topish uchun quiydagi formuladan foydalansa bo'ladi:

$$4 \pi \eta u t$$

$$\xi = \frac{---}{\xi E}$$

bu yerda,  $\xi$  – dzeta-potensial;

$\eta$  – suyuqlikning qovushqoqligi,

$t$  – kolloid zarrachaning elektroforez tezligi;

$E$  – elektrod potensiallari ayirmasi;

$t$  – ikki elektrodlar orasidagi masofa;

$\xi$  – suyuqlikning dielektrik doimiysi.

Bu formula Gelmgols-Smoluxovskiy formulasi nomi bilan yuritiladi.

Kolloid zarracha – kolloid dispers holatdagi oz eriydigan moddadani iborat yadro bo'lib, bu yadroga suyuqlikdagi elektrolit ionlari adsorbilanadi. Elektrolit ionlari zolni barqaror qilib turadi, shuning uchun ham bu elektrolit ionli stabilizator deyiladi. Demak, kolloid zarracha atrofida ionlar adsorblangan yadrodan iborat kompleksdir. Zarrachaning yadrosi juda ko'p atom yoki molekulalardan iborat neytral modda bo'lib, uni ionlar qurshab turadi. Yadro va unga adsorblangan ionlar birgalikda


granula yoki kolloid zarracha deyiladi. Granula ma'lum zaryadga ega bo'lgani uchun uning atrofida qarama-qarshi zaryadli ionlar yigindisi vujudga keladi; lekin bu ionlar zarrachaga zafiroq tortilib turadi va dispersiyaviy muhitning bir qismini tashkil qiladi. Granula va uning atrofidagi qarama-qarshi zaryadli ionlardan iborat sistema mitsella deyiladi. Mitsella elektroneutral bo'ladi. Uni qurshab olgan suyuqlik intermitsellar suyuqlik deyiladi. Bu ta'riflarni quyidagicha qisqacha sxema shaklida yozish mumkin:

Granula = yadro + adsorbsiyaviy qavat,

Mitsella = granula + qarama-qarshi zaryadli ionlar,

Zol = mitsella + intermitsellar suyuqlik.

Yoki:




Misol tariqasida temir (III)-gidroksid zolini ko'rib chiqamiz. Bu zolini hosil qilish uchun temir (III) – xlorid eritmasi issiq holatda gidroliz qilinadi. Reaksiyani olib borishda ikki shartga rioya qilish kerak:

1-mayda kristallar hosil bo'lishi uchun reaksiya suyultirilgan eritmalarida o'tkaziladi,

2-elektr qavat hosil bo'lishi uchun reaksiyaga kirishuvchi moddalaridan biri ko'p miqdorda olinadi. Gidroliz reaksiyasi quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:




$\text{Fe(OH)}_3$  ning sirdagi molekulalari  $\text{HCl}$  bilan reaksiyaga kirishib, ionli stabillovchi  $\text{FeOCl}$  molekulalarini hosil qiladi:



$\text{FeOCl}$  molekulalari dissotsialanib,  $\text{FeO}^+$  va  $\text{Cl}^-$  ionlarni hosil qiladi:



Tarkibi jihatdan kolloid yadro tarkibiga yaqin bo'lgan ionlar kolloid zarrachalar sirtiga adsorblanadi degan empirik qoidadan foydalanib, temir (III)-gidroksid zolining tuzilishini quyidagicha shaklda yozish mumkin:



Endi mansiy zaryadli zol sifatida  $\text{As}_2\text{S}_3$  zolini ko'rib chiqamiz. Bu zolni hosil qilish uchun arsenit kislotaga  $\text{H}_2\text{S}$  ta'sir ettirish kerak; sodir bo'ladijan reaksiya quyidagicha tenglama bilan ifodalanadi:



Eritmada ortiqcha miqdorda bo'lgan  $\text{H}_2\text{S}$  bu sistemada ionli stabillovchi rolini o'ynaydi.  $\text{H}_2\text{S}$  ionlarga dissotsialanadi:



Bu ionlardan  $\text{HS}^-$  ionlari (empirik qoidaga muvofiq) mitsellaning yadrosi  $\text{As}_2\text{S}_3$  ga adsorblanadi, Shuning uchun bu sistemada:

{  $m[As_2S_3] \cdot nHS^-$  - yadro,  $\{m[As_2S_3] \cdot nHS^-\}^-(n-x)N^+$  - granula,  $\{m[As_2S_3] \cdot nHS^-\}^-(n-x)H^+ + xH^+$  - mitselladir.

Endi,  $AgBr$  zolining tuzilishi bilan tanishib chiqamiz. Agar  $AgNO_3$  eritmasiga ortiqcha miqdorda  $KBr$  qo'shilsa, ionli stabillovchi vazifasini  $KBr$  o'taydi va granula mansiy zaryadlanadi, chunki bu vaqtida  $Br^-$  ionlari adsorblanadi; bu yerda:

$m(AgBr)$  - yadro,  $\{m[AgBr] \cdot nBr^-(n-x)K^+\}^-$  - granula,  $\{m[AgBr] \cdot nBr^-(n-x)K^+\}^- + xK^+$  - mitselladir.

Agar  $AgNO_3$  ortiqcha bo'lsa, ionli stabillovchi vazifasini  $AgNO_3$  bajaradi; granula musbat zaryadli bo'ladi; bu sistemada:

$[AgBr]$  - yadro,  $\{m[AgBr] \cdot nAg^+(n-x)NO_3^-\}^+$  - granula,  $\{m[AgBr], nAg^+, (n-x)NO_3^-\}^+ + xNO_3^-$  - mitsella.

### MASALALAR YECHIMLARIDAN NAMUNALAR

**1-misol.** Elektroforez asbobidagi elektrodlar bir-biridan 0,2 m uzoqligda joylashtirilgan bo'lib, ularni potensial farqi 240 B ga teng. Muhit qovushqoqligi 0,001 N sek/m<sup>2</sup>, dielektrik konstanta 81 ga teng. Zol zarrachalar silindr shaklida, deb faraz qilib, zarrachasining potensiali 89,5mB ga teng bo'lgan  $Al_2S_3$  zolining elektroforez vaqtidagi harakat tezligi aniqlansin.

**Berilgan:**  $L = 89,5mB = 0,0895B$ ;  $t = 0,2m$ ;  $E = 240B$ ;  $\epsilon = 81$ ;  $\eta = 0,001 N \cdot sek/m^2$ .

**Noma'lum:**  $u = ?$

**Yechish:**  $u = \frac{1 \cdot E \cdot t}{4\pi\eta}$  dan zarrachalarning harakat tezligini hisoblab.

so'ng gradiyent potensiali topiladi:

$$1. H = \frac{\Delta E}{t} = \frac{240}{0,2} = 1200 \text{ B/m};$$

$$2. u = \frac{LH\epsilon}{4\pi\eta} = \frac{0,0895 \cdot 81 \cdot 1200}{4 \cdot 3,14 \cdot 0,001} = \frac{1}{9 \cdot 10^9} = 7,697 \cdot 10^{-5} \text{ m/sek.}$$

$\frac{1}{9 \cdot 10^9}$  - CU dagi dielektrik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti.

**2-misol.** Kumush yodid zolini hosil qilish uchun 20 ml 0,01 n.li kalyiy yodid eritmasini 10 ml 0,005 n li kumush nitrat eritmasi bilan aralashtiriladi. Hosil bo'lgan zolning mitsella formulasini yozing.

**Yechish:** Hosil qilingan kumush yodid zolining reaksiya tenglamasi:



Mitsella tuzilishi, qaysi modda ko'p olinganligiga bog'liq bo'ladi.

10 ml 0,005 n li eritmada kumush nitrat massasi topiladi:

$$[\text{Mr}(\text{AgNO}_3) = 170];$$

$$1000 \text{ ml} : 170 \cdot 0,005 \text{ g Ag NO}_3 = 10 \text{ ml} : m \text{AgNO}_3;$$

$$m_{\text{AgNO}_3} = \frac{10 \cdot 170 \cdot 0,005}{1000} = 0,0085 \text{ g.}$$

20 ml 0,01 n.li eritmada kalyiy yodid  $[\text{Mr}(\text{KCl})=166]$  massasi topiladi:

$$1000 \text{ ml} : 166 \cdot 0,01 \text{ g KI} = 20 \text{ ml} : m \text{ g KI}$$

$$m_{\text{KI}} = \frac{20 \cdot 166 \cdot 0,01}{1000} = 0,0332 \text{ g}$$

0,0085 g kumush nitrat bilan bog'lana oladigan kalyiy yodidning massasi topiladi:

$$m_{\text{KI}} = \frac{0,0085 \cdot 166}{170} = 0,0073 \text{ g}$$

Demak, eritmada KI ko'p miqdorda ekan, shuning uchun mitsella yadrosiga yod ionlari adsorbsionladi. Unda mitsellaning formulasi:

$$[m(\text{AgI})n\text{J}^-(n-x)\text{K}^+]^{x-} \times \text{K}^+ \text{ ko'rinishda bo'ladi.}$$

**3-misol.** Kumush xlориднинг колloid ертмасини hosil qilish uchun  $25 \text{ sm}^3$  0,02 n li KCl ертмаси  $125 \text{ sm}^3$  0,005 n li  $\text{AgNO}_3$  ертмаси bilan aralashtiriladi. Hosil qilingan zolning yadrosi, granula va mitsellasining formulalarini yozing.

**Yechish:** Eritmalardan qaysi biri ko'p miqdorda ekanligi aniqlanadi. KCl ning mg-ekv. miqdori =  $25 \cdot 0,02 = 0,05 \text{ mg-ekv.}$

$\text{AgNO}_3$  ning mg-ekv. miqdori =  $125 \cdot 0,005 = 0,625 \text{ mg-ekv.}$

Reaksiya uchun 0,5 mg-ekv. KCl ga 0,5 mg-ekv.  $\text{AgNO}_3$  kerak bo'ladi. Demak,  $\text{AgNO}_3$  ko'p olingan.

Bu misolda:  $m[\text{AgCl}]$  — kolloid zarracha yadrosi

$\{m[\text{AgCl}] \text{ n Ag}^+ (n-x) \text{NO}_3^- \}^+$  — granula,

$\{ m[\text{AgCl}] \text{ n Ag}^+ (n-x) \text{NO}_3^- \}^+ + x\text{NO}_3^-$  — mitselladir.

Agar qisqa shaklda yozilsa, mitsellaning formulasi quyidagicha bo'ladi:



**4-misol.** Loy gidrozoli zarrachalarining elektr kinetikaviy potensiali 48,8 mB ga teng. Elektrodlarga berilgan tashqi potensiallar ayirmasi 220 B.

Elektrodlararo masofa 44 sm. Zolning qovushqoqligi  $10^{-3}$  Pa·s, dielektrik konstantasi  $\epsilon = 81$ . Zarrachalar sferik shaklga ega. Elektroforez tezligi topilsin.

$$\frac{6\pi\eta u}{HE}$$

**Yechish.** Masalani yechish uchun  $\xi = \frac{6\pi\eta u}{HE}$  va  $H = E/t$  formulalardan foydalanoladi:

$$H - E/t = 220/0,44 = 500 \text{ B/M.}$$

So'ngra u hisoblanadi:

$$u = \frac{\xi H \epsilon}{6\pi\eta} = \frac{81500 \cdot 0,048}{6 \cdot 3,14 \cdot 0,001} \cdot \frac{1}{9 \cdot 10^9} = 1,165 \cdot 10^{-5} \text{ m/s}$$

(bu yerda,  $\frac{1}{9 \cdot 10^9}$  – elektrik konstanta, ya'ni  $E_0$  ning qiymati).

**5-misol.**  $\text{As}_2\text{S}_3$  zolining zarrachalari 10 minut ichida 14,36 mm yo'l bosgan. Tashqi potensiallar ayirmasi 240 B. Zarrachalar silindrik shaklga ega. Elektrodlararo masofa 30 sm. Muhitning dielektrik konstantasi 81; suspenziyaning qovushqoqligi  $1,005 \cdot 10^{-3}$  Pa·s; dzeta-potensial topilsin.

**Yechish:**  $H = \epsilon / t$  asosida N topiladi:

$$N = 240 / 0,30 = 800 \text{ B/M.} \quad \xi = \frac{4\pi\eta u}{\epsilon H} \text{ dan foydalanoladi.}$$

$$u = 14,36 (1000 \cdot 10 \cdot 60 = 2,4 \cdot 10^{-5} \text{ M/S}; \quad \eta = 1,005 \cdot 10^{-3} \text{ Pa s.})$$

$$\epsilon = 81 : 9 \cdot 10^9 \text{ f/m; } N = 800 \text{ B/M.}$$

$$E = \frac{4\pi\eta u}{\epsilon H} = \frac{4 \cdot 3,14 \cdot 1,005 \cdot 10^{-3} \cdot 2,4 \cdot 10^{-5} \cdot 9 \cdot 10^{-9}}{81 \cdot 800} = 41,95 \text{ mB.}$$

**MUSTAQIL ISHLASH UCHUN MISOL  
VA MASALALAR**

1)  $\text{Fe}(\text{ON})_3$ ,  $\text{H}_2\text{SiO}_3$ ,  $\text{As}_2\text{S}_3$  va teng hajmda olingen musbat hamda manfiy zaryadli kumush yodid zollarining zarrachalari elektr maydonida qaysi qutbga yo'naladi?

2) Potensiali 48,8 mB bo'lgan tuproq zarrachalarining elektroforez vaqtidagi elektrod potensialining farqi 22 B ga teng. Elektrodlar bir-biridan 0,44 m uzoqlikda joylashtirilgan. Muhit qovushqoqligi 0,001 N.sek/m<sup>2</sup>, dielektrik o'tkazuvchanligi 81 ga teng. Tuproq zolining zarrachalari sfera shakliga ega deb faraz qilib, elektroforez paytidagi zarrachalarning harakat tezliklarini aniqlang.

Javobi:  $1,666 \cdot 10^{-5}$  m/sek.

3) Muhit qovushqoqligi 0,00114 n sek/m<sup>2</sup>, dielektrik o'tkazuvchanligi 81 ga teng. Zarrachalarni silindr shaklida deb faraz qilib, gradiyent potensiali 1000 B/M, zarracha potensiali 58 mB bo'lgan zoli zarrachalarining elektroforez vaqtidagi harakat tezligini aniqlang.

Javobi:  $3,646 \cdot 10^{-5}$  m/sek.

4) Suyultirilgan kaliy bromid eritmasining ko'p miqdordagi kumush nitrat eritmasi bilan ta'sirlashuvidan hosil bo'lgan kumush bromid zolining mitsella formulasini yozing.

5) 10 ml 0,0001 n bariy xlorid eritmasi bilan shuncha hajmdagi 0,001 n sulfat kislota eritmasi bilan ta'sirlashuvidan hosil bo'lgan bariy sulfat zolining mitsella formulasini yozing.

6) Kumush xloridning manfiy zaryadli zolini olish uchun 25 ml 0,0016 n KCl eritmasiga qanday hajmdagi 0,005 n kumush nitrat eritmasini qo'shish kerak? Zolning mitsella tuzilishini yozing.

7) Sariq qon tuzi  $\text{K}_4[\text{Fe}(\text{CN})_6]$  eritmasiga ko'p miqdordagi temir (III) – xlorid eritmasini qo'shish yo'li bilan hosil qilingan berlin lazuri zolining mitsella formulasini yozing.

8) O'zarlo teng og'irlik konsentratsiyasiga ega bo'lgan 2 ta zol bor. Birinchisida dispers fazasi zarrachalarining o'lchami  $10^{-6}$  sm ga, ikkinchisini  $10^{-7}$  sm ga teng. Qaysi zolda osmos bosimi ko'proq va necha marta?

9) Bir xil og'irlik konsentratsiyaga va bir xil sharoitga, ammo disperslik darajasi har xil bo'lgan ikkita zolning osmos bosimini solishtiring: birinchi zoldagi zarrachalar radiusi  $30 \cdot 10^{-7}$  sm ga, ikkinchisini esa  $60 \cdot 10^{-7}$  sm ga teng.

10) Stannat kislota xlorid kislota bilan peptizatsiyaga uchraganda qisman quyidagicha reaksiyaga uchraydi:



Hosil bo'lgan kaliy oksixloridi quyidagicha dissotsialanadi:



Elektroforez usulida aniqlanishicha, stannat kislota zolining granulari mansiy qutb tomon siljiydi. Stannat kislotaning mitsella sxemasini yozing.

11) Nefelometr yordamida 0,245 %li kumush yodidning standart zoli, konsentratsiyasi noma'lum bo'lgan boshqa kumush yodid zoli bilan solishtirildi. Quyidagicha eksperiment ma'lumotlari olindi:  $h_1 = 5,0$ ;  $h_2 = 10,0$ . Tekshirilgan kumush yodid zolining konsentratsiyasi aniqlansin.

12) 0,02 l 0,01 n·li KI eritmasiga 0,028 l 0,005 n kumush nitrat tuzi eritmasi qo'shib AgI zoli hosil qilingan. Bu zolning zarrachasi mustbat zaryadimi yoki mansiy zaryadimi? Shu kolloid sistema mitsellasing formulasini yozing.

13)  $\text{AlCl}_3$  tuzi eritmasiga ko'p miqdorda vodorod sulfid yuborib,  $\text{Al}_2\text{S}_3$  ning zoli hosil qilingan. Reaksiya sharoitini nazarga olib, hosil bo'lgan zol mitsellasing zaryadi qanday ishorali ekanligini aniqlang, uning tuzilish sxemasini yozing.

14) 0,008 N KBr va 0,009 N  $\text{AgNO}_3$  eritmalaridan teng hajmda aralashtirish natijasida kumush bromid zoli hosil qilingan. Shu zol zarrachasining zaryadi va mitsellanering tuzilish formulasini yozing.

15)  $\text{Pb}(\text{NO}_3)_2$  ning 0,035 l 0,003 n eritmasiga 0,0025 M K $\mathcal{O}$  eritmasidan qancha qo'shilganida yodid zoli hosil bo'ladi? Shu zol mitsellasing formulasini yozing.

### X bob. KOAGULATSIYA HODISASI

Modda kolloid holatga o'tganida uning sirti juda ortib ketadi.

Shuning uchun kolloid eritmalarda dispers fazalar bilan dispersiyaviy muhit orasida chegara sirtning potensial energiyasi katta bo'ladi. Erkin energiya minimumga intiladi, kolloid eritma fazalar o'rtasidagi sirt energiyani kamaytirishga intiladi. Shu sababli, kolloid zarrachalar yiriklashib, umumiy sirtni kamaytiradi. Kolloid eritma zarrachalarining bir-biri bilan qo'shib, yiriklashish hodisasi koagulatsiya (koagullanish) deyiladi. Yiriklashgan zarrachalar og'irlik kuchi ta'siri ostida eritmaning yuqori qismlaridan past qismlariga tusha boshlaydi, nihoyat zarrachalar eritmadan ajraladi. O'z-o'zicha bo'ladiqan koagullanish ancha uzoq vaqt davom etadi. Koagulatsiyani turli vositalar yordamida tezlatish mumkin.

Koagullanish uch xil yo'l bilan: zolga elektrolit qo'shish, zolga boshqa kolloid qo'shish va zolni qizdirish yo'li bilan tezlashtiriladi. Kolloid kimyo sohasida dastlab ishlagan olimlar Selmi, Grem va Faradey metallarning gidrozollariga elektrolit qo'shilganida koagullanish ro'y berishini kuzatganlar. Faradey bu hodisani oltin gidrozolida kuzatgan. Elektrolit qo'shilganida vujudga keladigan koagullanishni mukammal o'rghanish quyidagi xulosalarga olib keladi:

1. Agar kolloid eritmaga har qanday elektrolitdan yetarli miqdorda qo'shilsa, koagullanish sodir bo'ladi. Koagullanish sodir bo'lganligini bevosita ko'rish mumkin bo'lsa, u ochiq koagullanish, ko'rish mumkin bo'lmasa, yashirin koagullanish deyiladi.

2. Ochiq koagullanish bo'lishi uchun elektrolit konsentratsiyasi koagulatsiya konsentratsiyasi (koagullanish chegarasi) qiymatidan ortiq bo'lishi kerak.

3. Koagullanishga elektrolitning faqat bir ioni (kolloid zarracha zaryadiga qarama-qarshi zaryadli ioni) sabab bo'ladi. Musbat zaryadli kolloidlar anionlar ta'siridan, manfiy zaryadli kolloidlar esa kationlar ta'siridan koagullanadi.

Ayni kolloidning koagullanish chegarasi birinchi navbatda koagulayotgan ion valentligiga bog'liq bo'ladi. Koagulayotgan ionning valentligi katta bo'lsa, uning koagullah xususiyati ham kuchli bo'ladi. Tajriba ko'rsatishicha, agar bir valentli kationning koagullah xususiyatini 1 desak, ikki valentli kationnniki taxminan 70, uch valentli kationnniki esa

taxminan 550 bo'ladi. Elektrolitning koagullanish konsentratsiyasi (koagullanish chegarasi) 11 zolga qo'shilgan elektrolitning milli mol miqdorlari bilan ifodalanadi.

Shulse va Gardi elektrolit ionining valentligi bilan uning koagullah kuchi orasidagi bog'liqlikni aniqlaganlar. Shulse-Gardi qoidasi deyiladi-gan bu bog'liqlik quyidagicha ta'riflanadi: koagullovchi ionning valentligi qancha katta bo'lsa, uning koagullah kuchi shuncha ko'p va koagullanish konsentratsiyasi kam bo'ladi.

Koagullanish sodir bo'lishining nazariy jihatdan eng sodda jarayonini quyidagicha tasavvur qilish mumkin: agar ikkita zarracha bir-biri bilan bir marta to'qnashgandayoq o'zaro birikib, yirikroq zarracha hosil qilsa, koagullanish tez koagullanish deyiladi va uning tezligi kolloid zarrachalarining broun harakati intensivligiga bog'liq bo'ladi, lekin qo'shiladigan koagullovchi elektrolit konsentratsiyasiga bog'liq emas. Agar koagullanish tezligi koagullovchi elektrolit konsentratsiyasiga bog'liq bo'lsa, bunday koagullanish sust koagullanish deyiladi. Tez koagullanish nazariyasi 1916-yilda M. Smoluxovskiy tomonidan yaratilgan.

Kolloid eritmalariga elektrolitlar aralashmasi qo'shilganda uch hol bo'lishi mumkin:

1. Bir elektrolitning koagullah qobiliyati ikkinchi elektrolitnikiga qo'shiladi. Bu hodisa elektrolit ta'sirining additivligi deyiladi.

2. Bir elektrolitga ikkinchi elektrolit qo'shilganda birinchi elektrolitning koagullanish ta'siri kuchayadi. Bu hodisa sensibilizatsiya deyiladi. Bunda zolga birinchi elektrolitdan  $C_{01}/2$  mmol/l qo'shilgan bo'lsa, koagullanishni vujudga keltirish uchun ikkinchi elektrolitdan  $C_{02}/2$  mmol/l emas, masalan,  $C_{02}/3$  mmol/l qo'shish kerak bo'ladi.

3. Bir elektrolitning koagullah ta'siri boshqa elektrolit qo'shilganda kamayadi. Bu hodisa antagonizm deb ataladi.

Kolloid eritmalariga elektrolitlar ta'siridan koagullanishini o'rGANISH natijasida kolloidlarning qayta zaryadlanish hodisasi aniqlandi. Biz bu hodisani platina zolining temir (III)-xlorid ta'siridan koagullanishi misolda ko'rib chiqamiz.

Platina gidrozoli mansiy zaryadli; uning tuzilishini quyidagicha tasvirlasa bo'ladi:



Ana shu zolga  $\text{FeCl}_3$  eritmaside qo'shib borilsa va uning konsentratsiyasi 0,0833 mmol/l dan kam bo'lsa, zolda koagullanish bo'lmaydi, u mansiy zaryadligicha qoladi. Agar qo'shilgan elektrolitning konsentratsiyasi 0,0833 mmol/l dan ortiq (masalan, 0,2222 mmol/l) bo'lsa, platina zoli batamom koagullanadi. Agar elektrolit konsentratsiyasi 0,3333 yoki


0,667 mmol/l bo'lsa, koagullanish umuman sodir bulmaydi, chunki bunday zol musbat zaryadlanib qoladi.

Kolloidlarning kolloidlar bilan koagullanishi (o'zaro koagullanish) ularning zaryadiga va konsentratsiyasiga bog'liq bo'ladi.

Masalan, AgIning musbat va manfiy zollari o'rtasida (ular ekvivalent miqdorida olinganda) bo'ladigan o'zaro koagullanishni quyidagi sxema bilan ko'rsatish mumkin:



Agar musbat zaryadli zoldan ortiq miqdorda qo'shilgan bo'lsa, zol musbat zaryadli bo'lib qoladi va koagullanmaydi:



Kolloid eritmaning loyqalanishi, keyinchalik cho'kmaga tushishi va zol rangining o'zgarishi koagullanish sodir bo'lganligining belgilari hisoblanadi. Zolni koagullanishga uchratish uchun kerak bo'ladigan elektrolitning minimal miqdori zolning koagullatsiya chegarasi deb atalaqaraz qilaylik elektrolitning dastlabki konsentratsiyasi C, uning koagullanishni paydo qilgan hajmi V bo'lsin. Unda ayni hajmdagi elektrolitning millimollar soni  $C \cdot V \cdot 1000/1000 = C \cdot V$  ga teng bo'ladi. Koagullanish chegarasi, odatda, 1 l zol uchun hisoblanadi. Agar tajriba uchun  $\omega$  ml zol olingen bo'lsa, zolning koagullanish chegarasi  $\gamma = S \cdot V \cdot 1000/\omega$  formula bilan hisoblab topiladi. Odatda, quyidagicha formuladan foydalaniladi:

$$\gamma = \frac{N \cdot V_{el} \cdot 1000}{V_{el} + \omega}$$

bu yerda, N – elektrolitning g.ekv./l lar bilan ifodalangan konsentratsiyasi;  $V_{el}$  – elektrolit eritmasining hajmi;  $\omega$  – zolning litrlar bilan ifodalangan hajmi;  $\gamma$  – elektrolitning koagullash chegarasi.

DLFO (Deryagin, Landau, Fervey, Overbek) nazariyasiga muvosiq Shulse-Gardi qoidasi quyidagicha nisbat ko'rinishini oladi:

$$\text{S}^+_{el} : \text{C}^{2+}_{el} : \text{C}^{3+}_{el} = 1 : \frac{1}{26} : \frac{1}{36} = 1 : \frac{1}{64} : \frac{1}{729}$$

yoki

$$\text{S}^+_{el} : \text{C}^{2+}_{el} : \text{C}^{3+}_{el} = 729 : 11 : 1 \text{ (mmol/l hisobida).}$$

Bu nisbat tajribada topilgan nisbatga yaqin keladi.

## MASALALAR YECHIMLARIDAN NAMUNALAR

**1-misol.** Mansiy zaryaglangan  $\text{As}_2\text{S}_3$  zoliga 0,0025 n.li  $\text{BaCl}_2$  tuzi eritmasi ta'sir ettirib koagullanishga uchratilganda 10 ml zol + 2,5 ml suv + 2,5 ml elektrolit eritmasi solingen probirkada koagullanish sezilmaydi, lekin uning yonidagi (10 ml zol + 3 ml elektrolit eritmasi + 2 ml suv) probirkada loyqalanish kuzatiladi. Shunga asoslanib  $\text{As}_2\text{S}_3$  zolining koagullanish chegarasi  $\gamma$  topilsin.

Yechish.  $\gamma = \frac{C \cdot V \cdot 1000}{\omega}$  fomuladan foydalilanildi, unda

$$\gamma = \frac{0,0025 \cdot 2,75 \cdot 1000}{10} = 0,7 \text{ mmol/l yoki } 7 \cdot 10^{-4} \text{ mol/l kelib}$$

chiqadi.

**2-misol.** Uchta kolbaning har biriga 0,01 l dan kumush xlorid zoli solingen. Kolbalardagi zollarni koagullah uchun birinchi kolbaga 1 n. li natriy nitrat  $\text{NaNO}_3$  dan 0,002 l, ikkinchi kolbaga 0,01 n.li  $\text{Ca}(\text{NO}_3)_2$  eritmasidan 0,012 l, uchinchi kolbaga 0,001 n.li  $\text{Al}(\text{NO}_3)_3$  eritmasidan 0,007 l qo'shilgan. Uchala kolbada ham koagullanish sodir bo'lgan. Elektrolitlar ta'sirida zollarning koagullanish chegaralari topilsin. Zol zarrachalari zaryadining ishorasi aniqlansin.

Yechish. Zolni koagullah uchun yetarli bo'lgan elektrolitning minimal konsentratsiyasi millimol/l yoki mg-ekv/l lar bilan ifodalanadi. Uni hisoblash uchun

$$\gamma = \frac{N \cdot V_{el} \cdot 1000}{V_{el} + \omega}$$

formuladan foydalilanildi. Ishlatilgan uchta elektrolit uchun  $\gamma$  larni quyidagicha hisoblanadi.

$$\text{NaNO}_3 \text{ uchun } \gamma = \frac{1 \cdot 0,002 \cdot 1000}{0,002 + 0,01} = \frac{2}{0,012} = 166,7 \text{ mg-ekv/l},$$

$$\text{Ca}(\text{NO}_3)_2 \text{ uchun } \gamma = \frac{0,01 \cdot 0,0012 \cdot 1000}{0,012 + 0,01} = \frac{0,12}{0,022} = 5,45 \text{ mg-ekv/l},$$

$$\text{Al}(\text{NO}_3)_3 \text{ uchun } \gamma = \frac{0,001 \cdot 0,007 \cdot 1000}{0,007 + 0,01} = \frac{0,007}{0,017} = 0,41 \text{ mg- ekv/l}.$$

Demak, zolni koagullah uchun  $\text{Al}(\text{NO}_3)_3$  dan eng kam miqdorda talab qilinadi. Ishlatilgan uchala elektrolit tarkibida bir xil anion  $\text{NO}_3^-$

va uch xil kation  $\text{Na}^+$ ,  $\text{Ca}^{2+}$ ,  $\text{Al}^{3+}$  borligini nazarda tutib, zol mitsel-lasining zaryadi manfiy ishorali, degan xulosaga kelinadi. Topilgan qiy-matlar orasidagi nisbat 1 : 11 : 407 ni tashkil etadi.

**3-misol.** Zarrachalari musbat ishoraga ega bo'lgan aluminiy gidroksid zolini koagullovchi  $\text{KNO}_3$  eritmasining minimal konsentratsiyasi (zolning koagullanish "chegarasi") 60,0 mmol/l ra teng bo'lsa,  $\text{K}_3[\text{Fe}(\text{CN})_6]$  eritmasi ta'siridan ana shu zolning koagullanish chegarasi topilsin.

Yechish. Koagullatsiyani vujudga keltiradigan ionning zaryad ishorasi zol zarrachasining zaryad ishorasiga qarama-qarshi bo'lishi kerak. Koagullovchi ionning zaryadi kattalashganida uning koagullah kuchi ortadi. Bir, ikki va uch zaryadli koagullovchi elektrolitlar ta'siridan zolning koagullanish chegaralari orasida quyidagicha nisbat bop:

$$\text{C}^+_{\text{el}} : \text{C}^{2+}_{\text{el}} : \text{C}^{3+}_{\text{el}} = 729 : 11 : 1$$

Binobarin,  $\text{K}_3[\text{Fe}(\text{CN})_6]$  ta'siridan zolning koagullanish chegarasi  $\text{KNO}_3$  ishlatalgan holdagidan 729 marta kichikdir:

$$\gamma = \frac{60,0}{729} = 0,082 \text{ mmol/l}$$

**4-misol.** Hajmi  $5 \cdot 10^{-3}$  l bo'lgan  $\text{Fe(OH)}_3$  zolini koagullah uchun 3 n. li  $\text{KCl}$  eritmasidan  $4 \cdot 10^{-3}$  l, 0,02 n. li kaliy sulfat eritmasidan  $0,5 \cdot 10^{-3}$  l, 0,0005 n. li kaliy ferrotsianid eritmasidan  $3,9 \cdot 10^{-3}$  l qo'shilgan. Shu koagulatorlarning koagullah xususyatini va bir-biriga nisbatan koagullah xossasining ustunligini aniqlang.

Berilgan:  $v_1 = 5 \cdot 10^{-3}$  l;  $v_2 = 4 \cdot 10^{-3}$ ;  $v_3 = 3,9 \cdot 10^{-3}$  l;  $C_1 = 3$  n.;  $C_2 = 0,02$  n.;  $C_3 = 0,0005$  n.

Yechimi: 1) har bir elektrolitning mmol miqdori hisoblanadi:

- a)  $m_1 = 4 \cdot 10^{-3} \cdot 3 = 1,2 \cdot 10^{-2} \text{ mmol/l};$
- b)  $m_2 = 0,5 \cdot 10^{-3} \cdot 0,02 = 1,1 \cdot 10^{-5} \text{ mmol/l};$
- d)  $m_3 = 3,9 \cdot 10^{-3} \cdot 0,0005 = 1,95 \cdot 10^{-6} \text{ mmol/l}.$

Zol bilan elektrolitning umumiy hajmi hisoblanadi:

- a)  $V = (5+4) \cdot 10^{-3} = 9 \cdot 10^{-3} \text{ l};$
- b)  $V (5+0,5) \cdot 10^{-3} = 5,5 \cdot 10^{-3} \text{ l};$
- d)  $V (5+3,9) \cdot 10^{-3} = 8,9 \cdot 10^{-3} \text{ l}.$

Har bir elektrolitning 1 l hajmdagi koagullovchi modda miqdori hisoblanadi:

$$a) C_1 = \frac{m_1 \cdot 1000}{V_1} = \frac{1,2 \cdot 10^{-3} \cdot 1000}{9 \cdot 10^{-3}} = 1333,3 \text{ mmol/l};$$

$$b) C_2 = \frac{1 \cdot 10^{-5} \cdot 1000}{5,5 \cdot 10^{-3}} = 1,82 \text{ mmol/l};$$

$$d) C_3 = \frac{1,95 \cdot 10^{-6} \cdot 1000}{8,9 \cdot 10^{-3}} = 0,219 \text{ mmol/l}.$$

Har bir elektrolitning koagullahash xususiyati  $R = \frac{1}{C}$  deb, qabul qilingan:

$$a) P_1 = \frac{1}{1333,3} = 7,5 \cdot 10^{-4}; \quad b) P_2 = \frac{1}{1,82} = 0,549$$

$$d) P_3 = \frac{1}{0,219} = 4,57,$$

Elektrolitlarning bir-biriga nisbatan koagullahash xossasi necha marta ortiqqligi hisoblanadi:

$$P_1 : P_2 : P_3 = 7,5 \cdot 10^{-4} : 0,549 : 4,57 = 1 : 732 : 6093.$$

### MUSTAQIL ISHLASH UCHUN MASALALAR

1. Qaynoq suvgaga oz miqdorda temir (III) — xlorid eritmasidan qo'shib, temir (III)-gidroksid zoli olingan.  $\text{Fe(OH)}_3$  zolining mitsella tuzilishini yozing. Zol hosil qilish uchun quyidagicha elektrolitlardan qaysi birining koagullovchi chegarasi eng kichik bo'ladi:  $\text{NaCl}$ ,  $\text{CaCl}_2$ ,  $\text{AlCl}_3$ ?

2. 10 ml kumush yodid zolining koagullanishi uchun, 0,05 mmol/l konsentratsiyali bariy nitrat tuzining eritmasidan 0,45 ml kerak bo'ladi. Koagullanish chegarasini toping.

3. 1000 ml aluminiy gidroksid zolining koagullanishini amalga oshirish uchun kaliy dixromat eritmasidan qancha miqdor kerak?  $\text{K}_2\text{Cr}_2\text{O}_7$  ning konsentratsiyasi 0,01 mol/l, koagullanish chegarasi 60 mmol / l.

4. Bir zolning  $\text{NaNO}_3$  ta'sirida koagullanish chegarasi  $\gamma = 250,0$ ;  $\text{Mg}(\text{NO}_3)_2$  ta'sirida  $\gamma = 20,0$ ;  $\text{Fe}(\text{NO}_3)_3$  ta'sirida  $\gamma = 0,5$  mg-ekv/l ga

teng. Bu elektrolitlarning qaysi ionlari koagullovchi ionlar ekanligini aniqlang. Zol zarrachasining zaryadini toping.

5. Agar bir zolning 0,015 litrga 0,1 n  $\text{Na}_2\text{SO}_4$  eritmasidan 0,003 l qo'shilsa, koagullanish sodir bo'ladi.  $\text{Na}_2\text{SO}_4$  ishtirokida zolning koagullanish chegarasi topilsin.

Javobi:  $\gamma = 16,67 \text{ mg-ekv/l}$ .

6. Zarrachalari mansiy zaryadga ega bo'lgan silikat kislota zolini koagullash uchun  $\text{CrCl}_3$ ,  $\text{Ba}(\text{NO}_3)_2$ ,  $\text{K}_2\text{SO}_4$  kabi tuzlardan foydalanish mumkin. Bu elektrolitlar ta'sirida zolning koagullanish chegaralari  $\gamma_1$ ,  $\gamma_2$  va  $\gamma_3$  orasidagi nisbatlarning son qiymatlari topilsin.

7. 0,025 l  $\text{As}_2\text{S}_3$  zolini koagullash uchun 0,0002 M  $\text{Fe}(\text{NO}_3)_3$  eritmasidan foydalangan. Agar  $\text{Fe}(\text{NO}_3)_3$  ishtirokida zolning koagullanish chegarasi  $\gamma = 0,067 \text{ mg-ekv/l}$  ga teng bo'lsa, koagullanish sodir bo'lishi uchun bu eritmada qancha hajm kerak bo'ladi?

Javobi: 0,003 l.

8. Uchta kolba olib, ularning har biriga 0,1 l dan temir (III) – gidroksid zoli solingan. Koagullanish sodir bo'lishi uchun birinchi kolbaga 1 n  $\text{NH}_4\text{Cl}$  eritmasidan 0,01 l, ikkinchi kolbaga 0,01 n  $\text{Na}_2\text{SO}_4$  eritmasidan 0,063 l va uchinchi kolbaga 0,001 n  $\text{Na}_3\text{PO}_4$  eritmasidan 0,037 l qo'shiladi. Har qaysi elektrolitning zolni koagullash chegarasi  $\gamma$  topilsin; zol zarrachasining zaryad ishorasi aniqlasini.

Javobi: 1) 90,9 mg-ekv/l; 2) 3,86 mg-ekv/l; 3) 0,27 mg-ekv/l.

9. Mis (II) – gidroksid zoli hosil qilish uchun 0,001 n.li  $\text{Cu}(\text{NO}_3)_2$  tuzi eritmasidan 0,25 l olib, unga 0,05 n  $\text{NaOH}$  eritmasidan 0,1 l qo'shilgan. Bu zolda koagullanish sodir bo'lishi uchun  $\text{KBr}$ ,  $\text{Ba}(\text{NO}_3)_2$ ,  $\text{K}_2\text{CrO}_4$ ,  $\text{MgSO}_4$ ,  $\text{AlCl}_3$  kabi elektrolitlardan foydalarfish mumkin. Ana shu elektrolitlarning qaisi biri eng kichik koagullanish chegarasiga ega ekanligini aniqlang.

10. Zarrachalari mansiy zaryadga ega bo'lgan kumush yodid zolini koagullanishga uchratish uchun  $\text{LiNO}_3$ ,  $\text{Ba}(\text{NO}_3)_2$  va  $\text{Al}(\text{NO}_3)_3$  kabi elektrolitlardan foydalanish mumkin. Litiy nitrat ishlataliganida  $\gamma = 165 \text{ mmol/l}$  ekanligi topilgan. Shunga asoslanib,  $\text{Va}(\text{NO}_3)_2$  va  $\text{Al}(\text{NO}_3)_3$  ishtirokida zolning koagullanish chegaralari topilsin.

Javobi: 0,226 mmol/l; 2,486 mmol/l.

11. Zarrachalari musbat ishoraga ega bo'lgan kumush bromid zolida koagullanish sodir bo'lishi uchun bu zolning 0,1 n  $\text{K}_2\text{SO}_4$  eritmasidan 0,0015 l qo'shishga to'g'ri keldi. Uning koagullash chegarasi topilsin.

Javobi: 1,48 mg-ekv/l.

12. Mishyak sulfid zolining 0,05 litrini koagullanishga uchratish uchun 2 n  $\text{NaCl}$  eritmasidan 0,005 l, 0,03 n  $\text{Na}_2\text{SO}_4$  eritmasidan 0,005 l,

0,0005 n  $\text{Na}_4[\text{Fe}(\text{CN})_6]$  eritmasidan 0,004 l qo'shildi. Shu elektrolitlardan qaisi biri ishtirokida zolning koagullanish chegarasi ( $\gamma$ ) eng kichik qiymatga ega?

Javobi: 0,037 mg-ekv/l.

13. Mishyak (III)-oksid zolida koagullanish sodir bo'lishi uchun  $\text{AlCl}_3$  eritmasidan foydalaniganida  $\gamma = 0,093$  mg-ekv/l ekanligi aniqlangan. 0,125 l zolni koagullash uchun noma'lum konsentratsiyadagi  $\text{AlCl}_3$  eritmasidan 0,0008 l qo'shishga to'qri kelgan. Shu eritmaning konsentratsiyasi topilsin.

Javobi: 0,015 n.

14. Kolloid zolini koagullovchi elektrolitlarning konsentratsiyalari (mmol/l) quiydagicha berilgan:

$$C_{\text{KNO}_3} = 500; \quad C_{\text{MgCl}_2} = 0,717; \quad C_{\text{AlCl}_3} = 0,093;$$

$$C_{\text{NaCl}} = 51,0; \quad C_{\text{MgSO}_4} = 0,810; \quad C_{\text{Al}(\text{NO}_3)_3} = 0,095.$$

Zollarning zaryad belgilarini aniqlang.

15. Kumush yodid zoliga qo'shiladigan elektrolitlarni koagullovchi konsentratsiyalari (mmol/l) quiydagicha berilgan:

$$C_{\text{KCl}} = 256,0; \quad C_{\text{Ba}(\text{NO}_3)_2} = 6,0; \quad C_{\text{Al}(\text{NO}_3)_3} = 0,067;$$

$$C_{\text{KNO}_3} = 260,0; \quad C_{\text{Sr}(\text{NO}_3)_2} = 7,0; \quad C_{\text{AlCl}_3} = 3,3 \cdot 10^{-2}.$$

Berilgan zollarning zaryad belgilarini va har bir qo'shilgan elektroliting koagullovchi xossasini aniqlang.

## XI bob. YUQORI MOLEKULALI BIRIKMALAR

Yuqori molekulalı moddalar eritmalarining liofob kolloid sistemalardan asosiy farqi shundaki, ular xuddi quyi molekulalı modda (masalan, qand) eritmaları kabi, termodynamikaviy jihatdan barqaror bo'ladi. Shunga muvofiq, yuqori molekulalı moddalarning eritmalarida haqiqiy muvozanat qaror topa oladi. Biroq bu muvozanat asta-sekin qaror topadi. Bu jihatdan yuqori molekulalı moddalarning eritmaları quyi molekulalı moddalarning eritmalaridan farq qiladi.

Molekulalari tarkibida o'zaro kovalent bog'lanishlar orqali birikkan yuz, ming va o'n minglarcha atomlar bo'ladigan birikmalar yuqori molekulalı birikmalar (YUMB) deb ataladi. Haqiqatan ham polimerlarning molekula massalari o'n ming uglerod birligidan tortib, to bir necha millionlargacha bo'ladi. Masalan, tabiiy polimer sellyulozaning molekula massasi bir million uglerod birligidan ortiqdir. Tabiatda sellyulzoza, oqsil, glikogen (go'sht tarkibidagi polimer modda), kraxmal, kauchuk va boshqa polimerlar ko'p tarqalgan. Hozirgi vaqtda polimerlarning juda ko'p turi sun'iy yo'l bilan olinmoqda; sanoatda polimerlar ishlab chiqarish tez sur'atlar bilan taraqqiy qilmoqda. Kapron, neylon, lavsan, viskoza va atsetat ipaklar, nitron va boshqa sun'iy junlar sintetikaviy yo'l bilan olinadi. Polimerlardan har turli buyumlar yashashning osonligi, polimerlar ishlabchiqarishni hozirgi zamон sanoatining muhim sohalaridan biriga aylantirdi. Polimerlar qora, ayniqsa, rangli metallarni ko'p miqdorda tejashga yordam beradi. YUMB lar quyi molekulalı moddalarning – monomerlarning polimerlanishidan hosil bo'ladi monomerlarning birga polimerlanish mahsulotlari sopolimerlar deb ataladi. Masalan, vinilxlorid bilan vinilatsetatlar bunga misol bo'la oladi.

Agar monomerlardan polimerlarning hosil bo'lish jarayoni suv, spirit va boshqa quyi molekulalı moddalar ajralib chiqishi bilan sodir bo'lsa, bu jarayon polikondensatlanish deyiladi. Masalan, aminokislotalar polikondensatlanganda polipepidlar hosil bo'ladi va suv ajralib chiqadi.

Hayot uchun nihoyatda katta ahamiyatga ega bo'lgan oqsillar (proteinlar) ham yuqori molekulalı birikmalardir. Oqsillar aminokislotalardan tuzilgan bulib, suvda gidrolizlanganda oxirgi mahsulot sifatida  $\alpha$  - aminokislotalar hosil bo'ladi.

YUMBlarning eng muhim mexanikaviy xossalari molekulalararo bog'larning harakteriga va ularning puxtaligiga bog'liq bo''ladi.

Polimer materiallarning mexanikaviy xossalari harorat o'zgarishi bilan kuchli o'zgaradi. Haroratning past-yuqoriligiga qarab, polimer-larning shishasimon (elastik-qattiq), yuqori elastik (kauchuksimon) va quyuq oquvchan (kiyomsimon) holatlarda bo'ladi. Harorat ko'tarilganida polimer yuqori elastik holatga o'tadi. Shishasimon holatdan yuqori elastik holatga o'tish harorati polimerning shishalanish (yoki yumshalish) harorati ( $T_{SH}$ ) deyiladi.

Polimerning yuqori – elastik holatdan kimyosimon holatga o'tish harorati polimerning oquvchanlik harorati (Toq.) deb ataladi.

YUMB eritmalar past molekulali modda eritmalaridan asosan juda qovushqoqligi bilan farq qiladi. YUMB eritmalar qovushqoqligining kattaligiga sabab shuki, erigan modda molekulalari katta va ular ipsimon tuzilgan bo'ladi. Bu kabi molekulalar erituvchi harakatiga ko'ndalang joylashib qolsa, u harakatga katta qarshilik ko'rsatadi.

YUMB eritmalariga ko'p miqdorda elektrolit qo'shilganida erigan moddaning ajralib chiqishi "tuzlanish" deyiladi.

Jism shaklining biror kuch ta'sirida o'zgarishi deformatsiya deb yuritiladi. Kuch  $G$  ning sirt  $S$  ga nisbati  $\tau = G/S$  siljish kuchlanishi deb ataladi. Nisbiy deformatsiya  $\gamma = \ell / L$  bilan ifodalanadi. Uning qiymati jism ichidagi hajm elementining nisbiy siljishi  $dx/dz$  ga teng:  $V = dx/dz$ . Ingliz tabiatshunosi Robert Guk qonuniga muvofiq elastik jismdagи deformatsiya, jismga ta'sir etgan siljish kuchlanishiga to'g'ri proporsionaldir:

$$\gamma = K \cdot \tau \text{ yoki } \tau = G \cdot \gamma$$

bu yerda,  $K$  – propotsionallik koefitsiyenti.  $G = \frac{\ell}{K}$  elastiklik moduli deb ataladi.

Nyuton qonuniga muvofiq tashqi kuch ta'sirida vujudga kelgan kuchlanish siljish tezligi gradiyentiga proporsional bo'lib, suyuqlik qavatlari orasidagi qovushqoqlikni yengish uchun sarflanadi:

$$\tau = \eta \cdot \gamma \text{ yoki } \tau = \eta \frac{du}{dx}$$

bu yerda,  $\eta = \tau \gamma$  suyuqlikning qovushqoqligi (yoki ichki ishqalanish).

Moddalarning qovushqoqligi bir-biridan keskin farq qiladi. Masalan, Suvning qovushqoqligi  $20^{\circ}\text{C}$  da  $10^{-2}$  puazga ( $\text{g/sm} \cdot \text{Cga}$ ) yoki  $10^{-3}$   $\text{Pa s}$

ga teng. Qattiq jasmlarning qovushqoqligi  $10^{15}$ - $10^{20}$  Pa s ga cha katta bo'lishi mumkin.

YUMB eritmalarining qovushqoqligi harorat ko'tarilishi bilan haqiqiy eritmalarining qovushqoqligiga qaraganda tezroq pasayadi, chunki harorat ko'tarilganda eritmada ichki strukturalarning mustahkamligi zaiflashadi. YUMB eritmalarining qovushqoqligini xususiyati uchun quyidagicha kattaliklardan foydalaniлади:

$\eta_{nisb}$  — polimer eritmasining nisbiy qovushqoqligi; uni xisoblash uchun polimer eritmasining qovushqoqligi  $\eta$  ni erituvchining qovushqoqligiga  $\eta_0$  ga bo'lish kerak:

$$\eta_{nisb} = \frac{\eta}{\eta_0}$$

$\eta_{sol}$  — solishtirma qovushqoqlik:

$$\eta_{sol} = \frac{\eta - \eta_0}{\eta_0}$$

$\eta_{kelt}$  = "keltirilgan" qovushqoqlik — solishtirma qovushqoqliknini eritma konsentratsiyasiga nisbati:

$$\eta_{kelt} = \frac{\eta_{sol}}{c}$$

$[\eta]$  — harakteristik qovushqoqlik. Polimer eritmasining konsentratsiyasi nolga intilayotgan sharoitdagi "keltirilgan" qovushqoqligi polimer eritmasining harakteristik qovushqoqligi deb ataladi:

$$[\eta] = \lim_{c \rightarrow 0} \frac{\eta_{sol}}{c}$$

polimer eritmasining harakteristik qovushqoqligi bilan uning molekula massasi ( $M$ ) orasida quyidagicha bog'lanish mavjud:

$$[\eta] = K M^\alpha$$


bu yerda,  $K$  — ayni polimer gomologik qatorning hamma a'zolariga xos doimiy;

$\alpha$  — polimer gomologik qatori uchun doimiy konstanta; uning qiymati 0,55-0,85 oralig'ida bo'ladi.

## MASALALAR YECHIMLARIDAN NAMUNALAR

**1-misol.** Izobutilendan molekula massasi 56280 ga teng bo'lgan poliiizobutilen hosil qilingan. Polimerlanish darajasi topilsin.

**Yechish.** Izobutilen (monomer) polimerlanganida poliiizobutilen (polimer) hosil bo'lish reaksiyasini quyidagi sxema tarzida yozish mumkin:




Polimerlanish darajasi  $n$  deganda polimerlanish vaqtida monomerning necha molekulasidan polimerning bitta makromolekulasi hosil bo'lishini ko'rsatuvchi son tushuniladi. Butilenning molekula massasi 56 ga teng, polimerning o'rtaча molekula massasi esa 56280. Binobarin, polimerlanish darajasi  $n$  quyidagicha topiladi:

$$n = \frac{56280}{56} = 1005$$

**2-misol.** Stirol va butilenni 2:1 molar nisbatda bir-biriga qo'shib, sopolimer hosil qilingan. Reaksiya tenglamasi yozilsin. Agar reaksiyaning unumi 75% bo'lса, 125 kg sopolimer hosil qilish uchun necha kg butilen va necha kg stirol kerak bo'ladi?

**Yechish.** 1. Berilgan masalada butilen bilan stirolning sopolimerlanish reaksiyasining tenglamasi quyidagicha bo'ladi:



Reaksiyaga kirishuvchi moddalarning molar massalari hisoblanadi:  
 $M(\text{stirol}) = 104 \text{ g/mol}$ ;  $M(\text{butilen}) = 56 \text{ g/mol}$ .

Ikki mol butilen va 1 mol stioldan iborat "zveno" ning molekula massasi:  $M = 2 \cdot 56 + 104 = 216$ . Nazariy jihatdan 125 kg sopolimer hosil qilish uchun kerak bo'ladigan stirol miqdori topiladi:

$$216 : 104 = 125 : x, \quad x = \frac{104 \cdot 125}{216} = 60,17 \text{ kg.}$$

Reaksiya unumi 75% bulgani uchun stioldan nazariy miqdorga qaraganda ko'proq bo'lishi kerak:

$$60,17 \cdot \frac{100}{75} = 80,23 \text{ kg.}$$

Nazariy jihatdan butilen miqdori:


$$216 : 112 = 125 : u, \quad u = \frac{125 - 112}{216} = 64,83 \text{ kg bo'lishi kerak.}$$

Reaksiya unumi 75% ekanligi nazarga olinsa, butilenden

$$64,83 \cdot \frac{100}{75} = 86,44 \text{ kg kerak bo'ladi.}$$

**3-misol** Atsetaldegid va natriy fenolyat orasida sodir bo'ladigan polikondensatlanish reaksiyasining sxemasi tuzilsin. Ikki mol natriy fenolyat uchun 1 mol atsetaldegid kerakligini nazarda tutib, 30 kg smola hosil qilish uchun  $\text{CH}_3\text{SON}$  ning 35% li eritmasidan qancha kerak bo'lishini hisoblab chiqaring.

**Yechish.** Polikondensatlanish reaksiyasini quyidagi sxema tarzida yozish mumkin:



Hosil bo'lgan YUMB "zveno"si ikki molekula natriy fenolyat va bir molekula atsetaldegiddan tashkil topadi. "Zveno" ning molekula massasini topish uchun natriy fenolyatning ikkita molekula massasiga atsetaldegidning molekula massasini qo'shib, yig'indidan suvning molekula massasini ayirib tashlash kerak. Natriy fenolyatning molekula massasi  $M = 116$  g/mol, atsetaldegidniki  $M = 44$  g/mol. Binobarin, "zveno" ning molekula massasi:

$$116 + 116 + 44 - 18 = 258.$$

Endi "zveno" lar soni topiladi:

$$n = \frac{30000}{258} = 116,1$$

$C_6H_5ONa$  ning mol soni  $2 \cdot 116,1 = 232,2$   $CH_3COH$  ning mol soni  $116,1$  Atsetaldegidning miqdori  $44 \cdot 116,1 = 51,08$  kg. Atsetaldegid 35% li eritma holida ekanligi uchun uning reaksiya uchun kerakli miqdori:

$$100 : 35 = x : 51,08, \quad x = \frac{100 \cdot 51,08}{35} = 145,52 \text{ kg.}$$

**4-misol.** Stirol polimerlanganda entalpiya o'zgarishi topilsin. Masalani yechishda —  $C = C$ - bog'lanish entalpiyasi — 587,8 kJ/mol;

-  $C_{sp}$  -  $C_{sp}^2$  bog'lanish entalpiyasi — 410,0 kJ/mol;

$C_{sp}$  -  $C_{(CH)}$  bog'lanish entalpiyasi — 423,4 kJ/mol;

$C_{sp} - H_{(CH)}$  bog'lanish entalpiyasi — 420,5 kJ/mol;

$C_{sp}^3 - C_{sp}^3$  bog'lanish entalpiyasi — 347,3 kJ/mol;


$C_{sp}^3 - C_{sp}^2$  bog'lanish entalpiyasi — 376,1 kJ/mol;

$C_{sp}^3 - H_{ikkil}$  bog'lanish entalpiyasi — 407,9 kJ/mol;

$C_{sp}^3 - H_{uchl}$  bog'lanish entalpi — 404,2 kJ/mol.

ekanligini nazarda tuting (bu yerda  $H_{ikkil}$  — ikkilamchi uglerod atomi bilan birikkan vodorod atomi,  $H_{uchl}$  — uchlamchi uglerod atomi bilan birikkan vodorod atomi).

**Yechish.** Stirolning (vinilbenzol) polimerlanish reaksiya sxemaci quyidagicha:



Stirol polimerlanganda uning har qaysi molekulasidagi qo'shbog'

-  $C = C$  — u'zilib, uning o'rniiga ikkita yangi —  $C - C$  — bog'lanish vujudga keladi.

$-C_{sp}^2 - C_{sp}^2$  bog'lanish esa —  $C_{sp}^3 - C_{sp}^2$  bog'lanishga aylanadi.

$C_{sp^2} - H_{CH}$  bog'lanish -  $C_{sp^2} - H_{uchl}$  bog'lanishga o'tadi. Shularni nazarda tutib, stirolning polimerlanish reaksiya entalpiyasini Gess qonuni asosida quiydagicha hisoblab topiladi:

$$\begin{aligned}\Delta H^0 &= E_{c=c} + E_{Csp^2} - C_{sp^2}^2 + 2E_{Csp^2} - H(CH_3)^+ \\ &\quad + E_{Csp^2} - H(CH) - 2E_{Csp^3} - Csp^3^- - \\ &\quad - E_{Csp^3} - Csp^2 - 2E_{Csp^3} - H_{ikkil} - E_{Csp^3} - H_{uchl} = \\ &= -587,8 + (-410,0) + 2(-423,4) + (-420,5) - \\ &- 2(-347,3) - (-376,1) - (-407,9) - (-404,2) = 25,6 \text{ kJ/mol.}\end{aligned}$$

**5-misol.** Sintetik kauchuk xloroformda eritilib, uning molekula massasi  $M = 3 \cdot 10^5$  g/mol ekanligi topilgan. Molekula massasi  $3 \cdot 10^5$  g/mol ga teng bo'lgan kauchuk namunasining xarakteristik qovushqoqligi topilsin.

**Yechish.** Masalani yechish uchun  $[\eta] = K \cdot M^\alpha$  tenglamadan foydalaniladi. Masala shartiga ko'ra  $M = 3 \cdot 10^5$  g/mol. Jadvaldan sintetik kauchukning xloroformdagi eritmasi uchun  $\alpha = 0,56$ ;  $K = 1,85 \cdot 10^{-5}$  ekanligi topiladi:

$$[\eta] = K \cdot M^\alpha = 1,85 \cdot 10^{-5} (3 \cdot 10^5)^{0.56} = 0,0215$$

Demak, kauchuk namunasining xarakteristik qovushqoqligi  $[\eta] = 0,0215$  ekan.

**6-misol.** Polivinil spiritning suvdagi eritmasi uchun topilgan  $[\eta] = 0,15 = 4,56 \cdot 10^{-5} \cdot M^{0.74}$  tenglamadan foydalaniib, polivinil spiritning molekula massasi topilsin.

**Yechish.** Masalani yechish uchun  $0,15 = 4,56 \cdot 10^{-5} \cdot M^{0.74}$  logariflarnadi:

$$\lg 0,15 = \lg 4,56 - 5 + 0,74 \lg M$$

bundan  $\lg M = 4,7567$  va  $M = 5,71 \cdot 10^4$  ekanligi topiladi.

### MUSTAQIL ISHLASH UCHUN MASALALAR

1. Vinilxloridning polimerlanishi quiydagi tenglama bo'yicha boradi:



Agar polimerlanish darajasi o'rtacha 1500 ga tengligi ma'lum bo'lsa, polimerning molekula massasi topilsin.

2. Amilaza, har xil polimerlanish darajasiga ega bo'lgan gomologlar aralashmasidan iborat. Molekula massasi 200000 bo'lgan ( $C_6H_{10}O_5$ )<sub>n</sub> amalizasi gomologining polimerlanish darajasini hisoblang.

3. Polimerlar xossalari ularning molekula massalariga bog'liq bo'ladi. Izobutilen  $CH_2 = C - CH_3$  oddiy sharoitda gazsimon modda.  $n=500$



bo'lgan poliiizobutilen quyuq – oquvchan holatda,  $n = 2000$  da esa elastik holatda bo'ladi. Quyuq oquvchan va elastik poliiizobutilenlarning molekula massalarini hisoblang.

4. Quiydagicha ma'lumotlardan foydalanib uglerod (IV) – xloridda bo'ktirilgan rezinaning bo'kish egri chizig'ini tuzing:

Bukish vaqt, min .....	5	30	90	150
Shimilgan suyuqlik miqdori, % .....	33	115	233	291

5.  $25^{\circ}C$  da 100 g suvda 1 g oqsil eriydi. Agar oqsilning molekula massasi 10000 ni tashkil etsa, eritmaning osmos bosimi nimaga teng bo'ladi.

5. 1% li jelatina eritmasi viskozimetrik orqali 29 sekundda o'tadi, shunday hajmdagi suv esa 10 sekundda o'tadi. Suvning zichligi 1 bo'lgan holda, zichligi  $1,01 \text{ g/sm}^3$  bo'lgan jelatina eritmasining nisbiy qovushoqligini aniqlang.

6.  $pH = 3$  bo'lgan bufer eritmaga jelatin joylashtirilgan. Izoelektrik nuqtasi  $pH = 4,7$  da bo'lgan jelatin zarrachasining zaryad belgisini aniqlang.

7. Albuminning izoelektrik nuqtasi  $pH = 4,8$  da kuzatiladi. Oqsil, vodorod ionlari konsentratsiyasi  $10^{-6} \text{ g-ion/l}$  bo'lgan buferli aralashmaga joylashtirilgan. Elektroforezda oqsil zarrachalarining harakat yo'nalishini aniqlang.

8. 100 g kauchukning bo'kishi natijasida 964 ml xloroform shimilgan. Hosil bo'lgan iviqning foiz tarkibini hisoblang. Xloroformning zichligi  $1,9 \text{ g/sm}^3$  ra teng.

9. Iviq hosil qilish uchun 0,5; 1,0; 1,5 g li uchta jelatina namunasi olingan: birinchi namunadan iviq hosil bo'lishi uchun 15 minut vaqt, ikkinchisi uchun 10 minut, uchinchisi uchun 5 minut vaqt sarf bo'lgan. Shu ma'lumotlardan foydalanib, abssissa o'qiga iviqning konsentrasiyasini va ordinat o'qiga ivish tezligini qo'yib, egri chiziq tuzing.

10. Formaldegidni polimerlash natijasida o'rtacha molekula massasi 45000 bo'lgan polimer hosil bo'lgan. Polimerlanish darajasini xisoblab chiqaring.

11. Butadiyen kauchuk vulkanianishga uchratilgan, vulkanianish tenglamasini yozib bering. Vulkanlangan kauchuk tarkibida 5% oltin-gugurt borligi aniqlangan. 200 kg kauchukni vulkanlash uchun qancha  $\text{CCl}_2$  kerak bo'lishini hisoblab chiqaring.

Javobi: 32,18 kg.

12. Politetraftoretilen (ftorplast-4) ning hosil bo'lish reaksiya tenglamasini yozing. Agar polimerlanish darajasi 1200 ra teng bo'lsa, polimerning o'rtacha molekula massasi qanchaga teng bo'ladi.

Javobi: 120000.

13. Butadiyennitril kauchukning o'rtacha molekula massasi 395000 ga teng. Polimerlanish reaksiyasi tenglamasini yozing va polimerlanish darajasini aniqlang.

Javobi: 500.

14. Butadiyen-stirol kauchukning 0,274 g ni titrlash uchun 0,172 g brom ketgan. Bu kauchuk tarkibida necha foiz stirol zanjirlar borligini aniqlang.

Javobi: 78,6%.

15. Polixlorvinil hosil qilish uchun dastlabki modda sifatida atsetilendan foydalanilgan. Reaksiya tenglamasini yozing.

16. Formaldegidning polimerlanish reaksiyasi tenglamasini yozing. Agar reaksiya uchun formaldegidning 40% li eritmasidan 250 kg ishlataligan bo'lsa, qancha polimer hosil bo'ladi?

Javobi: 90 kg.

## ILOVA

### AYRIM SISTEMADAN TASHQARI BIRLIKLER VA SI BIRLIKLARI ORASIDAGI NISBATLAR

*I-jadval*

Kattalik	Birlük	SI dagi ekvivalenti
Uzunlik	Mikron yoki makrometr (mkm) Angstrem ( $\text{\AA}^0$ )	$1 \cdot 10^{-6}$ m $1 \cdot 10^{-10}$ m
Bosim	Fizikaviy atomosfera (atm) Millimetrik simob ustuni (mm. Sim. Ust.)	$1,01325 \cdot 10^5$ Pa 133,322 Pa
Energiya, ish, issiqlik miqdori	Elektrovolt (eV) Kaloriya (kal) Kilokaloriya (kkal)	$1,60219 \cdot 10^{-19}$ J. 4,1868 J 4186,8 J
Dipol momenti	Debay (D)	$3,33 \cdot 10^{-30}$ KJ·m

### AYRIM FUNDAMENTAL FIZIKAVIY DOIMIYLIKLER QIYMATLARI

*2-jadval*

Doimiylik	Belpishishi	son qiymati
Vakuumda yorug'lilik tezligi	c	$2,9979246 \cdot 10^8$ m/S
Plank doimiyligi	h	$6,62618 \cdot 10^{-34}$ J·S
Elementlar elektr zaryadi	e	$1,602189 \cdot 10^{-19}$ KJ
Avogadro doimiyligi	N	$6,022045 \cdot 10^{23}$ mol <sup>-1</sup>
Faradey doimiyligi	F	$9,64846 \cdot 10^4$ KJ/mol
Gaz doimiyligi	R	$8,3144$ J/(mol·K)

**20°C DA ERITMALARNING FOIZ MIQDORI  
VA ZICHЛИГИ (g/ml)**

3-jadval

Foiz miqdori	NaOH	KOH	NH <sub>3</sub>	HCl	H <sub>2</sub> SO <sub>4</sub>	CH <sub>3</sub> CO OH	NaI	KCl
1	1,010	1,008	0,994	1,003	1,005	1,000	1,005	1,004
2	1,021	1,016	0,990	1,006	1,012	1,001	1,012	1,011
3	1,032	1,024	0,984	1,012	1,018	1,003	1,020	1,017
4	1,043	1,033	0,981	1,018	1,025	1,004	1,027	1,024
5	1,054	1,041	0,977	1,023	1,032	1,006	1,034	1,030
6	1,065	1,048	0,973	1,028	1,038	1,007	1,041	1,037
7	1,076	1,055	0,969	1,033	1,045	1,008	1,049	1,043
8	1,087	1,064	0,965	1,038	1,052	1,010	1,056	1,050
9	1,098	1,072	0,961	1,043	1,059	1,011	1,063	1,057
10	1,109	1,080	0,958	1,047	1,066	1,013	1,071	1,063
11	1,153	1,116	0,943	1,067	-	-	1,101	1,090
16	1,175	1,137	0,936	1,078	-	-	1,116	1,104
18	1,197	1,154	0,930	1,088	-	-	1,132	1,118
20	1,219	1,173	0,920	1,098	-	-	1,148	1,133
22	1,241	1,193	0,916	1,108	-	-	1,164	1,147
24	1,263	1,217	0,910	1,119	-	-	1,180	1,162
26	1,285	1,238	0,904	1,129	-	-	1,197	-
28	1,306	1,260	0,898	1,139	-	-	-	-
30	1,328	1,285	0,892	1,149	-	-	-	-
32	1,349	1,307	0,000	-	-	-	-	-
34	1,370	1,331	-	1,159	-	-	-	-
36	1,390	1,355	-	1,169	-	-	-	-
38	1,410	1,382	-	1,179	-	2	-	-
40	1,430	1,408	-	1,189	-	-	-	-

**25° S DA AYRIM KUCHSIZ ELEKTROLITLIRNING SUVLI  
ERITMALARIDAGI DISSOTSIALANISH KONSTANTALARI**

4-jadval

Elektrolyt	K	RK = - lg K
Azid kislota HN <sub>3</sub>	$2,6 \cdot 10^{-5}$	4,59
Nitrit kislota HNO <sub>2</sub>	$4 \cdot 10^{-4}$	3,40
Ammoniy gidroksid NH <sub>4</sub> OH	$1,8 \cdot 10^{-5}$	4,75
Ortoborat kislota H <sub>3</sub> BO <sub>3</sub> , K <sub>1</sub>	$5,8 \cdot 10^{-10}$	9,24
Vodorod peroksid H <sub>2</sub> O <sub>2</sub> , K <sub>1</sub>	$2,6 \cdot 10^{-12}$	11,58
Silikat kislota H <sub>2</sub> SiO <sub>3</sub> , K <sub>1</sub>	$2,2 \cdot 10^{-10}$	9,66
Chumoli kislota HCOOH, K <sub>2</sub>	$1,6 \cdot 10^{-12}$	1,80
	$1,8 \cdot 10^{-4}$	3,74

**FIZIK VA KOLLOID KIMYODAN MASALALAR**

Selenit kislota $H_2SeO_3$ ,	$K_1$	$3,5 \cdot 10^{-3}$	2,46
	$K_2$	$\cdot 10^{-8}$	7,3
Sulfat kislota $H_2SO_4$ ,	$K_2$	$1,2 \cdot 10^{-2}$	1,92
Sulfid kislota $H_2SO_3$ ,	$K_1$	$1,6 \cdot 10^{-2}$	1,80
	$K_2$	$6,3 \cdot 10^{-8}$	7,21
Vodorod sulfid $H_2S$ .	$K_1$	$6 \cdot 10^{-8}$	7,22
	$K_2$	$1 \cdot 10^{-14}$	14,0
Tellurit kislota $H_2TeO_3$ ,	$K_1$	$3 \cdot 10^{-3}$	2,5
Vodorod tellurid $H_2Te$ ,	$K_1$	$2 \cdot 10^{-8}$	7,7
	$K_2$	$\cdot 10^{-3}$	3,0
Karbonat kislota $H_2CO_3$ ,	$K_1$	$\cdot 10^{-11}$	11,0
	$K_2$	$4,5 \cdot 10^{-7}$	6,36
Sırka kislota $CH_3COOH$		$4,7 \cdot 10^{-11}$	10,33
Gipoxlorid kislota $HOCl$		$1,8 \cdot 10^{-5}$	4,75
Xlorsırka kislota $CH_2ClCOOH$		$5,0 \cdot 10^{-8}$	7,30
Ortofosfat kislota $H_3PO_4$ , $K_1$		$1,4 \cdot 10^{-3}$	2,85
	$K_2$	$7,5 \cdot 10^{-3}$	2,12
	$K_3$	$6,3 \cdot 10^{-8}$	7,20
Vodorod florid $HF$		$1,3 \cdot 10^{-12}$	11,89
Oksalat kislota $H_2C_2O_4$ ,	$K_1$	$6,6 \cdot 10^{-4}$	3,18
		$5,4 \cdot 10^{-2}$	1,27

**NORMAL BOSIM VA HAR XIL TEMPERATURALARDA  
GAZLARNING ENTALPIYA QIYMLATLARI (J/MOL)**

5-jadval

t,°C	H <sub>2</sub>	O <sub>2</sub>	N <sub>2</sub>	CO <sub>2</sub>	CH <sub>4</sub>	H <sub>2</sub> O, H <sub>2</sub> S	NH <sub>3</sub>	NO	SO <sub>2</sub>
100	2900	2983	2870	3920	3660	3320	3620	2900	4240
200	5820	6010	5800	8120	7940	6760	7560	5900	8700
300	6750	9160	8800	12560	12800	10330	11800	8860	13380
400	11670	12360	11820	17250	18200	14020	16340	12100	19100
500	14650	15640	14980	22200	24180	17850	21170	15300	23680
600	17620	19000	18150	27300	30540	21740	26200	18550	28600
700	20630	22400	21350	32600	37400	25800	31580	21900	33900
800	23700	25860	24820	38000	44600	29960	37100	25700	39400
900	27670	29400	28000	43700	52300	34200	-	28720	45400
1000	29800	32900	31300	49200	60100	38500	-	3200	50500
1100	33000	36600	34700	55100	68500	43000	-	35700	56400
1200	36200	40200	37900	61000	77000	47500	-	39200	62100
1300	39300	43400	41600	66800	86000	52200	-	-	67900
1400	42600	47606	45100	72700	94800	56800	-	-	73800
1500	45800	51000	48600	78600	103800	61700	-	-	79500

**25° S DA AYRIM KAM ERUVCHAN ELEKTROLITLARNING  
ERUVCHANLIK KO'PAYTMASI**

6-jadval

Elektrolit	EK	Elektrolit	EK
AgBr	$6 \cdot 10^{-3}$	Cu(OH) <sub>2</sub>	$2,2 \cdot 10^{-20}$
AgCl	$1,8 \cdot 10^{-10}$	CuS	$6 \cdot 10^{-36}$
Ag <sub>2</sub> CrO <sub>4</sub>	$4 \cdot 10^{-12}$	Fe(OH) <sub>2</sub>	$1 \cdot 10^{-15}$
AgJ	$1,1 \cdot 10^{-16}$	Fe(OH) <sub>3</sub>	$3,8 \cdot 10^{-38}$
Ag <sub>2</sub> S	$6 \cdot 10^{-50}$	FeS	$5 \cdot 10^{-18}$
Ag <sub>2</sub> SO <sub>4</sub>	$2 \cdot 10^{-5}$	HgS	$1,6 \cdot 10^{-52}$
BaCO <sub>3</sub>	$5 \cdot 10^{-9}$	MnS	$2,5 \cdot 10^{-10}$
BaCrO <sub>4</sub>	$1,6 \cdot 10^{-10}$	PbBr <sub>2</sub>	$9,1 \cdot 10^{-6}$
BaSO <sub>4</sub>	$1,1 \cdot 10^{-10}$	PbCl <sub>2</sub>	$2 \cdot 10^{-5}$
CaCO <sub>3</sub>	$5 \cdot 10^{-9}$	PbCrO <sub>4</sub>	$1,8 \cdot 10^{-14}$
CaC <sub>2</sub> O <sub>4</sub>	$2 \cdot 10^{-9}$	PbJ <sub>2</sub>	$8,0 \cdot 10^{-9}$

**NORMAL BOSIM VA 298 K DA AYRIM ELEMENTLARNING  
KIMYOVIY BOG'LANISH ENERGIYASI - E**

7-jadval

Bog'lanish	Bog'. energiyasi, kJ / mol
N-N	430
N-O (suvni)	460
O-N (spiritni)	418,4
N-ON	494,0
O-O	146,5
O=O	490,4
S-O	374,0
S=O (CO <sub>2</sub> dagi)	702,9
O=S (aldegidda)	660,0
O=S (ketonda)	652,7
S=S	425,0
S-S	536,4
Sgaz-Salm	524,0
Sgaz-Sgr	525,0
S-N	358,2
S=N	352,0

**298 K DA AYRIM MODDALARNING HOSIL BO'LISH STANDART ENTALPIYASI  $\Delta H^\circ_{298}$ , ENTROPIYASI  $\Delta S^\circ_{298}$  VA HOSIL BO'LISH GIBBS ENERGIYASI  $\Delta G^\circ_{298}$**

8-jadval

Modda	$\Delta H^\circ_{298}$ kJ/mol	$\Delta S^\circ_{298}$ J/(mol K)	$\Delta G^\circ_{298}$ kJ/mol
Al <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	-1676,0	50,9	-1582,0
C(grafik)	0	5,7	0
CCl <sub>4</sub> c	-135,4	214,4	-64,6
CH <sub>4</sub> g	-74,9	186,2	-50,8
C <sub>2</sub> H <sub>2</sub> g	226,8	200,8	209,2
C <sub>2</sub> H <sub>4</sub> g	52,3	219,4	68,1
C <sub>2</sub> H <sub>6</sub> g	-89,7	229,5	-32,9
C <sub>4</sub> H <sub>6</sub> s	82,9	269,2	129,7
C <sub>2</sub> H <sub>5</sub> OH <sub>c</sub>	-277,6	160,7	-174,8
C <sub>6</sub> H <sub>12</sub> O <sub>6</sub>	-1273,0	-	-919,5
CO <sub>g</sub>	-110,5	197,5	-137,1
CO <sub>2</sub> g	-393,5	213,7	-394,4
CaCO <sub>3</sub> K	-1207,0	88,7	-1127,7
CaO <sub>k</sub>	-635,5	39,7	-604,2
Ca(ON) <sub>2</sub> K	-986,6	76,1	-896,8
CuO <sub>k</sub>	-162,0	42,6	-129,9
FeO <sub>k</sub>	-264,8	60,8	-244,3
Fe <sub>2</sub> O <sub>3</sub> K	-822,2	87,4	-740,3
HCl <sub>g</sub>	-92,3	186,8	-95,2
H <sub>2</sub> O <sub>c</sub>	-285,8	70,1	-237,3
H <sub>2</sub> O <sub>r</sub>	-241,8	188,7	-228,6
NH <sub>3</sub> g	-46,2	192,6	-16,7

**298 K DA SUVLI ERITMALARDA STANDART ELEKTROD POTENTSIALLAR,  $\varphi^\circ$**

9 - jadval

Element	Elektrod jarayoni	$\varphi^\circ, V$
Ag	$[Ag(CN)_2] + e^- = Ag + 2CN^-$ $Ag^+ + e^- = Ag$	-0,29 0,80
Al	$AlO^-_2 + 2H_2O + 3e^- = Al + 4OH^-$ $Al^{3+} + 3e^- = Al$	-2,35 -1,66
AU	$[Au(CN)_2]^- + e^- = Au + 2CN^-$ $Au^{3+} + 3e^- = Au$ $Au^+ + e^- = Au$	-0,61 1,50 1,69
Ba	$Ba^{2+} + 2e^- = Ba$	-2,90
Bi	$Bi^{3+} + 3e^- = Bi$	0,21
Br	$Br_2(c) + 2e^- = 2Br^-$	1,07
Ca	$HOCr + H^+ + 2e^- = Br^- + H_2O$ $Ca^{2+} + 2e^- = Ca$	1,34 -2,87
Cd	$Cd^{2+} + 2e^- = Cd$	-0,40
Cl	$Cl_2 + 2e^- = 2Cl^-$ $HOCl + H^+ + 2e^- = Cl^- + H_2O$	1,36 1,49

FİZİK VƏ KOLLOİD KİMYODAN MASALALAR

Co	$\text{Co}^{2+} + 2e^- = \text{Co}$	-0,28
	$\text{Co}^{3+} + e^- = \text{Co}^{2+}$	1,81
Cr	$\text{Cr}^{3+} + 3e^- = \text{Cr}$	-0,74
	$\text{CrO}_4^{2-} + 4\text{H}_2\text{O} + 3e^- = \text{Cr}(\text{OH})_3 + 5\text{OH}^-$	-0,13
	$\text{Cr}_2\text{O}_7^{2-} + 14\text{H}^+ + 6e^- = 2\text{Cr}^{3+} + 7\text{H}_2\text{O}$	1,33
Cu	$[\text{Cu}(\text{CN})_2]^- + e^- = \text{Cu} + 2\text{CN}^-$	-0,43
	$\text{Cu}^{2+} + e^- = \text{Cu}^{+}$	0,15
	$\text{Cu}^{2+} + 2e^- = \text{Cu}$	0,34
Cu	$\text{Cu}^+ + e^- = \text{Cu}$	0,52
F	$\text{F}_2 + 2e^- = 2\text{F}^-$	2,87
Fe	$\text{Fe}^{2+} + 2e^- = \text{Fe}$	-0,44
	$\text{Fe}^{3+} + 3e^- = \text{Fe}$	-0,04
H	$[\text{Fe}(\text{CN})_6]^{3-} + e^- = [\text{Fe}(\text{CN})_6]^{4-}$	0,36
Hg	$\text{Fe}^{3+} + e^- = \text{Fe}^{2+}$	0,77
	$\text{H}_2 + 2e^- = 2\text{H}^-$	-2,25
	$2\text{H}^+ + 2e^- = \text{H}_2$	0,00
S	$\text{Hg}_2^{2+} + 2e^- = 2\text{Hg}$	0,79
	$\text{Hg}_2^{2+} + 2e^- = \text{Hg}$	0,85
K	$2\text{Hg}^{2+} + 2e^- = \text{Hg}_2^{2+}$	0,92
Li	$\mathfrak{I}_{2(k)} + 2e^- = 2\mathfrak{I}^-$	0,54
Mg	$\mathfrak{I}_{\text{O}_3^-} + 12\text{H}^+ + 10e^- = \mathfrak{I}_{2(k)} + 6\text{H}_2\text{O}$	1,19
Mn	$2\text{HO}\mathfrak{I} + 2\text{H}^+ + 2e^- = \mathfrak{I}_{2(k)} + 2\text{H}_2\text{O}$	1,45
	$\text{K}^+ + e^- = \text{K}$	-2,92
Na	$\text{Li}^+ + e^- = \text{Li}$	-3,04
Ni	$\text{Mg}^{2+} + 2e^- = \text{Mg}$	-0,36
O	$\text{MnO}_4^- + e^- = \text{MnO}_4^{2-}$	0,56
MnO <sub>4</sub> <sup>-</sup>	$2\text{MnO}_4^- + 2\text{H}_2\text{O} + 3e^- = \text{MnO}_2 + 4\text{OH}^-$	0,60
P	$\text{MnO}_2 + 4\text{H}^+ + 2e^- = \text{Mn}^{2+} + 2\text{H}_2\text{O}$	1,23
	$\text{MnO}_4^- + 8\text{H}^+ + 5e^- = \text{Mn}^{2+} + 4\text{H}_2\text{O}$	1,51
Pb	$\text{Na}^+ + e^- = \text{Na}$	-2,71
	$\text{Ni}^{2+} + 2e^- = \text{Ni}$	0,25
R	$\text{O}_2 + \text{H}_2\text{O} + 4e^- = 4\text{OH}^-$	0,40
	$\text{O}_2 + 4\text{H}^+ + 4e^- = 2\text{H}_2\text{O}$	1,23
	$\text{H}_2\text{O}_2 + 2\text{H}^+ - 2e^- = 2\text{H}_2\text{O}$	1,78
Pt	$\text{H}_3\text{PO}_4 + 2\text{H}^+ + 2e^- = \text{H}_3\text{PO}_3 + \text{H}_2\text{O}$	-0,28
	$\text{Pb}^{2+} + 2e^- = \text{Pb}$	-0,13
S	$\text{Pb}^{4+} + 2e^- = \text{Pb}^{2+}$	1,69
	$\text{Pt}^{2+} + 2e^- = \text{Pt}$	1,19
Sc	$\text{S} + 2\text{H}^+ + 2e^- = \text{H}_2\text{S}$	0,17
	$\text{S}_2\text{O}_8^{2-} + 2e^- = 2\text{SO}_4^{2-}$	2,01
Sn	$\text{Se} + 2\text{H}^+ + 2e^- = \text{H}_2\text{Se}$	-0,40
	$\text{Sn}^{2+} + 2e^- = \text{Sn}$	-0,14
Tc	$\text{Sn}^{4+} + 2e^- = \text{Sn}^{2+}$	0,15
	$\text{Te} + 2\text{H}^+ + 2e^- = \text{H}_2\text{Te}$	-0,72
Zn	$\text{ZnO}_2^{2-} + 2\text{H}_2\text{O} + 2e^- = \text{Zn} + 4\text{OH}^-$	-1,22
	$\text{Zn}^{2+} + 2e^- = \text{Zn}$	-0,76

**18°C DA AYRIM ELEKTROLITLARNING DISSOTSIALANISH DARAJASI**

*10-jadval*

Elektrolitning nomi 1	Formula 2	Dissotsialanish darajasi, %	
		1 N. 3	0,1 N. 4
<b>1. Kislotalar</b>			
Nitrat kislota	HNO <sub>3</sub>	82	92
Xlorid kislota	HCl	78	92
Bromid kislota	HBr	-	92
Yodid kislota	H <sub>3</sub> I	-	92
Ftorid kislota	HF	-	8,5
Sulfat kislota	H <sub>2</sub> SO <sub>4</sub>	51	58
Sulfid kislota	H <sub>2</sub> S	-	0,07
Sulfit kislota	H <sub>2</sub> SO <sub>3</sub>	-	34
Karbonat kislota	H <sub>2</sub> CO <sub>3</sub>	-	0,17
Ortosofat kislota	H <sub>3</sub> PO <sub>4</sub>	-	27
Ortoborat kislota	H <sub>3</sub> BO <sub>3</sub>	-	0,04
Sirka kislota	CH <sub>3</sub> COOH	0,4	1,3
<b>2. Asoslar</b>			
Kaliy gidroksid	KOH	77	91
Natriy gidroksid	NaOH	78	91
Ammoniy gidroksid	NH <sub>4</sub> OH	0,4	1,3
Bariy gidroksid	Ba(OH) <sub>2</sub>	-	80
Kaltsiy gidroksid	Ca(OH) <sub>2</sub>	-	78
<b>3. Tuzlar</b>			
Natriy xlorid	NaCl	67	84
Kaliy nitrat	KNO <sub>3</sub>	64	83
Kaliy sulfat	K <sub>2</sub> SO <sub>4</sub>	53	71
Mis sulfati	CuSO <sub>4</sub>	-	40
Natriy atsetat	CH <sub>3</sub> COONa	53	79
Ammoniy xlorid	NH <sub>4</sub> Cl	74	85
Kumush nitrat	AgNO <sub>3</sub>	58	81
Natriy gidrokarbonat	NaHCO <sub>3</sub>	52	-
Natriy sulfat	Na <sub>2</sub> SO <sub>4</sub>	46	69
Kaliy atsetat	CH <sub>3</sub> KOOK	64	-

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

### ASOSIY ADABIYOTLAR:

1. X. Rustamov. Fizik kimyo T.: O'zbekiston. 2000.
2. K.S. Axmedov, X.R.Rahimov. Kolloid kimyo. T. : O'qituvchi, 1992.
3. T.M. Boboyev, X.R.Rahimov. Fizikaviy va kolloid kimyo. T.: F.G'ulom nashr. 2004, 504-bet.
4. G. Xoldorova. Fizik va kolloid kimyodan masala va mashqlar T. : O'qituvchi. 1993, 240 -bet.
5. A.G. Muftaxov. Kimyodan olimpiyada masalalari va ularning yechimlari. T.: O'qituvchi. 1993.
6. Н.Л. Глинка. Задачи и упражнения по общей химии. Л.: Химия, 1987.
7. В.Т. Frolov. Kolloid kimyodan laboratoriya mashg'ulotlari va masalalar. M.: O. M., 1986.
8. A.S. Sulaymonov, A.Xotamov. Xalli mas'alaxo az ximiva. Do'shanbe: Maorif, 1989.
9. В.Е. Липатников, К.М. Казаков. Физическая и коллоидная химия. М.: Высшая школа, 1975.
10. Fizik kimyo kursidan amaliy mashg'ulotlar. (B N.Afanasyev va boshqa tarjimonlar: X.I.Akbarov, R.S. Tillayev)- 4-ruscha nashr. Tarjima-T., O'zbekiston. 1994.

### QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR:

1. I. Asqarov va boshq. Anorganik va umumiy kimyodan masalalar yechish. T.: O'qituvchi, 1995.
2. 500 задач по химии. М: "Просвещение", 1977.
3. Ya.L. Goldfarb va boshq. Ximiyanadan masala va mashqlar to'plami. T : O'qituvchi, 1990.

## MUNDARIJA

	So‘z boshi.....	3
I. bob.	Asosiy gaz qonunlari.....	4
II. bob.	Kimyodan Termodinamika. Termokimyo.....	15
2.1.	Moddalarningissiqlik sig’imi.....	15
2.2.	Termodinamikaning birinchi qonuni.....	22
2.3.	Termokimyo. Gess qonuni.....	28
2.4.	Termodinamikaning ikkinchi qonuni. Entropiya.....	39
2.5.	Termodinamik potensiallar.....	46
III. bob.	Kimyo muvozanat.....	53
IV. bob.	Fazalar muvozanati.....	63
4.1.	Bir komponentli SISTEMALAR.....	63
4.2.	Fazalar qoidasi. Sistemalarning holat diagrammalari ida hisoblashlar.....	64
4.3.	Bir komponentli sistemalarda fazalar muvozanati....	69
V. bob.	ERITMALAR.....	75
5.1.	Suyultirilgan noelektrolit eritmalarining osmotik bosimi.....	77
5.2.	Eritmalarining to‘yingan bug‘ bosimi. Raul қонуни...	83
5.3.	Eritmarda suyuqlik-қаттиқ modda muvazanati. Kreoskopiya .....	87
5.4.	Kuchsiz elektrolitlar. Dissotsiatsiya konstantasi.....	91
5.5.	Suvning ionli ko‘paytmasi.....	95
VI. bob.	KIMYOVIY REAKTSIYALAR KINETIKASI.....	99
VII. bob.	ELEKTROKIMYOVIY JARAYONLAR. ELEKTROLIZ.....	110
7.1.	Электрод потенциаллар.....	110
7.2.	Elektroliz.....	118

VIII.6б.	DISPERS SISTEMALAR BA SIRT HODISALA.	129
IX. 6б.	KOLLOID SISTEMALARING ELEKTROKINETIK HOSSALARI .....	136
X. 6б.	KOAGULYATSIYA HODISASI.....	145
XI. 6б.	ЮҚОПИ MOLEKULALI BIRIKMALAR..... ILOVA.....	153 162
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	169

**G\*. RAHMONBERDIYEV, T. DO'STMURODOV,  
A. SIDIQOV**

**FIZIK VA KOLLOID KIMYODAN  
MASALALAR**

Toshkent – «Fan va texnologiya» – 2006

Muharrir:	<b>Q. Avezboyev</b>
Tex.muharrir:	<b>A. Moydinov</b>
Musahhih:	<b>M. Haitova</b>
Kompyuterda sahifalovchi:	<b>A. Shahamedov</b>

Bosishga ruxsat etildi 20.12.2006. Bichimi  $60 \times 84 \frac{1}{16}$   
«Times Uz» garniturasi. Ofset bosma uslubida bosildi.  
Shartli bosma tabog'i 11,5. Nashr hisob tabog'i 12,0.  
Adadi 500. Buyurtma №109. Bahosi kelishilgan narxda.

«Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi»da chop etildi.  
700003, Toshkent shahri, Olmazor ko'chasi, 171-uy.



капиллярдан оқиб үтиш вақти, сұнгра, ўшанча ҳажмдаги суюқликнинг оқиб үтиш вақти үлчанади. Пуазел қонуни иккала суюқлик учун қыйидагыча ёзилиши мүмкін:

$$\text{Сув учун } \eta_0 = \frac{\pi \cdot p_0 \cdot r^4 \cdot t_0}{8 V \cdot \ell}; \text{ суюқлик учун } \eta = \frac{\pi \cdot p \cdot r^4 \cdot t}{8 V \cdot \ell}$$

Бу икки тенгламани бир-бирига булиб  $\frac{\eta}{\eta_0} = \frac{P}{P_0} \cdot \frac{t}{t_0}$  тенгламасини ҳосил қиласыз:  $P/P_0$  ни  $\rho/\rho_0$  шаклида ёзиш мүмкін ( $\rho$ -суюқликнинг зичлиги,  $\rho_0$ -сувнинг зичлиги); у ҳолда:


$$\frac{\eta}{\eta_0} = \frac{\rho \cdot t}{\rho_0 \cdot t_0} \text{ бұлади; бундан } \eta = \eta_0 \cdot \frac{\rho \cdot t}{\rho_0 \cdot t_0} \text{ келиб чиқади.}$$

Қовушқоқликни үлчаш учун ишлатыладын асбоб вискозиметр дейилади (7-расм). Вискозиметрнинг а белгисидан в белгисига суюқликнинг оқиб тушиш вақти үлчанади. Үша ҳароратда суюқлик зичлиги пикнометр ёрдами билан аниқланғандан кейин, у

$$\eta = \eta_0 \cdot \frac{\rho \cdot t}{\rho_0 \cdot t_0} \quad (1.43)$$

формулага қўйилиб,  $\eta$  ҳисоблаб топылади.

Қовушқоқликни аниқлашнинг бошқа усулы ҳам бор. Бу усул суюқликка ташланған металл шарнинг ҳаракат тезлигини аниқлашга асосланади. Суюқликка ташланған шарнинг оғирлик күчи таъсири остида тушиш тезлиги Стокс қонуни асосида топылади. Бу қонунга мувофиқ, суюқликнинг шар ҳаракатига күрсаттаган қаршилик күчи ( $F$ ) шарнинг ҳаракат тезлигига, шарнинг радиусига ва суюқликнинг қовушқоқлигига мутаносибdir



7-расм. Вискозиметр

$$F = 6\pi \eta r u \quad (1.44)$$

бу ерда  $u$ -шарнинг суюқлик ичидә ҳаракатланиш тезлиги.

Агар шарнинг зичлиги  $D$ , суюқлик зичлиги  $\rho$  бўлса, шарнинг суюқликдаги оғирлиги Архимед қонунига биноан

$$P = \frac{4}{3} \pi (D - \rho) r^3 \cdot g \quad (1.45)$$

$$\text{булади } (g = 981 \frac{\text{см}}{\text{сек}^2}) \quad (1.46)$$

Суюқлик ичидаги шарнинг оғирлиги суюқликнинг қаршилик кучига баравар десак,

$$\frac{4}{3} \pi r^3 (D - \rho) g = 6\pi \eta r u \quad (1.47)$$

булади. Бундан:

$$\eta = \frac{2}{9} \frac{(D - \rho) g \cdot r^2}{u} \quad (1.48)$$

ифодаси келиб чиқади. Тажрибада шарнинг ҳаракат тезлигини улчаш орқали суюқликнинг қовушқоқлигини юқоридаги формула ёрдамида ҳисоблаб топиш мумкин.

Стокс формуласидан фойдаланиб, суюқликларнинг нисбий қовушқоқлигини ҳам аниқлаш мумкин. Бунинг учун шарнинг ҳаракат тезлиги аввал стандарт суюқликда, сунгра синаладиган суюқликда ўлчанади. Бу икки ҳол учун шарнинг ҳаракат тезликлари орасидаги нисбат қўйилдагича ёзилади:

$$\frac{u_1}{u_2} = \frac{\eta_2 (D - \rho_1)}{\eta_1 (D - \rho_2)} \quad (1.49)$$

бу ерда  $u_1$ -шарнинг стандарт суюқликдаги ҳаракат тезлиги,  $u_2$ -шарнинг синаладиган суюқликдаги ҳаракат тезлиги,  $\eta_1$ -стандарт суюқлик қовушқоқлиги,  $\eta_2$ -синаладиган суюқлик қовушқоқлиги,  $\rho_1$  ва  $\rho_2$ -стандарт ва синаладиган суюқликларнинг зичликлари,  $D$ -шарнинг зичлиги. Бу формула-

даги  $\eta_1$ ,  $\rho_1$ ,  $\rho_2$ , D-катталиклар маълум бўлгандан кейин, и, ва и<sub>2</sub> ларни ўлчаш йўли билан  $\eta_1$ ни топиш мумкин.

Суюқликларнинг қовушқоқлиги ҳароратнинг пасайиши билан ортади: баъзан суюқлик узининг оқувчанилигини йуқотидиган даражага етади, бу вақтда суюқлик қаттиқ жисм (масалан, шиша, смола ва х.к.) хоссаларига эга булиб қолади.

Суюқликларнин қовушқоқлиги босимнинг ортиши билан ортади. Суюқликларнинг қовушқоқлигини урганиш жуда кўп назарий ва амалий муаммоларни ҳал қилишда катта аҳамиятга эга. Масалан, қовушқоқлик ва бошқа шу каби физик-кимёвий хоссалардан фойдаланиб, эритмада кимёвий жараён бор-йуқлигини билиш мумкин.

## B. Моддаларнинг қаттиқ ҳолати

### 9-§ Моддаларнинг кристалл ҳолати. Кристаллар структураси ва пухталиги. Полиморфизм.

Моддаларнинг газсимон, суюқ, қаттиқ ва плазма ҳолатлари модда таркибидаги микрозаррачалар (молекула, атом, ион ва электронлар) ҳаракатининг айни ташқи шароитдаги сифат кўринишларидан иборат.

Моддаларнинг қаттиқ ва суюқ ҳолатлари умумий ном билан-кondенсатланган модда ҳолатлари деб аталишини юқорида айтиб утдик. Қаттиқ жисмда заррачалараро тортишув кучлари катта қийматларга эга, заррачалараро масофалар кичик. Қаттиқ жисм узининг ҳажми ва шаклини сақлаш қобилиятига эга. Бу хоссаси билан у газ ва суюқликлардан фарқ қиласди.

Барча қаттиқ жисмларни кристалл ва аморф моддалар деб икки гурухга бўлиш мумкин. Кристалл жисмлар таркибидаги микрозаррачалар геометрик жиҳатдан батартиб жойлашган булади. Кристалл модда заррачалари орасида тортишув кучли бўлганлиги сабабли кристалл модда бир ҳажмдан бошқа ҳажмга кўчирилганида унинг шакли ўзгармайди. Кристалл қаттиқ жисм таркибидаги атом, молекула ва ионлар фақат ўзини қуршаб олган қушни заррачалар билан тортишибгина қолмай, балки жисм ҳажмининг ҳамма-

сидаги заррачалар билан ҳам тортишади. Бошқача айтганды, кристалл қаттық модда ҳам «яқин» ҳам «узоқ» тартибга эзға. Аморф жисмларда заррачаларнинг батартиб жойланышы фақат «яқин» тартиб билангина чекланади. Аморф модда юқори даражада қовушқоқлик намоён қилади.

Модданинг аморф ҳолати ўзининг физикавий хоссалари (механик пишиқлиги, иссиқ ўтказувчанлиги, ёруғлик нурини синдириш коэффициенти, электр хоссалари)нинг аниятроплиги (яъни йўналишга боғлиқ бўлганлиги), ва суюқланиш ҳарорати қатъий муайян бўлмаслиги, ҳамда фақат «яқин» тартибга эзға эканлиги билан кристалл ҳолатдан фарқ қилади. Аморф моддани ута совуғилган суюқликка уҳшатилади Куп ҳолларда бир модданинг ўзи ҳам кристалл, ҳам аморф шаклларда булиши мумкин. Масалан, кремний оксид ( $\text{SiO}_2$ ) табиатда кварц (кристалл шакл) ва чақмоқтош (аморф шакл) ҳолида учрайди. Углерод ҳам олмос (кристалл ҳолат) ва кўмир (аморф шакл) ҳолатларида учрайди.

Модданинг кристалл ҳолати доимо унинг аморф ҳолатига қараганда барқарор бўлади. Шу сабабдан аморф модда аста-секин кристалл ҳолатга утиб боради. Лескин одатдаги шароитда бу жараён сустлик билан содир бўлади, модда қиздирилганда бу жараён тезланиши мумкин.

Моддалар газ ва суюқ ҳолатда бўлса, улар таркибидағи микрозаррачалар илгарилама ҳаракат қилади; кристалл ҳолатда эса модда заррачалари фақат маълум мувозанат марказлар атрофида тебранади.

Металларнинг кристалл панжара тугунларига металлнинг мусбат зарядли ионлари жойлашган булиб, улар орасидаги фазони эркин электронлар банд этади. Эркин электронлар бир мусбат иондан бошқа мусбат ионга бемалол утиб туради, электронларнинг ана шундай ҳарақатлари туфайли металларнинг кристалл панжарасида етарли даражада пишиқ боғланишлар келиб чиқади. Металларнинг электр ўтказувчанлиги, болғаланувчанлиги, иссиқ ўтказувчанлиги ана шу электронлар ҳаракати туфайли амалга ошади. Металлар асосан уч хил панжарада кристалланади: а) Be, Mg, Zn, Cd, Ti, Cr, Co ва бошқалар зич гексагонал панжарада; б) Cu, Ag, Au, Al, γ-Fe, α-Co, Ni марказлашган куб шакли панжарада; в) Li, Na, α-Cr, α-Fe, Mo, W ҳажмий марказлашган шаклдаги кристалл панжараларда кристалланади.

Тузларнинг кристалл-гидратларида тузнинг катиони аниони билан ўзаро боғланиш ҳосил қиласи, анионни ташкил этувчи атомлар орасида ковалент боғланиш амалга ошиди, кристалл-гидрат таркибидаги қутбли сув молскулалари билан ионлар орасида ковалент боғланиш содир бўлади.

Агар кристалл панжаранинг структуравий элементлари ўзаро ковалент боғланган атомлардан иборат бўлса, бундай кристалл панжара атомли кристалл панжара деб аталади. Атомлароро ковалент боғланишлар кучли бўлгани учун атомли панжара тузилишига эга бўлган моддалар қаттиқ, зритувчиларда оз эрувчан, юқори ҳароратда суюқланувчан бўлади. Атомли панжарада кристалланадиган моддалар жумласига олмос, кремний ва бор элементларини киритиш мумкин. Агар кристалл ячейка тугунларида (учларида) мусбат ва манфий ионлар оралаб жойлашган бўлса, бундай ҳолда ионли панжаралар ҳосил бўлади. Купчилик анорганик моддалар ионли панжараларда кристалланади. Қарама-қарши ишорали ўзаро деярли катта кучлар билан тортилиб туришлари сабабли ионли панжарада кристалланадиган моддалар юқори даражада пишиқ ҳамда юқори ҳароратларда суюқланувчан бўлади. Ионли панжараларда панжаранинг координацион сони катион радиусининг анион радиуси нисбатига боғлиқ, у 3, 4, 6, 8 ва 12 бўлиши мумкин.

Ҳар қандай қаттиқ модданинг икки ва ундан ортиқ кристалл панжарага эга бўлиши *полиморфизм* дейилади. Қаттиқ модданинг ҳар хил кристалл панжаралари полиморф шаклилар ёки модификациялар деб, бир модификациядан иккинчи модификацияга ўтиши эса полиморф ўзгаришлар деб аталади. Айни модданинг ҳар хил модификациялари унинг номи ёки кимёвий белгиси олдига қўйиладиган юонон ҳарфи билан белгиланали.  $\alpha$  хона ҳароратида ёки ундан паст ҳароратда барқарор бўлган модификацияни,  $\beta$ -уша модданинг юқорироқ ҳароратда барқарор бўлган иккинчи полиморф шаклини, у ва  $\delta$  эса ундан ҳам юқори ҳароратда барқарор бўлган модификацияни курсатади. Масалан, олмосдағидек куб панжарага эга бўлган  $\alpha$ -Sn (кулранг қалай)  $13,2^\circ$  дан пастда барқарор, аммо ундан юқори ҳароратда тетрагонал панжарали  $\beta$ -Sn (оқ қалай) га ўз-ўзидан ўтиб олади.  $\beta$ -Sn суюқланиш ҳароратига қалар барқарор-бу одатда ишлатиладиган қалай шаклидир.  $\beta$ -Sn нинги  $\alpha$ -Sn га ўтишида

ҳажмининг 25,6% га ва мұртлигининг кескин ортиши билан солир бўлади. Бу қалай панжарасининг бузилишига олиб келали ва «қалай үлати» деб аталади.

Модданинг бир модификациядан бошқа модификацияга ўғишида (паст ҳароратли шаклдан юқори ҳароратли шаклга ўтса) иссиқлик ютилади, акс ҳолда иссиқлик чиқади. Модданинг масса бирлигига нисбатан ажралган (ёки ютилган) иссиқлик миқдори полиморф узгариш иссиқлиги дейилади. Моддаларнинг қаттиқ кристалл ҳолати учун полиморфизм жуда кенг тарқалган ва бевосита қонуний ҳодисадир. Молекуляр, ион, ковалент ва металл кристаллар орасида полиморфизм ҳодисаси жуда күп учрайди. Ҳамма қаттиқ жисмларда полиморф узгаришлар панжара даври, солиштирма ҳажм ҳамда электрұтказувчанлик, иссиқлик сифими, қаттиқлик, пухталик ва пластиклик каби физик ва механик хусусиятларнинг узгариши билан боради. Бу узгаришлар металл ва қотишмалар учун жуда муҳим, чунки у саноатда металл ишлаб чиқариш ва уни ишлатиш жараёнларида ҳал қилувчи омил ҳисобланади.

Ҳар қандай кристалл модда ўзига хос кристалл панжара энергияси билан тавсифланади. Кристалл панжара энергияси деганда 1 мол кристаллни таркиб қисмларига батамом парчалаб, ҳосил булган таркиб қисмларни бир-биридан чексиз узоқ масофага тарқатиб юбориш учун зарур бўлган энергия миқдорини тушунмоқ керак; бу катталик А.Ф.Капустинский формуласи:

$$U = 1071,33 \frac{n \cdot Z_1 \cdot Z_2}{R_a + R_k} \frac{\text{Дж}}{\text{мол}} \quad (1.50)$$

Билан ҳисобланиши мумкин, бунда  $n$ -модданинг кимёвий формуласидаги ионлар сони,  $Z_1$  ва  $Z_2$ -анион ва катион валентликлари,  $R_a$ ,  $R_k$ -анион ва катион радиуслари,  $U$ -панжара энергияси.

4-жадвалда баъзи моддалар учун  $n$  нинг қийматлари келтирилган.

### Баъзи моддаларнинг кристалл панжара энергияси

$$U^{\text{б}} = \left( \frac{KJ}{\text{мол}} \right) \text{ хисобида}$$

Анион	F	Cl	Br	I	OH
Катион	лар билан ҳосил бўлган моддаларнинг қийматлари $U^{\text{б}}$				
Li+	1024	842	802	748	854
Na+	909	774	741	694	884
K+	805	703	677	637	790
Rb+	774	678	654	618	766
Cs+	732	646	625	592	720

### 10-§ Тупроқ маъданлари, уларнинг тузилиши, хоссалари ва тупроқшуносликдаги аҳамияти

Тупроқ таркибининг 90% дан ортиғи маъдан компонентлардан иборат булиб, ўсимликлар учун асосий озуқга заҳираларини тутади. Тупроқ полидисперс система булиб, мураккаб механик, маъданли ва кимёвий таркибга эга. Їжадвалда тупроқ қаттиқ фазасининг уртacha кимёвий таркиби келтирилган.

Тупроқ қаттиқ фазасининдеярли ярми кислороддан, учдан бири-кремнийдан, 10% дан ортиқ алюминий ва темирдан ва фақат 7% эса бошқа элементлардан иборат. Їжадвалда келтирилган элементлардан фақат азот (қисман кислород, углерод, фосфор ва олтингугурт) тупроқнинг органик қисми таркибига киради. Қолган элементлар эса тупроқнинг маъдан қисмини ташкил қиласди. Тупроқдаги ҳамма маъданлар келиб чиқишига кўра бирламчи ва иккиламчи маъданларга булинади. Бирламчи маъданлар тупроқда кварц (кремний (IV) оксид), даҳа шпати, слюда ва кремниининг бошқа кислородли бирикмалари ҳолида тарқалган. Бу маъданлар магматик ва тупроқ ҳосил қилувчи таркибий қисмларнинг асосий массасини ташкил қиласди.

## 5-жадвал

## Тупроқ қаттық фазасининг ўртача кимёвий таркиби

Элемент-нинг номи	Таркиби %	Элемент-нинг номи	Таркиби %	Элемент-нинг номи	Таркиби %
Кислород	49,0	Барий	0,05	Галлий	$(10^{-3})$
Кремний	33,0	Стронций	0,03	Қалай	$(10^{-3})$
Алюминий	7,1	Цирконий	0,03	Кобальт	$8 \cdot 10^{-4}$
Темир	3,7	Фтор	0,02	Торий	$6 \cdot 10^{-4}$
Углерод	2,0	Хром	0,02	Мишьяк	$5 \cdot 10^{-4}$
Калций	1,3	Хлор	0,01	Иод	$5 \cdot 10^{-4}$
Калий	1,3	Ванадий	0,01	Цезий	$5 \cdot 10^{-4}$
Натрий	0,6	Рубидий	$6 \cdot 10^{-3}$	Молибден	$3 \cdot 10^{-4}$
Магний	0,6	Рух	$5 \cdot 10^{-3}$	Уран	$1 \cdot 10^{-4}$
Водород	0,5		$5 \cdot 10^{-3}$	Бериллий	$1 \cdot 10^{-4}$
Титан	0,46	Никел	$4 \cdot 10^{-3}$	Германий	$1 \cdot 10^{-4}$
Азот	0,1	Литий	$3 \cdot 10^{-3}$	Кадмий	$5 \cdot 10^{-5}$
Фосфор	0,08	Мис	$2 \cdot 10^{-3}$	Селин	$1 \cdot 10^{-5}$
Олтингугурт	0,08	Бор	$1 \cdot 10^{-3}$	Синюб	$1 \cdot 10^{-5}$
Марганец	0,08	Кургошин	$1 \cdot 10^{-3}$	Радий	$8 \cdot 10^{-11}$

Бирламчи маъданлар ер сатхи шароитларида беқарор булиб шамол ва ҳар хил кучлар таъсирида нисбатан барқарор-иккиламчи маъданларга айланади. Булар оддий таркибига эга булган темир (II) ва (III) гидроксидлари, алюминий ва кремний гидроксидлари ҳамда бошқа бирикмалардир. Буллардан ташқари юқоридаги кучлар таъсирида мураккаб тузишишга эга булган иккиламчи (алюмо-ва ферросиликат) лар ҳам ҳосил булади. Булар бирламчи маъданларга нисбатан юқоридинсперс бўлгани учун тупроқнинг асосий ҳоссаси-ҳосилдорлигини оширишда муҳим аҳамиятга эга.

Мураккаб таркибли ҳамда иккиламчи маъданлар ясси қурилишига эга бўлиб кимёвий bogланган сувга эга. Бундай маъданлар ҳар хил таркибли лойларнинг асосий қисмини ташкил қилгани учун *юзилар ёки лой маъданлар* деб ҳам аталади. Лой маъданлар сони жуда кўп, лекин тупроқда энг кўп тарқалған ва ҳосилдорликда муҳим аҳамиятга эга булганлари учун тураруҳга булинади: каолинитлар  $[Al_2Si_2O_5(OH)_4]$  ва галлуазит

$[Al_2Si_2O_5(OH)_4 \cdot 2H_2O]$ ; монтмориллонитлар гурухи-монтмориллонит  $[Al_2Si_4O_{10}(OH)_2 \cdot nH_2O]$ , бейделлит  $[Al_2Si_3O_7(OH)_3 \cdot nH_2O]$ , нонгронит  $[Fe_2Si_4O_{10}(OH)_3 \cdot nH_2O]$  ва учинчиси — гидроксислюдадар гурухи — гидромусковит (иллит)  $\{KAl_2[(Si,Al)_4O_{10}](OH)_2 \cdot nH_2O\}$ , гидробиотит  $\{K(Mg,Fe)_3[(Al, Si)_4O_{10}](OH)_2 \cdot nH_2O\}$  ва вермикулит  $\{(Mg,Fe^{2+},Fe^{3+})_2[(Al, Si)_4O_{10}](OH)_2 \cdot 4H_2O\}$  лардир. Турли лой маъданларининг кристалл панжараси кремний ва кислород атомларидан, шунингдек алюминий, кислород ҳамда водород атомларидан иборат бир хил элементлар структуравий бирликлардан тузилган.

Тупроқнинг муҳим физик-кимёвий хоссалари-сув ютиш ҳажмининг ўзгариши, гидрофиллиги, ёпишқоқлиги, мухит реакцияси ва бошқа қатор хусусиятлари тупроқнинг маъдан таркибига бевосита боғлиқ. Бундан куриниб турибдики ўсимликларнинг тупроқ таркибидаги маъданларнинг хилига ва уларнинг дисперслик даражасига боғлиқ. Тупроқдаги фосфатлар, калий ва микроэлементларнинг ўсимликлар томонидан ўзлаштирилишида ҳам лой маъданларининг хили ва таркиби муҳим аҳамиятга эга. Демак, иккиласмчи маъданларнинг сифат ва миқдорий таркиби тупроқнинг асосий хоссаси-ҳосилдорлигини оширишда биринчи даражали омиллардан бирини ташкил этади.

### Саволлар ва машқлар

1. Суюқликлар газлардан нимаси билан фарқланади?
2. Суюқликларнинг кам сиқилиши нимага асосланган?
3. Ҳарорат ортиши билан суюқликнинг сирт таранглиги ва қовушқоқлиги нима учун камаяди?
4. Сирт таранглик қандай усуллар билан аниқланади?
5. Қовушқоқликни аниқлаш усуллари қандай принципларга асосланган?
6. Кристалл жисмни аморф жисмдан қандай белгиларга қараб фарқлаш мумкин?
7. Кристалл ва аморф жисмлар тузилиши нима билан фарқланади?
8. Нима учун суюқлик тез совитилса, кристалл ҳолга ўтмай, аморф ҳолатта ўтади?

## II боб. Кимёвий термодинамика асослари

### Кириш

Термодинамика номи юонча *therme* (иссиқлик) ва *dinamis* (күч) сўзларидан олинган булиб, у иссиқлик билан алоқадор бўлган кувватлар (энергия турларининг) бир-бирига айланиши туғрисидаги таълимотдир. Термодинамика физиканинг энг мухим қонунларига асосланади. Булар асосан учта қонундан иборат булиб термодинамиканинг асосий қонунлари дейилади. Термодинамиканинг I қонуни энергиянинг сақланишини ифодалаб, энергия хиллари орасида эквивалент муносабатлар борлигини курсатади\*

Термодинамиканинг II қонуни жараёнларнинг йўналиши ҳақидаги қонундир. Бу қонун ёрдамида маълум бир шароитда бирор жараён вужудга келиш-келмаслигини, вужудга келган вақтда қайси йўналишда содир булишини олдиндан айтиш мумкин.

Термодинамиканинг III қонуни энтропиянинг мутлоқ қиймати ҳақидаги қонундир. Бу қонун кимёвий мувозанат шароитини, ҳатто тажриба қилмай туриб ҳисоблаб аниқлашга имкон беради. Термодинамиканинг ҳар қайси қонуни инсониятнинг кўп йиллик кузатиш тажрибаларига асосланган. Уларнинг бири бошқасидан келиб чиқмайди.

Кимёвий жараёнларни термодинамика нуқтаи-назаридан текшириш масаласи кимёвий термодинамиканинг мазмунини ташкил этади.

Термодинамикани баён қилишга киришар эканмиз, бу соҳада қўлланиладиган бир неча тушунча ва атамалар билан танишмоғимиз лозим.

---

\* Термодинамиканинг «нолинчи» қонуни ҳам бор. «Иссиқлик мувозанат ҳолатида турган системанинг ҳамма қисми бир хил ҳароратга эга»

## 1-§. Термодинамикадаги асосий тушунчалар

Ташқи мұхитдан ажралған деб фараз қилинадиган жисм ёки ҳақиқий жисмлар ірухы термодинамикада *система* деб аталади. Оламнинг айни системага қарашли бўлмаган қисми -ташқи мұхит номи билан юритилади. Агар система-нинг таркибий қисмлари чегара сиртлар билан ажралмаса, бундай система *гомоген* система дейилади. Агар система-нинг таркибий қисмлари бир-биридан чегара сиртлари билан ажралса, бундай система *гетероген* система деб ата-лади. Гетероген системанинг бир-биридан чегара сиртлар билан ажралған қисмлари йиғиндиси *фаза* деб аталади. Масалан, ичидә муз парчалари бор бўлган сув-икки фазали гетероген системаидир. *Очиқ система*да система билан ташқи мұхит орасида энергия ҳам, модда ҳам алмашиниши мумкин. Агар система билан ташқи мұхит орасида модда ва энергия алмашинуви содир бўлмаса бундай система изолирланган (ажралған, яккаланған, холисланған) сис-тема дейилади. *Берк системалар* эса ташқи мұхит билан фақат энергия (иссиқлик, яъни иш кўринишида) алмашуви со-дир бўладиган системаларга айтилади. Изолирланған сис-тема ташқи мұхит билан ўзаро таъсир этмайди.

Термодинамикала ўз-ўзича борадиган жараёнлардан ташқари яна мажбурий жараёнлар тушунчаси ҳам мавжуд. Масалан, сиқылган пружинанинг туғриланиши, аккумуляторнинг зарядланиши, кислотанинг ишқор билан нейтрал-ланиши, портлаш, темирнинг занглаши, иссиқликнинг ис-сиқ жисмдан совуқ жисмга ўтиш жараёнларини кўздан ке-чирсак, булардан фақат аккумуляторнинг зарядланишидан бошқа барча ишлар ўз-ўзича борадиган жараёнлар жумласи-га киради; аккумуляторни зарядлаш эса *мажбурий жараён-дир*; чунки унга ташқаридан электр энергия берилади.

Термодинамик системанинг ҳолати масса, ҳажм, бо-сим, таркиб, иссиқлик сифими каби катталиклар билан характерланади. Система ҳолатини аниқловчи катталиклар система ҳолатининг параметрлари деб аталади. Масалан, энг оддий ҳолат-газ ҳолатининг параметрлари-босим, ҳарорат ва ҳажмдан иборат. Системанинг ҳолат функциялари номли тушунчалар ҳам худди ана шу хоссаларга эга. Айланма жа-раёнда системанинг дастлабки ҳолати унинг охирги ҳола-

тининг айнан ўзидир. Шу сабабли ҳар қандай айланма ҳар-  
катда система ҳолатларининг ўзгариш параметрлари ал-  
батта нулга тенг бўлади. Системанинг ўз-ўзича ўзгара ола-  
диган параметрлари мустақил ўзгарувчи параметрлар дей-  
илади. Агар системанинг ҳолати (яъни мустақил ўзгарув-  
чилар сони) вақт ўтиши билан ўзгармаса, бундай систе-  
мани *термодинамик мувозанат система* деб аталади. Бун-  
дай системадаги параметрлар бир-бири билан алоҳида  
математик тенгламалар орқали боғланади. Бу боғланиш-  
лар система ҳолатининг тенгламалари деб юритилади.  
Масалан, идеал газ ҳолатининг тенгламаси ( $PV=nRT$ ),  
реал газнинг ҳолат тенгламаси ( $(P+a/v^2)(V-b)=nRT$ ) билан  
ифодаланади, бу ерда  $n$ -модданинг мол сонлари.

Системанинг параметрлари ўзгарганда унинг ҳолати ҳам  
ўзгаради; бинобарин, система термодинамик жараён со-  
дир бўлади. Ўзгармас ҳароратда содир бўладиган жараён-  
изотермик жараён деб аталади; ўзгармас босимдагиси эса  
изобарик, ўзгармас ҳажмдаги жараён-изохорик жараён деб  
юритилади. Алиабатик жараёнда система билан ташки му-  
хит орасида иссиқлик алмашиниш ҳодисаси содир бўлмайди ( $q=0$ ). Бу шароитда система узининг ички энергияси ҳис-  
бига иш бажаради. Икки жисм ҳароратлари орасида фарқ  
бўлган шароитда бир жисмдан иккинчи жисмга ўтадиган  
энергия иссиқлик деб аталади. Энергиянинг бундай шакл-  
да узатилиши узаро бир-бирига тегиб турган жисмлардаги  
заррачаларнинг тартибсиз ҳаракати туфайли амалга ошади:  
иссиқроқ жисм заррачалари совуқроқ жисм заррачаларига  
энергияни узатади. Бу жараёнда модда узатилиши содир  
бўлмайди. Бир жисмдан бошқа жисмга қандай бўлса-да би-  
рор куч таъсирида модда массасининг узатилиши ҳисобига  
садир бўладиган энергия узатилиши иш деб юритилади.  
Термодинамикада система берилган иссиқликни *мусбат*,  
системадан чиқиб кетган иссиқликни *манфий* ишора билан  
курсатилади. Термодинамикада система бажарган иш *мус-  
бат ишора* билан олиниб, система учун бажарилган иш эса  
*манфий ишора*га эга булади. Иш ва иссиқлик фақат систе-  
манинг бир ҳолатдан бошқа ҳолатга утиш жараёнида аҳами-  
ятга эга. Жараён вақтида ютилган (ёки ажralиб чиққан ис-  
сиқлик ва бажарилган ишнинг миқдорлари-жараён қандай  
усудда бажарилганига боғлиқ; иссиқлик ва иш -жараён ба-  
жарилган йўлнинг функциялари деб қаралади.)

*Моддаларнинг иссиқлик сигимлари тушунчалари билан танишиб ўтамиз. Модда I даражада (1К)га қадар иситилганда ютиладиган иссиқлик миқдори, яъни модданинг иссиқлик сифими-жоуллар бирлигида ифодаланади. Моддаларнинг иссиқлик сигимлари: I) масса ва мол сонлари билан ифодаланади. Модданинг иссиқлик сигимлари: I) масса ва мол сонлари билан ифодаланади. Биринчиси-бир кг модданинг I даражада иситиш учун зарурый иссиқлик миқдори билан ўлчанади (Жоулиг К). Иккинчиси-1 киломол модданинг I даражада иситиш учун зарурый иссиқлик миқдори билан ўлчанади (Жоулимол-К). Моляр иссиқлик сигим С билан массавий иссиқлик сигим с орасида  $C = c M$  боғланшиш мавжуд; бу ерда  $M$ -модданинг молекуляр массаси.*

I  $m^3$  газни I даражада (1К)га қадар иситиш учун зарурый бўлган иссиқлик миқдори ҳажмий иссиқлик сигим дейилади. Уни (Жоулим<sup>3</sup> К) шаклида ёзилади.

Газлар учун яна ўзгармас ҳажмдаги ва ўзгармас босимдаги иссиқлик сигимлар тушунчалари ҳам киритилган; улар узаро қуйилаги тенглама билан боғланган булади:

$$C_p = C_v + R \quad (1.51)$$

Бу ерда  $C_p$ -бир мол газнинг ўзгармас босимдаги иссиқлик сигими,  $C_v$ -бир мол газнинг ўзгармас ҳажмдаги иссиқлик сигими;  $R$ -универсал газ доимийси  $R = 8.314 \frac{\text{Жоул}}{\text{моль} \cdot \text{К}}$  ёки СИ системасида  $R = 8.314 \cdot 10^3 \frac{\text{Жоул}}{\text{К} \cdot \text{моль}}$ .

Моддаларнинг иссиқлик сигими ҳарорат ўзгариши билан ўзгаради. Бу ўзгариш даражали қаторлар шаклида ифодаланади:

$$C = a_0 + a_1 T + a_2 T^2 + \dots \quad \text{ёки} \quad C = a'_0 + a'_1 T + a'_2 T^2 + \dots \quad (1.52)$$

Кимёвий термодинамикага системанинг ички энергияси деган тушунча киритилган; унинг умумий энергия захираси-(системанинг ҳолатига хос потенциал ва ҳаракатига хос кинетик энергиясидан ташқари) энергия миқдори билан ўлчанади; яъни унга модданинг потенциал ва кинетик энергиялари кирмайди, улар ҳисобга олинмайди. Демак,

системанинг ички энергияси жисмдаги молекулаларнинг илгарилама ҳаракат энергиясидир.

Термодинамиканинг биринчи қонуни энергиянинг сақланиши қонунини иссиқлик ҳодисаларига табиқ этишдан иборат. Энди биз бу қонундан келиб чиқалиган оқибатлар ҳәқида бахс юритайлик. Фараз қылайлик, поршенили цилиндр ичидаги газ ташқи мухитдаги иситгичдан маълум миқдор иссиқлик  $Q$  ни олган бўлсин. Бунинг оқибатида газнинг ҳажми ортади, натижада иссиқлик  $Q$  нинг бир қисми цилиндр устидаги ташки босимга қарши иш бажаради; бу ишнинг миқдорини  $A$  билан ифодалайлик. Колган иссиқлик миқдори системанинг ички энергияси ортишига сарфланади (масалан, шу вақтда ҳарорат кутарилишига сарфланган бўлсин). Бу вақтда системадаги ҳамда ташқи мухитдаги энергияларнинг умумий йигиндиси ўзгармас қатталика эга булади. Шу сабабдан система томонидан бажарилган иш билан система ички энергиясининг ортиши ташқаридан берилган иссиқлик миқдорига тенг бўлади:

$$Q = A + \Delta U$$

## 2-§. Термодинамиканинг биринчи қонуни

Термодинамиканинг биринчи қонуни энергиянинг сақланиши қонуни эканлиги юқорида айтиб ўтилди. Бу қонунга мувофиқ, алоҳида олинган системада энергиянинг умумий миқдори ўзгармайди, энергия йуқолиб кетмайди ва иўқдан бор бўлмайди. Бу асосий қонунни биринчи марта 1748 йилда М В Ломоносов баён этган эди. Сунгра 1842 йилда Ю.Р.Мейер<sup>\*</sup> аниқ таърифлади. XIX асрнинг урталарида механик ишнинг иссиқликлуга ва иссиқликнинг механик ишга айланиши устида Ж.П.Жоул<sup>\*\*</sup> томонидан олиб борилган жуда аниқ тажрибалар ва уларнинг натижалари ҳамда ундан кейинги текширишлар механик энер-

\* Олиус Роберт Мейер (1814-1878), немис табиатшунос олим, шифокор.

\*\* Джеймс Прескотт Жоул (1818-1889)-инглиз физиги

гиянинг иссиқликка тамомила айланиши мумкинлигини кўрсатди; 1 ккал иссиқлик олиш учун 427 кгм ёки 4,814 Кжоул иш иссиқликка утиши керак ёки 4,814 Жоул механик энергия 1 кал иссиқликка эквивалентdir. Бу қиймат иссиқликнинг механик эквивалентни деб юритилади. Иссиқлик билан механик иш орасидаги боғланишни қўйидаги тенглама шаклида ўзиш мумкин:

$$Q = A/j \quad (1.53)$$

бу ерда  $Q$ -иссиқлик;  $A$ -иши;  $j$ -иссиқликнинг механик эквиваленти.

Гельмгольц<sup>\*</sup> 1847 йилда «Энергиянинг сақланиши қонуни»ни умумий тарзда таърифлади. Изолирланган системанинг тулиқ энергияси доимо ўзгармас қийматга эга бўлади. У йуқдан бор бўлмайди ва йўқолиб ҳам кетмайди.

Термодинамиканинг биринчи қонунига мувофиқ, йуқдан энергия олиб абадий ишлайдиган машина (биринчи хил абадийдвигател) қуриб бўлмайди.

Шу вақтга қадар термодинамиканинг биринчи қонунига зид келадиган бирорта ҳодиса топилган эмас. Атом ядросида бўладиган жараёнлар ҳам термодинамиканинг биринчи қонунига зид келмайди. Ҳозирги замон нисбийлик тамойилига асосан, энергия материянинг мавжудлик шакли. Атом ядролари орасида бўладиган реакцияларда жуда күп энергия чиқишининг сабаби шундаки, бу жараёнларда масса камаяди. Биринчи қонуннинг таърифларини яна қайтарамиз:

Биринчи таъриф: Берк системада бўлган барча тур энергиялар йигиндиси ўзгармас қийматга эга. Улар бир-бирига айланганида энергия йуқдан бор бўлмайди ва йўқолиб ҳам кетмайди. Бу таърифни Р.Клаузиус термодинамиканинг «биринчи қонуни» деб атаган.

Иккинчи таъриф: Энергиянинг сақланиш қонуни шуни курсатадики, ташқаридан энергия олмасдан иш бажарадиган абадий ишлайдиган машина (перпетиумobile) қуриш ёки биринчи тур абадий ишлайдиган машина (перпетиум mobile)нинг амалга ошиши мумкин эмас.

---

\*Герман Людвиг Гельмгольц (1821-1894)-немис физиги ва математиги

Учинчи таъриф. Агар бирор жараёнда энергиянинг бирор тури йўқолиб кетса, албаттa эквивалент миқдорда энергиянинг бошқа тури ҳосил бўлади.

### 3-§. Термодинамика биринчи қонунининг математик ифодаси

Ҳар қандай жисмда маълум энергия захираси бўлади. Жисмда бўлган барча энергия миқдори жисмнинг умумий энергияси дейилади.

Кимёвий термодинамикада системанинг ички энергияси деган тушунча киритилади. Системанинг ички энергияси унинг умумий энергияси захираси билан ўлчанади; системанинг кинетик ва потенциал энергиясигина ҳисобга олинмайди; демак, системанинг ички энергияси ундаги молекулаларнинг ўзаро тортилиш ва итарилиш энергияси, илгарилама ҳаракат энергияси, айланма ҳаракат энергияси, молекула ичидан атом ва атомлар гуруҳининг тебраниш энергияси, атомларда электронларнинг айланиш энергияси, атом ядросида бўлган энергия ва ҳоказо энергиялар йигиндисидан иборат. Ички энергия системанинг ҳолатини гавсифлайди. Системанинг ички энергияси моддаларнинг хилига, уларнинг миқдорига, босим, ҳарорат ва ҳажмга боғлиқ. Ички энергия  $U$  ҳарфи билан белгиланади. Жисмдаги ички энергиянинг мутлоқ миқдорини ўлчаб бўлмайди; масалан, кислород ёки водород молекуласи ички энергияларининг умумий миқдорини била олмаймиз, чунки модда ҳар қанча ўзгартасин, у энергиясиз була олмайди. Шунинг учун амалда жисмнинг ҳолати ўзгарган вақтда ички энергиянинг камайиши ёки кўпайишигина аниқланади. Масалан, 2 ҳажм водород билан 1 ҳажм кислород аралашмасининг ички энергиясини  $U$ , билан ифодалайлик. Арашмани электр учқуни ёрдамида портлатаб, сув буғи ҳосил қиласлик. Унинг ички энергиясини  $U_1$ , билан ифодалайлик. Системада ички энергия  $U_1$  дан  $U_2$  га ўзгарди;

$$\Delta U = U_2 - U_1 \quad (1.54)$$

$\Delta U$ -ички энергиянинг ўзгариши; унинг қиймати фақат  $U_1$  ва  $U_2$  га, яъни системанинг дастлабки ва охирги ҳолатига боғлиқ, аммо система бир ҳолатдан иккинчи ҳолатга қай усулда ўтганига боғлиқ эмас.

Масалан, бирор маълум системани қиздирайлик ва унга берилган иссиқликни  $\Delta q$  билан белгилайлик. Термодинамиканинг биринчи қонунига асосан система иссиқлик ютиб, узининг ички энергиясини кўпайтиради ва ташқи кучларга қарши иш бажаради. Агар бу ишни  $\Delta A$  билан ифодаласак, у ҳолда термодинамиканинг биринчи қонуни учун қуйидаги математик ифода ҳосил бўлади:

$$\Delta q = \Delta U + \Delta A \quad (1.55)$$

Демак, системага берилган иссиқлик унинг ички энергиясинини ўзгаришига ва ташқи кучларга қарши иш бажашибга сарф бўлади.

Ички энергия тушунчаси системага оид, иссиқлик ва иш тушенчалари эса фақат жараёнларга оид тушенчалардир. Иссиқлик ва иш фақат жараён оқимида намоён бўлади. Иш ва иссиқлик энергиянинг берилиши шаклларидир. Шунинг учун ҳам жараёндаги иш  $A$  ва иссиқлик  $q$  жараён қай тарзда беришибига албатта боғлиқ бўлади. Ички энергиянинг ўзгариши жараённинг қай тарзда боришибига боғлиқ эмас, у фақат системанинг дастлабки ва охирги ҳолатларига боғлиқ. Лекин ички энергиянинг иш билан иссиқлик уртасида тақсимланиши жараён қай тарзда боришибига боғлиқ. Бу тақсимот турли жараёнлар учун турлича бўлади. Агар система жараён вақтида иш бажармаса (ҳажм ўзгармаса),

$$\Delta U = \Delta q \quad (1.55)$$

бўлади.

Демак, агар реакция ўзгармас ҳажмда олиб борилса, реакция вақтида ажратиб чиқсан ёки ютилган иссиқлик миқдори моддалар системасининг ички энергияси ўзгаришибига тент бўлади; унинг математик ифодаси қуйидагича ёзилади:

$$\Delta U = \Delta q = C_v n \Delta T \quad (1.57)$$

бу ерда, С -модданинг ўзгармас ҳажмдаги моляр иссиқлик сиғими, п-мол сони, АТ-ҳарорат ўзгариши.

#### 4-§. Термодинамик жараёнлар

Жисмга берилган иссиқлик жисм ички энергиясининг ортишига ва ташқи иш бажарилишига сарф булади. Бу ишнинг ифодаси система қандай термодинамик жараёнда эканлигига боғлиқ. Барча термодинамик жараёнлар 4 хил: 1) изобарик жараён; 2) изотермик жараён; 3) адиабатик жараён; 4) изохорик жараён булади



8-расм Газнинг изобарик кенгайиши

1. Изобарик жараён. Ўзгармас босимда солир буладиган жараён изобарик жараён дейилади ( $P=Const$ ).

Маълум миқдордаги газ эркин ҳаракат қиласидаги поршени цилиндрга жойланган бўлсин.

Агар газ қизлирилса, кенгайиб поршени кутара боштайди. Бунда газ атмосфера босимини енгиш учун иш бажаради. Демак, газга берилган иссиқликнинг бир қисми газ ҳароратининг кутарилишига, қолган қисми ташқи иш бажаришга сарф булади. Масалан, ташқи босим  $P$ , поршеннинг кутарилиш баландлиги  $h$  ва цилиндр асосинин юзи  $S$  бўлсин. Маълумки, ишнинг қийматини топиш учун кучни йўлга қупаитириш керак:

$$\Delta A = f \cdot h = Psh \quad (1.58)$$

Агар  $sh$  ҳажмининг ўзгариши  $\Delta V$  эканлигини ҳисобга олсак;

$$\Delta A = P \Delta V \quad (1.59)$$

ифода келиб чиқади. Бу ҳолда термодинамиканинг биринчи қонуни қуйидаги шаклни олади:

$$\Delta q = \Delta U + P\Delta V \quad (1.60)$$

ёки  $\Delta q = (U_2 - U_1) + P(V_2 - V_1)$  бўлади.

Бу тенгламани  $\Delta q = (U_2 - PV_2) - (U_1 + PV_1)$  шаклида ёзайлик.  $U + PV$  ни  $H$  билан белгилайлик, у ҳолда

$$\Delta q = H_2 - H_1 = \Delta H \quad (1.61) \text{ бўлади.}$$

$H$  каттатиги энталпия (юононча энталпиен-қиздирман сузидан келиб чиққан) номини олган.

Бу катталиктининг қиймати жараён қандай олиб борилганига боғлиқ эмас, фақат системанинг дастлабки ва охирги ҳолатларига боғлиқ, п мол газнинг энталпия ўзгариши билан унинг ўзгармас ҳароратлаги иссиқлик сигими орасида қуйилдаги боғланиш мавжуд:

$$\Delta H = n \int C_p dT \quad (1.62)$$

Энталпия ўзгариши  $\Delta H$  сон жиҳатдан ўзгармас босимда олиб борилгаётган жараённинг тескари ишора билан олинган иссиқлик эффицитига тенг эканлигини инобатга олиш керак (яъни  $\Delta H = -Q_p$ ).

II. Изотермик жараён Ўзгармас ҳароратда содир буладиган жараён изотермик жараён дейилади ( $t = \text{Const}$ )

Изотермик жараён вақтида системанинг ҳарорати (ички энергияси) ўзгармайди; системага берилган иссиқликнинг ҳаммаси иш бажариш учун сарф бўлади:

$$\Delta q = \Delta A \quad (1.63)$$

Агар ўзгармас ҳароратда газнинг ҳажми билан босими орасидаги боғланишни график равишда тасвирласак, газнинг *изотерма* деб атала-диган диаграммаси ҳосил бўлади.

Газнинг кенгайишида бажарган иши бу диаграммада  $ABV_1V_2$ , сатҳ билан ифодаланади.

П мол газнинг изотермик бажарган ишини ҳисоблаш учун  $dA = PdV$  ва  $PV = RT$  тенгламалардан фойдаланамиж:



9-расм. Идеал газнинг изотермик кенгайиш ва сиқилиш графиги

$$\int \delta A = \int P dV - \int RT \frac{dV}{V} \quad (1.65)$$

бундан:

$$A = RT \ln \frac{V_2}{V_1} \text{ ёки } A = 2,303 \cdot RT \lg \frac{V_2}{V_1} \quad (1.66)$$

Агар  $\frac{V_2}{V_1} = \frac{P_1}{P_2}$  эканлигини назарда тутсак,

$$A = 2,303 \cdot RT \lg \frac{P_1}{P_2} \quad (1.67)$$

ифодага эга буламиз.

III. Адиабатик жараён. Жараён вақтида системага ташқи мухитдан иссиқлик берилмаса ва системадан иссиқлик олинмаса, бундай жараён адиабатик жараён дейилади. Адиабатик жараён вақтида система узининг ички энергияси ҳисобига иш бажаради.


Адиабатик жараён учун термодинамиканинг биринчи қонунини ёзишда  $\Delta q$  ни нолга тенг деб оламиз:

$$0 = du + \Delta A \text{ ёки } \Delta A = -du$$

Демак, газ адиабатик кенгайганда совийди, адиабатик сиқилганда эса, аксинча исийди. Адиабатик жараён вақтида газнинг ҳажми, босими ва ҳарорати узғаради.

Газнинг адиабатик жараёнини адиабата деб аталаған диаграмма шаклида тасвирлаш мумкин (10-расм). Адиабата

диаграммасыда ҳар қайси нұқта изотермалаги нұқтадан ё пастда, ёки юқорида ётади, чунки изотермик жараёнда босим фаяқт хажм күпайғанлыги учунгина камаяди, лекин адиабатик жараёнда босим иккى сабабдан: газнинг кенгайишидан ва ҳароратнинг пасайишидан камаяди. Шунинг учун адиабата чизиги тикроқ булати (10-расмда АВ-адиабата, А'В'-изотерма).



10-расм. Газнинг адиабатаси ва изотермаси

**IV. Изохорик жараён.** Изохорик жараёнда системанинг хажми ўзгармайды:  $V=\text{Const}$ ,  $dV=0$  демек  $I = \int PdV = 0$  ёки

$Q_v = U_2 - U_1 = \Delta U$ . Шунинг учун иш ҳам нулга тенг бўлади. Диаграммада бу жараён ординаталар ( $P$ ) уқига параллел чизик билан ифодаланади.

Масалан, иссиқликдан кенгаймайдиган цилиндрга газ тўлдириб, поршен bemalol ҳаракат қилаолмайдиган ҳолатга келтирилган бўлса, газ қиздирилганда иш бажарилмайди, балки босим ошиб боради, холос. Шунингдек, ўзгармас хажмга эга бўлган калориметрик бомбада ҳам изохорик жараён содир бўлади. Бундай асбоб ёрдамида моддаларнинг ёниш иссиқликлари аниқланади. Бунинг учун маълум миқдор синаладиган модда идиш ичига солиниб, идишни кислород билан 35 атм. босимда тўлдирилади. Электр разряд ёрдамида модда ёндирилиб, калориметр жойлашган сув ҳарорати ўзгаришини улчаб, модданинг ёниш иссиқлиги ҳисоблаб топилади

Ёниш жараёни оқибатида ички энергиянинг ўзгариши:  $\Delta U = Q_v + A = Q_v - P\Delta V$  ёки  $-P\Delta V = 0$  бўлганилиги учун  $\Delta U = Q_v$  келиб чиқади ( $P\Delta V$  олдига минус қўйишнинг сабаби—ташқи муҳит бажарган ишнинг ишораси минуслик эканлигидир).

Термодинамик жараёнлар билан танишганда фақат «идеал» ҳоллар устида тўхтадик, яъни цилиндр поршенининг оғирлиги, ишқаланиш, ташқи муҳит билан энергия алмашиниши ва бошқалар ҳисобга олинмади

Соф адиабатик жараён амалда кам учрайди; газнинг кенгайиш ёки сиқилиш жараёнларида система билан ташқи муҳит уртасида энергия алмашиниши руй беради. Бундай жараён политропик жараён дейилади.

Шуни назарда тутиш керакки, термодинамикада система бажарган иш мусбат ишора билан, система учун бажарилган иш эса манфий ишора билан олинади. Термодинамикада системага берилган иссиқлик мусбат деб қабул қилинади, системадан ташқарига берилган иссиқлик эса манфий ҳисобланади.

## 5-§. Моддаларнинг иссиқлик сифими

Ҳар қандай моддани  $1^{\circ}\text{C}$  иситиш учун сарфланган иссиқлик миқдори модданинг иссиқлик сифими дейилади. Іг мод-

дани  $1^{\circ}\text{C}$  иситиш учун сарфланган иссиқлик миқдори айни модданинг солиширма иссиқлик сифими дейилади. 1 грамм-молекула моддани  $1^{\circ}\text{C}$  иситиш учун зарур бўлган иссиқлик миқдори шу модданинг моляр иссиқлик сифим деб, 1 грамм-атом моддани  $1^{\circ}\text{C}$  иситиш учун зарур бўлган иссиқлик миқдори эса шу модданинг атом иссиқлик сифими деб аталади.

Моддаларнинг иссиқлик сифими (худди солиширма оғирлиги, қайнаш ҳарорати ва ҳ.к. каби) жуда муҳим физикавий хоссаларидан биридир.

Моддаларнинг иссиқлик сифимига оид иккита-Дюлонг-Пти ва Копп-Нейман эмпирик қоидалари бор.

Дюлонг-Пти қоидасига кўра, қаттиқ ҳолатда олинган элементларнинг атом иссиқлик сифими таҳминан 6,4 кал га teng. Бу қоида ҳарорат ўзгариши билан иссиқлик сифими ўзгаришини ҳисобга олмайди; шунинг учун ҳар қайси элемент маълум ҳароратлар чегарасидагина Дюлонг-Пти қоидасига бўйсинади.

Копп-Нейман қоидасига мувофиқ, қаттиқ ҳолатдаги мураккаб моддаларнинг моляр иссиқлик сифими уларнинг молекулалари таркибидаги элементларнинг атом иссиқлик сигимлари йигиндисига teng.

Моддаларнинг иссиқлик сифими ҳарорат ўзгариши билан ўзгаради. Паст ҳароратларда моддаларнинг иссиқлик сифими жуда тез камаяди, мутлоқ нолга яқин ҳароратларда эса нолга яқинлашади.

## 6-§. Газларнинг иссиқлик сигимлари

Газларнинг иссиқлик сифими, улар қандай шароитда қиздирилишига қараб, турлича бўлади. 1 мол газни маълум ва ўзгармас хажмда  $1^{\circ}\text{C}$  қиздирсан, сарф бўлган иссиқлик  $C_v$  билан ифодаланади.  $C_v$  газнинг ўзгармас хажмдаги моляр иссиқлик сифими дейилади.

1 мол газни ўзгармас босимда  $1^{\circ}$  қиздирайлик. Бу вақтда газ кенгаяди; бунга сарф бўлган иссиқлик миқдори  $C_p$  бўлсин, у қиймат жиҳатидан  $C_v$  га қараганда ортиқ  $C_p$  газнинг ўзгармас босимдаги моляр иссиқлик сифими деб юритилади.

Икката ҳолда ҳам газни  $1^{\circ}$  иситдик. Иккинчи сафар газни  $1^{\circ}$  иситиш билан бирга у атмосфера босимига қарши иш бажариши учун ҳам қўшимча иссиқлик бердик:

$$C_p = C_v + A \quad (1.68)$$

Босим ўзгармаганда газ кенгайишида бажарган иши:

$$A = P(V_2 - V_1) \quad (1.69)$$

бўлади; бу ерда:  $V_1$ -газнинг  $T$ -ҳароратдаги ҳажми;  $V_2$ -газнинг  $(T+1)^0$  даги ҳажми.

Клапейрон-Менделеев тенгламасидан биринчи сафар  $V_1$  ни, иккинчи сафар  $V_2$  ни топамиш:

$$P \cdot V_1 = RT$$

$$P \cdot V_2 = R(T+1)$$

$$V_1 = \frac{RT}{P}$$

$$V_2 = \frac{R(T+1)}{P}$$

$V_2$  ва  $V_1$  қийматларини иш формуласига қуйиб:

$$A = P(V_2 - V_1) = R(T+1-T) = R \quad (1.70)$$

ни ҳосил қиласиз. Бундан фойдаланиб,  $C_p$  билан  $C_v$  орасидаги муносабатни ифодаловчи муҳим формулани чиқарамиз:

$$C_p = C_v + R \text{ ёки } C_p - C_v = R \quad (1.71)$$

Бу тенглама Мейер тенгламаси деб аталади.

Демак, 1 грамм-молекула идеал газнинг ўзгармас босимда ўлчанган иссиқлик сигими билан ўзгармас ҳажмда ўлчанган иссиқлик сигими орасидаги айрман газ константаси ( $R$ )га тенг.

Шундай қилиб, иссиқликнинг механикавий эквивалентини топиш учун  $C_p$  ва  $C_v$  ни (идеал газ учун) аниқлаш керак. Агар  $C_p$  ва  $C_v$  ларнинг қийматлари калтрад ҳисобида маълум бўлса, улар орасидаги айрманни  $8,313 \cdot 10^7$  эрг билан тенглаштириб,  $R$  нинг қийматини калория ҳисобида оламиз. Бундан 1 калория неча эрг га тўғри келишини топамиш.

Текширишларнинг кўрсатишича  $C_p - C_v$  айрмаси  $1,987$  кал/град·мол га тенг. Демак,  $R = 1,987$  кал/град·мол. Иккинчи томондан,  $R = 8,313 \cdot 10^7$  эрг/град мол. Бу икки қийматни тенглаштириб, иссиқликнинг механикавий эквивалентини топамиш:

$$1,987 \text{ кал} = 8,313 \cdot 10^7 \text{ эрг}; \quad 1 \text{ кал} = 4,184 \cdot 10^7 \text{ эрг};$$

$$1 \text{ кал} = 1000 \cdot 4,184 \cdot 10^7 \text{ эрг} = 4184 \text{ жоул}.$$

Демак, 1 кал иссиқлик олиш учун  $4,184$  Жоул иш бажариш лозим.

Газларнинг молекуляр-кинетик назарияси билан танишганда газ молекулаларининг кинетик энергияси билан мутлоқ ҳарорат орасида қуйидаги боғланиш борлиги айтилган эди.

$$E = \frac{3}{2} RT$$

1 грамм-мол газ бўлиб уничг кинетик энергияси  $E_1$ , ҳарорати  $T_1$  бўлсин. Шу газ ўзгармас ҳажмда  $1^{\circ}$  иситилса, кинетик энергияси ўзгариб,  $E_2$  бўлади. 1 г-м газни  $1^{\circ}$  иситиш учун  $C_v$  иссиқлик сарфланди:

$$E_2 - E_1 = C_v$$

$$\text{Иккинчидан: } E_1 = \frac{3}{2} RT_1 \text{ ва } E_2 = \frac{3}{2} R(T_2 + T_1)$$

$$\text{Демак: } C_v = E_2 - E_1 = \frac{3}{2} RT_1 + \frac{3}{2} R - \frac{3}{2} RT_1,$$

$$C_v = \frac{3}{2} R = \frac{3}{2} \cdot 1,987 = 2,98 \text{ кал}$$

Бинобарин, ўзгармас ҳажмдаги 1г-м газни  $1^{\circ}$  иситиш учун 2,98 кал иссиқлик сарфланади.

Газларнинг молекуляр-кинетик назариясини утганимизда, молекулалар шар шаклида деб фараз қилган эдик. Агар газ молекуласи фақат бир атомдан иборат булса, бундай газни биз бир атомли газ деб юритамиз. Инерт газлар, симоб бути, металларнинг бути бир атомли газларга мисол бўла олади. Бир атомли газ қиздирилганида газга берилган энергия шар шаклидаги молекулаларнинг илгариlama ҳаракат тезлигини ошириш учун сарф бўлади, лекин газ заррачаларининг айланма ҳаракати учун ҳеч қанча энергия сарф булмайди. Газ молекулаларининг ҳаракат тезлигини фазода x, y ва z ўқлари буйича уч таркибий қисмга ажратиш мумкин. Бундан, бир атомли газ молекуласининг ҳаракатланиши учун эркинлик даражаси 3 га тенг деган хulosани чиқариш мумкин. Бир мол газ  $1^{\circ}$  га қиздирилганда газ молекулаларининг ҳаракат тезлигини уччала эркинлик даражаси буйича ошириш учун 12,47 Ж иссиқлик сарф қилиш керак бўлса, ҳар қайси эркинлик дараҷаси учун  $12,47 \cdot 3 = 4,157$  Ж иссиқлик сарф қилинади.

Бир атомли газларнинг молекуляр-кинетик назария асосида топилган иссиқлик сифимларини қуидагича ёзиш мумкин:

$$C_v = \frac{3}{2} R = 12,47 \text{ Ж}/(\text{мол} \cdot \text{К}) = 12,5 \text{ Ж}/(\text{мол} \cdot \text{К})$$

$$C_p = C_v + R = \frac{3}{2} R + R = \frac{5}{2} R = 20,785 \text{ Ж}/(\text{мол} \cdot \text{К}) = 21 \text{ Ж}/(\text{мол} \cdot \text{К})$$

$$K = \frac{C_p}{C_v} = \frac{21}{12,5} = 1,67$$

Бир атомли газлардан гелийнинг тажрибада топилган иссиқлик сифими 12,47 Ж/(мол·К)га, аргонники ҳам 12,47Ж/(мол·К)га тенг. Бунга асосланиб, бир атомли газларнинг молекуляр-кинетик назария асосида ҳисоблаб чиқарилган иссиқлик сифими уларнинг тажрибада үлчаб топилган иссиқлик сифимига тенг, деган холосага келиш мумкин.

Энди икки атомли газларнинг иссиқлик сифимини куриб чиқайлик. Икки атомли газга водород, кислород, углерод (II)-оксид, азот ва бошқалар мисол була олади. Икки атомли газ молекуласи моделини бир-бири билан жуда маҳкам боғланган икки шар деб қабул қиласиз.

Бундай газни қиздиришда берилган энергия газ молекулаларининг илгарилама ва айланма ҳаракатлари учун сарф бўлади. Бу ҳолда ҳам молекуланинг илгарилама ҳаракат тезлигини фазода x, y ва z ўқлари бўйича уч таркибий қисмга ажратиш мумкин.

Икки атомли молекуланинг A ҳам B атомлари марказларини бирлаштирувчи ўқ атрофида айланиши учун ҳеч қандай энергия сарф булмайди, энергия факат AB ўқига перпендикуляр булган икки ўқ атрофида айланиши учунгина сарф булади. Шу сабабдан икки атомли молекуланинг айланма ҳаракати эркинлик даражаси иккига тенгdir. Шун-



11-расм. Икки атомли газ молекуласининг модели.

дай қилиб, икки атомли молекуланинг илгарилама ва айланма ҳаракат эркинлик даражаси  $2+3=5$  га тенг. Икки атомли газнинг назарий топиладиган иссиқлик сифими қўйидагича булади:

$$C_p = \frac{5}{2} R = 20,785 \text{ Ж / (мол · К)} = 21 \text{ Ж / (мол · К)}$$

$$C_p = \frac{7}{2} R = 29,096 \text{ Ж / (мол · К)} = 29,1 \text{ Ж / (мол · К)}$$

$$\kappa = \frac{C_p}{C_v} = \frac{29,1}{21} = 1,4$$

Масалан, водороднинг тажриба а топилган иссиқлик сифими  $C_v=20,38$ ; азотники  $C_v=20,75$ ; кислородники  $C_v=20,88$ ; углерод (II)-оксидники  $C_v=20,96\text{Ж}/(\text{мол}\cdot\text{К})$  дир.

Уч атомли (ва күп атомли) газ айланма ҳаракатининг эркинлик даражаси 3 га тенг; унинг илгарилама ҳаракат эркинлик даражаси ҳам 3 га тенг; жами булиб, эркинлик даражалари сони 6 га тенгдир. Демак, уч атомли газнинг иссиқлик сигимини қўйидагича ёзиш мумкин:

$$C_v = \frac{6}{2} R = 24,94 \text{ Ж / (мол · К)} = 25 \text{ Ж / (мол · К)}$$

$$C_p = \frac{8}{2} R = 33,28 \text{ Ж / (мол · К)} = 33,3 \text{ Ж / (мол · К)}$$

$$\kappa = \frac{C_p}{C_v} = \frac{33,3}{25} = 1,33$$

Қаттиқ заррача шаклида деб фараз қилинган молекула айланма ҳаракатининг эркинлик даражаси учдан ортиқ була олмайди. Агар газнинг иссиқлик сигими ( $C_v$ ) олтидан катта булса, буни тушиниш учун молекулаларнинг илгарилама, айланма ҳаракатларидан ташқари, яна тебранма ҳаракати мавжуд эканлигини назарда тутиш лозим.

Бир атомли газ молекулалари фақат илгарилама ҳаракат қила олиши сабабли, газ ҳар қанча қиздирилса ҳам унинг эркинлик даражаси ва, демак, иссиқлик сигими ўзгармаслиги лозим. Дарҳақиқат, бу хулоса тажрибада ҳам тасдиқ-

ланади. Күп атомли газларнинг иссиқлик сигими эса ҳарорат күтарилиши билан ортади, чунки бундай газ қиздирилганида молекуласидаги атомларнинг тебранма ҳаракати зўрайди, атомлар орасидаги боғланиш заифлашади, бунинг натижасида янги эркинлик даражалар вужудга келади. Масалан, икки атомли газларнинг иссиқлик сигими ҳарорат күтарилиши билан ортади; юқори ҳароратда икки атомли газ учун  $C_v$  қиймати <sup>7</sup> га яқин.

## 7-§. Термокимё асослари

Газ ҳолатидаги модда учун ўзгармас босимда энталпия ўзгариши:


$$\Delta H = \Delta U + P \cdot \Delta V \quad (1.72)$$

тengлама билан ифодаланади. Бу ерда  $\Delta H = -Q_v$  тенгликни ёзиш мумкин.  $\Delta U$ -ички энергиянинг ўзгариши,  $Q_v$ -реакциянинг ўзгармас ҳажмдаги иссиқлик эффекти. Реакция натижасида чиқадиган иссиқлик КЖоуллар ҳисобида мусбат (+) ишора билан ифодаланади. Агар кимёвий реакция вақтида иссиқлик ютилса, бу реакциянинг иссиқлик эффекти манфий ишора билан олинади. Бу ҳолда, ютилган иссиқлик миқдори реакция тенгламасида манфий (-) ишора билан ёзилади. Азот ва кислороддан азот (II)-оксиднинг ҳосил бўлиш реакцияси термодинамик қоидага кура  $\frac{1}{2} N_2 + \frac{1}{2} O_2 = NO \quad \Delta H = 90.25 \text{ кЖ/мол}$  шакли-

да, термокимёвий қоидага кура  $\frac{1}{2} N_2(g) + \frac{1}{2} O_2(g) = NO(g) \quad 90.25 \text{ кЖ}$  шаклида ёзилади. Бу реакция эндотермик реакцияга мисол була олади. Ёзилган тенглама айни реакциянинг термокимёвий тенгламаси номи билан юритилади.

Ҳар қандай экзотермик жараёнда реакция учун олинган дастлабки моддалардаги энергия миқдори реакция маҳсулотларининг энергия миқдоридан ортиқ бўлади; эндотермик жараёнда, аксинча, маҳсулотларнинг энергия миқдори купроқ бўлади, шунинг учун реакция вақтида ташки мухитдан энергия ютилади, оддий моддалардан стандарт шароитда (1атм босим ва 298 Кда) бир мол бирикма ҳосил бўлганида ажра-

либ чиқадиган ёки ютиладиган иссиқлик мөкдори шу бириманинг ҳосил булиш иссиқлиги дейилади (ишораси  $\Delta H_{\text{т.}}$ ). Термокимёвий тенгламаларни тузишда дастлабки моддалар ҳамда реакция маҳсулотларининг агрегат ҳолатларини ҳам кўрсатишга зътибор берилади, чунончи газ ҳолати (г), суюқ ҳолат (с), кристалл ҳолат (к) билан ишораланади. Масалан:



Шуни ҳам айтиб ўтиш керакки, оддий моддаларнинг иссиқлик чиқариш билан бирекиши (экзотермик реакция) натижасида ҳосил бўлган бирималар (масалан,  $\text{CO}_2$ ,  $\text{H}_2\text{O}$ ) бекарорроқ, лекин эндотермик реакция натижасида ҳосил бўлган бирималар (масалан,  $\text{CS}_2$ ,  $\text{C}_2\text{H}_2$ ) экзотермик бирималарга қараганда барқарорроқ бўлади. Агар реакция вақтида иссиқликдан ташқари бошқа хил энергия ютилмаса ёки ажralиб чиқмаса, реакциянинг иссиқлик эффекти, энергиянини сақланиш қонунига мувофиқ, реакция учун олинган моддаларнинг энергия мөкдори билан реакция маҳсулотларининг энергия мөкдори орасидаги айнирмага тенг бўлади.


## 8-§. Гесс қонуни

Рус олим Г.И.Гесс 1836 йилда тажриба асосида қуйидаги қонунни таърифлади\*: реакциянинг иссиқлик эффекти жараённинг қандай усулда олиб борилишига боғлиқ эмас, балки фақат реакцияда иштирок этаётган моддаларнинг дастлабки ва охирги ҳолатига боғлиқдир.

Гесс қонуни фақат ўзгармас ҳажмда (у ҳолда  $Q_v = -\Delta U$ ) ёки ўзгармас босимда (у ҳолда  $Q_p = -\Delta H$  содир буладиган жараёнлар учун мутлақо тўғри натижалар беради). Бу қонун ана шу шароитлардагина ўз кучини батамом сақлаб қолади. Гесс қонуни мазмунини тушуниш учун мисол тариқасида карбонат ангидридни икки усулда ҳосил булиш реакциясини олайлик.

Биринчи усул қуйидаги икки босқичдан иборат бўлсин:

\* Герман Иванович Гесс (1802-1850)-С Петербург тог институтида профессор вазифасида ишлаган, академик.




Жами 393,5 кЖ

Иккинчи усулда реакция бир босқичда ўтказилсін:



Бу тенгламалардан күриниб турибиди, 12г күмир билан 16г кислород бирикишидан ҳосил бўлган 28г CO 16г кислородда ёнириладими ёки 12г күмир 32г кислород билан тұғридан-тўғри бириктириладими, барибир, иккала усулда ҳам карбонат ангидриднинг ҳосил бўлиш иссиқлиги бир хил қийматга тенгдир. Гесс қонуни-реакция иссиқликлари йигиндиси қонуни деб ҳам аталади. Агар COning 12г күмир ва 1mol кислороддан ҳосил бўлиш иссиқлигини  $\Delta H$ , билан, 12г күмир ҳамда 0,5 мол кислороддан COning ҳосил бўлиш иссиқлигини  $\Delta H_1$ , билан, COning 0,5 мол кислородда ёниш иссиқлигини эса  $\Delta H_2$ , билан ифодаласак, Гесс қонунига мувофиқ:  $\Delta H = \Delta H_1 + \Delta H_2$  булади. Демак, айрим босқичларнинг иссиқлик эффектлари йигиндиси умумий жараённинг иссиқлик эффектига тенг булиб чиқади.



12-расм. CO нинг ҳосил бўлишига доир термокимёвий схемаси.

**Лавуазье-Лаплас қонуни.** Бу қонунга мувофиқ, маълум бир модданинг оддий моддаларга ажralиш иссиқлиги қиймат жиҳатидан ўша модданинг элементлардан ҳосил булиш иссиқлигига тенг булиб, ишора жиҳатидан қарама-қаршилир. Бу қонун Гесс қонунидан келиб чиқадиган I-хulosанинг айнан ўзи булиб, Гесс қонунидан бир неча йил илгари (1780 йилда) таърифланган.

12-расмда бу реакциялар схематик давища тасвирланган. Масалан, 2г газсимон водород 160г суюқ бром билан бирикиб, 2 мол НBr ҳосил қилганда 70,71 кЖ иссиқлик чиқади; 2 мол НBrни газсимон водород ва суюқ бромга ажратиш учун 70,71 кЖ иссиқлик сарф қилиш лозим. Гесс ва Лавуазье-Лаплас қонунлари энергия сақланиш қонунинг хусусий куринишидир.

Моддаларнинг ҳосил булиш иссиқлиги паст ҳароратларда кимёвий бирикманинг барқарорлигини характерловчи каттатик була олади. Купроқ иссиқлик чиқариш билан ҳосил булган моддалар барқарорроқ булади. Масалан, Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub>нинг Al ва кислороддан ҳосил булиш иссиқлиги 1548,1 кЖ молга тенг бўлгани учун модда жуда барқарор моддадир.

Гесс қонуни кимёвий реакцияни тажриба қилиб кўрмасдан ҳам айни реакциянинг иссиқлик эфектини ҳисоблаб чиқаришга имкон беради.

## 9-§. Стандарт иссиқлик эфектлар (стандарт энталпиялар)

Турли реакцияларнинг иссиқлик эфектларини бир-бири билан таққослаб кўриш мумкин бўлсин учун стандарт иссиқлик эфектлари ёки стандарт энталпиялар тушунчаси киритилган. Стандарт иссиқлик эфект деганда айни реакциянинг 1 атм босим ва 25° (298К) ҳароратга мувофиқ келадиган иссиқлик эфектини тушунмоқ керак (7-жадвал). Оддий модда қандай ҳолатда энг барқарор булса, ана шу ҳолат унинг *стандарт ҳолати* деб қабул қилинади, унинг шу ҳолатига мувофиқ келадиган иссиқлик эфектини *стандарт иссиқлик эфекти* деб олинади; стандарт ҳолатда бу қиймат оддий моддалар учун нолга тенг (масалан, углерод учун стандарт ҳолат сифатида графит ҳолати, олтингугурт учун ромбик олтингугурт ҳолати қабул қилинган, чунки 25°C да гра-

фит ва ромбик олтингүрт шу олдий моддалар (углерод ва олтингүрт) учун энг барқарор ҳолатлардир).

Стандарт иссиқлик эффектлар жадвалидан фойдаланиб ҳар қандай реакциянинг стандарт шароитдаги иссиқлигини ҳисоблаб топиш мүмкін. Бунинг учун реакция маңсулотларининг ҳосил бўлиш иссиқликлари йиғиндисидан дастлабки моддаларнинг ҳосил бўлиш иссиқликлари йиғиндисини айриб ташлаш керак. Масалан,  $\text{CaO} + 3\text{C} = \text{CaC}_3 + \text{CO}$  реакциянинг иссиқлик эффектини ҳисоблаш учун  $\text{CaC}_3$ , ва  $\text{CO}$  ларнинг ҳосил бўлиш иссиқликлари йиғиндисидан  $\text{CaO}$  ва  $3\text{C}$  нинг ҳосил бўлиш стандарт иссиқликлари йиғиндисини айриб ташлаш керак:

$$\Delta H_{\text{реак.}}^{\circ} = -62.8 + (-110,32) - (635,5) = 462,18 \text{ Кж}$$

Хозирги кунда уч минг хил модданинг ҳосил бўлиш энталпиялари аниқланган.

## 10-§. Реакция иссиқлик эффектининг ҳароратга боғлиқлиги

Кирхгоф қонуни. Ҳар қандай реакциянинг энталпияси  $\Delta H_{\text{реак.}}$  — реакция маңсулотлари ва дастлабки моддаларнинг ҳосил бўлиш энталпиялари йигиңдилари орасидаги айрмага тенг бўлади:

$$\Delta H_{\text{реак.}} = \Delta H_{\text{макс.}} - \Delta H_{\text{минимум}}$$
 (1.73)

Агар бу тенгламани узгармас босимда ҳарорат буйича дифференциласак қўйидаги ифодани оламиз:

$$\left( \frac{\partial \Delta H_{\text{реак.}}}{\partial T} \right)_P = \left( \frac{\partial \Delta H_{\text{макс.}}}{\partial T} \right)_P - \left( \frac{\partial \Delta H_{\text{минимум}}}{\partial T} \right)_P - \sum C_p (\text{макс.}) - \sum C_p (\text{д.модда}) = \Delta C_p (\text{реакция})$$
 (1.74)

Бу тенглама Кирхгоф қонунининг ифодасидир. Юқоридаги тенгламани интеграллаш натижасида қўйидаги ифода келиб чиқади:

$$\Delta H = \Delta H_1 + \Delta C_p(T_2 - T_1) \quad (1.75)$$

Бу ерда  $\Delta H_1$  ва  $\Delta H$ , реакция энталпиясининг  $T_1$  ва  $T_2$  даги қийматлари. Агар дастлабки ҳолат стандарт ҳолатдан боштада нишандалған болса ва  $C_p$  лар ҳарорат үзгариши билан үзгартаса, у ҳолда Кирхгоф формуласи қойидаги қуринишни олади:

$$\Delta H = \Delta H_1 + \Delta C_p(T - 298) \quad (1.76)$$

Купчилик молдаларнинг иссиқлик сигимлари ҳарорат билан үзгаратылган. Бундай ҳолларда  $C_p$  учун қойидаги эмпирік формулалардан фойдаланиши мүмкін:

$$C_p = a_0 + a_1 \cdot T + a_2 \cdot T^2 + \dots$$

$$\text{бекі } C_p = a_0^1 + a_1^1 \cdot T + Q_2^1 \cdot T^2 + \dots \quad (1.77)$$

бу ерда  $a_0, a_1, a_2$ -коэффициентлар. Масалан,  $\alpha$ -кварц учун формула  $C = 10,8 + 0,0087 \cdot T$  қуринишга етіледі.

Паст ҳароратларда молдаларнинг иссиқлик сифими жуда пасаяды; мутлоқ нулға яқынлашкан ҳароратларда нулға яқынлашади.

Мисол: 500° С да аммиакнинг ҳосил булиш энталпияси ҳисоблаб топылсın. Масаланы ечишле иссиқлик сифимларнинг ҳарорат үзгариши билан үзгаришини эътиборга олинмасын. Масаланы ечишда қойидаги қийматлардан фойдаланылсın:

$$C(N) = 29,13 \text{ Жоул}/(\text{мол} \cdot K);$$

$$C(H_2) = 28,88 \text{ Жоул}/(\text{мол} \cdot K);$$

$$C(NH_3) = 35,58 \text{ Жоул}/(\text{мол} \cdot K)$$

$$H_m^0(NH_3) = -46,19 \text{ кЖ/мол}$$

Ечиш: Реакция тенглемаси:



асосида 2 мол  $\text{NH}_3$ нинг ҳосил бўлиш стандарт энталпиясини реакция учун  $\Delta H_{\text{rea}}^0 = -92,38 \text{ Кж}/2 \text{ мол}$  га тенг (чунки эркин водород ва эркин азотнинг стандарт энталпиялари нолга тенгидир).

Реакция учун

$$\Delta C_p = (2 \cdot 35,58 - 3 \cdot 28,88 - 1 \cdot 29,13) = -44,62 \text{ Ж}/\text{мол} \cdot \text{К}$$

Топилган қийматларни Кирхгоф\* қонунининг тенгламаси

$$\Delta H^0 = \Delta H_{\text{rea}}^0 + \Delta C_p \cdot (T - 298)$$

га қўйсак, қўйидаги қиймат келиб чиқади:

$$\Delta H_{\text{rea}}(\text{NH}_3) = -(92,38 - \frac{44,62}{1000}) \cdot (773 - 298) = -113,58 \frac{\text{кЖ}}{\text{мол}}$$

Демак, бу реакциянинг  $500^\circ\text{C}$  даги энталпияси  $25^\circ\text{C}$  даги энталпиясидан  $21,20 \text{ кЖ}$  кичикдир.

## 11-§. Эриш иссиқлиги

Газ, суюқ ва қаттиқ жисм бирор суюқликда эритилганда иссиқлик ютилиши ёки ажралиб чиқиши мумкин. Бу иссиқлик тажрибада компонентларни калориметрда бевосита аралаштириш йули билан аниқланади; уни яна бошқа термодинамик катталиклардан ҳисоблаб топиш ҳам мумкин. Одатда эриш иссиқлиги I мол модда учун кўрсатилади. Лекин суюқ ҳолатдаги компонентлар учун I мол эритмага нисбатан ҳисобланади.

Тоза моддаларнинг бир-бири билан аралашганида ажралиб чиқсан ёки ютилган иссиқлик миқдори интеграл эриш

\* Константин Сигизмундович Кирхгоф (1764-1833)-Россия олимни, академик. У 1811 йилда крахмалнинг каталитик реакция натижасида қандга зйланишини кашф қилган. Ундан ташқари, Кирхгоф оптика ва электр соҳаларида ҳам муҳим қоидалар яратган.

иссиқлиги деб аталади. Бир мол модданинг интеграл эриш иссиқлиги  $Q_n$  билан шу модда, неча мол ( $n$ ) эритувчидә эриши орасида маълум боғланишлар мавжуд; одатда бу боғланишлар эмпирик формулалар билан ифодаланади; бундай формулалар турли моддалар бир-бiri билан ара-лаштирилганда турлича курнишга эга.

Кўпчилик ҳолларда, аниқ концентрацияга эга бўлган эритма тайёрлашда бир мол модда эриши учун зарур бўлган эритувчи миқдори қўшилганда ажролиб чиқадиган иссиқлик миқдори айни модданинг эриш иссиқлиги деб қабул қилинади. Масалан, 1 мол  $KCl$  200 мол сувда эриганида ютиладиган иссиқлик миқдори  $Q=-17,77 \text{ кЖ/молга тенг}$ ; бинобарин, айни мисолда  $KCl$  нинг эриш энталпияси  $\Delta H=17,77 \text{ кЖ/молдир}$ .

Хозирги замон тасаввурларига кура туз сувда эриганида унинг кристал (ион) панжараси эритувчи таъсиридан емирилади. Натижада эритувчининг қутбли молекулалари катион ва анионларни қуршаб олади. Ниҳоят эритувчи молекулалари ионнинг ҳамма томонидан келиб ион билан бирекади. Дипол молекулалар ионга бирикиши натижасида комплекслар ҳосил булиш реакциялари содир бўлади. Бунда битта ион билан бириккан эритувчи молекуларининг сони (яъни солватланиш сони) турли омилларга боғлиқ булади. Масалан,  $LiCl$  нинг сувда эриш жараёнини:



тengлама билан ифодалаш мумкин. Қаттиқ модда сувда эриш вақтида унинг кристалл панжараси бузилиб, модда заррачалари эритма ҳажмига текис тарқалади. Бу жараён вақтида иссиқлик ютилади, модда эриган вақтда унинг заррачалари эритмада солватланади (яъни эритувчи молекулалари билан кимёвий таъсирилашади). Бу ҳодисада иссиқлик чиқади.

Демак, эриш иссиқлиги икки қисмдан иборат бўлиб, булардан бири солватланиш иссиқлиги, иккинчиси эса модданинг қаттиқ, суюқ ва газсимон ҳолатдан эритма ҳолатига ўтиш иссиқлигидир.

Моддаларнинг эриш иссиқлиги эритувчининг миқдорига ҳам боғлиқ булади. Агар эритувчидан жуда кўп миқдорда олинса, модданинг эриш иссиқлиги ўзгармас қийматга эга бўлади.

Қаттиқ молданинг эриш энталпиясини топиш учун унинг суюқланиш энталпиясига ёки панжара емирилиш энергиясига солватланиш энталпиясини қушиш керак

$$\Delta H_{\text{эриш}} = \Delta H_{\text{панж}} + \Delta H_{\text{солв.}} \quad (1.78)$$

Агар модда солватланмаса (ёки кам даражада солватланса), унинг эриш иссиқлиги манфий қийматга эга булади (яъни эритма совийди). Агар солватланиш кучли бўлса, эритма исиб кетиши мумкин. 6-жадвалда баъзи моддалар-

нинг эриш энталпиялари курсатилган ( $\Delta H_{298}^0 = -Q_{\text{эриш}}$ )

Юқоридаги тенгламадан:

$$\Delta H_{\text{гидратланиш}} = \Delta H_{\text{эриш}} - \Delta H_{\text{панж}} \quad (1.79)$$

генглама келиб чиқади.

Агар модда солватланмаса (ёки кучсиз солватланса), унинг эриш иссиқлиги манфий қийматга эга бўлали (яъни эритма совийди). Агар солватланиш кучли бўлса, эритма эриб кетади 6-жадвалда баъзи моддаларнинг эриш иссиқлиги кўрсатилган. Бу жадвалдан кўриниб турибдикি KOH, Na<sub>2</sub>CO<sub>3</sub>, каби кучли солватланувчи моддаларнинг эриш иссиқлиги катта. Na<sub>2</sub>CO<sub>3</sub>, ва Na<sub>2</sub>CO<sub>3</sub>·10H<sub>2</sub>O нинг эриш иссиқлигини (Гесс қонуни асосида) солиштириб куриб, Na<sub>2</sub>CO<sub>3</sub> нинг гидратланиш иссиқлиги 25,10 - (-66,94) = 92,04 кЖ/мол эканлигини ҳисоблаб чиқарса бўлади.

Тузларнинг гидратланиш энергиясини ҳисоблашда туз эритилганда икки жараён (кристалл панжаранинг емирилиши ва ҳосил бўлган анион ва катионларнинг сув молекулалари билан бирикиши) содир бўлганлиги учун Гесс қонунини қуллаб қўйилаги тенгламани ёзиш мумкин:

$$\Delta H_{\text{гидр}} = \Delta H_{\text{эриш}} - U_0 \quad (1.80)$$

Бунда  $\Delta H_{\text{туз}}$ -суvsиз тузнинг эриш энталпияси;  $U_0$ -кристалл панжаранинг емирилиш энергияси,  $\Delta H$ -тузнинг ка-

тион ва анионлари гидратланиш энталпияси. Кристалл панжаранинг емирилиш энергиясини ҳисоблаш учун Борн-Хабер циклидан фойдаланиш мумкин. 1 мол кристалл модда емирилиб бир атомли газсизон ионлар ҳосил қилганида ютиладиган энергия миқдори уша молданинг кристал панжара энергияси деб аталади. Кристал панжара энергиясини ҳисоблаб топиш учун Борн-Хабер циклини фикран амалга ошириб қунида келтирилган жараёшарни ( $\text{NaCl}$  мисолида) кетма-кет бажарамиз.

### 6-жадвал

#### Баъзи моддалярнинг эриш энталпиялари

Модданинг формуласи	Эриш энталпияси $\Delta H_{298}^0$ кЖ/мол ҳисобида
$\text{KNO}_3$	-25,65
$\text{NaNO}_3$	26,44
$\text{Na}_2\text{SO}_4$	-2,30
$\text{H}_2\text{SO}_4$	-74,67
$\text{KOH}$	-55,61
$\text{Na}_2\text{CO}_3$	25,10
$\text{Na}_2\text{CO}_3 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$	-66,94
$\text{NH}_4\text{Cl}$	-16,30

I. Натрийни буглатиши (сублимация),  $\text{Cl}_2$ ни атомларга парчалаш:



$$\Delta H_1^0 = \Delta H_{1a}^0 + \Delta H_{1b}^0 = 230,1 \text{ кЖ}$$

II. Натрий ва хлор атомларининг ионланиши:



$$\Delta H_{2c}^0 = +\Delta H_{2a}^0 + \Delta H_{2b}^0 = 130,96 \text{ кЖ}$$

III. Газсизон натрий ва хлор ионлари ўзаро бирикиб кристал натрий хлорид ҳосил қиласи:




$$H_m = ? \quad (III)$$

Тескари реакция иссиқтігі кристал панжара энергиясы  $U_0$  га тенг:

$$U_0 = -\Delta H_m^0$$

IV Бир мол кристал NaCl нинг дастлабки кристал на трий ва молекуляр хлорга парчаланиши. Бұ жараппийнинг иссиқтігі кристал NaCl нинг ҳосил бўлиш стандарт иссиқтингининг тескари ишора билан олинган қийматига ( $-Q_p$ ) тенг.



$$\Delta H_m^0 = -Q_p = 411.0 \text{ кДж}$$

цикл әрк булғанлиги учун энтальпиялар ўзгаришиларининг йиғиндиси нулга тенг булади, яғни:

$$\sum \Delta H = 230.1 + 130.26 - U_0 + 411 = 0$$

Бундан кристал панжара энергияси келиб чиқади:

$$U_0 = \frac{772 \text{ кДж}}{\text{мол}}$$

Мисол: Сүксиз натрий карбонатнинг сувда әриш энтальпияси  $\Delta H(\text{әриш}) = -25.1 \text{ кДж / мол}$ . Уннинг кристал-гидраты  $Na_2CO_3 \cdot 10H_2O$  нинг әриш энтальпияси  $-66.94 \text{ кДж / мол}$  га тенг.  $Na_2CO_3$  нинг гидратланың иссиқтігі топилсін.

Ечиш:  $\Delta H(\text{гидраттаныш}) = \Delta H(\text{әриш}) - \Delta H_{\text{гидрат}}$  асосида топамиз:  $\Delta H(\text{гидрат}) = -25.1 - 66.94 = -92.04 \text{ кДж / мол}$

## 12-§. Моддаларнинг ёниш иссиқтіклари

Модданинг бир мол мөкюори тұлиқ ёнганида ажрағынан чиқадынан иссиқтік үннинг ёниш иссиқтігі деб аталади. Бұны молда таркибындағы углерод карбонат ангидритта, болород сувга, олтингутурт сулфат ангидрилга, үтиши, бошқа элементтер (азот, галогендер, күмуш, ва ҳ.к.) эса әрқин қолаттаға айланиши шарт.

Моддаларнинг ёниш иссиқликлари маълум миқдор мөддани калориметрик бомбада ёндириш орқали топилади. Ёниш жараёни етарли даражада шиддатли бориши учун калориметрик бомбага босим остида тоза кислород киритилади.

Органик моддаларнинг ёниш иссиқликларини текшириш натижасида бир неча қонуният топилган. 1) Органик моддаларнинг гомологик қаторида таркиб бир метил гуруҳга ўзгариши натижасида модданинг ёниш иссиқлиги қандай қаторда булишидан қатъий назар 657 кЖ га ортади. Масалан, этаннинг ёниш иссиқлиги 1560 кЖ, пропаннинг ёниш иссиқлиги эса 2220 кЖ дир; 2) Органик мөдданинг ҳосил булиш иссиқлиги Гесс қонуни асосида ҳисоблаб топилади: органик мөдданинг ҳосил булиш иссиқлиги унинг таркибидаги элементларнинг ёниш иссиқликлари йигиндисидан ўша молда ёниш иссиқлигини айриб ташланган қиймада тенг:

$$Q_{\text{нн}} = \sum Q_{\text{нн}} - Q_{\text{нн}} \quad (1.81)$$

Бу ерда:  $Q_{\text{нн}}$ -айни органик мөдданинг ҳосил булиш иссиқлиги;  $Q_{\text{нннн}}$ -унинг ёниш иссиқлиги.  $\sum Q_{\text{нн}}$ -унинг таркибига кирган элементларнинг ёниш иссиқликлари йигиндиси.

#### 7-жадвал

#### Баъзи органик мөддаларнинг стандарт ёниш иссиқликлари

Бирикма номи	Формуласи (ҳолати)	$\Delta H^\circ_{\text{ннн}}$ кЖ/мол
Метан	$\text{CH}_4$ (г)	-890,31
Ацетилен	$\text{C}_2\text{H}_2$ (г)	-1299,63
Этилен	$\text{C}_2\text{H}_4$ (г)	-1410,97
Этан	$\text{C}_2\text{H}_6$ (г)	-1559,88
Бензул	$\text{C}_6\text{H}_5$ (с)	-3267,70
Толуол	$\text{C}_7\text{H}_8$ (с)	-3910,28
Метил спирти	$\text{CH}_3\text{OH}$ (с)	-726,64
Этил спирти	$\text{C}_2\text{H}_5\text{OH}$ (с)	-1366,91
Этиленгликоль	$\text{C}_2\text{H}_4(\text{OH})_2$ (с)	-1192,86
Глицерин	$\text{C}_3\text{H}_{10}(\text{OH})_3$ (с)	-1664,40
Этилацетат	$\text{C}_4\text{H}_8\text{O}_2$ (с)	-2254,21
Дизтил эфир	$\text{C}_8\text{H}_{16}\text{O}$ (с)	-2730,90
Сирка кислота	$\text{CH}_3\text{COOH}$ (с)	-879,79
Бензой кислота	$\text{C}_6\text{H}_5\text{COOH}$ (к)	-3227,54
Глюкоза	$\text{C}_6\text{H}_{12}\text{O}_6$ (к)	-2815,8
Сахароза	$\text{C}_{12}\text{H}_{22}\text{O}_{11}$ (к)	-5648,0

(Бунда г-газ, с-суюқлик, к-кристал)

3) Органик модда (масалан, ёқилғи) ёнганида содир бұла-  
диган реакциянинг иссиқлик эффектини ҳисоблаб топиш  
учун дастлабқы моддаларнинг ёниш иссиқликлари йигин-  
дисидан маҳсулотларнинг ёниш иссиқликлари йигиндиси-  
ни айриб ташлаш керак:

$$Q = \sum Q_{\text{басында}} - \sum Q_{\text{мак.е}} \quad (1.82)$$

7-жадвалда баъзи органик моддаларнинг стандарт ша-  
роитдаги ёниш энтальпиялари көлтирилган.

### 13-§. Нейтралланиш иссиқлиги

Бир мол-эквивалент кислота бир мол-эквивалент ишқ-  
ор билан ұзаро таъсир этганида ажралиб чиқадиган иссиқ-  
лик миқдори **нейтралланиш иссиқлиги** деб аталади.

Күчли кислотанинг күчли асос билан нейтралланиш  
иссиқлиги моддаларнинг хилига бағытқылған, масалан:



$$\Delta H_H = -57,32 \text{ кЖ}$$



$$\Delta H_H = -57,32 \text{ кЖ}$$



$$\Delta H_H = -57,32 \text{ кЖ}$$

Бу реакцияларнинг ҳаммасида ҳам гидроксил ионлари  
водород ионлари билан бирикиб  $H_3O$  ҳосил қиласылады:



Кислота ёки асос күчсиз бўлса, бир мол сув учун олин-  
ган нейтралланиш иссиқлиги 57,32 кЖ/молдан кам ёки кўп  
бўлади, чунки иссиқликнинг бир қисми күчсиз кислота ёки  
күчли асос молекуласининг ионларга ажралиши учун сарф-  
ланади (диссоциланиш иссиқлиги мусбат ёки манфий бўли-  
ши мумкин). Масалан, күчсиз кислота  $HClO$  нинг күчли асос  
 $NaOH$  билан нейтралланиш иссиқлиги 41,84 кЖ/молга тенг.




I-мисол. Калориметрик бомбада ўзгармас ҳажмда водород ёндирилиб, суюқ ҳолатдаги сув олинган. Бу реакциянинг иссиқлик эффицити  $Q_v = 564,67$  кЖ га тенг эканлиги маълум. Ўша реакция учун ўзгармас босимда ва 291 К да топилган иссиқлик эффицити  $Q_p = 571,70$  кЖ га тенг.

Бу амалий  $Q_p$  ни

$$Q_p - Q_v = -\Delta n \cdot RT$$

формуласи асосида топилган  $Q_p$  билан солиштириб кўринг.  
Ечиш. Реакцияни



шаклида ёзамиш. Бу реакция учун  $\Delta n$  ни топамиз:

$$\Delta n = -3$$

чунки бу реакцияда 3 мол газдан икки мол сув буғи ҳосил бўлади, лекин сув суюқ ҳолатта ўтганидан ҳажми ғоят кичик булганлиги учун уни нол деб қабул қилиш мумкин; бунда:

$$Q_p = Q_v - \Delta n \cdot RT = 564,7 + \frac{3 \cdot 8,314 \cdot 291}{1000} = 571,96 \text{ кЖ}$$

бўлэди. Демак, назария билан тажриба орасида катта фарқ йўқ экан (айирма 0,26 кЖ га тенг).

2-мисол.. 10г NaOH 250 г сувда эриганида сувнинг ҳарорати  $9,5^{\circ}$  кўтарилди. Эритманинг солиштирма иссиқлик сигимини 4,184 га тенг деб олиб, NaOH нинг сувда эриш иссиқлигини топинг.

Ечиш. Эритманинг иссиқлик сигимини 4,184 га тенг деб, эриш вақтида ажралиб чиқсан иссиқликни топамиз:

$$Q = \frac{4,184 \cdot 260 \cdot 9,5}{1000} = 10,33 \text{ кЖ}$$

Імол NaOH 40 г бўлгани учун NaOH нинг эриш иссиқлиги ( $Q$ ) ни қўйидаги пропорциядан топамиз:

10 г NaOH эриганда 10,33 кЖ иссиқлик чиқса

40 г      II      x      II

Бундан:

$$x = \frac{40 \cdot 10,33}{10} = 41,32 \text{ кЖ}$$

Бу ерда  $x\text{-NaOH}$  нинг моляр эриш иссиқлиги.

### Саволлар ва машқлар

1. Термодинамикада иссиқлик ва иш қандай ишора билан олинади? Термохимияда қандай ишора қулланилади?
2. Кимёвий бирикманинг ҳосил бўлиш энталпиясини қандай аниқлаш мумкин?
3. Қандай ҳолда органик моддаларнинг ҳосил бўлиш энталпиялари манфий қийматга эга бўлади?
4. Қандай шароитда реакцияда ички энергия ўзгариши реакция энталпиясига тенг бўлади?
5. Гесс қонуни қандай таърифланади ва ундан қандай хуносалар келиб чиқади?
6. Модданинг эриш иссиқлиги нима?
7. Эриш иссиқлиги билан солватланиш иссиқлиги ўртасида қандай боғланиш бор?

### III боб. Термодинамиканинг иккинчи ва учинчи қонуналари

#### 1-§. Термодинамиканинг иккинчи қонуни

Табиатда содир буладиган ҳодисаларни қозатиш натижасида бу ҳодисалар маълум йуналишга эга деган холоса чиқариш мумкин. Масалан, иссиқлик ҳамма вақт иссиқроқ жисмдан совуқроқ жисмга утади; сув баланд жойдан паст жойга оқади; бир газга бошқа газ қўшилса, бу газлар ўро аралашиб кетади; электр юқори потенциалдан паст потенциалга кучади. Иш иссиқликка бевосита айланади (масалан, ишқаланиш), лекин иссиқликни ишга айлантириш учун қушимча механизм керак, шунда ҳам, иссиқликнинг бир қисми ишга айланмай қолади ва ҳоказо. Бу ҳодисаларниң ҳаммаси ҳам ўз-узича содир булади, лекин улар тескари томонга бормайди. Бу ҳодисаларниң ҳаммаси қайтмас ҳодисалардир. Масалан, сув пастдан баландга оқмайди, иссиқлик совуқ жисмдан иссиқ жисмга утмайди; ваҳоланки иссиқликнинг совуқ жисмдан иссиқ жисмга утиши термодинамиканинг биринчи қонунига хилоф эмас, чунки бу ҳодиса энергиянинг сақланиш қонунига зид келмайди. Демак, термодинамиканинг биринчи қонунига асосланиб, ҳодисаларниң йуналиши ҳақида фикр юритиб булмайди. Бу масалани термодинамиканинг иккинчи қонунигина ҳал қилаолади.

Бу қонунни баён қилишда энергиянинг ҳамма хиллари ҳам икки қупайтирувчидан иборат қупайтма орқали ифодалана олишини назарда тутишимиз керак. Бу қупайтирувчилардан бири интенсивлик омили ва иккинчиси сигум (*миқдор*) омилидир. Масалан, механик энергия  $A = F S$  билан ифодаланиши мумкин. Бу ерда интенсивлик омили куч  $-F$  ва миқдор омили масофа  $-S$  дир. Электр энергиясининг интенсивлик омили кучланиш, яъни потенциаллар айрмаси, иссиқлик энергиясининг интенсивлик омили эса ҳароратдир. Иссиқлик ҳамма вақт юқори ҳароратли жисм-

дан паст ҳароратли жисмга үтади ва бу жараён иккала жисмнинг ҳарорати бараварлашгунча давом этади. Энергиянинг бошқа турларида ҳам шу ҳодисанинг худди ўзини куриш мумкин. Бу ҳолларда жисмлардаги энергияларнинг интенсивлик омиллари бир-бирига tengлашади. Шундан сунг система термодинамик мувозанатга келади. Демак, изолирланган ҳар қандай система ўз-ўзича мувозанат ҳолатга утиш учун интилади. Бу хулоса термодинамиканинг иккинчи қонуни учун умумий таъриф бўла олади.

Мувозанатга келган система ўз-ўзича ҳаракат қила олмайди; шу сабабли ундан иш олиш учун (бошқа энергия сарф қилмай туриб) фойдаланиб бўлмайди. Термодинамиканинг биринчи қонунига мувофиқ ўз-ўзича ишлайдиган абадий машина (биринчи хил абадий двигател) куриш мумкин бўлмаганидек, иккинчи қонунига мувофиқ, бир хил ҳароратга эга бўлган мухит иссиқлиги ҳисобига узлуксиз ишлайдиган машина (иккинчи хил абадий двигател) куриш ҳам мумкин эмас.

## 2-§. Термодинамиканинг иккинчи қонуни учун турли таърифлар

Иккинчи қонуннинг иккита классик яна 3 та замонавий таърифи маълум. 1) Р.Клаузиус таърифига кўра бажарадиган иши фақат иссиқликни совуқ жисмдан иссиқ жисмга ўтказишдан иборат бўлган машинани айланма жараён ёрдами билан яратиш мумкин эмас. 2) Кельвин (Уильям Томсон) таърифига кўра, иссиқликни бирор резервуардан (иссиқлик манбаидан) олиб уни совутгичсиз, эквивалент миқдор ишга айлантирадиган машинани айланма жараён ёрдамида тузиш мумкин эмас. 3) Иккинчи қонун «энергиянинг минимумга интилиш принципи» тарзida таърифланади: айни шароитда системанинг энергияси минимал қийматга эга бўлганидагина система барқарор мувозанат ҳолатни эгаллайди. 4) Льюис таърифига мувофиқ, ўз ҳолатига ташлаб қўйилган ҳар қандай система ўз ҳолатини максимал эхтимолликка эга бўлган йўналиш томон ўзgartиради. 5) Иккинчи қонун энтропия тушунчаси асосида қўйидагича таърифланади: изолирланган системада фақат энтропия ошиб борадиган жараёнларгина ўз-ўзича содир бўла олади

ва жараён энтропия айни шароит учун максимал қийматга эришгунча давом этади. Учинчи, түртінчи ва бешинчи таърифлар замонавий таърифлар жумласига киради.

### 3-§. Қайтар ва қайтмас жараёнлар. Карно цикли

Термодинамиканың иккінчи қонунига математик таъриф беріш учун аввал қайтар жараён ва термодинамик цикл тушунчаларини қараб чиқамиз.

I. Агар айни жараён босиб ұтаётган кетма-кет оралиқ ҳолатларнинг ҳар бири мувозанат ҳолатдан иборат (ёки бу ҳолатта чексиз яқын) бұлса, бундай жараён қайтар жараён леб аталади. Қайтар жараён тескари йұналишга (орқага) қайтганида аввал босиб ұтган барча ҳолатларнинг айнан үзини босиб ұтади (9-расм). Буни идеал газнинг изобарик кенгайиши ва сиқилиши жараёны мисолида күриб чиқамиз. Газ босими  $P_1$  дан  $P_2$ , гача камайтирилғанда унинг ұжымы  $V_1$  дан  $V_2$ , гача кенгаяди деб фараз қилайлык. Газ поршенли цилиндрда бўлиб, поршен устида юк бор дейлик. Бу юкни маълум бўлаклар ҳолида кетма-кет олиш билан газни кенгайтириб борайлик. Бунда газ маълум тезлик билан кенгаяди ва янги мувозанат ұжымни эгаллайди. Бу жараён 9-расмда курсатилган босқичли график билан тасвирланади. Энди юкни оз-оздан поршенга қуйиб бориш билан газ сиқилади. Ҳар сафар поршенга оз-оздан юк қўйиб, газни дастлабки ҳолатта қайтарганимизда, у кенгаяётганда босиб ұтган барча кетма-кет оралиқ ҳолатларни босиб ұтмайди. Газнинг кенгайиш жараёнида босиб ұтган барча оралиқ ҳолатларни сиқилиш жараёнида қайтадан босиб үтиш учун поршен устидаги юкни кетма-кет чексиз кичик бўлакларда юк қўйиб борилади. Натижада жараён қайтар тарзда содир бўлади. Газ қайтмас тарзда кенгайганида унинг бажарадиган иши босқичли график остидаги юзанинг катталиги билан ўлчанди, қайтар тарзда кенгайганида бажарадиган иши АВ чизиги остидаги юзанинг катталигига teng. Демак, газнинг қайтар жараёндаги кенгайиш иши унинг қайтмас жараёндаги кенгайиш ишидан каттадир. Газ сиқилганида эса қайтмас жараён учун сарфланган иш қайтар жараён учун сарфланган ишдан ортиқ бўлади.

II. Система үзининг дастлабки ҳолатига қайтиб келади-ган ҳар қандай айланма жараён цикл дейилади. Агар система бир неча кетма-кет қайтар жараёнларни босиб утиб, үзининг дастлабки ҳолатига қайтса, бундай жараён қайтар цикл деб юритилади.

Энди Карно\* циклини куриб чиқамиз. Бир мол идеал газни поршени цилиндрга жойлаб у билан қуйида тавсифланган түртта муолажа ўтказайлик (13-расм).

Бошланғич ҳолатда (А нүктада) газнинг ҳарорати  $T_1$ , босими  $P$  ва ҳажми  $V_1$  бўлсинг.

1 Ҳарорати  $T_1$  бўлган иситгичдан олинаётган иссиқлик ҳисобига газ  $V_1$  дан  $V_2$  гача изотермик қенгайисин. Қенгайиш изотермик бўлганлиги учун газнинг ички энергияси ўзгармайди, қенгайиш иши ( $A_1$ ) эса иситгичдан олинаётган иссиқлик ( $Q_1$ ) ҳисобига бажарилади ва у:



13-расм. Карно цикли

$$Q_1 = A_1 = RT_1 \ln \frac{V_2}{V_1} \quad (1.84)$$

булади. Расмда бу иш  $ABV_2V_1$  юзага тенг. Жараён АВ изотерма билан кўрсатилган.

2. Биринчи жараён натижасида В нүктага келган газни иситгичдан ажратиб, адабатик қенгайтирилади. Бунда газ ташки мұхитдан ажратилган бўлгани учун иссиқлик ололмайди ва барча иш газ ички энергиясининг камайиши ҳисобига бажарилади. Ички энергиянинг камайиши оқибатида газнинг ҳарорати  $T_2$  га тушади, ҳажми эса  $V_2$  бўлиб қолади. Ҳарорат камайиши унча катта бўлмагани учун бу оралиқда иссиқлик сигими  $C_v$  ни ўзгармас деб олиш мумкин. Бунда ички энергиянинг ўзгариши:

$$\Delta U = C_v(T_2 - T_1) \quad (1.85)$$

\* Сади Карно (1837-1894) француз олимни

ва бажарилган иши:

$$A_2 = -\Delta U = C_v(T_1 - T_2) \quad (1.86)$$

булади. 13-расмда бу иш  $BCV, V$ , юзага тенг ва жараён  $BC$  адиабата билан ифодаланган.

3. Газни  $CD$  буйича  $T_1$  ҳароратда изотермик сиқилади. Сиқиш газ ҳажми  $V_1$  га қадар камайгунча, яъни  $D$  нүқтагача давом эттирилади. Бунда газ изотермик сиқилганлиги туфайли унинг ички энергияси ўзгармай қолади ва сиқишга сарф қилинган  $A_1$  иш бутунлай иссиқликка айланади ва совутгичга ютилади. Унинг миқдори эса:

$$-Q_2 = AT_1 \ln \frac{V_1}{V_2} = A_1 = -RT_1 \ln \frac{V_3}{V_4} \quad (1.87)$$

булади, 13-расмда бу ишнинг миқдори  $CDV, V$ , юзага тенг,  $CD$  изотерма эса ушбу жараённи ифодалайди.

4.  $D$  нүқтада совутгич системадан ажратилади ва газ  $V_3$ дан  $V_4$  га қадар адиабатик сиқилади. Бунда газ ўзининг дастлабки ҳолатига қайтади (бунда газ  $T_1$  гача исийди). Бу жараёнла сарфланган иш ( $A_4$ ) газнинг ички энергиясини оширишга кетди:

$$A_4 = \Delta U = C_v(T_1 - T_2) \quad (1.88)$$

Бу иш 13-расмда  $DAV, V_4$ , юзага тенг.

Туртала жараён тўлиқ айланма жараённи ташкил этгани учун газнинг ички энергияси ўзгармайди. Цикл натижасида газ иситгичдан  $Q_1$  миқдорда иссиқлик олиб  $Q_2$  миқдор иссиқликни совутгичга беради. Умумий иш:

$$A = Q_1 - Q_2 = A_1 + A_2 + A_3 + A_4 \quad (1.89)$$

билан ифодаланади. Бў иш иситгичлан совутгичга ўтган иссиқликнинг бир қисми, яъни  $Q_1 - Q_2$ , ҳисобинга бажарилади. Мазкур жараёнтарда бажарилган ишларнинг алгебраник йигинидини олишда  $A_2$  ва  $A_3$  ўзаро тенг бўлгани учун қисқариб кетади. Демак:

$$Q_1 - Q_2 = A = A_1 - A_3 = RT_1 \ln \frac{V_2}{V_1} - RT_2 \ln \frac{V_3}{V_4} \quad (1.90)$$

13-расмда максимал ишнинг қиймати ABV, V<sub>1</sub> ва CDV, V<sub>3</sub> юзаларнинг айирмасига тенг бўлиб, ABCD юза билан ифодаланади.

Системанинг фойдали иш коэффициенти ( $\eta$ ) ишга айланган иссиқлик ( $Q_1 - Q_2 = A$ )нинг иситгичдан олинган иссиқлик ( $Q_1$ ) нисбатиган тенг:

$$\eta = \frac{Q_1 - Q_2}{Q_1} = \frac{A}{Q_1} = \frac{RT_1 \ln \frac{V_2}{V_1} - RT_2 \ln \frac{V_3}{V_4}}{RT_1 \ln \frac{V_2}{V_1}} = \frac{T_1 - T_2}{T_1} \quad (1.91)$$

Адиабатик жараёнлар натижасида ҳосил қилинган ва сарфланган ишлар қиймат жиҳатидан бир-бирига тенг, аммо ишора жиҳатидан бир-бирига қарама-қарши бўлганлиги учун, адиабатик жараёнда бажарилган бу ишлар қисқариб кетади ( $A_2 = C_V(T_1 - T_2)$  ва  $A_4 = -C_V(T_1 - T_2)$  бўлганлиги учун A, билан A<sub>4</sub> қисқаради).

Адиабаталарнинг бошланиши ( $V_2 - V_1$ ) ва тугаши ( $V_1 - V_4$ ) га Пуассон тенгламасини оралаб қуллаш натижасида:

$$T_1 \cdot V_2^{k-1} = T_2 \cdot V_1^{k-1} \quad (1.92) \text{ ҳамда } T_1 \cdot V_1^{k-1} = T_2 \cdot V_4^{k-1} \dots \quad (1.93)$$

ни ҳосил қиласиз. Тенглама (1.92) ни тенглама (3.93) га булиб к-1 даражали илдиздан чиқарсак:

$$\frac{V_2}{V_1} = \frac{V_3}{V_4} \quad (1.94)$$

ни ҳосил қиласиз; бундан ҳажмда (1.91) тенгламадан

$$\eta = \frac{T_1 - T_2}{T_1} \quad (1.95) \text{ келиб чиқади. (1.95) тенглама термодина-}$$

мика иккинчи қонунининг математик ифодасидир. Бундан келиб чиқалиган энг муҳим хулоса шуни, иссиқликнинг ишга айланишида 100% ли фойдали иш коэффициентига эришиш мумкин эмас, аммо совутгич билан иситгич ҳароратлари орасидаги фарқ катта булгани сари иссиқлик манбаидан фойдаланиш тўлароқ бўлади. Иссиқлик манбаидан фойдаланиш

ва уни ишга айлантириш фақат совутгич бўлган тақдирдаги на амалга ошади. Демак, биринчи тур абадий двигател қуриш мумкин булмаганидек, ўзининг ҳароратидан паст ҳароратга эга булган манбаъ ҳисобига ишлайдиган иккинчи хил абадий двигател ҳам қуриш мумкин эмас экан.

Мисол. Иссиклик машинанинг ичилда ёқилғининг максимал ёниш ҳарорати  $1800^{\circ}$  Сга teng. Машина цилиндрдан чиқадиган газларнинг минимал ҳарорати  $300^{\circ}$  С. Агар машина Карно цикли бўйича ишлайди деб фараз қилсак, унинг максимал фойдали иш коэффициенти топилсин.

Ечиш: Масалани ечиш учун формуладан фойдаланамиз:

$$T_1 = 1800 + 273 = 2073K; T_2 = 300 + 273 = 573K. \quad \text{Бундан:}$$

$$\eta = \frac{T_1 - T_2}{T_1} = \frac{2073 - 573}{2073} = \frac{1500}{2073} \cdot 100\% = 72.36\%.$$

Демак, ишлайдиган өулоди.

Табиатда содир буладиган купчилик жараёнлар қайтмас турда бўлгани учун бу жараёнларда иштирок қилган моддаларнинг энтропияси (агар табиат изолирланган система деб қаралса) энтропия борган сари ортиши керак.

Клаузиус бунга асосланиб, термодинамиканиң биринчи ва иккинчи қонунларини қўйидагича таърифлади:

1. Биринчи қонун—»Оlamning энергияси узгармасдир».
2. Иккинчи қонун—»Оlamning энтропияси доимо ортишга интилади».

Клаузиус иккинчи қонунни таърифлашда масаланинг фазқат бир томонинигина назарда тутган. У оламни изолирланган система деб қаради. Унинг фикрича, оламнинг энтропияси ортиб бориб, жуда узоқ вақт ўтгандан кейин, оламдаги барча жисмларнинг ҳароратлари бир-бирини кига тенглашиб қолади; шу пайтдан бошлаб оламда иссиқликнинг ишга айланни жараёни содир бўлмайди ва олам «иссиқлик ҳалокати»га учрайди; шундан кейин, табиатда барча ҳаёт тўхтаб қолали, деган қарорга келган.

Клаузиуснинг оламда «иссиқлик ҳалокати» булади деган холосасини жуда куп олимлар илмий жиҳатдан рад қилдилар. Бу ерда шу ҳолни назарда тутиш керакки, «иссиқлик ҳалокати» бўлиши керак, деган фикр термодинамика-

дан жараёнларнинг қайтмаслик мезони булиб, жисмнинг ёки системанинг энергиясини тарқалиш даражасини кўрсатдиган  $S$  катталиқдир.

Изотермик жараёнда жисмга ютилган иссиқликлар йиғиндинсизнинг жисм мутлоқ ҳароратига нисбати шу жисмнинг энтропияси деб аталади:

$$S = \frac{\sum Q}{T} \quad (1.96)$$

Агар система A ҳолатдан B ҳолатга ўтса, энтропиянинг ўзгариши.

$$S_B - S_A = \int \frac{dQ}{T} \quad (1.97)$$

ёки

$$S_B - S_A = n \int_{T_1}^{T_2} C_p \frac{dT}{T} \quad (1.98)$$

кетади ( $A_1 = C_p(T_2 - T_1)$  ва  $A_2 = -C_v(T_2 - T_1)$  бўлганлиги учун A, билан  $A_2$  қисқаради).

Адиабаталарнинг бошланиши ( $V_2 - V_1$ ) ва тугаши ( $V_1 - V_4$ ) га Пуассон тенгламасини оралаб қўллаш натижасида:

$$T_1 \cdot V_2^{k-1} = T_2 \cdot V_1^{k-1} \quad (1.92) \text{ ҳамда } T_1 \cdot V_1^{k-1} = T_2 \cdot V_4^{k-1} \dots \quad (1.93)$$

ни ҳосил қиласиз. Тенглама (1.92) ни тенглама (3.93) га бўлиб  $k-1$  даражали илдиздан чиқарсак:

$$\frac{V_2}{V_1} = \frac{V_4}{V_1} \quad (1.94)$$

ни ҳосил қиласиз; бундан ҳажмда (1.91) тенгламадан

$$\eta = \frac{T_1 - T_2}{T_1} \quad (1.95) \text{ келиб чиқади. (1.95) тенглама термодинамика иккинчи қонунининг математик ифодасидир. Бундан келиб чиқалиган энг муҳим ҳулоса шуни, иссиқликнин ишга айланишида 100% ли фойдали иш коэффициентига эришиш мумкин эмас, аммо совутгич билан иситгич ҳароратлари орасидаги фарқ катта бўлгани сари иссиқлик манбаидан фойдаланиш тўлароқ бўлади. Иссиқлик манбаидан фойдаланиш}$$

$Q=T S$  ифодаси билан белгиланади. Энтропия ана шу боғланган энергиянинг улчов бирлигидир. Содда қилиб айтганча  $1^{\circ}\text{C}$  га тўғри келган боғланган энергиянинг улчов бирлигидир. Шунинг учун энтропия кал/мол·град ёки жоул/мол·рад улчов бирлигига ҳисобланади.

Идеал қайтар жараёнда (Карно цикли каби) иштирок этган модданинг энтропияси узгармай қолади, чунки бу жараёнда модданинг иситгичдан олган иссиқлигининг иситгич мутлоқ ҳароратига булган нисбати ўша модданинг со-вутгичга берган иссиқлигининг совутгич мутлоқ ҳароратига булган нисбатига тенгdir:

$$\frac{Q_1}{T_1} = \frac{Q_2}{T_2} \quad (1.100)$$

Демак, қайтар жараёнда модда энтропиясининг узгириши  $\Delta S=0$  булади. Қайтмас жараёнларда модданинг энтропияси ортади; яъни  $\Delta S>0$  булади.

Табиатда содир буладиган купчилик жараёнлар қайтмас турда бўлгани учун бу жараёнларда иштирок қилган моддаларнинг энтропияси (агар табиат изолирланган система деб қаралса) энтропия борган сари ортиши керак.

Клаузиус бунга асосланиб, термодинамиканинг биринчи ва иккинчи қонуларини қўйидагича таърифлади:

1. Биринчи қонун—»Оlamning энергияси узгармасдир».
2. Иккинчи қонун—»Оlamning энтропияси доимо ортишга интилади».

Клаузиус иккинчи қонунни таърифлашда масаланинг фақат бир томонинигина назарда тутган. У оламни изолирланган система деб қаради. Унинг фикрича, оламнинг энтропияси ортиб бориб, жуда узоқ вақт ўтгандан кейин, оламдаги барча жисмларнинг ҳароратлари бир-бириникига тенглашиб қолади; шу пайтдан бошлаб оламда иссиқликнинг ишга айланиш жараёни содир булмайди ва олам «иссиқлик ҳалокати»га учрайди; шундан кейин, табиатда барча ҳаёт тухтаб қолади, деган қарорга келган.

Клаузиуснинг оламда «иссиқлик ҳалокати» бўлали деган холосасини жуда кўп олимлар илмий жиҳатдан рад қилдилар. Бу ерда шу ҳолни назарда тутиш керакки, «иссиқлик ҳалокати» бўлиши керак, деган фикр термодинамика-

нинг иккинчи қонунини нотўғри татбиқ этишдан келиб чиқади. Термодинамиканинг иккинчи қонунига биноан, қайтмас жараёнларда энтропиянинг ортиш тамойили фақат изолирланган системаларгагина оид бўлиб, изолирланмаган системалар учун татбиқ этилмайди, чунки олам изолирланган система эмас, у чексиз ва беспаёндир. Ундан ташқари, термодинамиканинг иккинчи қонуни статистик тавсифга эга бўлиб, у айни жараённинг содир бўлиш ёки содир булмаслик эҳтимоллигини кўрсатади.

Ҳозирги замон статистик термодинамиканинг маълумотларига кўра, энтропиянинг ортиш жараёнлари эҳтимоллиги энг кўп булган йўлларини кўрсатади. Демак, энтропияси ошиб борувчи ҳодисаларга қарама-қарши ҳодисаларнинг содир булиши ҳам эҳтимолдан ҳоли эмас.

Модда ҳолатининг содир бўлиши билан унинг энтропияси орасидаги боғланишни дастлаб Л.Больцман<sup>\*</sup> ўзининг иссиқлик флюктуацияси назариясида курсата олди.

Л.Больцман кўрсатишича, энтропия модда ҳолатлари эҳтимолликларининг логарифмига мутаносиб функциядир.

$$S = k \ln W \text{ ёки } S = R \ln W \quad (1.101) \quad (1 \text{ мол модда учун})$$

$$\text{Бунда } k = \frac{R}{N} = 1,38 \cdot 10^{-16} \text{ эрг/к}$$

W-ҳолатнинг термодинамик эҳтимоллиги, W ни айни системанинг микроҳолатлар сони деб ҳам аталади. У айни система макроҳолатини яратиш учун қанча имконият (микроҳолатлар) борлигини кўрсатади. Система эҳтимоллиги кичик ҳолатдан эҳтимоллиги каттароқ ҳолатга ўтганида унинг энтропияси ҳам ортади:  $\Delta S > 0$ . Энтропия ҳарорат ортиб бориши билан катталашиб боради, чунки ҳарорат ортганида модда заррачаларининг ҳаракати кучаяди, энтропия ҳам ортади.

Мутлоқ нулга яқинлашганда модданинг энтропияси нулга интилади. Бунинг асосида термодинамиканинг учинчи қонуни таърифланган.

\* Людвиг Больцман (1844-1906) Австриялъик физик.

Модданинг стандарт энтропияси ( $S_{298}^0$ ) деганда 1 мол айни модданинг стандарт ҳолат ( $t = 298^\circ\text{C}$  ва  $P = 101,328 \text{ kPa}$ ) даги энтропиясини тушунмоқ керак. Масалан, сувнинг стандарт энтропияси  $S_{298}^0 = 70,8 \text{ Дж/мол} \cdot \text{К}$ . Сув буғининг стандарт энтропияси  $S_{298}^0 = 188,72 \text{ Дж/мол} \cdot \text{К}$ . Энтропиянинг қийматлари қаттиқ жисмлар учун 40-60  $\text{Дж/(мол К)}$ , суюқлик ва газлар учун 60-380  $\text{Дж/(мол К)}$  атрофида бўлади. Масалан, олмоснинг мутлоқ энтропияси 2,4  $\text{Дж/(мол К)}$ га тенг. Бу қиймат олмос жуда қаттиқ ва жуда батартиб тузилишга эга бўлган жисм эканлигини курсатади.

Модданинг таркиби ва агрегат ҳолати ўзгаришига қараб кимёвий реакциянинг энтропияси ортиши, камайиши ва ўзгармай қолиши мумкин. Энтропия ҳеч қачон манфий қийматга эга бўлмайди.

### 5-§. Термодинамиканинг иккинчи қонуни ва тирик организмлар.

Термодинамиканинг иккинчи қонуни тажрибалар натижаларини умумлаштириш натижасида келиб чиқсан ва энтропия деб аталувчи функциянинг тахлил қилишини талаб қиласди. Ёпиқ системада (ҳарорат ҳамма нуқтада бирхил) бундай  $S$ -ҳолат функцияни аниқлаш мумкин. У барча қайтар жараёнлар учун  $ds = dQ/T$  қайтмас жараёнлар учун эса

$$ds > dQ/T \quad (1.102)$$

булади. (1.102) тенгсизликнинг чап ва ўнг томонлари фарқини иссиқликнинг ҳароратга нисбати деб қараш мумкин, яъни

$$ds - \frac{dQ}{T} = \frac{dQ^I}{T} \quad (1.103)$$

бу ерда  $dQ^I$ -компенсацияланмаган иссиқлик. Агар  $dQ^I = 0$  бўлса, жараён қайтар бўлиши лозим; акс ҳолда эса жараён қайтмас бўлади. Қайтар жараённи түрги ва тескари йўналишларда олиб бориш мумкин, бунда тескари жараёндаги барча ўзгарувчилар түрги жараёндаги кетма-кетликларнинг

барчасини тескари йұналишда қайтара борали. Бу вақтда тескари йұналишда үраб турған дүнө (мухит) билан модда, иссиқлик ва иш алмашинуви содир бўлади. Бу жараён кинотасмани навбатма-навбат одатдаги ва тескари тартибда айлантиргандаги манзарани эслатади. Реал шароитлардаги жараёнлар ҳамавақт у ёки бу даражада қайтар бўлади ва  $dQ'$  нулга интилганда юқоридаги қайтар жараён ҳақиқий жараёнларнинг фақатгина ниҳоясидан иборат булади.

И. Пригожин «компенсацияланмаган иссиқлик»ни нотуғри атама деб ҳисоблаб шундай таъкидлайди: компенсацияланмаган иссиқлик  $dQ'$  айни системанинг ичидаги кетадиган қайтмас жараёнлар туфайли вужудга келади, аслида  $dQ$  ташки муҳит билан энергия алмашишга тааллуғи. Системанинг энтропияси айни системани ташки дунё билан ажратиб турувчи чегара орқали ўтиши ва ички қайтмас жараёнлар ҳисобига ўзгариши мумкин десак.

$$dS = d_{\text{S}} + d_{\text{S}'} \quad (1.104)$$

деб ёзиш мумкин, бунда  $\epsilon$  индекси күчирилган энтропияга, і эса системанинг ўзида вужудга келган энтропияга тегишили. Компенсацияланмаган иссиқликнинг  $T$  га нисбати системада энтропия вужудга келиш қийматини беради. Изолирланган система учун  $d_{\text{S}'}$  нулга айланади, демак бундай системада энтропия фақат ортади.

Энди биологик объектларга ўтсак. Бунда маълум бир қийинчиликларга дуч келинади. Биологик системаларни тадқиқ қилишда системанинг чегарасини, яъни унинг «изолирланганлик» мезонини аниқлаш жуда жиддий масала ҳисобланади. Термодинамиканинг иккинчи қонуни изолирланган системалар учун қайтмас жараёнлар натижасида ортиб борувчи ҳолат функцияси-энтропия мавжудлигини кўрсатиб берали, аммо очиқ системалар учун бундай функциянинг мавжудлиги, демак, унинг қайтмас ўзгаришда ортиши қўшимча далиллар талаб қиласди. И. Пригожин катта система (II) ичидаги жойлашган қандайдир система (I) ни ва I ҳамда II қисмлардан иборат умумий системани куриб чиқиб қуйидаги тенгсизликни таклиф қиласди:  $d_{\text{S}_{\text{I}}} > 0$  ва  $d_{\text{S}_{\text{II}}} \geq 0$ , яъни I ва II қисмлар ичидаги ўзаро содир бўладиган қайтмас жараёнлар натижасида унинг энтропияси ортади деб тахмин қиласди. Биологик системаларни изолирланган деб қараш мумкин эмас. Биологик объектларда содир бўла-

диган жараёнлар очиқ системалар деб аталувчи системалар каторига киради. Бундай системаларда ташқи мұхит билан модда ҳамда энергия алмашинуви содир булиб тұради

Хаёт жараёнларининг асосий мезони биологик ва кимёвий очиқ системалар уртасындағы үзиге хос фарқлардир. Биологик системаларда үзини тиклай олиш, агроф мұхит билан алмашиныш ва үзаро мувофиқлашиш булади.

Тирик организмларда биоэнергетик жиҳатдан фақат әркін энергия ажамиятта зәға бўлиб, биокимёвий жараёнларда дастлабки моддаларда буладиган әркін энергиядан тўлиқ фойдаланилмайди, чунки унинг бир қисми янгидан ҳоси, буладиган бирикмаларда қолади.

Юқорида таъкидланғанидек биологик системаларни и золирланган эмас, балки очиқ системалар сифатида тахлил қилиш лозим. Хаёт шаклларини очиқ система сифатида тахлил қилиш эса организм ва мұхит нисбатига алоҳида өзтибор беришни тақозо қилади. Кейинги йилларда, яқингинада ҳаёлга ҳам келтириш мумкин бўлмаган, тирик организм ва ўлик материя орасындағи боғлиқлик ҳақида янгидан-янги далиллар очилмоқда.

Гравитацион майдон организмда кальшийли алмашув динамикасини белгилайди, магнит майдони эса шунчалик таъсир қиласы, инсонни Ернинг магнит майдонидан ажратиш (изолирлаш) қатор хасталиклар пайдо булишига сабаб булади. Күёшнинг мұтгадил (нормал) фаолиятининг бузилиши тиббиёт статистикасининг гувохлик беришича, юрак-томир хасталиклари ва қон ивиш системаси бошқарилишининг бузилиши ортиб кетишига ва ҳ.к.ларга сабаб бўлади.

Тирик организмлар табиатнинг барча асосий қонунларига бўйсинади. Уларга энергия бир турдан иккинчи турға утиш ва сақланиш қонуни ҳамда термодинамиканинг иккичи қонунини татбиқ қилиш мумкин. Ҳар қандай организм, хоҳ үсимлик, хоҳ ҳайвонот дунёси бўлсун, хаёт фаялияти жараёнида доимо агроф мұхит билан модда алмашиб тұради. У озуқа күринишида ҳар хил моддаларни истеъмол қиласы, уларни ўзлаштиради ва организми таркибиға киритади, сунгра диссимиляция жараёнида парчаланиб чиқынди маҳсулотлар сифатида ташқи мұхиттега чиқарыб таштайди. Күплаб тажрибалар бу жараёнларнинг материянинг сақла-